

83.3 (50)

5-16



TURKIY ADABIYOT  
DURDONALARI

O'ZBEK  
ZAMONAVIY  
SHE'RIYATI  
ANTOLOGIYASI

32

83.3(50)  
0-16



# O'ZBEK ZAMONAVIY SHE'RIYATI ANTOLOGIYASI



"O'ZBEKİSTON"  
TOSHKENT — 2022

UO'K 821.512.133.09-1

KBK 83.3(50')

O' 16

**Tahrir hay'ati:**

Xayriddin Sulton – hay'at raisi,  
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,  
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,  
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

**Ishchi guruhi:**

Ikrom Bo'ribo耶ev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,  
G'ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

**To'plovchi va nashrga tayyorlovchi**

**Muhammad Siddiq Rahmatov**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lamli, zalvarli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

## O'ZBEK ZAMONAVIY SHE'RIYATIGA CHIZGILAR

O'zbek zamonaviy she'riyatining yoshi endigina bir asni to'ldirgan bo'lsa-da, u juda boy mazmun, rang-barang shaklga ega. Chunki yangi she'riyatning ildizlari, bir tomondan, mumtoz Sharq nazmiga borib bog'lansa, boshqa tomondan, dunyo poeziyasidagi yashovchan tajribalardan suv ichadi.

O'zbek zamonaviy poeziyasi Turkistonda XIX yuzyillikning so'nggi choragida dunyoning nisbatan ilg'or o'lkalaridan esa boshlagan ilm-fan va texnikaga oid epkinlar ta'sirida mumtoz aruz vaznidagi qat'iy qonun-qoidalarning buzilishi (Muqimiylar, Furqat va boshq. ijodi) hamda XX asr boshlarida siyosiy-ijtimoiy hayotdagi azim evrilishlar natijasida jadidlar she'riyatida mazmun va shaklda uch bergen ulkan siljishlar bilan izohlanadi. Soddaroq aytganda, zamonaviy o'zbek she'riyati XX asrda mutlaqo yangilangan davr ruhini she'riyatga olib kirishdan boshlangan. Bu ruh she'riyatda shakl yangilanishini ham taqozo qilardiki, natijada aruzning yonida barmoq vazni o'zining turli-tuman shakkllari bilan tug'ildi, rivojlandi. Uning ta'mal toshini qo'yganlar Fitrat, Cho'lpon, Hamza, Botu, Elbek kabi shoirlardir.

O'zbek zamonaviy she'riyatining yuksalish davri XX asrga to'g'ri keladi. XX asr o'zbek she'riyatida g'oyaviy-estetik mavqe va poetik prinsiplardagi umumiyligiga ko'ra to'rtta adabiy avlodni ajratib ko'rsatish mumkin: jadid shoirlari (Fitrat, Hamza, Cho'lpon va boshq.), 20-yillar avlod (G.G'urom, Oybek, H.Olimjon, Shayxzoda, Mirtemir va boshq.), 60-yillar (E.Vohidov, J.Kamol, A.Oripov, R.Parfi va boshq.) va 70-yillar adabiy avlodlari (Sh.Rahmon, U.Asim, X.Davron va boshq.). Ayni shu avlodlar g'oyaviy-estetik mavqeyi va poetik prinsiplari jihatidan bir-birlaridan farqlanadi, xronologik jihatdan oradagi o'nyilliklarda adabiyotga kirgan ijodkorlar (masalan, Zulfiya 20-yillar avlodiga, A.Muxtor, Shuhrat, S.Zunnunova kabi shoirlar 60-yillar avlodiga) mazkur avlodlardan



UO'K 821.512.133.09-1

KBK 83.3(5O')

O' 16

### **Tahrir hay'ati:**

Xayriddin Sulton – hay'at raisi,  
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,  
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,  
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

### **Ishchi guruh:**

Ikrom Bo'riboev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,  
G'ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

### **To'plovchi va nashrga tayyorlovchi**

**Muhammad Siddiq Rahmatov**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu egzu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lamli, zalvarli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalarini, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.


Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

## O'ZBEK ZAMONAVIY SHE'RIYATIGA CHIZGILAR

O'zbek zamonaviy she'riyatining yoshi endigina bir asjni to'ldirgan bo'lsa-da, u juda boy mazmun, rang-barang shaklga ega. Chunki yangi she'riyatning ildizlari, bir tomondan, mumtoz Sharq nazmiga borib bog'lansa, boshqa tomondan, dunyo poeziyasidagi yashovchan tajribalardan suv ichadi.

O'zbek zamonaviy poeziysi Turkistonda XIX yuzyillikning so'nggi choragida dunyoning nisbatan ilg'or o'lkalaridan esa boshlagan ilm-fan va texnikaga oid epkinlar ta'sirida mumtoz aruz vaznidagi qat'iy qonun-qoidalarning buzilishi (Muqimiy, Furqat va boshq. ijodi) hamda XX asr boshlarida siyosiy-ijtimoiy hayotdagi azim evrilishlar natijasida jadidlar she'riyatida mazmun va shaklda uch bergen ulkan siljishlar bilan izohlanadi. Soddarooq aytganda, zamonaviy o'zbek she'riyati XX asrda mutlaqo yangilangan davr ruhini she'riyatga olib kirishdan boshlangan. Bu ruh she'riyatda shakl yangilanishini ham taqozo qilardiki, natijada aruzning yonida barmoq vazni o'zining turli-tuman shakllari bilan tug'ildi, rivojlandi. Uning ta'mal toshini qo'yanlar Fitrat, Cho'lpon, Hamza, Botu, Elbek kabi shoirlardir.

O'zbek zamonaviy she'riyatining yuksalish davri XX asrga to'g'ri keladi. XX asr o'zbek she'riyatida g'oyaviy-estetik mavqe va poetik prinsiplardagi umumiyligiga ko'ra to'rtta adabiy avlodni ajratib ko'rsatish mumkin: jadid shoirlari (Fitrat, Hamza, Cho'lpon va boshq.), 20-yillar avlod (G'.G'ulom, Oybek, H.Olimjon, Shayxzoda, Mirtemir va boshq.), 60-yillar (E.Vohidov, J.Kamol, A.Oripov, R.Parfi va boshq.) va 70-yillar adabiy avlodlari (Sh.Rahmon, U.Asim, X.Davron va boshq.). Ayni shu avlodlar g'oyaviy-estetik mavqeyi va poetik prinsiplari jihatidan bir-birlaridan farqlanadi, xronologik jihatdan oradagi o'nyilliklarda adabiyotga kirgan ijodkorlar (masalan, Zulfiya 20-yillar avlodiga, A.Muxtor, Shuhrat, S.Zunnunova kabi shoirlar 60-yillar avlodiga) mazkur avlodlardan



biriga yaqinlashadi yo qo'shilib ketadi. Endi Istiqlol davri o'zbek she'riyatiga kelsak, u ham yana bir yangilangan badiiy-estetik tafakkur mahsulidir. Bu davr she'riyati mumtoz she'riyat an'analarni yangilagan "XX asr o'zbek poeziyasi" deb atalgan poydevor ustiga qurildi. Istiqlol davrida zamonaviy o'zbek she'riyati o'zing navbatdagi bosqichiga qadam qo'ysi.

Yuqorida nomi zikr etilgan avlodlar vorisiylik qonuniyati asosida bir-biri bilan bog'liq va shu bog'liqlik asosida zamonaviy o'zbek she'riyatining yaxlit manzarasi hosil bo'ladi. Ayni chog'da, sanalgan har bir avlodning g'oyaviy-estetik prinsiplarini belgilagan konkret ijtimoiy-ruhiy omillar mavjud. Jumladan, ma'rifat, islohot va ozodlik g'oyalari bilan sug'orilgan ijtimoiy kayfiyat jadidlar avlodining; inqilob va sho'roning ilk yillardagi g'alabali (buning zamiridagi qurbanlar-u yo'qotishlardan qat'i nazar) yurishlari bilan bog'liq ijtimoiy kayfiyat 20-yillar avlodining; sotsializm g'oyasiga ishonchning tiriltirilishi bilan bog'liq ijtimoiy kayfiyat 60-yillar avlodining; g'oyaga ishonchning barbod bo'lishi va tub ijtimoiy o'zgarishlar (jumladan, istiqlol) zaruratinining his etilishi bilan bog'liq ijtimoiy kayfiyat 70-yillar avlodining g'oyaviy-estetik mavqeyini belgilagandir. Istiqlol davrida esa shoir mafkuraviy tushovlardan ozod bo'ldi. Endi she'r mavzusini shoirdan boshqa hech kim belgilab bermaydi: natijada ozod badiiy tafakkur she'riyatda turli xil tajribalar qilish imkonini yaratdi. Shuning uchun ham bugun o'zbek she'riyati g'oyat xilma-xil ko'rinishga ega. U qaysidir ma'nolarda "ko'ngil lirikasi"dir.

Biz Behbudiy yo Fitrat, Qodiriy, Hamza yo Cho'lpon haqida gapirganimizda shu narsani anglaymizki, ular butun bir millat oldiga davr qo'yan ulkan, kechiktirilmas muammolarni, avvalo, to'g'ri idrok etganlar, so'ngra asosiylarini muvaffaqiyatli hal qilganlar. Masalani jadid shoirlari ijodi misolida ko'rib chiqamiz: davr shunday ediki, xalq bir tomonidan ichdan yemirilgan, amirlik va xonliklar qaramog'ida ezilgan bo'lsa, ikkinchi tomonidan chor Rossiyasi bosqini alamini tortayotgandi. Ko'p o'tmay hokimiyat uchinchi bir yov — sho'rolar qo'liga o'tdi. Yurtning mustamlakachilik olov battar alangalandi. Demak, botinda ham, zohirda ham bitta zo'ru muammo, bitta ulkan dard paydo bo'ldi — Vatan ozodligi. Fitrat-u

Cho'lpot she'riyatining boshdan oxiriga qadar bir chiziq — ozodlik g'oyasi chizig'i uzilmay o'tdi. Xalq ham moddiy, ham ma'naviy qashshoq bo'lib, uni tubdan isloh qilishning asosiy yo'li ma'rifat edi. Shuning natijasi o'laroq jadid she'riyatida (Fitrat, Cho'lpot, Hamza, Avloniy) yana bir chiziq — xalqni ma'naviyatga, maorifga chorlov tug'ildi. Davr hayot-mamot darajasidagi siyosiy masalalarni hal qilayotgandi, she'riyat siyosiy she'riyat bo'lib jarangladi.

Totalitar tuzum tayanchi bo'lgan kommunistik mafkura yak-kahokim bo'lgan sharoit (sho'ro davri) da esa, she'riyat mafkura iskanjasida qoldi. Natijada to 50-yillar oxiriga qadar she'riyat mafkura va tuzumning himoyachisi, maddohi, targ'ibotchisi sifatida ya-shadi, she'riyatdan shaxs — "men" quvib chiqarilib, uning o'rnini mafkura nomidan so'zlovchi "biz" egalladi. Shu tariqa adabiyotga tabiatan xos ijtimoiylik badnom qilindi, ijtimoiy mavzudagi badiiy ijod tabiatiga zid mazkur holat 60-yillardan boshlabgina bartaraf etila bordi va qariyb istiqlolga qadar davom etdi.

50- va 60-yillarning o'italari o'zbek poeziyasida o'ziga xos turg'unlik davridir. To'g'ri, u to'xtab qolgani yo'q, hamma narsa haqida, barcha mavzularda qalam tebratgan. Lekin shoirning aytayotgan gapi aslida o'ziniki emasdi, ular sovet imperiyasining dunyo bo'ylab yuritayotgan siyosatining "soya"si edi. O'sha davrda bugungi shoirlarimizda ortig'i bilan mavjud bo'lgan subyektivizm deyarli mahv etilgan bo'lib, hammaning she'ri go'yo quyib qo'ygandek bir-biriga o'xshar, biri — ikkinchisini to'ldirib, uzviy davomini tashkil etardi. Albatta, ijodkor inson sifatida tirik edi va ahyon-ahyonda shoirning yon daftarida:

*Haqiqat soqovdir, zaifdir inson,  
Toshlar ham yig'laydi — sir to 'la osmon.  
Haqiqiy olam ne? Javob yo'q, hayhot!  
Faylasuf to 'qiydi hisobsiz yolg'on,*

deganga o'xhash she'rlar uchrab qolardiki, bu narsa ichki "men"ning hali ham tirik ekanligidan, u atrofda bo'layotgan yolg'onlarni ko'rib turganligidan va eng muhimi, unga ko'nikmaganidan darak berardi. Yo'q, albatta biz mustabid sovet tuzumida yashagan barcha shoirlar Oybekdek kayfiyatda bo'lgan, ichidagi

boshqa, tashidagi — yozganlari, aytganlari boshqa edi, deyish<sup>■</sup> dan tamoman uzoqmiz. Chunki vaqtida hatto Oybekdek shoirlar ham o‘z davri bilan hisoblashgan, unga sidqidildan ishonib, romanlar, dostonlar, she’rlar bitganlar. Ayni paytda, yuqorida- gi to‘rt qator she’rda aks etgan “boshqacha” kayfiyatlarga ham tushib turganlar.

Bu davr adabiyotining, xususan, she’riyatining yana bir o‘ziga xos xizmati shundan iboratki, u 60- va 70-yillar avlodini o‘z bag‘ri- da ko‘tarib yurib, voyaga yetkazgan. Ha, u she’riyatimizning za- bardast avlodiga homilador bo‘lgandi. Buyuk xizmat edi bu! Chunki E. Vohidov, A. Oripov, R. Parfi, O. Matchon, J. Kamol kabi 60-, Sh. Rahmon, U.Azim, X. Davron, H. Xudoyberdiyeva kabi 70-yillar avlodni chindan ham bir necha o‘n yillik sukunatdan so‘ng o‘zbek poeziyasida sodir bo‘lgan ulkan voqeа edi.

Nihoyat, davrlar almashdi va E. Vohidov, A. Oripov, R. Parfi kabi yirik shoirlar o‘zbek she’riyatini bir titratib kirib keldilar. Ular rusning ulkan shoirlari A.Voznesenskiy va E.Yevtushenko, qozoq shoiri O.Sulaymonov, avar shoiri R.Hamzatov qatori va ularga izma-iz ravishda insonga tuzumning bitta kerakli bolti yoki bosh- qa ehtiyoj qismi o‘laroq emas, balki, avvalo, inson sifatida qaray bildilar. Ajab, shundan keyin sovet davlatida, sotsialistik tuzumda ham o‘lim borligi, qayg‘u-alam mavjudligi, hokimiyat o‘z fuqaro- si boshini qanchalik silab-o‘rgilmasin, baribir, musibat goho har kimni ham o‘z qa‘riga tortishi ochiq-oshkora ma’lum bo‘lib qoldi. Albatta, bular oldin ham sir emas edi. Biroq adabiyot va san’at ular- ga deyarli to‘xtalmas, to‘xtalsa-da, balandparvozlik bilan e’tiborni chetga burib, o‘quvchini chalg‘itardi. Endi esa 60-yillar shoiri o‘quvchini ana o‘sha o‘lim bilan, qayg‘u bilan, miskinlik bilan, yig‘i bilan dunyoning arzimasligi-yu o‘tkinchiligi bilan va hokazo ko‘pgina shundoq yon-atrofda-yu, lekin yurak yutib aytish mush- kul bo‘lgan haqiqatlari bilan yuzma-yuz, yolg‘iz qoldirdi. Shunda o‘quvchi san’atga, adabiyotga, she’riyatga ishona boshladi, uni o‘z mahbubasidek sevdi, alqadi, kunduzlari qo‘lidan qo‘ymadi, ke- chalari yostig‘ining tagiga yashirdi. Chunki mo‘jazgina to‘rt qator she’rda yoki shapaloqdek she’riy kitobchada hayotning o‘zidan ko‘ra ko‘proq hayot bor edi o‘sha paytlarda. Ha, 60-yillar oxiri va

70-yillar boshida xalqning ko‘nglidagini topib aytgan shoir salkam payg‘ambardek mo‘tabar, nondek aziz edi odamlar uchun...

70-yillarning shoirlar avlodi ham o‘z gardanida ana shunday ijodkor baxtini tatib ko‘rdi. Endi bu avlod 60-yillar avlodi an’analarni ham davom ettirib, ham qisman ulardan farq qilib, poetik urg‘uni ijtimoiy adolat masalalariga berdi. Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Xurshid Davron va ularning boshqa safdoshlari she’riyatni ba’zan hatto mamlakatda adolat uchun kurash maydoniga ham aylantirib yubordilar. Adolat uchun kurash, adolatparvarlik, nihoyat, ular she’rlarida mavjud mustabid tuzumga avvalo ishora, so‘ngra norozilik, pirovardida esa unga qarshi kurashga chorlashgacha o‘sib bordi. Shunda asr boshida Cho‘lpon-u Oybek she’riyatida muvaffaqiyat bilan qo‘llangan, keyinchalik sekin-sekin unutilayozgan ifoda usuli — simvolizm, kuchli obrazlilik yana yordamga keldi.

Ayni paytda, 70-yillar avlodi she’riyatida ijtimoiy ruh ba’zan haddan ziyod quyuqlashib ketadiki, bir bet-ikki betlik maqolada yoki boshqa publitsistik janrda ifoda qilinishi mumkin bo‘lgan qarashlarni ham badiiyatga aylantirishga qaratilgan muvaffaqiyatsiz urinishlar yaqqol seziladi.

80-yillar she’riyatida mamlakatda ro‘y bergen liberal kayfiyat tufayli yalang‘ochlik, badiiyatsiz pand-nasihat, quruq chaqiriqlar, yozg‘irishlar kuchaygan edi. Bir so‘z bilan aytganda, she’riyatni publitsistika deyarli mahv etayozgandi. Ayni chog‘da, ta’kidlab aytish joizki, bu o‘n yillik ijtimoiy-siyosiy jihatdan turli burilishlarga — ko‘tarilib-tushishlarga boy bo‘lganidek, adabiyotda ham xilma-xil ruh — kayfiyat hukm surdi. Xususan, tasavvuf ohanglarining kirib kelishi (A. Qutbiddin, H. Ahmedova va boshq.) va umuman, bir yonda otashin chaqiriqlarga to‘la she’riyat, ikkinchi yonda esa, dunyoning o‘tkinchi hoy-u havasidan go‘yoki qo‘lini yuvib qo‘ltig‘iga urgan hamda urfoniy ma’rifatga intilgan she’riyat paydo bo‘ldi. Bu qisman shoirning o‘z yuragiga — mangu haqiqatlarga qaytishi bilan izohlanardi. Aynan shu xil she’riyat Mustaqillik davri she’riyatiga zamin hozirladi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki Istiqlol davri adabiyoti, xususan, she’riyatida subyektivizm bo‘rtib turadi. Albatta, bu davr poeziyasida ham salaf davrlarda

bo‘lganidek, turli xil mavzular tasviri, bayoni uchraydi. Jumladan, o‘tmishdagи buyuk bobolar haqqiga yozilgan, ular alqanib yoki Istiqlol, Vatan, milliy g‘urur madh etib bitilgan she’rlar talaygina.

Istiqlol davrida ham she’riyat hamma mavzularni tarannum etdi. Lekin u g‘oyadan, g‘oyaparastlikdan ancha uzoqlashdi. Bungacha g‘oya o‘zbek sovet she’riyatining (butun san’atda bo‘lgani kabi) bosh a’moli edi. Istiqlol davrida poeziyada g‘oyaparastlik o‘z kuchini yo‘qotdi. She’riyat hukmron g‘oyadan — yagona yetakchi mafkuradan chekindi. Shu bilan birga, g‘oyasizlikning o‘zi go‘yo g‘oyaparastlikka aylandi. Bu juda muhim faktor. Chunki u shu davr she’riyatining asosiy xususiyatlaridan biri. Xo‘s, nega bunday bo‘ldi? Sababi, butun san’at, jumladan, she’riyat qariyb yetmish yildan beri har xil daraja va shakllarda zimdan intilib kelgan asosiy mavzu — Istiqlol, yurt ozodligi, millat g‘ururining tiklanishi singari muammolarning barcha-barchasi Vatanning mustaqillikka erishuvi bilan ijobjiy hal etilgan edi. Bu mamlakat uchun olamshumul hodisa, bitmas-tuganmas quvonch edi, lekin adabiyot-san’at bir muddat o‘zini yo‘qotib qo‘ydi. Chunki u xalqning ozodligi, yurtning istiqloli kabi asriy mavzusini kuylashdan ozod etilgandi. Lekin uzoqqa cho‘zilmagan taradduddan so‘ng she’riyat (shoir) o‘z nigohini tashqaridagi muammolardan olib, ichkariga — botinga qaratdi. Natijada, o‘zbek poeziyasi yangi o‘zanga tushib oldi. A.Mahkam, E.Shukur, B.Ro‘zimuhammad, M.Yusuf, A.Qutbiddin, Faxriyor, S.Ashur, Q.Norqobil, G’.Mirzo, V.Fayzullo, A.Said, R. Musurmon, Z.Mirzo, H.Ahmedova, X.Rustamova, G.Begim kabi shoirlar ijodida ro‘y bergen rang-baranglik aynan o‘sha huquqlarning mevasidir. Chunonchi, B.Ro‘zimuhammad she’rlarida vatandoshni biron-bir buyuk ishga da’vat qiladigan hech qanaqa otashin chaqiriq yo‘q, hatto pichoqqa ilingulik biron ijtimoiy g‘oyaning o‘zi ham ko‘zga tashlanmaydi. Lekin bu she’riyat baribir biz haqimizda, inson haqida, uning tubsiz ko‘nglining adoqsiz sir-u sinoati haqida. Ayni paytda, Istiqlol davri she’riyati faqat ko‘ngilning intim kechinmalarini kuylash bilan chegaralanib qolgani ham yo‘q. A.Oripov, M.Toir, S.Sayyid, I.Mirzo, M.Mirzo kabi o‘nlab shoirlar ijodida ona-Vatan, o‘tib ketgan ulug‘ bobokalonlar, milliy g‘urur, urf-odat madhi, o‘zbekning hech kimdan kam

emasligi kabi mavzular ancha baland pardalarda tarannum etildi. Bu davrda juda faol bo‘imasalar-da, E.Vohidov, O.Matjon, R.Parfi kabi yetakchi shoirlar ham o‘z kayfiyatlarini she’rga solib turdilar. Matnazar Abdulhakim, Yo‘ldosh Eshbek, Ikrom Otamurod, Usmon Qo‘chqor, Shukur Qurbon, Abdumajid Azim, Avliyoxon Eshon, A’zam O‘ktam, Karim Bahriyev, Odil Ikrom, Farida Afro‘z, Nodira Afoqova, Mash’al Xushvaqt, Rahimjon Rahmat, Rustam Musurmon, Amir Xudoyberdi, Munavvara Qurbonboyeva, Munavvara Usmonova, Dilorom Ergasheva, Gulandom Tog‘ayeva, Alisher Nazar, Shodmonqul Salom, Ikrom Iskandar, Nodir Jonuzoq, G‘ayrat Majid, Muazzam Ibrohimova, Shoira Shams, Bobur Elmurod, Guljamol Asqarova, Gulnoz Mo‘minova, Adiba Umirova, Shodi Otamurod, Oydinniso, Dilfuza Komil, Samariddin Sayidzod, Behzod Fazliddin, Sanobar Mehmonova, Umid Ali, Muhammad Siddiq Rahmatov, Muhiddin Abdusamad, Dilmurod Do‘s, Mehri noz Abbasova, Muslimbek Musallamov, yaqin yillardan beri esa, Husan Maqsud, Xurshid Abdurashid, Rafiq O‘zturk, Jontemir, Shahriyor Shavkat, Muhammad Siddiq, Tillaniso kabi shoirlar o‘z bitiklarida yangi davr kayfiyatini yaqqol ifoda qildilar, qilmoqdalar.

Istiqlol davri nazmi borasida so‘z yuritganimizda keyingi 25-30 yil mobaynida tobora o‘z muxlislari mehrini qozonib borayotgan modernistik she’riyat ustida ham to‘xtalmak joiz. Chunki XX asr avvalidan beri she’riyatimiz, asosan, barmoq vazni hamda qisman aruzda o‘zini namoyon etib kelgan edi. 70-80- va ayniqsa, 90- va 2000-yillarda an’anaviy poeziyadan ham ifoda usuliga ko‘ra, ham mazmun-mohiyatiga ko‘ra yetarlichcha farqlanib turuvchi she’riy yo‘nalish paydo bo‘lib, o‘z o‘rniga ega chiqib ulgurdi. Aslida, bunday she’rlar Cho‘lponda, keyinroq Asqad Muxtor, Rauf Parfi va 70-yillar avlodi shoirlari ijodida ham mavjud edi. Biroq shakllangan yo‘nalish sifatida u 90- va 2000-yillarda o‘zini ko‘rsatdi. Bu borada T.Ali, B.Ro‘zimuhammad, M.G‘affor, A.Said, Faxriyor, G.Begim, Sh.Subhon izlanishlari e’tiborga molik.

O‘quvchining bir narsaga alohida e’tibor berishini xohlar edik. Vaqtida vulgar sotsiologizm tarafidlari shoirni o‘z intim kechinmalarini qog‘ozga tushirgani uchun mavjud tuzumning “shonli”

yurishlarini ko‘ra olmaganlikda, o‘z qobig‘iga o‘ralashib qolganlikda ayplashgan va natijada shoirlar turli xil qiynoqlarga, surgunlarga, hatto qatllarga giriftor etilganlar. Bugun har qanday ijodkor o‘zi istagancha ko‘ngil dunyosiga g‘arq bo‘lib, eng intim kechinmalarini to‘yib-to‘yib ifoda etishi mumkin. Biroq eski, qariyb yetmis yil hukm surgan tuzum siyosati hamisha tushovlab kelgan subyektivizm, intim tuyg‘ular endi o‘zini tamoman “qo‘yib yuborgan”ligidan me’yordan oshgan holatlarga ham duch kehayapmiz. Albatta, hammasi tushunarli: necha o‘n yillar davomida tizginlanib kelingan tuyg‘ular imkon topilishi bilan to‘lib-toshib o‘zligini namoyon qilmoqda. Shu bilan birga, o‘zga bir haqiqatdan ham ko‘z yummaslik kerakki, ko‘ngilning izhori judayam shaxsiylashib, judayam maydalashib bormoqda. Ko‘pincha she’rda ifoda qilinayotgan tuyg‘u, kechinma, fikr yoki birvarakayiga hammasining ishtiroki faqat muallifning o‘zagagina tegishli, ungagina qiziq, ungagina qadrli bo‘lib qolmoqda. Ularning salmog‘i, ko‘lami, darajasi o‘quvchining ko‘ngil torlarini chertishga qodir chiqolmayotir. Chunonchi, shoир sevgi haqida yozadimi yoki uning bekatlari visol, hijron, yolg‘izlik haqidami yoki do‘sning diydori, turli xil maishiy, ishqiy muammolaridan nolib, Yaratganga iltijo qiladimi yoki undan noliydimi, baribir, hammasining mohiyati bir, u ham bo‘lsa, dunyoga kelib ketayotgan har qanday mavjudotga xos bo‘lgan oddiy jinsiy-jismoniy mayllarning she’r shaklidagi ifodasi bo‘lib qolayotir. Boshqacha aytganda, ularning aksariyatida sehr, o‘zgachalik, balandlik va eng muhimi, ko‘ngildan ko‘ngilga elektr tokidek ulashib ketadigan, ularni yakdil, yakqismat qiladigan yusak ruhiy-ma’naviy atmosfera yetaricha ko‘zga tashlanmaydi. Hatto iztiroblar ham anchayin yuzaki va yuksiz bo‘lganidan o‘quvchi qalbini larzaga solib, shoир va u o‘rtasiga ko‘prik tashlolmaydi. Albatta, bu aytilganlar Istqilol davri she’riyatining bittagina qirrasi, xolos. Zero, u ko‘pqirrali bo‘lib, bitiklarida sog‘lom ruh ufurib turgan shoirlarimiz ham talaygina.

Xullas, Istiqlol davrida yangicha yo‘sinalar keldi, eskichasi bor edi, natijada sinkretik shakldagisi tug‘ildi. Jahon adabiyotida janrlar mutatsiyasi ro‘y berayotgani kabi, she’r shaklida ham qorishiq ifodalarni tez-tez uchratish mumkin bo‘lib qoldi. Kuzatishlar

shuni ko'rsatmoqdaki, Istiqlol davri o'zbek she'riyati ifoda usuliga ko'ra, asosan, besh xil ko'rinishga egadir: 1.An'anaviy barmoq. 2. Xalqona ohang. 3. Aruz. 4. Modernistik ifoda usuli. 5. Sinkretik (qorishiq) ifoda usuli.

Albatta, bunday tasniflashning qayeridadir bahstalab o'rirlari, mulohazali joylari bo'lishi mumkin. Lekin, muhim, zamonaviy o'zbek she'riyati bu — yomg'irdan so'ng potrab o'sib chiqqan qo'ziqorin emas, aksincha, asrlar davomida tinimsiz o'zgarib-yangilanib kelayotgan o'lmas jarayonning qonuniy bir uzvi bo'lib, o'zida juda katta va ko'pdan ko'p tajribalarini jamlagan g'oyat murakkab, bebafo san'atimizning bir bo'lagidir. U shunisi bilan o'zidan avvalgi barcha davrlarga ham o'xshaydi, ham o'xshamaydi. O'xhash jihat — o'sha davrlar she'riyatidan o'sib chiqqan, binobarin, ularning eng yashovchan unsurlarini o'ziga meros qilib olgan. Farqli jihat — yangilangan davr ruhini jahon she'riyati tajribalaridan faol istifoda etgan holda ohorli shakllarda izhor qila boshladi. Shuning uchun u turfa ko'rinishga ega. Bas, shunday ekan, zamonaviy o'zbek she'riyati turli xil did egalarining badiiy-estetik chanqog'ini qondira oladi, deya umid bildiramiz.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, XX asr to'lig'icha va XXI yuz yillikning ilk choragi xalqimiz hayotida ulkan o'zgarishlar, avvalgi asrlarga qiyosan olib qaraganda, bemisl taraqqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy sohalarning barida ulkan yutuqlar davri bo'ldi. Albatta, nazar solganda, yo'qotishlarimiz salmog'i ham aslo kam emas, lekin ularning nisbati ham yutuqlarga mutanosib belgilangan ko'rindi. Xuddi shu gapni adabiyot, xususan, zamonaviy o'zbek she'riyatiga nisbatan ham bemalol aytishimiz mumkin. Eski va yangi asrlar davomida she'riyatimizda ham ko'tarilish va pasa-yish, rivojlanish vadepsinish davrlari bo'ldi. Biroq nima bo'lganda ham, XX asr boshlarida o'z taraqqiyotining sifat jihatidan yangi bir bosqichiga kirgan she'riyatimiz bugungi kunga qadar mazmun-mohiyati-yu, shakl-qiyofasini yangilab kelayotir. Zero, she'riyat bir paytning o'zida ham inson qalbi orqali akslangan davr, ham o'sha davr insoni qalb suratidir.

**Ulug'bek Hamdam,**  
*filologiya fanlari doktori, professor*

## ABDURAUF FITRAT

(1886–1938)

*Abdurauf Abdurahim o‘g‘li Fitrat — 1886-yil Buxoroda zi-yoli oilasida tug‘ildi. 1909–1913-yillarda adib Turkiyada, Istanbul dorilfununida tahsil oladi. U yerda zamondoshlari bilan birgalikda “Buxoro ta’limi (umumiyl) maorif jamiyati” ni tuzadi. Fitrat 1919–20-yillarda Afg‘oniston hukumatining Toshkentdag‘i vakolatxonasida tarjimon, “Turon”, “Buxoroyi sharif”, “Oina” kabi ko‘pgina gazeta va jurnallarni tashkil etishda bosh-qosh bo‘ldi. Turkistonda til, adabiyot, san‘at masalalari bilan ilk bor tashkiliy ravishda shug‘ullangan “Chig‘atoy gurungi” tashkilotiga rahbarlik qildi, Buxoro xalq Respublikasining bir qator rahbar lavozimlarida ishladi. Buxoro amiriga berilgan ultimatum ham uning qalami bilan yozildi. 1923–1924-yillarda Fitrat ma‘lum muddat Leningradda, so‘ngra Moskvada yashadi. Unga o‘zbek zi-yolilari ichida birinchilardan bo‘lib professor ilmiy unvoni berildi. Adib ilk aspirantlarga rahbarlik qildi, Buxoroda musiqa maktabi ochdi. O‘smyrlilik yillari u Mijmar (“Cho‘g‘don”) taxallusi bilan, so‘ngra Fitrat (“Tug‘ma iste’dod”) taxallusi bilan ijod qildi. Fitratning “Muxtasar islom tarixi” (1915), “Ro‘zalar”, “Shaytonning tangriga isyoni” (1924), “Qiyomat” kabi asarlari diniy mavzuda yozilgan.*

*Qomusiy bilim va badiiy iste’dod egasi bo‘lgan Fitrat 1938-yil 4-oktabrda otib tashlangan.*

## KIM DEYAY SENI?

Oppog‘im, Xudo asrag‘ay seni,  
Ko‘z balosidan saqlag‘ay seni.  
Sen jahonning eng nozaninisen,  
Qayg‘ularg‘a hech solmag‘ay seni.

Qip-qizil gulim, yop-yorug‘ oyim,  
Ketmay tur biroz, men ko‘ray seni.  
Dardli jonimning sen davosimi?  
Mungli ko‘nglumning podshosimi?

Gulmi sen, qo‘zim, jonmi sen, qo‘zim,  
Ko‘nglumning buti yo Xudosimi?  
Bilmadim, gulim, ayt, o‘zung kulub —  
Oshig‘ing nechuk atag‘ay seni?

## ACHCHIG‘LANMA, DEGAN EDING

(Umidsizlik xanjari bilan yaralang‘an  
bir yurakning eng so‘nggi armug‘oni)

Erka malak, achchig‘lanmam senga,  
Uchirsang-da ko‘kka yurak kulin.  
Achchig‘lanmam senga, nozli quyosh,  
Yondirsang-da umidimning gulin.  
Borsun, yonsun umidimning guli,  
Ko‘kka uchsun yuragimning kuli.  
So‘lsun ruhim, borlig‘im-da bitsun.  
O‘ksuz<sup>\*1</sup> ko‘zning yoshi kabi ishqim  
Tuproq uzra to‘kulsun-da, ketsun  
Tilaklarim, armonlarim, she’rim.  
Ko‘milsunlar, kerakmaslar menga,  
“Hayot” degan kirli qopqon borsun,  
Parchalansun, bitsun, yo‘qolsun.  
Biroq, sen... kim, xayolingg‘a ruhim  
Tolpinadir — yasha,  
bor bo‘l, yo‘l tutash.

---

<sup>1</sup> O‘ksuz — yetim.

## MIRRIX YULDUZI<sup>1</sup>GA

Go‘zal yulduz, yerimizning eng qadrli tuvg‘ani!  
Nega bizdan qochub mucha uzoqlarg‘a tushubsan,  
Tuvg‘aningg‘a nechun sira gapurmasdan turubsan?  
So‘yla, yulduz, holing nadir?

Nechuk topding dunyoni?  
Bizning yerda bo‘lib turg‘an tubanliklar, xo‘rliklar,  
So‘yla, yulduz, sening daxi quchog‘ingda bo‘lurmi?

Bormi senda bizim kabi insonlar,  
Ikki yuzli ishbuzarlar, shaytonlar.  
O‘rtoq qonin qonmay ichkan zuluklar,  
Qardosh etin to‘ymay yegan qoplonlar?  
Bormi senda, o‘ksuk yo‘qsulning qonin  
Gurunglashib chog‘ir kabi ichkanlar?  
Bormi senda butun dunyo tuzugin  
O‘z qopchug‘in to‘ldirg‘ali buzg‘anlar.  
Bormi senda bir o‘lkani yondurub,  
O‘z qozonin qaynatg‘uchi xoqonlar.

Bormi senda qorun-qursoq yo‘lida  
Elin, yurtin, borin-yo‘g‘in sotqonlar?

## ISHQIMNING TARIXI

(...ga)

Ko‘b kunlar sendan uzoqda men yolg‘uz o‘rtana qoldim,  
Yog‘dirdim ikki ko‘zimdan yomg‘urdek qonli olovlar.  
Yonmishdi ko‘nglim o‘ti-la tek sendan o‘zga tilavlar,  
Ishqingning qayg‘ularini jon yanglig‘ bag‘rima soldim...  
Lekin sen, ay, yuragimning birdan bir sevgili yori,  
Ko‘rkamlik bog‘chalarinda sezmasdan qayg‘ularimni  
bulbuldek sayrab ucharding.

---

<sup>1</sup> Mirrix yulduzi — Mars sayyorasi.

NEGA BO'YLA?<sup>2</sup>

Sen kelgach,  
She'rim uchun  
Qizil gullar to'shalgan,  
Yulduzlar-la bezalgan  
Eng keng bir yo'l ochildi.

Sen kelgach,  
Ko‘nglumni  
Qayg‘ular-la, motamlar-la o‘rangan  
Qora, qalin pardalar  
Yirtildi.

Sen kelgach,  
Xayolim  
Umid, armon chechaklari ochilgan  
Uchmox kabi bog‘chalarda bulbuldek  
Sayrab yurdi.

<sup>1</sup> **Yonoshding** — yondashding, yaqinlashding.

<sup>2</sup> Nega bo'yla? — nega bunday?

Biroq sen  
Ishqingdan  
Kecha-kunduz yonib turg‘an ko‘nglimning  
Dardini  
Hech sezmasdan kula-kula turar-da,  
Yonar butun borlig‘im... Nega bo‘yla?

1920-yil 14-mart

## ELBEK

(1898–1939)


*Elbek (Yunusov Mashriq) 1898-yilda Bo'stonliq tumani Xumson qishlog'ida tug'ilgan. Shoirning ilk to'plami "Armug'on" 1921-yili nashr etilgan. U qator she'riy to'plamlar yaratibgina qolmay, o'nlab dostonlar ham yozgan. Uning "Go'zal qiz" (1927), "Bizniki", "Paxta" (1929), "O'tmishim" (1929), "Chirchiq" (1929), "Batrak kolxozi" (1930), "Tozagul" (1934), "O'zbekiston" (1934), "Bog'bon" (1935), "Etik" (1935), "Mergan" (1935) asarlari shular jumlasidandir.*

*Elbek — bolalar shoiri sifatida ham ancha barakali ijod qildi. U o'sha "Armug'on" to'plamidagi bir qator she'rlari qatori "G'unchalar", "Chirchiq bo'ylarida" hamda "Kambag'al yigit va pardasturxon", "Omonat", "Erksiz polchi", "Ona", "Bolalar qo'shig'i" kabi bir qator she'rlar, dostonlar, ballada va ertaklar yozdi.*

*Shuningdek, adib "Yozuv yo'llari", "O'rnak", "Boshlang'ich maktab ona tili", "Go'zal yozg'ichlar" (1934) kabi qator darslik va qo'llanmalar muallifi sifatida ham ma'lumdir.*

*Elbek hikoyanavis sifatida ham adabiyotimiz tarixida iz qoldirgan. Uning "Dadamat" (1936) to'plamiga kirgan "Chirchiq", "Men kim bo'laman", "Ana", "Anorgul", "Qahhorxo'ja", "Dadamat" kabi hikoyalari adibning durustgina nosir ham bo'lganligidan dalolat beradi.*

*Elbek bor-yo'g'i qirq yil yashadi. U ham 1937-yilda "xalq dushmani" sifatida qamoqqa olingan va Magadandagi lagerlarning birida 1939-yil vafot etgan.*



## MUJDALAR

Yel kezar, yellar kezar, yellar kezar,  
El sezar, ellar sezar, ellar sezar.  
Ko‘rkli dengiz suvini har yon urar,  
Kayflanar, lazzatlanar, davron surar.  
Yel kezar, yellar kezar, yellar kezar,  
El kezar, ellar kezar, ellar kezar  
Kuchli. Tog‘lar yo‘lni bog‘lar, gerdayar,  
Yel ularga qo‘lni chog‘lar, erdayar.  
Toshqin o‘lmoq, intiqom etmak istagan  
Tog‘lar ortiq tortisholmas, jim qolar.  
Na’ra tortib yel-da, ketmak istagan  
Yoqlariga g‘olibona ot solar...  
G‘amli yelda, tutqun elda bandilar  
Qop-qorong‘u zindon ichra termilar.  
Yel esar, unlar sari yo‘rtar, yellar,  
Eltmak istab erkin eldan mujdalar.  
To‘xtamas tun-kun yurar, seldek toshar,  
Hovliqar, tog‘lar oshar, suvlar oshar!  
Yel kezar, yellar kezar, yellar kezar,  
El sezar, ellar sezar, ellar sezar.

## SAHRODA

Yulduzlar ko‘kda porlar,  
Sahro jimgina uxlар.  
Tevalar sekin-sekin  
Ko‘lkadek olg‘a bosar.  
Tarqalar qo‘ng‘iroqdan  
Bir tovush umid to‘la.  
Aks etib kirib uzoqdan,  
Derki: “naridan so‘ra!”  
Ko‘p yo‘llar ortda qoldi,  
Ketish, surulish yana.

Meni kim yo‘lg‘a soldi?  
Intilish bor ko‘ngilda.  
Charchamaydi tevalar,  
Yo‘qmidi yo‘l so‘ng boshi.  
So‘ylar allanimalar  
Yulduzlarning qaroshi.

## KECHQURUN

Quyosh sekin bekindi  
Qarshimdag‘i tog‘larda.  
Borliqni ko‘zi tindi  
Yolg‘iz dam shu chog‘larda.  
Qir tumon-la burundi —  
Tog‘dan tushdi suruvsalar.  
O‘ynoq qizdek burilib  
Oqardi pastda suvlar.  
So‘nga ko‘kni yoritib  
Chiqdi soriq bir chechak.  
Oqshom ko‘nglin ovutib,  
Allalardi sharsharak.

## KO‘KLAM CHOG‘IDA YAPROQLAR

Ko‘kargan yaproqlar og‘ochlar uzra  
Jilmayib, quvonib yayrab tururlar.  
To‘xtovsiz eskuvchi — kuchli shamollar  
Bularni ayashib, sekin ururlar.  
Og‘ochlar yam-yashil yaproqlar ichra  
Ko‘milib, jimgina pusib o‘ltirar:  
Ko‘klamning yomg‘uri yoqqach bularga,  
Ko‘zlardan oqquvchi yoshday miltirar.  
Kim bilur, bu yoshlari balkim chindanam

Og‘ochlar ko‘zidan chiqib tomadir:  
Ko‘klamning bu erkin mazgillarini  
Doimiy emasin yaxshi biladir...  
Kuzning u qop-qora, sovuq tuslari  
Balkim og‘ochlara yomon ko‘rinar.  
“Koshki ko‘rmasaydik!” — deb shu kunlarni,  
Boyoqish yaproqlar g‘amdan sarg‘ayar.  
Qayg‘urmoq yarashmas, bo‘shdir qayg‘urmoq!  
“Ko‘klam bir kelmas”, ey go‘zal yaproq.

## BOTU

(1904–1938)

*Botu (Mahmud Hodiyev) 1904-yil 15-mayda Toshkent shahrida tug‘ilgan. Rus-tuzem maktabi (1914–17), Moskva davlat universitetining iqtisod fakultetida o‘qigan (1921–27). “Umid uch-qunlari” (1925) va “To‘lqin tovushlari” (1929) to‘plamlari nashr etilgan. “Yangi qishloq” (1928), “Hoshimjon”, “Hayit xarom bo‘ldi”, “Tursun” (1929), shuningdek, bolalarga bag‘ishlangan hikoyalari (“Bolalar yolg‘oni”, “Mening kitobim” va boshqa)da yangi ijtimoiy munosabatlar hamda bolalar dunyosi ruhiyati tas-virlangan.*

*1930-yili qamoqqa olinib, Solovki orollariga surgun qilingan. 1938-yil 9-mayda Moskvada xalq dushmani sifatida nohaq ayblanib, otib tashlangan.*

## YOZ KUNI

Qish kuni o‘tib, yoz kuni keldi,  
Yer yuzin olgan qorlar tugaldi.  
Har kim egnidan paxtalik tushgan,  
Yupqa kiyimlar, boqing, kiyilgan.  
Chechak ochildi bog‘larda bu kun,  
Bulbul chiqarar yoqimli bir un.  
Butun og‘ochlar chiqardi yaproq,  
Ulug‘ Tangrining qudratiga boq.  
Qushlar sayrashur og‘ochga qo‘nib,  
Har kimni ko‘rsang yurar shodlanib.  
G‘ir-g‘ir shamollar yuzga urarlar,  
Ko‘ngilga qanday shodlik berarlar.  
Qish o‘tdi emdi, ey turonliklar,  
Bitsin yalqovlik, turistonliklar!

## **SO'RMA!**

So'rma, o'rtoq, ko'zlarimda  
o'tli yosh qaynashganin,  
So'rma hech bir yuzlarimda  
qayg'ular o'rnashganin,  
So'rma bu majnun ko'ngilning  
dard ichida yonganin,  
So'rma bu mahzun xayolning  
qay ochunda yurganin.  
Bu so'roqlarga javob ko'ngil  
sirin ochmoq, demak,  
Dardli qalb vulqonlaridan  
lavalar sochmoq, demak,  
Lavalar sochmoq butun borliqni  
yo'q etmoq, demak.  
Marhamat yo'q, to'g'rilik yo'q  
dunyodan kechmoq kerak.  
Dardlilar dard anglatolmas  
dardsiza so'zlov bilan,  
Ko'rsatib bo'lmas quyoshni  
ko'zsiza maqtov bilan.

## **HIJRON TO'LQINI**

Butun kechada xayolga cho'mib,  
Yoniq ruhimni qayg'uga ko'mib,  
Hijron o'tida o'rtanib, kuyib,  
Go'zal malakni eslamakdaman.

Biz yashayturgan bu tubanlarga,  
Nur sochib turgan oy, yulduzlarga,  
Yurak dardlarin so'zlamakdaman,  
Go'zal quyoshni eslamakdaman.

Ko‘kragim o‘tli, yuragim dardli,  
Ruhim qayg‘uli, ko‘zlarim yoshli,  
Boyoqish ko‘nglim chin muhabbatli,  
Go‘zal chechakni eslamakdaman.

Menim farishtam bunday tunlarda  
Eslarmikan hech men yo‘qsilni-da?

### **UMID SO‘ZLARI**

Yurakda umidlar, amallar...  
To‘zimsiz qirg‘oqni bosarkan,  
Nega men chaqmoqday yugurmay?!

Eskigan, chirigan tamallar,  
Yo‘qlikka efi yo‘l yasarkan,  
Nega men undan yuz o‘girmay?!

Ko‘nglim yosh, ruhim yosh, kuchim yosh,  
Yosh yo‘llar, yosh gullar izlayman.  
Orqaga tortganga hadyam — tosh,  
Har chog‘ men ilgari undayman...

## SHAROF RASHIDOV

(1917–1983)

*Sharof Rashidov 1917-yil 6-noyabrda Jizzax shahrida tug‘ilgan. Atoqli yozuvchi va davlat arbobi. “Chegarachi” dostoni (1937), “Qahrim” she’rlar to‘plami (1945), “G‘oliblar” qissasi (1953), hind xalq afsonasi asosida yozilgan “Kashmir qo‘srig‘i” lirik qissasi (1956), “Bo‘rondan kuchli” (1958) va “Qudratli to‘lqin” (1964), “G‘oliblar” (1972) romanlari muallifi. Sharof Rashidov vafotidan so‘ng Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti bilan taqdirlangan (1994).*

### ISHQ QO‘YDIM

Mudom ko‘nglimga shavq bergan u hamdam yora ishq qo‘ydim,  
Vafo, sevgini sof tutgan aziz dildora ishq qo‘ydim.

Jamoli oydin o‘zgandir, ko‘zida laxcha yulduz bor,  
To‘lin oyni uyaltirgan u oy diydora ishq qo‘ydim.

Ko‘ngilni berdim-u yorga, izlaring to‘tiyo qildim  
Va ishqini dilga joylab, ko‘zi xummora ishq qo‘ydim.

Nigoring jismidin zavqim oshar, qalbimda qon sevgim,  
Hayotim ziynati bo‘lgan yuzi anora ishq qo‘ydim.

Yigitlik bog‘iga kirdim, sevilsam, sevsam arziydi  
Va qalbimda o‘sar orzum, ajib gulnora ishq qo‘ydim.

Umr bog‘in o‘pib, bir-bir fasllar g‘ir-g‘ir o‘tmoqda,  
Chunon boldir to‘yolmayman hayot ham yora ishq qo‘ydim.

1938

## NAVOIYGA

Pahlavon asrning umri tugamas,  
Bu umr olamning avvali boshi.  
Yanchilib ketar va hatto sovrilar  
Yalang'och qoyalar qop-qora toshi.

O'z qadri-qimmatin topdi o'lkamdan  
Yanchilmas, sovrilmas durdonalaring.  
Otash qalbdan chiqqan oltin satrlar  
Bezadi she'riyat koshonalarin.

Latif soz qo'lingdan tushmasin sira,  
Sotqinlarga nafrat aytib, qulatding.  
Qadr-qimmat hamda vafoni kuylab,  
Birodarlik ham do'stlikni uyg'otding.

Farhodiga vafo qildi mard Shirin,  
Nomard Xisrav yuragini chok etdi.  
Bosh egmadi ham qo'rwmadi o'limdan,  
O'z orzusi, sevgisini pok etdi.

Ixlosmand dilimning nuri diydasi:  
Farhoding, Bahroming,  
Shirin, Shopuring.  
Nur, sevgi, vafo-yu mardonialikni  
Namoyon ayladi sening ash'oring.

Sevgisiga vafodorliq mard turish —  
Faqt bizga xislat bo'lgan, bizga yor.  
Ey, she'riyat diyorining quyoshi,  
Sen qalbimiz uyin etding munavvar!

1938

## GUL DIYORIM BOR

Quyoshni o‘ziga jazm etgan  
Bog‘im bor, gul diyorim bor.  
Diyorim ishqidan kuylar  
Kuyim bor, bastakorim bor.

Quyoshday sochib yog‘du  
Kularman, mehribonim bor.  
Kulib boqqan to‘lin oydek  
To‘larman, jonajonim bor.

Dilimga ishqijo har dam,  
Hur o‘lkam — gul Vatanim bor.  
Bu chamanda baxtiyorman,  
Bog‘im bor — sho‘x chamanim bor...

1939

## O‘LKAM

Yurakda ishonch uyg‘otgan  
Vatan — bog‘im, huzurimdir.  
Hayotimni bol qilib bergen,  
Ki, baxt tog‘im, g‘ururimdir.  
G‘ururimsan, aziz o‘lkam,  
Sen ilhomim, sururimsan.  
Yuzimga sen ziyo berding,  
Ko‘zimda chaqnagan nurimsan.  
Bo‘lur ko‘z-ko‘z jahonlarga,  
Sharaf-shonim va dong‘imsan!

Hayot berding va ong berding,  
Ki, baxtimsan, chiroyimsan.  
Yozar yaproq ulug‘ orzu,

Kular iqboli oyimsan.  
Bo‘lur mo‘l noz-u ne’matlar  
Oqar chashma-yu soyimsan.  
Quyosh, Oyga husn bergen  
Bahor, gul chiroyimsan,  
Olov ilhom-u ongimsan!

Chaman o‘lkam, quyosh o‘lkam,  
Bahor bo‘lib o‘tar yillar.  
Bo‘g‘-u bo‘ston, tog‘i ko‘rkam,  
O‘sar rayhon-u jambillar.  
Hayotning bunda zavqi bor,  
Farog‘atda yashar ellar.  
Turmushning zavq-lazzatini  
Kuylagay, armoni yo‘q dillar.

Ilhom topar dilda, o‘lkam,  
Sen qo‘shig‘-u oq tongimsan!

1940

## UYALMA

Men ketganda ancha yosh eding,  
Bog‘bon qizi — gullar erkasi.  
Mana endi oydek to‘libsan,  
Yuragimning sho‘x arzandas.

Menga atab gullar ekibsan,  
Ochilibdi xuddi o‘zingday.  
Gullaringga xushtor yulduzlar  
Termiladi charos ko‘zingday.

G‘uncha edi qalbimda sevgi,  
Endi chaman bo‘lib ochildi.

Otashlarda toblanib, erkam,  
Yo‘llaringga durday sochildi.

Sog‘inganim, muncha qizarding,  
Yuzing bo‘ldi xuddi naqsh olma.  
Uzoqlardan keldim seni deb,  
Kel, go‘zalim, endi uyalma!

## SHUHRAT

(1918–1993)

*Shuhrat (Alimov G'ulom Aminjonovich) 1918-yil 19-aprelda Toshkent shahrida tug'ilgan. O'zbekiston xalq yozuvchisi (1986). O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi (1978). "Mexrol" (ertak-doston) (1940), "Bizning ko'cha" (1947), "Hayot nafasi" (1948), "Balladalar" (1958), "Sening sevging" (1961), "Ishqingda yonib" (1964), "Buyuk muhabbat" (1966), "Lirika" (1973), "Shaydo ko'ngil" (1976), "Hali tun uzoq" (1984) kabi she'riy kitoblari "Oila" (1946), "Bir kecha fojiasi" (1976) singari nasriy asarlari e'lton qilingan. "Mardlik afsonasi" (1959), "Guldursin" (1960), "Quvg'indi" (1963) singari dostonlar yozgan. "Shinelli yillar" (1958), "Oltin zanglamas" (1965), "Jannat qidirganlar" (1968) kabi romanlar, "Besh kunlik kuyov" (1970), "Qo'sha qaringlar" (1971), "Ona qizim" (1973) kabi dramalar muallifi. A.S.Pushkin, V. Shekspir, T. Shevchenko, Lope de Vega kabi yozuvchilarning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.*

*Adib 1995-yil vafot etgan. Vafotidan so'ng "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlangan (2003).*

## ORZULAR, FIKRLAR

Orzuning bo'lmaydi so'nggi nuqtasi,  
Fikrning muntazam aniq qirg'og'i.  
Tafakkur — orzuning chin omuxtasi,  
Istiqbol mulkining nurli chirog'i.  
Orzusiz yozmaydi fikrlar qanot,  
Fiksiz orzuming qo'l-oyog'i shol.  
Ikkisi misoli egarlangan ot,  
Uddalab minolsang, ufqlarga sol!  
Hey, shirin orzular, teran fikrlar,

Qanchalar go‘zalsiz, qanchalar ulkan!  
Hamisha ufqlar sizni chaqirar,  
Misoli dengizda ochilgan yelkan.  
Esimni tanibman, men sizga shaydo,  
Siz mening ulfatim, mulkim, xazinam,  
Siz uchun umrlar bo‘ladi fido,  
Yoshlikday sevaman sizni hozir ham!!!

\* \* \*

Ilhomning yo‘llari uzundan uzun...  
Goh qoya ortidan keladi tolib.  
Goh dengiz qa‘riga tik urib o‘zin,  
To‘fon-la chiqadi hayqiriq solib.  
Ba’zida ko‘klarda chaqmoqdek yelib,  
Ufqdan ufqqa urar nurli bosh.  
Ba’zida mushukdek sudralib kelib,  
Tizzangga qo‘yadi boshini yuvosh.  
Bu bori ilhomdir. Tizginsiz ilhom,  
Gohida nomi bor, gohida benom.  
Ba’zisi qog‘ozga tushadi asta,  
Ba’zisi yuradi hamon havasda!  
O, o‘jar, befursat, beqolip ilhom.  
Baribir sen o‘zing sharob to‘la jom!

## MEROS

*O‘g‘illarim Fikrat, Xondamir,  
Bobur va qizim Zeboga*

Men seni o‘stirdim silab-siypalab,  
Yedirdim, ichirdim, toza kiyirdim.  
Terlasang, manglaydan tering sidirdim,  
Qoqilsang, turg‘izdim ko‘nglingga qarab.  
Taqdirdan shikoyat qilmadim senga,  
Senga ham shu yo‘lni maslahat berdim.

Adashsang, haq yo‘lin ko‘rsatib turdim,  
Poklikdan nur quydim murg‘ak ko‘ksingga.  
Shukurki, kamiligim yo‘qdir boshqadan,  
Birovga tikmadim hasad ko‘zini.  
Ikkita qilmadim ustoz so‘zini,  
Do‘stlarim safidan uzmadim qadam.  
Sochlarim oqardi, yo‘lim qisqardi,  
Ba’zi bir tishlarim o‘zimnikimas.  
Do‘stlar ham kamaydi, endi but emas,  
Kiprikda, qoshimda yo‘llarning gardi.  
Goh dilim o‘ynaydi, goh bosim baland,  
Goh boshim aylanib, to‘xtab qolaman.  
Entikib-entikib nafas olaman,  
Dahshatli o‘ylarga fikrim bo‘lib band.  
Shunda ham o‘limdan qo‘rqmayman, o‘g‘lim,  
O‘limdan qo‘rqmoqlik — nomardning ishi.  
Rost aytSAM, niyatim chapa qolishi  
Bag‘rimni qiladi tilim va tilim!  
Quloq sol, ey o‘g‘lim, vaqtiki yetib,  
Men yorug‘ dunyodan ko‘zimni yumsam,  
Demakki, ijoddan to‘xtasam, tinsam,  
Uyma-uy izg‘ima zo‘r meros kutib.  
Na bordir mol-mulkim, na mo‘may pulim,  
Do‘stlarim yasaydi umrimga yakun.  
Sen uchun merosim — pok umrim, lekin  
Undan ham azizi — o‘z ona tilim!!!

## UMID

Men bilaman: u endi kelmas,  
Men bilaman: u bo‘lgan qurban!  
Men bilaman: kutmoq endi bas,  
Men bilaman: qiynaladi jon.  
Lekin kutmay ilojim ham yo‘q,  
Umid bilan umr yugurik.

Qalbim deydi: unga tengmas o‘q,  
Qalbim deydi: u odam tirik.  
Ishonaman bari bir hamon,  
Kirib kelar salomat, omon.  
Umid bilan tirikman o‘zim,  
Yo‘llarida hamisha ko‘zim.

## YAXSHILIK

O‘z umringda bitta yulduz yoq,  
Bir yulduzki, nurli va porloq.  
Hech bo‘lmasa bitta chiroq yoq,  
Qorong‘ilik siljisin yiroq!  
O‘z umringda bitta ariq och,  
Shoyad topsa bir nihol rivoj!  
Hech bo‘lmasa, ey baxti suluv,  
Gullarga quy biron kosa suv!  
O‘z umringda bitta ko‘chat ek,  
Yashnab tursin kulgan baxtingdek.  
O‘z umringda och bitta qalam,  
“Tinchlik” so‘zin yozsin bu olam!..  
Gar yaxshilik kelmas qo‘lingdan,  
Yaxshi niyat qilgil dilingdan!

## TOMCHIGA QULOQ SOL

Tomchiga quloq sol, nima deydi u,  
U axir yangi bir havas-u tuyg‘u,  
U tarnov uchidan tomadi bir-bir,  
Bahorning nafasi qilibdi ta’sir.  
Bahorni yetaklab kelmoqda o‘zi,  
Nur bilan to‘ladir ming bitta ko‘zi.  
Sen uning kuyiga quloq tut, qulog,  
Qish ketib boradi, oyog‘i cho‘loq!

## **SHOGIRDGA**

Men orzu qilgan-u yetolmay qolgan  
Orzuning bog‘ida men seni ko‘rsam.  
Yuz bora intilib o‘tolmay qolgan  
Eng baland cho‘qqida men seni ko‘rsam.  
Men toshib aytolmay qolgan  
So‘zlarim tilingda tursa jaranglab...

## **IKKILIKLAR**

### **Tun**

Yulduz porlab yonsa deb zora,  
Yuzlariga tortadi qora!

### **Oy**

Oy — Quyoshning o‘gay farzandi,  
Shu sababdan sovuq va bandi.

### **Umr yo‘li**

Egri-bugri tortilgan chiziq,  
Kim to‘g‘rilab oladi?! Qiziq!

### **Vahima**

Arslon mag‘rur o‘kirgan chog‘i  
Chalishadi otning oyog‘i.

### **Mehr**

Muhabbatga doim zor ko‘ngil,  
Kelishidan ketishi yengil.

### **Hasadgo‘y**

Soyda o‘sigan achchiq bir alaf,  
Mehribonlik qiladi talab.

## SHUKRULLO

(1921–2020)

*Shukrullo (Yusupov) 1921-yil 2-sentabrda Toshkent shahrining Shayxontohur dahasida tug‘ilgan. O‘zbekiston xalq shoiri (1981). O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi (1977). “Birinchi daftар” (1949). “Qalb qo‘shiqlari” (1949), “Asr bahsi” (1985), “Hayot ilhomlari” (1959), “Umrim boricha” (1960), “Inson va yaxshilik” (1961), “Zarralar” (1973), “Suyanchiq” (1977), “Yashagim keladi” (1978), “Sening baxting” (1988), “To‘kilgan dardlarim” (2001), “Shafaq” (2007), “Xasrat bog‘i” (2004) kabi she’riy kitoblari chop etilgan. “Javohirlar sandig‘i” (1983) esse, “Kafansiz ko‘milganlar” (1989) avtobiografik qissa, “Tirik ruhlar” (1999) roman xronikasi muallifi. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti laureati (1994), “Do‘slik” (1994) va “El-yurt hurmati” (1999) ordenlari bilan mukofotlangan.*

*Adib 2020-yil vafot etgan.*

## BAHOR KECHASI

Quyosh botib ketdi.  
Bir tutam nuri  
Varراك dumlariga ilashib qoldi.  
Onasi yetaklab ketgan boladek,  
Chumchuqlar churq-churqlab tark etdi tolni.  
Hovlim o‘rtasida do‘ndiq qiz kabi  
Pushti ko‘ylak kiyib turar shaftoli.  
Gilos oq shoxi to‘n kiygan kuyovmi,  
Egilib kelinga pichirlardi u.  
To‘yni ko‘rish uchun tom tepasiga  
Shoshib chiqib olgan qizlar kabi oy —

O'rikka tirmashib, yong'oqqa o'tib,  
Terak tepasida ko'rsatdi chiroy.  
Faqat uyidamas, har xonadonda,  
Bugun Vatanimda navro'zi olam.  
Hovuzcha — kosaga bahor sharobin  
Shildiratib quyar ariqchalar ham.  
Ana, yulduz sanab bo'g'ot labida  
Qo'shnik mushugi ham kutadi yorin.  
Jonivor-u parranda... borida sevgi!  
Qanday odam sevmas umr bahorin!  
Qalblarni bir umr tark etmas, sevgi!

## OQSHOM

Kecha oqshom kutdim, kelmading,  
Zulmat ichra qoldim bir o'zim.  
Umrim bo'yil bu zulmatga teng  
Bir zulmatni ko'rmagan ko'zim.  
Erkam, bugun kelding oqshomda,  
Hali ko'kka ko'tarilmay oy.  
Bilmagandim yorug' olamda  
Borligini shuncha nur, chiroy.

## GO'DAK

### *Oybekka*

Seni go'dak sanashsa agar,  
Yo'q, ulardan, do'stim, ranjima!  
Sen uchun bu juda mo'tabar,  
Ma'nosini qilsang tarjima.  
Go'dak quvmas shuhrat ketidan,  
Tama bilan bermaydi salom.  
Makr izi bo'lmas betida  
Va yasama qilmas ehtirom.

Gina bilmas, sodda, beg‘ubor  
Fe‘ling uchun sanashsa go‘dak.  
Bu juda soz, nopol qalb bilan  
Ulg‘aymoqlik ne uchun kerak!

Umr bo‘yi go‘dak pokligi  
Nasib bo‘lsa har kimga agar,  
Gultoj bormi shundan ortiqroq,  
Ehson bormi, bundan mo‘tabar!

## ILHOM

Yolvoraman, ilhom parisi,  
O‘z erkimga holi qo‘y bir dam.  
Bola-chaqa, to‘ylar orzusin  
Boshqalardek o‘layin men ham.  
Shafqat etgil, tunda uyg‘otma,  
Bir kecha ber uyqumga orom.  
Sevgi bo‘lib bag‘rimga botma,  
Sehring bilan meni qilma rom.  
Boshqalardek gullarning atrin  
Totib bo‘lay bog‘im ichra mast.  
Sen o‘shanda dehqon mehnatin  
Solmay turgin yodimga birpas.  
Menga ham baxt boqqanda kulib,  
Totmasimdan gashtin bir yo‘la,  
Kimlarnigdir dardin eslatib,  
Yuragimga solma g‘ulg‘ula.  
O‘z baxtimdan o‘zim quvonib,  
O‘z g‘amimni chekayin o‘zim.  
Dunyo dardin yodimdan quvib,  
Bir dam bergil qalbimga to‘zim.  
Ilhom shafqat etdimi menga  
Yo qahrimi, bilmadim biroq.  
Endi dunyo tashvishlariga  
Necha kunki, befarqman mutlaq.

Nohaqlikdan endi yo‘q kuymoq,  
Ilhom zavqi bezovta qilmas.  
Gulga boqsam, bosadi mudroq,  
Qalbim darddan tug‘yonga kelmas.  
Endi ilhom, kim bo‘ldim, aytgil?!  
Yolvoraman, aytib, qil izhor!  
Yolvoraman, yonimga qaytgil,  
Xalq dardidan ayirma zinhor!

## KUZ

Kunduz. Osmon yuzin burkadi bulut,  
Go‘yo chiroq yongach, tushirildi parda.  
Ko‘cha tuprog‘idan ko‘tarar quyun,  
Shamol tabiatga qilgandek zarda.  
Terak uchlariga qo‘nmoqchi bo‘lib,  
Osmon-u falakda qushlar chiyillar.  
Yo‘lidan chalg‘itib, shoxlarni silkib,  
Oltin yaproqlarin to‘zg‘itar yellar.  
Yomg‘ir shivaladi, bir to‘p bolalar,  
“Uy-uyiga”, deya tarqalib ketdi.  
Tolzorlarni kezgan ko‘m-ko‘k anhorning  
Yomg‘ir qamchisidan qabardi beti.  
Ko‘priklarga boqib kutgan do‘sstarim  
Shunda yetib keldi ko‘p qilmay mushtoq.  
Samovar navosi, tarnov sharrosi,  
Ulfatlar bazmiga aytilgan mashshoq.

## RAMZ BOBOJON

(1921–2008)

Ramz Bobojon 1921-yil Toshkent shahrida tug‘ilgan. “She’rlar” (1939), “Hadya” (1940), “Oltin kamalak” (1949), “Tanlangan asarlar” (1958), “Sevgi sirlari” (1963), “She’rlar” (1965), “Senga, sevgilim” (1969), “Muhabbatga ta’zim” (1980), “Sening mehring” (1997), “Surayyo yulduzidan shu'lalar” (2001) kabi she’riy kitoblar muallifi. “Qadron do’stlar” (1948), “Bobom bilan suhbat”, (1967), “Bahs” (1973), “Tog‘a-jiyanlar” (1961), “Ins-u jins yoki Tirik murdalar” (1972), “Zuhraning maktublari” (1975) komediyalari, shuningdek, “Yusuf va Zulayho” musiqali dramasi (1981) respublika teatrlari sahnalarida qo‘yilgan. G.Ibsenning “Arvoqlar”, A.T.Tvardovskiyning “Vasiliy Tyorkin”, Nabi Xizriyning “Sevgim, sevgilim” va boshqa adiblarning asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. “El-yurt hurmati” ordeni bilan muhofotlangan (2003). O‘zbekiston xalq shoiri (1981), O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi (1971).

Adib 2008-yil vafot etgan.

\* \* \*

Sevgilim!  
Yodimda o‘sha tun  
Oq-oppoq olmaday oymoma...  
Yulduzlar yig‘ilsa bir butun,  
Sochilsa shoirga manzuma...  
Sevgilim!  
Yodimda shalola  
Daryoga qo‘shilib oqqani,  
Uyqidan turolmay Kamola  
Uyalib, go‘dakday boqqani...  
Sevgilim!

Yodimda oqqushlar  
To'sh urib daryoda suzgani,  
Yulduzdan to'kilgan kumushlar  
To'lqin-la o'ynashib o'zgani...  
Sevgilim!  
Yodimda ilk bora sevgini tilimga olganim,  
Dardingni dilimga solganim,  
Na qilay,  
O'zingga havola!

### NEGA INDAMAYSAN?

Ko'zlarim tubida yonar yuragim,  
Yongan yuragimni yana yoqsang, yoq!  
Sensan saodatim, sensan tilagim,  
Sevgilim,  
dilbarim, ko'zlarimga boq,  
Ko'zlarim tubida yonar yuragim...  
Nega indamaysan, nega tiling lol?  
Kim aytib beradi sevgi ertagin?  
Vafo deganing, bu, haqmi yo xayol?..  
Ko'zlarim tubida yonar yuragim,  
Nega indamaysan,  
Nega tiling lol?

\* \* \*

Ko'kda oy, pastda soy —  
ajab manzara,  
Daraxtlar uchida yiltirardi nur.

Ba'zan bulut toshar, tiniqlik xira,  
Ba'zan gangitardi xayolot qurg'ur.  
Nazdimda oymoma kichrayganday,

Umri ado bo‘lib qolganday, kemtik  
Go‘yo vidolashib, pichirlaganday.  
Men esa hayratdan turar edim tek.  
Lekin, o‘ylanardim,  
o‘yga botardim,  
Umrimni qilganday oyga sarhisob.  
Holbuki, bu kunning bir vaqtি bir kitob  
Ehtimol, o‘sha kun, o‘sha soatning  
Qadriga unchalik yetmagandirman.  
Balki, bolalikday baxt-saodatni  
Ardoqdab, ko‘z-ko‘z ham etmagandirman.  
Endi, ortga boqsam, ilonizi yo‘l,  
Baland-past,  
chag‘ir tosh, uzoqdan uzoq  
Ba‘zan sog‘inaman silkitganday qo‘l,  
Xotiralar yo‘lga yoqadi chiroq.  
Keksalik kekkayib turar qoshimda,  
Fasllar umrimga, balki, tarozu.  
Bir o‘y chaqmoq chaqib, deydi, boshimda:  
— Adashma, bu kuning ertangi orzu.

\* \* \*

Xiyobon bag‘riga otilding gulday  
Va o‘zing nogahon gul bo‘lib qolding.  
Bahor sehrlagan oshiq ko‘ngilday  
Entikib-entikib, chuqr tin olding.  
Balki, bir quchoqsan, bir bog‘ning o‘zi...  
Balki, o‘xhashi yo‘q ilohiy gulsan.  
Sendadir, sevgilim, qalbimning ko‘zi,  
Men senga, sen esa sevgiga qulsan.

## MIRMUHSIN

(1921–2005)

*Mirmuhsin 1921-yil 3-mayda Toshkent shahrida tug‘ilgan. O‘zbekiston xalq yozuvchisi (1981). O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi (1970).*

*“Qamar”, “Vafo”, “Qadrdon do‘sstar”, “Irmoqlar”, “Qalb va falsafa”, “She’rlar” kabi she’riy to‘plamlari, “Ziyod va Adiba” she’riy romani, “Jamila”, “Oq marmar”, “Cho‘ri”, “Tungi chaqmoqlar”, “Arab hikoyalari”, “Chodrali ayol” qissalar, “Umid”, “Chiniqish”, “Degrez o‘g‘li”, “Chatqol yo‘lbarsi”, “Me’mor”, “Ildizlar va yaproqlar”, “Temur Malik”, “Ilon o‘chi”, “Turon malikasi” kabi romanlari chop etilgan.*

*Yozuvchi 2005-yil Toshkent shahrida vafot etgan.*

## SEVGI XATI

Mag‘rur o‘sgan sahro qushidek  
Qalb bo‘ysunmas, edi yovvoyi...  
Go‘daklarning shirin tushidek  
Kular edim, yo‘qdi parvoym.

Sen, azizam, boqding ko‘zimga,  
Qo‘llaring-la tutding qo‘limni.  
Ishonmadim o‘zim o‘zimga,  
Tutash qoshlar to‘sdi yo‘limni.

To‘g‘ri, juda sog‘indim, ozdim,  
Seni o‘ylab yurdim erta-kech.  
Sirimni fosh etsam ham yozdim,  
Yozmasligim mumkinmasdi hech!

Men ishlayman uyqusiz... Oppoq  
Qog'oz uzra dil yonar tunlar.  
O'y suraman, burqadi qaynoq  
Yuragimdan oh-u tutunlar.

Bilsam, yozgan qissamning o‘zim  
Qahramoni bo‘lib qolibman.  
Sen, azizam, qalbni zabit etib,  
Unga so‘nmas otash solibsan.

Sevgi kelmas, sevgi tug‘ilar,  
U tug‘ildi. U bor. U tirik!  
U yashaydi, shirin tuyg‘ular  
Otash qalbga quvvat-u tirak.

Sevib qoldim seni jondan ortiq,  
Sen do'st, faqat emassan bir gul...  
Men sevgimdan qaytsam, bu yurak  
Bir qorako'l qo'zichoq kabi  
Ko'z ochmasdan ketgani ma'qul!

PALOV

### (Xalq yo‘lida)

El obod, to'kin-sochin,  
go'sht-yog' arzon,  
Qirdagi bo'rdoqilar chopar larzon,  
To'nda biq-biq... qaynasan katta qozon.  
Palov aslin so'rsang — olis yaylov.

Ishingda quvvat berar to'yib yesang,  
Yoqtirmas, ishni yo'lda qo'yib yesang,  
Botmaydi o'g'irlab-u o'yib yesang.  
Palovlarning palovi — qazi palov.

Palov uchun yashab, qo‘ymagin bino,  
Yashash uchun palov yegin doimo!  
Ming dardga davo debdi Ibn Sino,  
Palovni palov qilgan otash — olov.

Palovsherni yeysan so‘ngra — sher kelar,  
Tog‘ni tolqon qilgan botir er kelar,  
Peshonangdan miltir-miltir ter kelar,  
Palovlarning ustasi Ali mo‘ylov.

Ishlamasdan yotib yesang singmaydi,  
“Yuzta-yuzta” otib yesang singmaydi.  
Xasis bo‘lib, qotib yesang singmaydi,  
Qalampirlik zo‘r palov senga siylov.

O‘zga, uzoq ellarda kezdim bir yoz,  
Ziyofat-u bazmlar bo‘lmadi oz...  
Lekin hamma yerda o‘zing beqiyos —  
Turkman, o‘zbek palovi — ilik palov.

## ARMON...

Yetdi unga hayot bilan vidolashmoq fursati,  
U endi yotar holsiz, yaqinlashar so‘nggi dam.  
Ikki so‘z deya oldi ko‘k shishani ko‘rsatib:  
“Ichmasdim va chekmasdim dunyoda tirik qolsam...”

## JUMANIYOZ JABBOROV

(1930–2010)

*Jumaniyoz Jabborov 1930-yili Qashqadaryo viloyatining Koson tumanida tug‘ilgan. O‘zbekiston xalq shoiri (1997). O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi (1980). “Vatanimni kuylayman”, “Bahor nafasi” (1956), “Maqsad yo‘lida” (1958), “Tog‘lar sadosi”, “Ona yer qo‘shig‘i”, “Subhidam xayollari” (1964), “Sahro sanami” (1967), “Lirika” (1970), “Dostonlar” (1974), “E‘tiqod” (1978), “Xayolimda o‘zing” (1985), “Ko‘nglim go‘zali” (1991), “Ajab dunyo — sevgi dunyosi” (1996), “Yulduzlarda xayolim”, “Sevgi samosi” (2006) kabi she’riy kitoblar muallifi. “20 kun daf-tari” (1967), “Sohillar hikoyasi” (1974), M.Y. Lermontov, Bayron va Firdavsiy (“Shohnoma”) asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. “O‘jarlar” (1973), “Yillar o‘tib...” (1977) “Neksiya” (2007) kabi dramalar yozgan.*

*Adib 2010-yil vafot etgan.*

### YO‘QLASH

To‘kis bo‘lmas insonning baxti,  
Bir qusurdan xolimas taqdir.  
Yashnayotgan umr daraxti  
Nelargadir yana ilhaqdir.

Yuragimda yotar bir tugun,  
Tanga solib alamlı titroq,  
Yechilmaydi, afsus, kunma-kun  
Tug‘iladi balki qattiqroq.

Barcha baxtli soatlarimga  
Bir dog‘ bo‘lib uradi muhr,

Tabiatim, odatlarimga  
Tamg'a chekib ketmish bir umr.

Yuragimda dardlarim nihon,  
O'rtanaman, yonaman jim-jim.  
Go'yo bo'ron qayirgan nihol,  
Topolmayman aslo ilojin.

Bo'm-bo'sh bo'lib qolaman birdan,  
Hazm etolmay yashash tuyg'usin.  
Topib bo'lmas seni hech yerdan,  
Yo'qotganim, onajon, bu sen!

Qancha senga bo'lmayin xumor,  
Yo'qlik sari qo'ygansan qadam.  
Ko'zlarimga olam bo'lsa tor,  
Chigilimni yozadi qalam.

Hamma narsam yetarli bugun,  
Baxt-u obro' — bari mukammal.  
Orzularim ochilib gulgum,  
Ishq, ijodda sevinchim tugal.

Qani, shodlik hayajonimga,  
Sherik bo'lib, jilmaysang bir zum.  
Eshikdan shod kirgan onimda,  
Ko'zlariningda yonsa tabassum.

Orzularim so'zlasam bir-bir,  
O'gitlaring tinglasam kulib.  
Mayli, koyi, o'tsa biror sir,  
Men eshitay tasliming bo'lib.

Biroq endi mumkinmas bular,  
Bular endi sarob bir xayol.  
Xayol ba'zan aldamchi bo'lar,  
Xayollardan g'olibdir hayot.

Dildan yoding sizib o'tarkan,  
Tiqiladi birdan nafasim.  
Onalarni boshga ko'targan,  
O'g'illarga kelar havasim.

Shunda seni izlab qolaman,  
Farzandlarim qosh-u ko'zidan.  
Achchiq o'ylar ichra tolaman,  
So'zlariningizni izlab so'zidan.

Yana mehring bo'ladi dalda,  
Deysan: "Endi ko'p kuyma, o'g'il!"  
Sal yengillik sezaman dilda  
Va ish bilan bo'lamon mashg'ul.

Hamma narsam yetarli, to'liq,  
Ko'z o'ngimda yop-yorug' jahon.  
Faqat endi yonimda sen yo'q,  
Gunohimni kechir, onajon.

## BIR KUNI...

Men moviy deb yozdim samoni,  
Ta'rifladim tongni, saboni.  
— Hayotdan uzilgan, — dedilar.

Sevgi ko'rki — hijron-u visol,  
Deb yaratdim ming lavha, misol.  
— Sof tuyg'u buzilgan, — dedilar.

Doston qildim mehnatni, shonni,  
Yo'llar, yillar bergen ehsonni.  
— Ortiqcha, cho'zilgan, — dedilar.

Lekin bir kun xayolga toldim,  
O'zligimni qo'shiqqa soldim.  
— Yurakdan tuzilgan, — dedilar.

\* \* \*

Ich-ichimga sho‘ng‘ib ketmoq istadim,  
Istadim, sho‘ng‘isam qalbim qa‘riga.  
Xayolim otini necha qistadim,  
Vale o‘tolmadim sendan nariga.

Yetti mo‘jiza bor, derlar, jahonda,  
Kim bilsin yettidir yo balki yetmish.  
Faqat sen barqaror erursan jonda,  
Olloh seni menga mo‘jiza etmish.

\* \* \*

Donolar kitobin ko‘p o‘qib chiqdim.  
Dilbar o‘lkalarni etdim tomosha.  
Hayrat manzillari ichra chiniqdim,  
Senga yetmoq bo‘ldim tog‘ma-tog‘ osha.

Sen hamon olisda, hamon oldinda,  
Qancha yurgan sarim bo‘lursan yiroq.  
Goho qorong‘uda, goho oydinda  
Seni qidirishdan tolmasman biroq.

## UMR MAZMUNI

Beshikdan to qabrga qadar  
Odam umri ajabdir, ajab.  
Bog‘cha fasli tugalsa agar,  
Quchog‘iga olgaydir maktab.

Bir entikish, ma’yus bir lahza  
Go‘dak qalbin imtihon etar.  
Bu ayriliq — ilk og‘ir larza —  
Huvullatib bog‘chani... ketar.

So‘ng mактабда о‘н yillik hayot,  
Yoshlik kechar soyday guvullab.  
Bir kun kelib “xayr”, der, hayhot,  
Maktab qolar ortda huvullab.

So‘ngra esa oliv ilmgoh,  
Bunda umr sabog‘in oлar.  
Bul qasr ham bir kun qolur, oh,  
Oltin davr huvullab qolar.

So‘ng... hayotda ming sinov kechib,  
Ko‘rajakdir uzoq-yovuqni.  
Goho shirin, goh achchiq ichib,  
Ko‘p ko‘rajak issiq-sovuqni.

Har bir odam o‘zi bir olam,  
Yo‘q o‘xshashi, takrori aslo.  
Dunyo ichra dunyodir odam,  
Bir-biridan farqli, mustasno.

Ko‘z oldida evrilar zamon,  
Farq etadi baxtni, ro‘yonи.  
Avj nuqtaga yetganda inson  
Huvullatib ketar dunyoni.

## **OLIMJON XOLDOR**

**(1932–2016)**

Olimjon Xoldor 1932-yil 18-sentabrda Andijon viloyati Buloqboshi tumanining Kulla qishlog‘ida tug‘ilgan. “Andijon suluvi” (1968), “Oshiqona” (1970), “Kaftimdag tuproq” (1972), “Andijon bahori” (1976), “Subhidam qo‘shiqlari” (1977), “Kumush kosa” (1979), “To‘yona-to‘yona” (1982), “Yer farzandi” (1986), “Senga intilaman” (1986), “Davrani kengroq oling” (1990), “Ko‘ngil”, “Armon”, “Ko‘z tegmasin” (1992) singari to‘plamlari nashr etilgan. Shuningdek, “Men — Andijonman”, “Andijon samosi”, “Kelajakdan bir sado”, “Subhidam qo‘shiqlari”, “Gulruxsor”, “Kumush kosa”, “Karvon qo‘ng‘irog‘i”, “Roz” kabi liro-epik, “Ko‘ngil” qissasi, uch kitobdan iborat — “Arosat”, “Mirkomilboy” romanlari va “Mo‘jiza” kabi nasriy asarlar ham yaratgan.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi Olimjon Xoldor 2016-yilda vafot etgan.

## **TONG**

Tong otmoqda, sutdek oppoq tong,  
Xayrlashib tun bilan shodon.  
Tong ortidan quyosh urib bong  
Chiqar — nurin sochib har tomon.

## **BALKIM...**

Oq kiyinib, oppoq qush bo‘lib,  
Osmonlarga uchib ketaman.  
Kechalari senga tush bo‘lib,  
Ko‘zlariningni ochib ketaman.

Ta'birini yecholmay dilxun,  
Ko 'zing yumuq, bedor yotarsan.  
O, farishtam, yana o'sha tun,  
Tushlar ko'rib, meni kutarsan.  
Endi meni ko'rmassan, balkim,  
Yana qaydam, kim biladi, kim?

## **YULDUZLAR O'YINI**

Andijon osmoni, voh, ajab,  
Kimni etmagan mahliyo?  
Men undan qidirgim yangi gap,  
Har yulduz bittadan avliyo.  
Avliyo sirlari pinhona,  
Bisoti yurakda yashirin.  
Bu kecha to'qilar afsona,  
Bir chetin ocholdim daftarin.  
Bir yulduz ko'zлari yoshlandi,  
U uchdi va qo'ndi parquvga.  
Yulduzlar o'yini boshlandi,  
So'ng yana oy ketdi uyquga.

## **QATRA**

Qatrada olamning aksi bor,  
Qatrada hayotning mazmuni.  
Qatrada shamolning raqsi bor,  
Qatrada umrning har kuni.  
Sevinch-u, alam-u, shodlik, g'am,  
Qatrada yaralmish odam ham.

## **ESHIK**

U san'at asari, tikilur har kim,  
Biroz g'ichirlaydi ochsang va yopsang.  
Sindirmoqchimisan eshikni, do'stim,  
Axir, kalitini bo'lmasmi topsang?  
Almashtir turgagin, almashtir zulfin,  
Attang qilib yurma, oxiri bir kun.

## **YURAK-YURAKKA ELCHI**

— O'zingdadir ixtiyor,  
Yuragim ne der, bil-chi?  
— Bildim, u der oshkor,  
Yurak-yurakka elchi.

## **TUNNING ERTASI**

Kunduz o'rning bo'shatib berdi,  
Kecha bosib kela boshladi.  
Yulduz yerga yuzini burdi,  
Tong shamoli esa boshladi.  
Oy yonboshlab ko'kning toqiga,  
Qoqar yerga zarrin etagin.  
Shunday tunlar bo'lar gohida,  
Yozib oldim uning értagin.

## USTOZNING DASTXATI

(*Mirtemirni eslab*)

### I

Kitoblar ko‘p, dastxatlar ko‘p,  
Maktublar ko‘p javonda.  
Bundan boshqa boyligim yo‘q,  
Bu jahoniy ayvonda.  
Goh ularni varaqlayman,  
Shamollatib qatini.  
Va o‘paman ko‘zga surtib,  
Ustozim dastxatini.

### II

U Hofiz edi, Bedil edi,  
Donishmand ham edi, g‘azalxon.  
Yolg‘izlar ichra yolg‘iz edi,  
Shunaqaroq edi u zamon.  
Yolg‘onga qurilgan sultanat,  
Omonat edi ustunlari.  
Mistovoqda maddohlar faqat,  
Sarob edi o‘tgan kunlari.  
Istiqlolni u zot ko‘p kutdi,  
Ogoh edi munajjim — qalam.  
Afsus, o‘zi bilan olib ketdi,  
Aytadigan gaplarini ham.

## TUYUQ

Ul sanamki: Feruza, Olmosmikan  
Yoki la‘l, yoqut va yo olmosmikan?  
Dasta gul tutmoq edim, bilolmadim,  
Gullarimni yo olur, yo olmasmikan?

## E'TIBOR OXUNOVA

(1933–2019)

*E'tibor Oxunova 1933-yili Andijon shahrida tug'ilgan. Uning ilk to'plami 1961-yili chop etilgan. "Salom, bahor" (1964), "Seni o'ylayman" (1967), "Kamalak" (1970), "Yillar" (1973), "Vatan shu yerdan boshlanadi" (1974), "Billur kaptarlar" (1978), "Men tongni uyg'otdim" (1981) va boshqa to'plamlari nashr etilgan.*

*Shoira 2019-yilda vafot etgan.*

## KO‘ZINGDA JILMAYAR YOG‘DULAR

Shukronalar aytay, aytay sanolar,  
Turna karvoniga to'lmish samolar,  
Umri farzonalar, aziz momolar,  
Bahor, gullar... Sizga to'yona bo'lsin.  
Sochimizga zebdir tol bargaklari,  
Maynalar cho'p tashirlar sergaklanib,  
Yam-yashil maysalarga yo'rgaklanib  
Uyg'onuvchi bog'lar gulxona bo'lsin.  
Armonlarim qular tubsiz jarlarga,  
Yuragim joy bermas endi zorlarga,  
Qalandar qushlarga, gul, gulzorlarga  
Tashna umidlarim mastona bo'lsin.  
G'unchalar labini ochar xandaga,  
Suluvlar o't qalar qo'sh chirmandaga,  
Bahorga zor-u zor mendek bandaga  
Dutorin sozlashga bahona bo'lsin.  
Tog'larning poyida lola axtarib,  
O'qidim chashmaning sevgi daftarin,  
Nozik sibizg'asi so'zlar dardlarin,

Tug‘yonlarim unga hamxona bo‘lsin.  
Turnalar samoga yozar xatini,  
Inshosini — bahor tariqatini,  
Samo to‘kar obini-rahmatini,  
Degay: Barokat-qut shohona bo‘lsin.  
Yalpizlar bezabdi anhor labini,  
Bo‘tana suvlarga der matlabini,  
Oshiqlar ma’shuqqa ochsa qalbini,  
Mayli, ishq asrori pinhona bo‘lsin.  
Turna qanotida keladi bahor,  
Bulbul bayotida keladi bahor,  
Ko‘klamni sog‘inib yashnadik, alhol,  
Qutlug‘ diyorimiz to‘yxona bo‘lsin.

### SENI IZLADIM

Subhichog‘... men yolg‘iz so‘qmoqda  
Borurman yam-yashil sayhonga.  
Negadir xayollar payhondir,  
Quyosh ham chodirin so‘kmoqda —  
Tong otar,  
Kun botar,  
Sezmadim.  
Men seni sarvlar bargidan izladim.  
O‘rmonlar ichra men yolg‘izman,  
Erkalar qushlarning xonishi.  
O‘t olar o‘n bora yonishim,  
Qaydasan, qaylarga bormayin,  
Izlagum,  
Bearmon,  
Mavjli ul daryolar bag‘ridan izladim.  
Tog‘ kezdim... yo‘l boshlar jilg‘alar,  
Izladim qoyalar boshidan.  
Ul asriy cho‘qqilar arshidan  
To‘kilgan yog‘dular jilmayar

O'zingdek,  
So'zingdek.  
Qamashur ko'zlarim,  
Men seni chinorlar sabridan izladim.  
Qo'shig'im, lutfingga men mahtal  
Qalbimdan qon olgin, shodligimdan rang.  
Qo'shig'im, sururlar, zavq bilan o'ra,  
Tinglagan har jonga bir o'tli g'azal  
Totini  
Baxsh ayla,  
Naqsh ayla, go'zalim,  
Men seni odamlar qalbidan izladim.

## QIRQ KOKILLAR

Ko'z o'ngimda to'zg'ib ketar sharsharalar,  
Mushk-anbarga to'lib ketar qir, daralar,  
Yurtim aro shunday bir sado taralar:  
Ko'rganmisiz, daryolarning to'lqinini.  
Qirq kokillar subhi sahar taroqlangay,  
Nigohimda ishq devoni varaqlangay,  
Eng qorong'u kulbalar ham chiroqlangay,  
Shoir devonadir topmay talqinini.  
Sochlar ko'rkan zebigardon, tumor bilan,  
Jonning xaridori ko'zi xumor bilan,  
Mahbub kishanlangay sochi-zunnor bilan,  
Qo'shib o'rganida dilin yolqinini.  
Bekorgami, Mashrab devonalar bo'ldi,  
Kimlar Farhod bo'ldi — afsonalar bo'ldi.  
Majnuni-Qays cho'lda sarsonalar bo'ldi,  
O'chirolmay ishqning otash-chaqinini.  
Soch ta'rifi yashab kelar azallardan,  
Mutrib sozi, qo'shiq, o'tli g'azallarda,  
Yo rab, nechun endi qoldi nazarlardan,  
Izlab, o'ylab topolmadim taxminini.

Sunbul sochga yarashiqli davronimiz,  
Emin-erkinlikni bergan zamonimiz.  
O'zimizdan neki yaxshi-yomonimiz,  
O'zganiki bo'lsa soch-u, choponimiz,  
Qanday qilurmiz udumlar talqinini?!

\* \* \*

Odamlar,  
Jonimga jazo aylang,  
Men sindirib qo'ydim  
Gullab turgan dilafro'zning shoxini.  
Tinglamadim vaqtim ziq deb,  
Dili zabun bir kimsaning ohini.  
Asramadim  
Uyasidan yiqilgan qush palaponini,  
Asramadim  
O'q yegan majruh kabutarning jonini.  
Olib qo'ymadim yo'l ustida  
yotgan bir toshni,  
Qoqilganning ohi ursin  
men bag'ritoshni.  
Katta yo'lda ko'rdirim  
Ko'zi ojiz keksa odamni,  
Yordam uchun tezlatmadim qadamni.  
Kimman o'zi?  
Yurakmi bu, temirmi bu yo parcha sopol?  
Nimaligin bilolmay men aftodahol.  
Ne qilayin,  
Ko'kragimga tig' kabi qadalgan toshni,  
Qayga uray,  
Xijolatdan egilgan boshni?

## TO‘RA SULAYMON

(1934–2005)

To‘ra Sulaymon 1934-yil 15-fevralda Baxmal tumanida tug‘ilgan. O‘zbekiston xalq shoiri (1999). “Istar ko‘ngil” (1962), “Men qayga borar bo‘lsam” (1965), “Jahongashta” (1970), “Ham-qishloqlarim”, “Intizor” (1973), “Sirdaryo qo‘shiqlari” (1974), “Iltijo” (1976), “Alxazar” (1976), “To‘yboshi” (1977), “Sizni eslayman” (1980), “Qorako‘zginam” (1981), “Gulshan” (1988), “Sarvinoz” (1990), “Xarsang” (1994), “Jahonnoma”, “Gul bir yon, chaman bir yon” (1996), “Yovqochdi” (1998), “Sayhon” (2003) kabi to‘plamlari nashr qilingan.

2005-yil Guliston shahrida vafot etgan.

## SOZIM

Sening tilaklaring bo‘lmas mustajob,  
Uzilmas torlarim, sinmas sozlarim.  
Nolam Bir-u Borga yetsa ne ajab,  
Uzilmas torlarim, sinmas sozlarim.

Sen aytganday ermak, kasb-kor emas bu,  
Ko‘plar yeta bilmas orzu-havas bu.  
Bobomlardan qolgan yolg‘iz meros bu,  
Uzilmas torlarim, sinmas sozlarim.

To ona tabiat menga yor ekan,  
Har dami g‘animat, betakror ekan,  
Diyonat bor ekan, yaldoq xor ekan,  
Uzilmas torlarim, sinmas sozlarim.

Birning taqdiri — bu tuman taqdiri,  
Sarbonga bog‘liqdir karvon taqdiri,

Sozchining qo‘lida kamon taqdiri,  
Uzilmas torlarim, sinmas sozlarim.

Tong — tal’at belgisi. Tun esa Tanglik.  
Oy — oqshom tangrisi, Quyosh — Mangulik.  
Badnomga bo‘lmasa yerda yurgulik,  
Uzilmas torlarim, sinmas sozlarim.

Xohi rozi bo‘lgan, xohi norizo,  
Xohi motam tutib, xohi och aza,  
Dovrug‘lari bo‘lib elga ovoza,  
Uzilmas torlarim, sinmas sozlarim.

Senga qolgan kunim, kunmas — qabohat.  
Koshki sendan kutsam imdod, inoyat!  
Meni qo‘llay olur, qilur himoyat.  
Uzilmas torlarim, sinmas sozlarim!

### **QAYTA KETMAS BO‘LIB KELDINGMI, BAHOR?**

Yer-u samovotda navro‘z nafasi,  
Bog‘-u bo‘stonlarda andalib sasi,  
Bu nafas, bu sasning yo‘q muqoyasi.  
Qayta ketmas bo‘lib keldingmi, bahor?

Dastlab tong chog‘inda ko‘rgandim seni,  
So‘ng Tangri tog‘inda ko‘rgandim seni,  
Qizlar yonog‘inda ko‘rgandim seni.  
Qayta ketmas bo‘lib keldingmi, bahor?

Malak holatinda ko‘rgandim seni,  
Qushlar qanotinda ko‘rgandim seni,  
Kuychi bayotinda ko‘rgandim seni.  
Qayta ketmas bo‘lib keldingmi, bahor?

Hali aytilmagan ta'rifing qancha,  
Sen to o'r-u qirni aylanmaguncha  
Bog'lar gulga kirmas, ochilmas g'uncha.  
Qayta ketmas bo'lib keldingmi, bahor?

Qoshlari o'smalim, ko'zi surmalim,  
Etak-etak gulli, bari burmalim,  
Seni dunyoda hech kima bermalim!  
Qayta ketmas bo'lib keldingmi, bahor?

Sen qayta yaralish, yoshlik timsoli,  
Hayot baxsh etguvchi Maseh misoli.  
Sensiz odamzodning ne kechar holi?  
Qayta ketmas bo'lib keldingmi, bahor?

To'rt faslning tanho malikasi sen,  
Tugal go'zallikning nihoyasi sen,  
Oshiq-ma'shuqlarning tamannosi sen!  
Qayta ketmas bo'lib keldingmi, bahor?

Yer birla osmonning tillaqoshi sen,  
Aytar qo'shig'imning avval-boshi sen,  
Oltin beshigimning safardoshi sen!  
Qayta ketmas bo'lib keldingmi, bahor?

## TAVALLO

Nelardandir ko'ngil bo'lib g'ash,  
Ham egilib bu egilmas bosh,  
Ko'zlarimda qalqib tursa yosh,  
Bu holimga berolmay bardosh,  
Mushtipar bir Onam yig'laydir,  
Qolganlari yolg'on yig'laydir.

Qaytar bo'lsam quruq qo'l ovdan,  
Qora qozon qolsa qaynovdan,

Ham ayrılib o'lja, ulovdan,  
Qarzga botar bo'lsam birovdan,  
Taskin berib Onam yig'laydir,  
Qolganlari yolg'on yig'laydir.

Birda haqdin, birda nohaqdin,  
Jabr ko'rsam bir betavfiqdin.  
Ortda tursam qalbi quroqdin,  
Qadrim xarob bo'lsa tuproqdin,  
Ohlar urib Onam yig'laydir,  
Qolganlari yolg'on yig'laydir.

Og'a-ini o'rtasida gap...  
Alhol kelib chiqmish ixtilof:  
Biri izzat, biri mulk talab.  
— Bu oq sutim, mehrimga xilof, —  
Deya sho'rlik Onam yig'laydir,  
Qolganlari yolg'on yig'laydir.

Sinalmoqning gali kelganda,  
Nohaq mag'lub bo'lsam maydonda,  
Nomim qolmas bo'lsa jahonda,  
Kim do'st-dushman bilinar onda,  
Ahvolimga Onam yig'laydir,  
Qolganlari yolg'on yig'laydir.

G'anim bir yon, men bir yon bo'lsam,  
U ustuvor, men uryon bo'lsam,  
Bu ham kamday nogiron bo'lsam —  
Og'och otga yonma-yon bo'lsam,  
Oy tutilib, Onam yig'laydir,  
Qolganlari yolg'on yig'laydir.

Bo'lsam gumroh, bo'lsa gunohim,  
Vujudimga solmasdin vahim,

Qabul aylab tavallo-ohim,  
Darig‘ tutmay mehring, ilohim,  
Yig‘latmagil mushfiq Onamni,  
Volidayi Muhtaramamni.

## SOXTA

*“Ergash Jumanbulbul o‘g‘li el kezadi”  
turkumidan*

Ne uchundirkim bu elda  
saodat soxtadin soxta,  
Xiyonat avjida, yorab,  
diyonat soxtadin soxta.

Izzat-ikrom, hayo, mehr-u  
oqibat soxtadin soxta.  
Iltijolar ijobatsiz  
ibodat soxtadin soxta.

So‘fiylari so‘g‘on yerlar  
tariqat soxtadin soxta.  
Tabib riyo, hakim badnafs  
tabobat soxtadin soxta.

O‘zin bilmas xotin-qizda  
nazokat soxtadin soxta.  
Halol — afkor, harom — g‘olib  
tarovat soxtadin soxta.

Onang puldir, otang puldir  
tijorat soxtadin soxta.  
Fozil ham tamagir banda  
kitobat soxtadin soxta.

Qalam ahli riyozatda  
hikoyat soxtadin soxta.  
Jafokash dehqondin o‘zga  
tumonat soxtadin soxta.

Qozi fatvosi, shoh hukmi  
nihoyat soxtadin soxta.  
Taxti-yu toji, tug‘rosi,  
saltanat soxtadin soxta.

## **OXUNJON HAKIM**

**(1935–2020)**

Oxunjon Hakim 1935-yil 20-fevralda Farg‘ona viloyatining Log‘on qishlog‘ida tug‘ilgan. O‘zbekiston xalq shoiri (2006). “Dostonlar”, “Qo‘llarim ko‘ksimda”, “Tafakkur boqiy”, “Vatan qasidasi”, “O‘shal kun kelur”, “Ko‘zlariningni o‘zi qaro”, “Qizlar xayol sursalar”, “Muhabbatni ko‘zlardan izlang”, “Malaklar surati”, “Dunyo, dunyo...” kabi she’riy to‘plamlari, “Bahor hidi”, “Burgut hamlasi” nomli nasriy asarlari nashr etilgan. “Qo‘sh kabutarlar”, “Baqiroq tuyaning tushlari”, “Bu chollar yomon cholalar” kabi pyesalari respublika teatrlarida sahnalashtirilgan. “El-yurt hurmati” ordeni bilan taqdirlangan (1998).

Shoir 2020-yilda vafot etgan.

## **DUNYO**

So‘zim tingla, dunyo, bir muddat,  
Bunchalar ham ishlarining g‘alat.  
Yaxshilarni g‘amlarga ko‘mib,  
Yomonlarga qilding muruvvat.  
Tarozingni qandoq qo‘yosan,  
Bir kam dunyo, bir kam dunyosan?

Nokaslarni bor qiladirsan,  
Kimki haqso‘z — xor qiladirsan...  
Egrilarga eshmisan, so‘zla,  
Nechun g‘alat kor qiladirsan?  
Kimni xo‘rlab, kimni suyosan,  
Bir kam dunyo, bir kam dunyosan?

Bo‘lsa agar ko‘zlarining ochiq,  
Qilmishingga bir-bir boqib chiq.

Kazzoblarning joni rohatda,  
Yaxshilarning ko‘ksida sanchiq...  
Qadaminingni qandoq qo‘yosan,  
Bir kam dunyo, bir kam dunyosan?

Hayratdaman: nahot mudroqsan,  
Haq yo‘lidan nahot yiroqsan?  
Yo ko‘zlarin ko‘r saning yoki  
Boshdan oyoq yo‘li tayg‘oqsan.  
Nohaqlikka nahot uyosan,  
Bir kam dunyo, bir kam dunyosan?

Dunyo bo‘lsang, keng bo‘lgin, dunyo  
Va barchaga teng bo‘lgin, dunyo.  
Hammaga ham bir ko‘z ila boq,  
Kel, ishlari o‘ng bo‘lgin, dunyo!  
Endi yetar bo‘lma ro‘yo san  
Yorug‘ dunyo, yorug‘ dunyosan!

## JON NIMA

Gar visol bo‘stonida kezmas esam  
Va muhabbat bahrida suzmas esam,  
Yor nafasin har nafas sezmas esam,  
Bu yorug‘ dunyo nima, zindon nima?

Ul suzuk ko‘zlarga har kun boqmasam,  
Misli Farhod, misli Majnun boqmasam,  
Shavqi ishqida simobdek oqmasam,  
Men uchun sahro nima, bo‘ston nima?

Tinglamas ersam sanam ovozini,  
So‘zlamas ersam ko‘ngilning rozini,  
Ko‘rmasam har lahza ishva, nozini,  
Havzi kavsarlar nima, to‘fon nima?

Har kuni diydor sharobin ichmasam,  
Qat-baqat ko'ngil tugunin yechmasam,  
Tun-u kunim yor qoshida kechmasa,  
Men uchun og'u nima, qimron nima?

Yorsiz hijronda kechsa onlarim,  
Qolsalar armon bo'lib armonlarim,  
Gar sarobga uchrasa karvonlarim,  
Men uchun do'zax nima, davron nima?

E, falak, Oxun ohiga tut qulooq,  
Ayla ko'nglimni munavvar, yoq chiroq,  
Menga daf aylar esa yolgaz firoq,  
Ne qilarman jonni, menga jon nima?

### HAMROZ BILAN

So'zlamoq ersang gapingni bejama pardoz bilan,  
Kelsa kim qoshingga boqqil e'tibor, e'zoz bilan.

Jism-u joning birla tingla do'st-u yorlar suhbatin,  
Inson insondir hamisha hamfikr, hamroz bilan.

Toma-toma ko'l bo'larmish, el aro bordir naql,  
Bir bugun olam yaralmish kam-kam-u oz-oz bilan.

O'z kamolingga o'zing sen posbon-u soqchi bo'l,  
Xokisor-u xor etma ulfati nosoz bilan.

Kulma oltin tog'i birla, qol saodat istasang  
Odamiylik deb atalmish bebahos meros bilan.

Yo'q, umr yo'li uzunmas, zoye keturma uni  
Qaydagi nokas-u nomard, qaydagi vos-vos bilan.

Rost deding umring bo'yi, boshingni mag'rur tut yana,  
To abad, Oxun, joningni bog'la mahkam rost bilan.

## **NIMA QOLDI...**

Ortingdan, qani, o'yla-chi bir on, nima qoldi?  
Xirmon qoldimi, qoldimi to'fon, nima qoldi?

Inson bolasi olgay nafas orzu-havas-la,  
Shodlik qoldimi, qoldimi pushmon, nima qoldi?

Odam qo'lini gul deydilar, so'yla-chi sandan  
Vayronami yo qoldimi bo'ston, nima qoldi?

Senga hukmini o'tkarur ne: hirsmi, diyonat?  
Ne qoldi sendan: tillomi imon, nima qoldi?

Inson hayoti yonib-o'char nurga barobar,  
Nur qoldimi sendan, zimiston, nima qoldi?

Ne qoldi sendan deb so'rsa yurt, bir kun, Oxunjon,  
Boshingni egib, o'ksima nolon, nima qoldi?

## YO‘LDOSH SULAYMON

(1935–2004)

Yo‘ldosh Sulaymon 1935-yili Qo‘qon yaqinidagi Oydinbuloq qishlog‘ida tug‘ildi. Bolalarga atalgan “Biz sayohatchilarmiz” nomli ilk she’riy to‘plami 1966-yilda bosilib chiqqan edi. Shundan so‘ng “Da‘vatingni eshityapman, hayot”, “Hamma havas qiladi”, “Katta yo‘lga chiqquncha”, “Boqiy umr”, “Sen mening quyoshimsan”, “Bolalar qalbi”, “Dardim sig‘mas dunyoga”, “Shahrizod bo‘l bir kecha” kabi yigirmadan ortiq she’riy va nasiy kitoblari nashr etildi. Ayniqsa, o‘smir kitobxonlarga mo‘ljallab yozilgan “Avlodlar”, “Muhabbat”, “Jalada qolgan gul” qissalari, xalqimiz tarixining muhim davrlari qalamga olingan “Subhidam”, “Vafo” va “Armon” romanlari, shuningdek, bir qator qo‘shiqlari muxlislar qalbidan mustahkam joy oldi.

Shoir 2004-yilda vafot etgan.

## JOZIBA

Yuzidan ro‘molin ko‘targan chog‘da  
Hamma qushlar sayrab yuborsa bog‘da,  
Qora bulut bexos so‘kilib ketsa,  
Quyosh nuri erib to‘kilib ketsa —  
Bu qanday joziba, bu qanday chiroy,  
Bu yangi quyoshmi yoki yangi oy?!  
Farishtalar suyib yo uni jondan,  
Olib kelganmikin yo Shabistonдан?!  
Yo “Bog‘i eram” ning parisimikin,  
Manzili undan yo narisimikin?!  
Qo‘l yetmas yulduzim o‘shamikin, deb,  
Chaqirsam yonimga tusharmikin, deb —  
Bezovta bo‘lmas hech o‘y-u xayolim,  
Sendan rashk qilmaydi sevgan ayolim,

Butun erib bitdi g‘ubor-u g‘amim,  
Ey, mening sog‘inchim, dilbar ko‘klamim!

## KURASH

Izma-iz poylaydi o‘lim sharpasi,  
Hayratdan ushlayman ba’zan yoqani:  
Kimlar hadikdan-u kimlar qo‘rquvdan  
Makon etyaptilar dorilbaqoni!

Fitna-yu fasodlar zug‘mida qolib,  
Tahlika ichida umrim o‘tsa-da —  
Tun nurdan qochganday qochyapti o‘lim,  
Boisin so‘rsalar yangrar bir sado:

Kurashganing sari yashaging kelar,  
Muhabbat yo‘lida tashlanar qadam.  
Bekor kelib, bekor ketmoq fofia,  
Ikki marta kelmas dunyoga odam!

## DARDIM SIG‘MAS DUNYOGA

Dardim sig‘mas dunyoga,  
Sig‘may qoldim o‘zim ham.  
Xayolimda bir-birin  
Aldar ikki ko‘zim ham.

Kim do‘stim-u kim dushman  
Bila olmay men halak.  
Ikkisi ham shirin so‘z,  
Tushuntir o‘zing, falak.

Onaning oq sutini  
Kimdir o‘lchar pul bilan,  
Kimdir kimga choh qazir  
Qo‘lidagi gul bilan.

Salomdan ham naf izlar,  
Gap tagidan gap izlar.  
Yorni yordan ayirdi  
Niqob tutgan shu yuzlar.

Ular biri-birini  
Tez topadi hamisha.  
Qayerda siz yaxshilar,  
Manzilingiz qay go'sha?!

Ko'zingni och, ey Yo'ldosh,  
Yurak o'tsiz bo'lmasin.  
Kuyga to'ldir dunyoni,  
Odamiylik o'lmasin!

## UMID

Bu dunyoning poyoni yo'q,  
Aniq-ravshan bayoni yo'q,  
Nomardlarning imoni yo'q,  
Do'stingman deb kelganlarning  
Nigohida ayoni yo'q,  
Shirin lutfim ochiq bo'ldi,  
Tinglaganim achchiq bo'ldi.  
Umrim bo'yi sochgan mehrim  
Yuragimga sanchiq bo'ldi,  
Ko'ngil kuyib bir cho'g' bo'ldi!  
Savollarim "netayin"mi,  
Yo bosh olib ketayinmi?  
Vafo desang jafo kelar,  
Yo bu hukm atayinmi,  
Dunyo shunday betayinmi?  
Ishlamagan ezilmagan,  
Olam odil tuzilmagan,  
Hali tugal buzilmagan!

“Yo haq” degan sado keldi,  
Umidlarim uzilmagan!  
Izzattalab topmas izzat,  
“Qani, Yo‘ldosh, dildan kuzat”,  
O‘z yo‘lingni o‘zing tuzat.  
Zulmatdan ham nur qidirgin,  
Umidvorga qo‘ling uzat!

### **QANI O‘TLI NIGOHLAR**

Yolg‘on-yashiq so‘zlardan,  
Niqob tutgan yuzlardan,  
Hayosi yo‘q ko‘zlardan  
Yuraklarim bezillar,  
Qachongacha ezilar?!

Ko‘ngillarim buzilgan,  
Nimalardir uzelgan,  
So‘zlarim ham cho‘zilgan.  
Uchganmikin yo cho‘g‘lar,  
Muhabbatni kim yo‘qlar?!

Sog‘inganman yonishni,  
Shirin-shirin xonishni,  
Yo‘ldosh, yig‘ib ol hushni,  
Qani quyosh-u mohlar,  
Qani o‘tli nigohlar?!

### **OYDIN KECHA**

Oydin kecha, oy kecha,  
Malohatga boy kecha.  
Osmonda oy, yerda oy,  
Oy tun bo‘yi soy kechar.

Tog‘larimiz lol unga,  
Bog‘larimiz dol unga.  
Ko‘zlar boqar porillab,  
Shunday shirin hol unga!

Oy ko‘ringan ko‘chada  
Ko‘ngil qushday uchadi.  
Oqbadan tun nozlanib  
Mayingina quchadi.

Boshim uzra suzadi,  
Qo‘llarini cho‘zadi.  
Yo‘llarimga nur to‘kib,  
Xayolimni buzadi.

Bir ma’yuslik ichida  
Ishq sharobin ichadi.  
Aytolmagan so‘zları  
Tillarining uchida.

Oy, sha’ningga she’r o‘qiy,  
Endi meni xoli qo‘y.  
Yorim sendan ham xushro‘y,  
Kela qol, ey, shirin o‘y.

Sodiqman o‘z rohimga,  
Ergashaman mohimga!  
Yiqilaman poyiga,  
Yetar bo‘lsa ohimga!

Sha’ning uchun she’r o‘qiy,  
Oyjon, meni xoli qo‘y.  
Yorim sendan ham xushro‘y,

## ERKIN SAMANDAR

(1935)

*Erkin Samandar 1935-yili Xorazm viloyatining Xonqa tumani dagi Navxos qishlog‘ida tug‘ilgan. Uning birinchi she’riy to‘plami “Amu jilolari” nomi bilan 1966-yilda chop etiladi. So‘ngra “Osmon to‘la nur” “Dunyoning yoshligi” (1970), “Vafo degan gavhar” (1975), “Sevgi fasllari” (1973), “Шедрость рассвета” (1973), “Mening yigit vaqtim” (1979), “Qabul soatlari” (1980), “Sohildagi bolalar” (1982), “Saylanma”, “Yurakka yo‘l” kabi o‘ndan ortiq she’riy majmualari chop etilgan.*

## BAHOR OQSHOMLARI

(Turkum)

Guldek kular olam beozor,  
Guldek atir sochadi cho‘p ham.  
Chunki kelmish elimga bahor,  
Chunki kulmish dilimda ko‘klam.

Simyog‘ochda qushlar chug‘-chug‘ur,  
Bir-biriga so‘ylaydi ertak.  
Chunki bog‘da tug‘ilmishdir nur,  
Yuragimda bo‘rtmis gulkurtak.

\* \* \*

Ikki tundir seni kutaman,  
Ikki tundir sen — aytar so‘zim,  
Har sharpaga quloq tutaman,  
Har nuqtaga tikaman ko‘zim.

Ikki tundir bag‘rim bo‘lib xun  
Sifat topdim husningga o‘xshash:  
Bu ikki tun sochingday uzun,  
Bu ikki tun qoshingday tutash.

\* \* \*

To tonggacha suhbat qurdik biz,  
Yodga oldik visol onlarin.  
Orzulardan yayrab ikkimiz,  
Esladik ishq xiyobonlarin.

Uchmas unda biz qoldirgan iz,  
Gullarga rang berar jamoling.  
So‘zlashdik shu haqda ikkimiz —  
Men va sening shirin xayoling.

\* \* \*

Sevaman. Borlig‘im tilsimda,  
So‘zimni sabolar tinglasin.  
Men bilan birlashib kulsin-da,  
Men bilan qo‘shilib yig‘lasin.

Se-va-man! Mayliga eshitib,  
Tog‘, dara hayratda qolsinlar.  
Sabo-yu, tog‘-u tosh ko‘plashib  
Sevgimni dildorga aytsinlar.

\* \* \*

Aprel. Sarxush, sarmast bir oqshom,  
Men o‘t edim, sen olov eding.  
Sevaman, deb men ichsam qasam,  
Sen ham dildan, sevaman, deding.

Qancha kutdim shu bitta so‘zing,  
Bormi endi menda ham armon.  
Tong otgach, o‘z so‘zingni o‘zing  
Unutma deb faqat qo‘rqaman.

\* \* \*

Yuragingni muz deb bilardim,  
Ilimaydi, derdim hech qachon.  
Dilingda qish qahrin ko‘rardim  
Kulganida yurtda saraton.

Qanday otash bag‘ringda yondi,  
Qaydin keldi olov tanangga!  
Men ne uchun quvonmay endi  
Muz deganim bo‘lsa alanga.

\* \* \*

Men yomon ekanman sening nazdingda,  
Yuzimga aytganing uchun tashakkur.  
Erk-u ixtiyorim olib o‘zimdan,  
Meni yomon qilgan ko‘zingdagi nur.

Yuzdag'i xolingdan men yomon bo‘ldim,  
Labdag'i jilvangdan yomonman, hayhot.  
Men kabi “yomonlar” bo‘lganlar, bildim,  
Bittasi Majnundir, bittasi Farhod.

\* \* \*

Otaver, otaver ta’na toshini,  
Horib-tolguningcha, to‘yguningcha ot.

Ayollar qo‘lida bu tosh otilib,  
Avloddan avlodga o‘tuvchi bisot...

Kelding deb ot uni, kelmading deb ot,  
Sevding deb ot uni, sevmading deb ot.  
Ta’nang toshlariga beradi bardosh  
Kipriging o‘qiga chidagan bu bosh.

\* \* \*

Ikki toifaga bo‘linmish bashar,  
Bor erur yashashning ikki ma’nosи.  
Bu dunyo ichida ikki dunyo yashar:  
Oshiqlar  
Va ishqosizlar dunyosi.

Birinchi dunyoda to‘rt fasl ko‘rkam,  
To‘rt fasl odamning ishqadir hamdamи.  
Sening hamdamining ne,  
bilolmam hech ham,  
Ey, ikkinchi dunyo odami?

\* \* \*

Achinmayman achchiq kunlarga,  
Dilga oshno zilday og‘ir dam.  
Hayot borki, azal-azaldan  
Nasibadir oshiqqa sitam.

Boshqa bo‘lar toti sevgining,  
Suyilganlar, suyganlar bilar,  
Achchiq damning shirinligini  
Ayriliqda kuyganlar bilar.

## MIRAZIZ A'ZAM

(1936)

*Miraziz A'zam 1936-yil 29-martda Toshkent shahrida tavallud topgan. "Sevaman", "Tuyg'ular", "Sabot", "Haqiqatning ko'zlar", "Saylanma" kabi she'riy to'plamlari, "Aqli bolalar", "Senga nima bo'ldi", "G'alati tush", "Yer aylanadi", "Yerga dovruq solamiz", "Bir cho'ntak yong'oq", "Qirq bolaga qirq savol" kabi bolalar uchun kitoblari nashr etilgan.*

*N. Hikmat, Najib Hoji, Maxmat Osif, Ali Oqbosh, O'rxon Kanol kabi turk adiblarining asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Murod O'rozning "Turk asotirlari" kitobining tarjimasi uchun xalqaro Mahmud Koshg'ariy mukofotiga sazovor bo'lgan.*

## YASHAGIM KELADI

Men birinchi yomg'ir bo'lib yog'gim keladi  
O'zbekiston yerlariga.

Men keksa chinorlarning salobati bo'lib,  
qayrag'ochning metinligi bo'lib  
yashagim keladi O'zbekistonda.

Men tog'larimiz tepasida soylarimizning guvullashin  
yurak hovuchlab eshitganman.

Soylarimizning ovozi bo'lib qolgim keladi  
O'zbekiston daralarida.

Men azim yong'oqlardan yong'oq bo'lib sochilgim keladi,  
tutlardan tut bo'lib,  
noklardan nok bo'lib,  
olmalardan olma bo'lib,  
gars yorilib,

sharbat bo‘lib  
to‘kilgim keladi O‘zbekiston yerlariga.

Bolalarning ko‘zlarida quvonch bo‘lib  
chopib yurgim keladi yana  
O‘zbekiston yerlarida.  
O‘zbekiston paxtasining oqligida, yumshoqligida,  
Salohiyatida, saxovatida  
yashagim keladi.

\* \* \*

Allakim “Ushshoq”ni kuylaydi nafis,  
Kim “Cho‘li iroq”ni chaladi nayda.  
Allakim childirma chertadi tekis,  
So‘ng birov kuylaydi: “...qaydasan, qayda...”

Olib ketmoqdalar ko‘zi ohuni,  
Mening sevgilimni uzatmoqdalar.  
Yuragim isyonda va lekin uni  
Men sevgan qo‘sishqlar kuzatmoqdalar.

\* \* \*

Yoshlik bir asrday tuyular yoshlikda:  
yoshlik osmonining tubi yo‘qday,  
yoshlik ufqi ufqsizday,  
go‘zallik abadiyday  
va olamning taqdiri  
qo‘ldan hech qachon ketmaydiganday...  
Odam qadriga yetmaydi vaqtning yoshlikda...  
So‘ng shoshilish, so‘ng afsus  
va qulash holbuki...

## BOR

*Hali ro'y bermagan jasoratlar bor.*

**V. Zatuliviter**

Hali yuz ochmagan ming xil chechak bor,  
hali bor oldinda gul fasli — bahor.

Oldinda serquyosh kun bor ulug'vor,  
hali yuz ochmagan ming xil chechak bor.

Hali tug'ilмаган toyalar bor qator,  
hali ko'z ochmagan sherlar bor yoldor.  
Hali uyg'onmagan qaldirg'ochlar bor,  
hali tug'ilмаган toyalar bor qator.

Hali bolalar bor, hali qizlar bor,  
Barchinoy bo'lajak shirmon yuzlar bor.  
Belin bog'lamagan sher yigitlar bor,  
hali bolalar bor, hali qizlar bor.

Navbat kutar kunlar qattiq so'roqli,  
hali savollar bor og'ir, salmoqli,  
javobin topolmas kimdir yaroqli,  
navbat kutar kunlar qattiq so'roqli.

Haqsizlik muqarrar topgusi zavol,  
Chinakam hamdo'stlik bo'lur barqaror,  
Ozodlik yer uzra topajak kamol,  
hali ro'y bermagan jasoratlar bor.

## EGILGAN BO'YINLAR

"Egilgan bo'yinni kesmaydi qilich..."  
Egilgan bo'yinni kesmasa qilich,  
qilichlik nomini o'chirmoq kerak,  
Egilgan bo'yinni kesmasa qilich.

Egilgan bo‘yinlar egilib yashar,  
Egilgan bo‘yinlar qilar har ishni.  
Yashasa bo‘lgani egik bo‘yinlar,  
yuz yillar orqaga surib turmushni...

Egilgan bo‘yinni qilich kesmas,  
deb yashamoq kerakmi bo‘yinni egib?  
Do‘sstarim, do‘sstarim, qo‘shilrangiz hech,  
bo‘yinlar tik bo‘lsin, kessa ham qilich...

## YUSUF SHOMANSUR

(1936–1978)

*Yusuf Shomansur 1936-yilda tug‘ilgan. “Mehringga to‘ymayman”, “Qalam va umr”, “Yuragim”, “Tabassum”, “Qiziq-qiziq”, “Dostonlar” nomli qator she’riy to‘plamlari, “Qora marvarid” romani nashr etilgan.*

*Shoir 1978-yilda vafot etgan.*

\* \* \*

Qabog‘in ishqar quyosh, hali ufq ortida,  
Yostiq bilan bir bo‘lib, sochi to‘zg‘ib uxlар tong.  
Bulbul ham mizg‘ib qolar gul ochilgan paytida,  
Tanimni jimirlatar sukut o‘zi bir ohang.

Muzdek nafas ufurar dimog‘imga bedazor,  
Asablарим torлari yumshar ipak toladay.  
Gullagan bedalarning boshida oq jig‘a bor,  
Yozda to‘r do‘ppi kiygan uch yasharlik boladay.

Beda bargin uchida qalqib turar marvarid,  
Kiprigim qimirlasa to‘kilguday duv etib.  
Qanchaki jafo cheksam, qancha qilsam parvarish,  
Shu shabnam donalarni terolmam inju etib.

Uyatchan kelinchakning ohista shiviriday  
Bedazorni oralab esib qoldi shabboda.  
Shudring donachalari soxta ishq taqdiriday  
Uzildi shoda-shoda, uzildi shoda-shoda...

Atirgul novdasi  
 Tiniq shishada,  
 Tiniq suvda nozik ildiz chiqardi.  
 Uni ko‘rgan sarim  
 Aqlim shoshadi,  
 Tasavvur etaman uyda gulzorni.  
 Cho‘g‘day g‘unchalarni  
 Uzib xayolan  
 Kimgadir xayolan qilaman sovg‘a.  
 Bahramand bo‘larkan  
 Nurdan,  
 Ziyodan,  
 Atirgul ildizi yashnadi suvda.  
 Oxiri  
 Ildizlar o‘sib,  
 Ko‘payib,  
 Billurday shishaga borib taqaldi.  
 Shunda,  
 Ildizchalar birdan sarg‘ayib,  
 Novda yashilligi,  
 Ko‘rki yo‘qoldi...  
 Xonamda mo‘l  
 Toza havo,  
 Toza nur  
 Ildizlar  
 Buncha tez qurib, so‘lmasa?  
 Ha,  
 Har qanday hayot  
 Yozolmas tomir  
 Jindakkina  
 Qora tuproq bo‘lmasa...

## HAFTA

Dovullarni pisand qilmasdan hatto,  
Sukunatning sovuq qa'riga cho'kmay,  
Bir tekis aylanar charxpalak — hafta,  
Ariqdan, yo'riqdan, tarixdan chiqmay.

Yakshanbadan toki shanbaga qadar  
Chambarchas, o'Ichovlik mo'jaz bir gardish.  
Girdobidan necha asrlar o'tar,  
Inson zoti ko'rgan farog'at, tashvish.

Yettita bahodir — yetti qodir kun  
Zamon xizmatida nom olmish — hafta.  
Dunyoda eng kichik, eng botir qo'shin —  
Shulardan, ming yilki xato yo'q safda.

Hech narsa dunyoga kelmagay qaytib,  
Hech narsa muntazam yashamas takror.  
Haftaning kunlari kelar saf tortib,  
Hayot manguligin kim etar inkor?

Aylanib-aylanib kelavergach, oh,  
Haftaning yetti band mangu qo'shig'i.  
Odamzod toliqdi, hayqirdi nogah:  
Bir kunga so'nsaydi bu otash cho'g'i...

...Haftaning bir kuni odamzod tindi,  
Xizmatiga bormay yotdi uyida.  
Daraxtning bir shoxi, nahotki, sindi,  
Nahotki, bir qudrat sindi poyida?

Yo'q, yo'q, bu insonni ovutmoq uchun  
Sirtiga moy surgan azaliy mehnat.  
Qani, o'sha orom, farog'atli kun —  
Ayri tushdimikin qalbdan muhabbat?..

...Holbuki, haftaning har oni hayot,  
Orom deganlari yolg'on, majoziy.  
Hafta qo'shinida abadiy sabot,  
Qarshi turolmagay dunyo sarbozi.

Aylana-aylana chiyrig'idan u  
Zamon-zamонларни о'tkazar yutib.  
Komiga tortsa ham qancha baxt, qayg'u,  
Ozaymas, ko'paymas, yashar ne kutib?

Bilolmadim, o'ylay-o'ylay shu haqda  
O'tib ketdi, mana, necha yuz hafta...

## MA'RUF JALIL

(1936–2004)

*Ma'ruf Jalil 1936-yil 10-oktabrda Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumanidagi Payshanba shaharchasida tug'ilgan. "Men sizni sevardim", "Rahmat, odamlar" (1970), "Seni o'ylab" (1973), "Notanish yo'llar" (1976), "Qo'shiq ishtiyoqi" (1979), "Men suv ichgan daryolar" (1981), "Parizodim" (1984), "Daryoni izlar shamol" (1987), "Baxtimga sen borsan" (1989) kabi she'riy kitoblari, "Bunyodkor qalb" (1984), "Orol madad so'radi" (1987) ocherk va publitsistik to'plamlari chop etilgan. 2004-yil 14-dekabrda Toshkent shahrida vafot etgan.*

## UMR

Kimlar bu ko'chadan o'tmagan?  
Himmati daryodan ustunroq,  
G'azabi vulqondan jo'shqinroq,  
Yuragi osmonday kenglarmi?  
Mardlikda Rustamga tenglarmi?  
Yo maktab, yo paxsa uy qurib,  
Yo o'ksik ko'nglini to'ldirib,  
Har tongda bir hikmat kutganlar?  
Yo aldab razil ish tutganlar?  
Zindonda nur ko'rmay siniqqan,  
Yo omoch yetaklab chiniqqan,  
Mehribon, zahmatkash dehqonmi,  
Bosqinchi, beshafqat xoqonmi —  
Kimlar bu ko'chadan o'tmagan?  
Zamonlar ortidan chang bo'lib,  
Umidlar qolgan mish to'kilib.  
Shularni avaylab teraman,

Saralab xalqimga beraman.  
Yurmoqqa kelganda navbatim,  
Mehnat-u ishq bo'ldi ulfatim.  
Yillardir, oylardir unga zeb,  
Qisqasi, atalar UMR deb.  
Kimlar bu ko'chadan o'tmagan?

## PARIZODIM

Parizodim, seni izlab tog'larga bordim,  
Aytolmadim yurakdagи savollarimni.  
Ammo, topib yupansin, deb qo'yib yubordim —  
Tog' burguti kabi o'jar xayollarimni.

O'zim javob berolsaydim,  
Boshimni egib,  
Shamol kabi yugurmasdim, qo'nim bilmasdan.  
Shivirlamas edim har bir daraxtga tegib,  
Hatto tog'lar so'zlar edi sukut qilmasdan.

Pishqiradi yuvosh bo'lib qolgan daryolar,  
Xazon bo'lган lola qayta ko'taradi bosh.  
Eski yo'lda yangrar edi yangi navolar,  
Kuchga to'lib nur sochardi kuzda ham quyosh.

Har bir meva tug'iladi kurtak va guldan,  
Ammo ozmi atirgulday mevasiz gullar!  
Yo'q, men qiyiq qidirmadim bu yerda qildan,  
Manzil sari eltmas ekan duch kelgan yo'llar.

Men tanlagan yo'l hayotga begona emas,  
Mo'jizalar uchramaydi unda ehtimol.  
Balki hech kim taqdirimni qilmaydi havas,  
Senga atab ekolmasam bitta ham nihol.

Qarong'uda yo'qotarman balki yo'limni,  
Balki bir tosh yiqitadi adashganimda,

Balki birov madad berar ko'rib holimni,  
Balki kunim bitar senga yetishganimda.

Ammo senga qilmagayman zarra xiyonat,  
Qasam ichib bermaganman garchi qat'iy so'z.  
Sen mangusan bu dunyoda, men — bir omonat,  
Ezgu hislar ichra lekin yonurman hanuz.

Parizodim, seni izlab tog'larga bordim,  
Aytolmadim o'ylab yurgan savollarimni.  
Ammo, topib yupansin, deb qo'yib yubordim —  
Tog' burguti kabi o'jar xayollarimni.

\* \* \*

Men orqangdan la'nat demasman  
Va qilmasman seni gunohkor.  
G'iybatlarga tashna emasman,  
Bunda emas g'urur, iftixor.

Ko'ngil xushi bo'lsa matlabing,  
Muhabbatdan izladining nega?  
Nega qaltis jardan hatlading,  
Jur'at qilib so'zlading nega?

Visol bilan qisqargan tunlar,  
Orzularning hammasi tamom.  
Tamom bo'lgan baxtiyor kunlar  
Bu kun bizdan olar intiqom.

Endi chida. Ortga qaytish yo'q,  
Qo'ldan kelsa unut barini.  
Qaytarolmas na ont va na do'q  
Ozod bo'lgan dil kaptarini.

\* \* \*

Netay sen el aro afsona bo‘lsang,  
Menam yolg‘iz, senam bir dona bo‘lsang.

Meni sog‘ deb ichingda chekma ozor,  
Menam devonaman devona bo‘lsang.

Necha kunki shinam uy izlar edim,  
Meni bag‘ringga olgin xona bo‘lsang.

Xusumat qo‘lini ajrat yoqamdan,  
Agarda yarqiroq peshona bo‘lsang.

Olib Zuhra kabi oshkor qilurman,  
Odamlar ichra sen pinhona bo‘lsang.

Hamon so‘zim yetib bormas dilishta,  
Nahotki shunchalar begona bo‘lsang?!

\* \* \*

Qani mening sevinchlarim, g‘amlarim qani?  
Zang bosmagan qilich kabi damlarim qani?

Zim-ziyo qalb go‘shasida do‘stlar sham edi,  
Bugun yorug‘ qalb go‘shasi shamlarim qani?

Mudom to‘kis hayotimda bo‘lar bir kamlik,  
Ayting, kemtik hayotimda kamlarim qani?

Goh hijron, goh uchrashuvdan ko‘zlar bo‘lar nam,  
Uchrashuv bor, hijron bor-u namlarim qani?

Belga bog‘lab yurar edim belbog‘-u xanjar,  
Do‘ppim boshda, belbog‘ bilan xanjarim qani?

Ma’ruf, endi afsus qilma o‘tgan kunlarga,  
Degil: Qoshi qaro, sochi anbarim qani?

## **OSHIQ ERKIN**

**(1937)**

*Oshiq Erkin (Erkin Madrahimov) 1937-yil 7-mayda Xivada tug'ilgan. "Iqbol", "Ohular", "Yilga tatigan bir tong", "Yolg'onning umri qisqa", "Po'lat va uning bobosi", "Tillaqush", "Mehring tushdi yurakka", "Azim daryo", "O'lguncha sizni derman", "Ish-qing tushdi yurakka", "Mujgoningga sallamno" kabi o'ttizga yaqin badiiy va publitsistik kitoblari nashr qilingan. "Shuhrat" medali hamda "Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" unvoni bilan taqdirlangan.*

### **LO ILAHA ILLALLOH**

Ne jamol bu, ne kamol bu, lo ilaha illalloh,  
Ne qamar bu, ne hilol bu, lo ilaha illalloh.

La'lidin jon istasam men jon olar ul begumon,  
Ne afsun bu, ne zilol bu, lo ilaha illalloh.

Sollanib sevgi shahrini qiyomat-qoyim etgan  
Ne qomat bu, ne jamol bu, lo ilaha illalloh.

Bir yo'l ko'rib husni olin, lol qolur ahli tarab,  
Ne hikmat, ne qiylu qol bu, lo ilaha illalloh.

Ko'zlarining o'ynatur gul chehrada gulgun mengi,  
Ne nuqra, ne kumush xol bu, lo ilaha illalloh.

Oshiq Erkin, yor jamol-u kamoliga sadqa jon,  
Ne san'at bu, ne a'mol bu, lo ilaha illalloh.

## ISHQ ARO QO'YSANG QADAM

Ishq aro qo'ysang qadam kuymakdin o'zga chora yo'q,  
O'rtanib hijron aro o'lmaqdin o'zga chora yo'q.

Ishq seni o'tdan olib, o'tlarga otgay bir umr,  
Bo'lsang-da gar dev —  
notavon bo'lmaqdin o'zga chora yo'q.

Bul chamanga gurkirab, yashnab kirib, oxirida  
Sorg'arib bir gul kabi so'lmaqdin o'zga chora yo'q.

Dardi ko'p, darmon yo'q, berahm sevgi azal,  
Ko'yida Majnun bo'lib yurmakdin o'zga chora yo'q.

Sevgi sultoni mudom shohdin buyukdir, oldida  
Damda ming ta'zim qilib turmakdin o'zga chora yo'q.

Oshiq Erkin, ishq aro kirdingmi, bas, qayg'urmagil,  
Mard bo'lib bu yo'lda ot surmakdin o'zga chora yo'q.

## HOTAM ERSANG

Hotam ersang himmating elga ayon bo'lg'ay sening,  
Shuhrating ovozasi ham bepoyon bo'lg'ay sening.

Aylagil yurtga nisor Haqbergan ul ganjinani,  
Minglagan tilda mudom madhing bayon bo'lg'ay sening.

Bevafoliq aylasang gar oshinoga past ketib,  
Bil, raqibga aylanib, do'sting chayon bo'lg'ay sening.

G'ayri bir yo'llar ila qilma murod boylikni sen,  
Buyla nopok topganing o'zga ziyon bo'lg'ay sening.

Tiqmagil og‘zingga birdan ikkala panjangni ham,  
Do‘st-u yoring zumda yoningdan quyon bo‘lg‘ay sening.

Gar sadoqatli esang ishq-u muhabbatda mudom,  
Bir umrga mahvashing g‘unchariyon bo‘lg‘ay sening.

Topganing yurting ila hotam bo‘lib ko‘rgil baham,  
El aro odamliging shunda ayon bo‘lg‘ay sening.

Bo‘lmaq‘il qul, Oshiq Erkin, zarra dunyo moliga,  
O‘yla, umring so‘ngida yo‘ling qayon bo‘lg‘ay sening.

## QIYNALMASIN

Sevsangiz jondan seving, so‘ngida jon qiynalmasin,  
Bemehrga duch kelib, bir mehribon qiynalmasin.

Hech bir oshiq kuymasin ishq o‘tida devonavor,  
Unga yor bo‘lsin sadoqat, hech qachon qiynalmasin.

Sevgi bo‘stoni vafo birla bezansin bir umr,  
Tushmasin bog‘ga g‘ubor-u, bog‘bon qiynalmasin.

Sen ko‘tar osmon qadar yorni munosib bo‘lsa gar,  
Ketsa oh cheksin zamin-u osmon qiynalmasin.

Biz-ku mehmon bir-birovga, xonadondur bu Vatan,  
Bir-birovni qiyamataylik, xonadon qiynalmasin.

Sohibi shondur muhabbatda vafoli bo‘lsa yor,  
Yorga baxt baxsh aylagan sohibi shon qiynalmasin.

Oshiq Erkinga o‘zing jon-u jahonsan, dilbarim,  
Qiynama, bir men emas — jon-u jahon qiynalmasin.

## MEN SENING JONING BO'LAY

Sen mening jonioimni olgin, men sening joning bo'lay,  
Qaddi-bo'ying-chun, nigoro, damda qurbaning bo'lay.

Baxtli qismatdur visolga o'rtanib yetmoq azal,  
Qilma tark hijron azobin, mahvash, hayroning bo'lay.

Bu sharaf yo'lida farz mendan murod, sendan karam,  
Vaslingga yetkaz, visol ko'kida komroning bo'lay.

Men senga sodiq, vafodor, sendan menga sarvi ravon,  
Lutf qilg'il, bir umrlik tanda darmoning bo'lay.

Sen menga xurshidi tobon, la'li xandon bo'l mudom,  
Men senga doston bitay, sodiq g'azalxoning bo'lay.

Yo'llarimda sen gul-u rayhon bo'lib qilg'il xirom,  
Yo'llaringda, Oshiq Erkin, mehri raxshoning bo'lay.

## **BAROT BOYQOBILOV**

**(1937–2006)**

*Barot Boyqobilov 1937-yil 14-martda Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi Kenagas qishlog‘ida tug‘ilgan. O‘zbekiston xalq shoiri (1997). “Samarqand satrlari” (1962), “Visol” (1965), “Seni izlayman” (1968), “Samarqand ushshog‘i” (1969), “Afrosiyob” (1970), “Sonetlar” (1982), “Kim sokin yashaydi O‘zbekistonda” (1990) va boshqa she’riy to‘plamlari nashr etilgan. Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan “Shukuhli karvon” (1981), “Notinch Xuroson” (1985), “Sokin Xuroson” (1992) va “Qonli Xuroson” (1992) dostonlari, “Hayrat ul-abror” (1997) she’riy romani ham bor. B. Petrarka, V. Shekspir, P. Neruda, R. Hamzatov sonetlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti laureati (1994).*

*2006-yilda Toshkent shahrida vafot etgan.*

\* \* \*

Yur, chiqaylik sayrga, do‘stim,  
Sog‘inganman Siyob bo‘yini.  
Tark etaylik shaharni bir zum  
Ko‘rmoq uchun ko‘klam to‘yini.

Kapalakday aylab sayri gul,  
Bog‘lar aro kezaylik xurram.  
Sendan faqat iltimosim shul,  
Bizdan rizo bo‘lsin bu ko‘klam.

Qo‘lingdagi chinni piyola,  
Mayli, menga tutmasin sharob.  
Yur, azizim, tezroq Siyobga,  
May o‘rnida ichaylik gulob.

Yoshligimiz o‘tgan gul bog‘lar  
Har bahorda bizni so‘roqlar.

\* \* \*

Urgut chinoridan mening qalamim,  
Qalbimning sofligi — buloqlaridan.  
Odamlarin mehri — o‘qli kalomim,  
Qaddim rasoligi — alp tog‘laridan.

Ko‘klam xandasidan — tabassum, kulgim,  
She’r bitgan qog‘ozim — saxiy dalasi.  
Kimyo tuprog‘idan to‘lgan iligim,  
Nafasim — shifobaxsh subhi sabosi.

Bedor soyolarida — umrim kemasi,  
Charx urgan kaptari — o‘y-orzularim.  
Tilidagi g‘azal — sevgim shevasi,  
Cho‘qqiga ketgan yo‘l — mening izlarim.

Tarjimayi holim — Urgut qissasi,  
She’rim — urgutliklar oltin bo‘sasi.

\* \* \*

Mevali daraxtga tosh otar,  
Toshlardan butog‘ing sinmasin,  
Shoxingga kalxatlar qo‘nmasin,  
Qismating o‘ylasam bosh qotar.

Ko‘zimda qo‘rg‘oshin yosh qotar,  
Mayli, tosh otganlar tinmasin.  
Mevangni yeb turib, tig‘lansin,  
Boshingda bir kuni tong otar.

Vale tong otguncha, otib tosh,  
Tutundek o'rlatsa ohlaring,  
Dardingga bo'lgandek qayg'udosh.  
Xazondek yonsa gar bog'laring,

Sen bo'lib o'rtada jon talash,  
Qirqilib ketmasin shoxlarining.

\* \* \*

Ey mening go'zalim, mening farishtam,  
Senga tushganida dastlab nigohim,  
Yulduzday beshumor balki gunohim,  
Ey mening go'zalim, mening farishtam.

Qalbingda tutashdir mening jon rishtam,  
Ey mening dilbarim, chashmi siyohim,  
Bu chigal dunyoda sensan panohim.  
Qalbingga tutashdir mening jon rishtam.

Jonim rishtasini uzma qalbingdan,  
Samoni tutundek tutmasin ohim,  
Oftob ham kuymasin sening qahringdan.  
Sevmaklik ayb emas, ey mening mohim,

Ishqimni haydama ko'ngil qasringdan,  
Qalbingdir topingan mening mehrobim.

## GULCHEHRA JO‘RAYEVA

(1937)

*Gulchehra Jo‘rayeva 1937-yil 1-fevralda Buxoro viloyatining Shofirkon tumanida tug‘ilgan. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi (1992). “Baxtim borki...” (1961), “Gul shaydosi” (1969), “Bog‘imda bahor” (1968), “Hayajon” (1971), “Umr — daryo” (1974), “Salom do‘sstar” (1975), “Eng yaqin yulduz” (1979), “Dostonlar” (1981), “Iqbol” (1983), “Mehrim sizniki” (1984) kabi to‘plamlari nashr etilgan.*

### HAYOT SABOQLARI

Yoshlik va keksalik orasi uzun,  
Kurraning ikkita qit’asi xuddi.  
Tasmaday tekis yo‘l, goh ilonizi,  
O‘rtada dengiz-u tog‘lar hududi.

Goho tik borasan, olgandek nishon,  
Ba’zan adashasan, to‘g‘ri yo‘l qolib.  
Shunda mushkulingni etmoqqa oson,  
Aql ham idrokni o‘t ishga solib...

Yoshlik va keksalik orasi yiroq,  
Sinov ko‘priklari tutash mahali,  
Qay biridan o‘tdim, bilmadim, biroq,  
Balki o‘tmaganim oldinda hali...

## MUQADDAS TUYG‘U

Har kuni, har tongda yaqin-yiroqdan,  
Yangi xushxabardan keladi darak...  
O‘zbeklar dovrug‘i yangrar har yoqda,  
Vatanni sevmoqlik shu bo‘lsa kerak.

Xorij shohsupasin ustida o‘zbek,  
Bayroqdek hilpirar vujudda yurak...  
G‘oliblar yarashar yurtda yuz-ko‘zdek,  
Vatanni sevmoqlik shu bo‘lsa kerak.

Qishloqlar shahardek zebo, chiroyli,  
Muhtasham qasrlar, uy-joylar yuksak.  
Bunyodkor mehridan qorilgan loyi,  
Vatanni sevmoqlik shu bo‘lsa kerak.

Kecha-yu kunduzmi ter to‘kar dehqon,  
Mehnatda toblangan baquvvat bilak.  
Noz-u ne’matlarga to‘kin dasturxon,  
Vatanni sevmoqlik shu bo‘lsa kerak.

Buyuk kelajakka intilgan yoshlar,  
Ezgulik ilmini o‘rganar birdek.  
Iste’dod ixtiro yo‘liga boshlar,  
Vatanni sevmoqlik shu bo‘lsa kerak.

Farzandlar lutfida faxr, iftixor,  
“O‘zbekiston — bizning uyimiz” demak.  
Do‘sstlik diyorida ellar baxtiyor,  
Vatanni sevmoqlik shu bo‘lsa kerak.

G‘animga yo‘l yo‘qdir sarhad mustahkam,  
Polvon posbonlari hamisha sergak.  
Xalqimiz yashaydi tinch va xotirjam,  
Vatanni sevmoqlik shu bo‘lsa kerak.

E'zozga munosib aziz insonlar,  
G'ururdan yarqillar nishondor ko'krak.  
Bunda tug'iladi chin qahramonlar,  
Vatanni sevmoqlik shu bo'lsa kerak.

Elim deb, yurtim deb jonini tikkан,  
Rahnamo umrga — eng ezgu tilak.  
Mehribon sarvari sog', omon ekan,  
Vatanni sevmoqlik shu bo'lsa kerak!

## SARATON

Dim havoning isitmasi xo'p baland,  
Garmsel nafas ufuradi og'zidan.  
Muzday suvni ko'ksiga sepgan bilan,  
Par aylanib xippа olar bo'g'zidan.

Jon kiritar subhidamdagи shabnam,  
Tashnalikdan chechaklar cheksa ozor.  
Quyoshiga alyor aytar shod, xurram,  
Paxtazor-u, bug'doyzor-u mevazor.

## HAMROH

Munis she'r larimdan to'qilgan sirdosh,  
Mehnat qozonida qaynadik ikkov.  
Issiq-sovuqlarda sen menga yo'ldosh,  
Amudan Sirgacha kezibmiz yayov.

Ishchimi, dehqonmi, olim, talaba,  
Insonlar qalbiga tashrif — burchimiz.  
Qaydaki tantana qildi g'alaba,  
Besamar yurmadirik maqsad uchun biz.

Istiqlol yo‘liga tushganda “g‘ov”lar,  
Tashvishli kunlarda bo‘ldik hamjihat.  
Tilini tishladi ko‘rolmas yovlar,  
Mustahkam birlashdi xalq-u jamiyat.

Yangicha davronda fikr ham ozod,  
Yaratmoq ishqida har yurak urmish.  
Mard-u maydonlarga Vatan qo‘shqanot,  
Obodlik avjida yonadi turmush.

Muqaddas dargohdir ijod olami,  
Ko‘ngilga nur sochar adabiy hayot.  
Hech qachon to‘xtama, aziz qalamim,  
Bizga nasib etsin abadiy hayot!

## VAQT KUTMAYDI

Erinchoqlik — haydang ko‘ngildan,  
Boshga balo ortmasidan u.  
Muzdek suvni qo‘ying yengidan,  
Tanbal qilib qo‘ymasin uyqu...

Quving uni dala-dashtlarga,  
Yerni chopsin, qavarsin bilak.  
Poyi tegsin tog‘-u toshlarga,  
Oyog‘ini “o‘psin” tikanak.

Shogird tushsin ustoz Mehnatga,  
Bilmaganni bilishga shoshsin.  
Olov yoqsin so‘nik g‘ayratga,  
Muhabbati hayotga oshsin.

Erinchoqlik bor ekan kimda,  
Erk bermangiz ildiz otishga.  
Yechib olib so‘nggi ko‘ylakni,  
Tayyor turar uni sotishga.

Kutib turmas shiddatli zamon,  
Umr o'tar, ayamaydi vaqt.  
Armonlarda qolmasin armon,  
Sizni izlab yugurmaydi baxt.

### **QANOT BER...**

Menga qushday yengil qanot ber,  
Yillar yuki bukmasin qaddim.  
Oq yuzimni yuvsin qora ter,  
Mehnatimdan yuksalsin qadrim.

Menga qushday yengil qanot ber,  
Qoyalarga tegsin qanotim.  
Jilovini uzib qochgan sher  
Kabi chopsin ilhomim oti.

Tahlil qilsin she'rimni quyosh,  
Kuya solib aytsin yulduzlar.  
Har yurakka sirdosh, ohangdosh  
Alla kabi sochilsin so'zlar.

Qo'l-oyoqdan ketmasin mador,  
Ko'zlarimdan sovimasin nur.  
Hech kimsaga etma meni zor,  
Ey Ollohim, o'zing qo'llab tur.

Menga qushday yengil qanot ber,  
Zil toshlarim bo'lsin chilparchin.  
Qimirla-yu qir osh, — yurak der, —  
G'ayratingda yashar chil barchin...

## **CHO‘LPON ERGASH**

**(1937–2010)**

*Cho‘lpon Ergash 1937-yilda Qirg‘izistonning O‘sh shahrida tug‘ilgan. “Tong yulduzi” (1970), “Bizning uyimiz” (1972), “Umid chirog‘i” (1979), “Bahor orzulari” (1980), “Tong otar sadolari” (1982), “Sehrli qo‘ng‘iroq” (1984), “Oy chodir tikmoqda” (1985), “Eng baland qasr” (1986), “Karvon kelar”, “Orzuning og‘ir kipriklari” (1990) kabi she’riy asarlar muallifi. Shoir 2010-yilda vafot etgan.*

### **MEN**

Sochlarimning uchlaridan to  
Oyoqlarim tirnog‘igacha —  
Meniki, deb aytaman, hatto  
Butun umrim, naryog‘igacha...

Ustun kelib kimdandir, dadil  
Deyman doim: “Bu — mening so‘zim!..”  
Menligimga ammo kim kafil,  
Qani o‘sha “Men” degan o‘zim?

Allaqanday yo‘q bir “Men — hokim”  
Ovoz berib yo‘q yerdan “gur-gur”,  
Qanday dahshat: “Bu — mening xalqim...  
Vatan!..” deya jar solsa, mafur!

Yashirmayman, rost, bu — qo‘llarim,  
Mening qornim, og‘zim, yuz-ko‘zim.  
Anov uzun, silliq — yo‘llarim,  
Ammo, aytинг, qani men o‘zim?!

Oh, tabiat, nechun bu suvrat,  
El-yurt, boylik, dono so‘zligim?  
Kerak emas bu baxt, bu qudrat,  
Bergin avval menga o‘zligim!

## MASHRABNING DOR OSTIDA AYTGANLARI

*Tamosho qilguchi ersang, mozorimni tamoshlo qil.  
Mashrab*

Mendek motamsaro yo‘q,  
Yovlarimga qazo yo‘q.  
Nolib shunday besamar,  
Men ko‘rmagan balo yo‘q.

Yolg‘iz panoh nafsimiz,  
Ham bu harom lafzimiz.  
Haqgo‘y odam — javobgar,  
Qasamxo‘rga jazo yo‘q.

Yetim qizdek bedavo,  
Kulgi bo‘ldi sharm-hayo.  
Orsiz ketdi — tavoqda,  
Ta’rifiga imlo yo‘q.

Halol noni — minnatli,  
Qilgan ishi illatli.  
O‘g‘ri to‘rda — mo‘htavo<sup>1</sup>  
Hech gapida xato yo‘q.

Aqli kullar<sup>2</sup> — devona,  
O‘z elida begona.  
Yurt og‘asi — sotqinlar,  
Xoindan zo‘r daho yo‘q.

<sup>1</sup> Mo‘htavo — e’zozli.

<sup>2</sup> Aqli kul — buyuk aql.

G‘ar-u kazzob, qaroqchi  
Yurtimizga poyloqchi.  
El-ulus deb kuyganlar  
O‘lib ketsa, da’vo yo‘q.

Talab mol-mulk, jonomiz,  
Yurar yallo har iblis.  
Yeb-yutmagan bizni hech  
Ya’juj-ma’juj, tarso<sup>1</sup> yo‘q.

Oldi to‘ymay sarvarim  
Hatto bor-yo‘q javharim.  
Oppoq Xo‘jam qo‘llari  
Yetmagan joy — halo yo‘q.

Tillarida madh-sano,  
Chanog‘ida<sup>2</sup> hech vaqo.  
Darveshlar biz bevatan,  
Qo‘limizda aso yo‘q.

Bas endi, os, ey jallod,  
Mangumas hech istibdod!  
Kelmasa u qasos kun,  
Men kelurman, fano yo‘q!

## JAVZO KECHASI

Deraza pardalari uchadi.  
Deraza pardalari  
ko‘tarilib tushadi.  
Oynadan boshimni chiqarib,

<sup>1</sup> **Tarso** — g‘ayridin.

<sup>2</sup> **Chanoq** — darveshlar yoniga osib yuradigan (odam bosh chanog‘idan yasalgan) kashkul.

Oqayotgan bulutlarga qarab qolaman.  
Muzdek shamol urar ko‘kragimga.  
Ko‘ksim ko‘tarilib tushadi.  
Deraza pardalari uchadi.  
Yomon issiq bo‘ldi kun bo‘yi,  
Doim shunaqa:  
Bulut bosar ko‘kni shamol bilan,  
Birdan sovib qolar havo kechga borib,  
Yomgir bo‘lar,  
Dovul bo‘lar kuchli  
shunday issiqliqdan keyin.  
Miq etmay turardi boyagina  
qoqqan qoziqdek,  
Endi qara,  
Yayrashini qara daraxtlarning!  
Ular ham go‘yo  
Peshindagi issiq yodiga tushib,  
Boshini tebratar shamolda.  
Doim shunaqa...  
Bir shamol tursami,  
Sel quyib bersami dovul bilan...  
Onasining kelar payti yetgan  
semurg‘ bolasiday  
Entikaman,  
yuragim hovliqa.  
Qaydadir osmonning chetida  
Nimadir yarq etdi,  
Gumburladi keyin.  
Deraza pardalari uchadi qattiq,  
Ko‘tarilib tushadi.  
Oqayotgan bulutlarga qarab turibman,  
bir ilinj bilan.  
Yulduzlar xuddi  
Soy toshlaridek  
Goh ko‘rinar, goho ko‘milar.  
Bulutlarning ixtiyori kimda ekan?

Bulutlarning ixtiyori shamoldamikan?  
Shamollarning ixtiyori kimda ekan?..  
Eh... qo‘lim kalta-da, qo‘lim kalta-da!..  
Negadir yuragim hovliqar.  
Ko‘ksim ko‘tarilib tushadi,  
Deraza pardalari uchadi...

## CHIGIRTKALAR

Aylanadi charxpalak,  
Kecha-kunduz chir-chir,  
Kechar ne-ne savdolar  
Boshimizda gir-gir.

Rizqimizni terib jim,  
Yurganday biz — g‘ir-g‘ir,  
Har qadam xavf-xatardan  
Qaqshar yurak zir-zir.

Ana biri — yirtqichlar,  
Bir tulki deb, xirr-xir,  
Yirtib-yirtdi tipglashib  
Bir-birini shirr-shir.

Tomoqlari takkillab,  
Darrandalar “chirr-chir”,  
Poylab yurar bizni ham  
Og‘iz ochib qirr-qir...

Sal boshimiz ko‘tarsak,  
Uchib kelib pirr-pir,  
Changal urar och arvoh,  
Parrandalar birr-bir.

O‘t, ushoq yeb, yalang‘och,  
O‘rnimiz loy, kirr-kir.

Oyoqosti umrimiz,  
Aytishamiz jirr-jir.

Bosh bo‘lmasa bir boshda,  
Yursak titrab dirr-dir,  
Bosib o‘tar har hayvon,  
Temirlar ham “tirr-tir”.

Nur tovlanar bir, ana,  
Bu ne balo sirr-sir?..  
Joning bo‘lsa, qochib qol,  
In-inigga kirr-kir!..

## JAMOL KAMOL

(1938–2022)

*Jamol Kamol 1938-yil 26-aprelda Buxoro viloyati Shofirkon tumanidagi Chikaron qishlog‘ida tug‘ilgan. O‘zbekiston xalq shoiri (1992). “Olam kirar yuragimga” (1968), “Cho‘qqilarga yog‘ildi yog‘du” (1971), “Tosh tug‘yon” (1973), “Hasan va oy” (1974), “Quyosh chashmasi” (1975), “Dostonlar” (1978), “Ta-fakkur” (1979), “Qadah” (1980), “Suvaydo” (1983), “Umidli dunyo” (1988) kabi she‘riy asarlar muallifi. Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy”si, Ibn Sino, V.Shekspir, Bualo, A.S.Pushkin kabi jahon adabiyoti siymolarining asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.*

*Adib 2022-yil vafot etgan.*

## SHE’RIYAT

Ko‘l yotardi tog‘larga tutash,  
Mavjlariga shamollar shaydo.  
Bir bolakay nigohi otash,  
Bo‘ldi bir kun sohilda paydo.

Ufqlarga talpingan zilol  
Ko‘zlariga bo‘larkan payvast,  
Bir zum qoldi hayrat ichra lol,  
Hayajonda lol qoldi birpas.

Dam bir hadik, dam havas bilan  
Moviy ko‘lga boqdi bolajon.  
Bir xo‘rsinish uchdi labidan,  
Yuragiga tushdi bir armon.

Egildi-yu, sadaf qayroqni  
Moviy ko‘lga tashladi asta.

Suv betida yashnab bir oniy,  
Paydo bo‘ldi zilol guldasta.

Yana otdi, yana paydar-pay,  
Yulduz bo‘lib sochildi to‘zon.  
Ko‘l chayqaldi, toshdi bolakay,  
Unut bo‘ldi jumlayi jahon.

Shovullagan to‘lqinli dunyo  
Xayolini qamradi quchib.  
Bir payt boqsa, turar shalabbo,  
Ko‘l ichida beldan suv kechib.

Entikdi-yu, o‘zni serg‘uluv  
To‘lqinlarga otdi bolajon.  
Suzar bo‘lsa, iqbolga yor u,  
Cho‘kar bo‘lsa, fidoyi bir jon...

### **QOLDI UMRIM KO‘KLAMI...**

Qoldi umrim ko‘klami  
Kechmish yo‘lim so‘qmog‘ida,  
Qatra nur-u, qatra ko‘z yoshim  
Yonar yaprog‘ida...  
Qatra-qatra shabnamida  
Shodligimdir yoshirin,  
Yoshirindir hasratim ham  
Qatra-qatra dog‘ida.  
Qatra-qatra nur to‘kib,  
Boshimda yondi yulduzi,  
O‘pdim ilhom qatrasini  
G‘unchayi titrog‘ida.  
Mast etib ko‘nglimni bir dam,  
Yashnadi armonlarim,

Aks etib jonon faslning  
Chaqnagan chaqmog‘ida.  
Hislarim sellarga qo‘sdim,  
Oqdi anhori azim.  
O, o‘zim sargashta qoldim  
Termilib qirg‘og‘ida.  
Ey Jamol, yozing yetishdi,  
Bitdi umring ko‘klami,  
Bir parining bir nafaslik  
Bo‘sayı qaynog‘ida...

## UMID

Olam ichra kimga yer-u  
Kimga osmondir umid,  
Kimga olamdek muqarrar,  
Kimga armondir umid.  
Kimki sahroni chaman istar,  
Umid daryosi bor,  
Kim yonib ko‘zlar falakni,  
Yulduzistondir umid.  
Men umid o‘g‘loniman,  
Oshdim xatarlar tog‘ini,  
Otamen, endi dovon  
Oshguvchi o‘g‘londir umid.  
Bu hayot ummoni kengdir,  
Keng umidlar bahri ham,  
Kimga imkon, kimga davron,  
Kimga tug‘yondir umid.  
O‘yla, jon berdi Ulug‘bek,  
Qon tutar dushmanni lek,  
Zanglagan egri qilichga  
Sachragan qondir umid.  
Shamsi anvardir tilim, deb  
Elga keltirdi imon —

Ul Navoiykim, basharga  
Nuri iymondir umid.  
Tong-la kel, deb ul parivashga  
Salomlar yo'lladim,  
Tunda borgum, deb javob aytdi,  
Shabistonadir umid.  
Sen umidga banda bo'lma,  
Sen umidlar shohi bo'l,  
Keksalar der: gohi rahmon,  
Gohi shaytondir umid.  
Kimga qatra, kimga dengiz,  
Kimga bir dunyo qadar,  
Kim uchun ofikdi tandin  
Chiqmagan jondan umid.  
O'z eli-la iftixor etsa,  
Jamlunga ayb emas,  
O'tsa gar ming yil jahondin,  
O'zbekistonadir umid...

## TURSUNBOY ADASHBOYEV

(1939–2017)

*Tursunboy Adashboyev 1939-yil 1-yanvarda O'sh viloyati Ola-buqa tumanidagi Safed Bulon qishlog'ida tug'ilgan. "Kamolning olmasi" (1964), "Biz sayohatchilar" (1966), "Olatovlik bo'laman", "Arslonbob sharsharasi" (1969), "Surnay" (1970), "Nur daryo" (1975), "Guldasta" (1968), "Olatog'-lolatog'" (1978), "Oqbo'ra to'lqinlari", "Sovg'a", "Arslonbob afsonasi" (1988), "Sichqonning orzusi", "Uch bo'taloq va sirli qovoq" (1990), "Orzularim — qo'sh qanotim" (2003), "Oltin yolli tulpor qissasi" (2003, ertaklar) kabi to'plamlari nashr etilgan. Uolter De Lamer, K.Chukovskiy, S.Marshak, L.Briedis kabi shoirlarning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.*

*2017-yil 12-mayda Toshkent shahrida vafot etgan.*

## TONGDA

Tongda hushtak chalgandim,  
Chiqib shuvoq boshiga,  
Ma'qul bo'pti ovulning  
Kattasiga, yoshiga.  
Bu qilik'im Xo'rozning  
Tekkan emish g'ashiga...  
Meni ko'rsa Dakanboy,  
Minib jahl otiga,  
Ko'cha-ko'yni to'zg'itib,  
Zo'r berar qanotiga.  
Shayton kirdi oraga,  
Sizga aytsam dangalin,  
Yerni uzib olguday  
Uning tirnoq-changali.

Chigirtkani egarlab,  
Quva ketdim Xo‘rozni.  
Adabini beray deb,  
Shumtakani, darozni.  
Lekin otim yiqilib,  
Oyog‘im sinib ketdi.  
Chigirtkani jilovlab,  
Dakanboy minib ketdi.  
...Tomoshaning qizig‘i  
So‘qmoqli yo‘lda bo‘pti.  
Xo‘roz bilan Chigirtka  
Tulkiga o‘lja bo‘pti...

## KAPADA

Sanjar bobosi bilan  
Qovun poylar kapada.  
Ko‘kda yulduz marjoni,  
G‘ir-g‘ir esar shabada.  
Nabirasi bidillab,  
Cholni tutar so‘roqqa.  
Yarmi kemtik oy chiqdi  
O‘xshab oltin o‘roqqa. —  
Bobo, qarang, tunov kuni  
Butungina oy edi.  
Birov uni sindirib  
Qo‘yganmi, deb koyidi...

## OLTI XURJUN

Yodimda yo‘q, bahormidi  
Yo xuftonmi, nahormidi?  
Sheriklarim Mutalmidi,  
Balki Abduqahhormidi?

Xullas O‘ng‘or tog‘ga chiqib,  
Kapalakning sутин ichib  
Kezib tog‘ning u yog‘идан,  
Kungayidan, bu yog‘идан  
Terskayini — kesganidan,  
Chilvirko‘li paydo bo‘lgan,  
Toychog‘имни туйог‘идан.  
Oltmisch olti ko‘k baqani  
Tutib olib qayirmoqda  
Biz olti kun sarson bo‘ldik  
Terisini ayirmoqqa.  
Dovulg‘идан kergi yasab,  
Tuyoqlarin kerib qo‘ydik.  
Har birini tongdan boshlab  
Ro‘yan bilan bo‘yab-oshlab,  
Olti xurjun tikib berdik,  
Cho‘pon tog‘ам Xoliqulga.  
Shunday gaplar, bo‘sh yurmadik,  
Do‘stim, yozgi kanikulda.

## OSMON QAYDAN BOSHLANADI?

Tog‘ga boshin qo‘ysa quyosh,  
Ufq ortin cho‘g‘ qilaridan.  
Burgut uchun osmon asli  
Boshlanadi cho‘qqilardan.

Chumolining vaqtি ziqroq,  
Gapi qisqa, qalbi qaynoq.  
Uning uchun ko‘k gardishi  
Oltin rangli momaqaymoq.

Mirzacho‘llik dehqon bobo  
Gurung boshlar olisdan:

— O‘tar osmon chegarasi,  
Bizning qovun polizdan.

Muruntovlik mergan aytar:  
— Kuni-kecha qaytdim ovdan.  
O‘zim ko‘rdim, osmon asli,  
Boshlanarkan Tangritog‘dan.

## TUPROQ

Ajdodlardan meros bo‘lib  
Qolgan tuproq.  
Bobolarning qon va teri  
Tomgan tuproq.  
Qizg‘aldoqlar ochilganda  
Qilmay kanda,  
Qir-adirlar gulxan bo‘lib  
Yongan tuproq.  
To‘kin-sochin dasturxonni  
Solgan tuproq.  
Dori-darmon, sinovlardan  
Tolgan tuproq.  
Qotilni ham, botirni ham  
Sukut saqlab,  
Ehtiyyotlab, o‘z bag‘riga  
Olgan tuproq.  
Bobolarning qon va teri  
Tomgan tuproq.

## CHUMCHUQLARGA UYADIR

Ashraf aka ANOR so‘ydi,  
Anormisan-anor deysiz.

Har donasi gavhar misol,  
Yalt-yult etar FANOR deysiz.  
“A” harfini olgan edik,  
Yo‘q narsadan “bor” bo‘ldi.  
Barchamizga tanish hayvon,  
Qo‘s sh o‘rkachli NOR bo‘ldi.  
Bolakaylar, bilib qo‘ying,  
Nor degani TUYadir.  
“T” harfini qisqartirsak,  
Chumchuqlarga UYadir.

## **ERGASH MUHAMMAD**

**(1940)**

*Ergash Muhammad 1940-yilda tug‘ilgan. “Kunchiqar qo‘shiq-lari”, “Zaminga sadoqat”, “Uchinchi qutb”, “Uchayotgan qush-lar”, “Men tug‘ilgan uy” nomli kitoblari nashr etilgan.*

### **KUTISH VA KUZATISH**

Ko‘zlarimga surkalar mezon,  
Olislab ketmoqda turnalar.  
Yuragimda tuyg‘ular larzon,  
Ko‘z o‘ngimda olam turlanar.

Ko‘zlarimga surkalar mezon,  
Bog‘ga qo‘nar tillarang kulgu.  
Menga o‘zin etadi ehson  
Ariq to‘la tiniq bir tuyg‘u.

Ko‘zlarimga surkalar mezon,  
Bir yo‘qotish ko‘kka yo‘g‘rilan.  
Sevinaymi, yig‘laymi bu on,  
Yangi bir chaqaloq tug‘ilar.

Ko‘zlarimga surkalar mezon,  
Kuz yo‘rgagi ko‘zimga pardoz.  
Ketmakdadir aziz bir mehmon —  
Turnalarning qanotida yoz.

Ko‘zlarimga surkalar mezon,  
Yana bir bor qaytar turnalar...

## **QO‘LINGNI QO‘Y QO‘LIMGA**

Qani, do‘stim, qo‘lingni qo‘y qo‘limga,  
Kaftga ko‘chsin yurakdag'i taftimiz.  
Kuylab beray yo‘ldosh bo‘lsang yo‘limga,  
Kuyga ko‘chsin aytolmagan gapimiz.

Qani, do‘stim, qo‘lingni qo‘y qo‘limga,  
Kutar bizni alvon-alvon ufqlar.  
Ohista kir, kirmoq bo‘lsang dilimga,  
Dil ko‘shkida ko‘zi ochiq tong uxlar.

Qani, do‘stim, qo‘lingni qo‘y qo‘limga,  
Bosh barmoq ham ko‘p kerilmay birlashsin.  
Er yigitov tik boqqanday o‘limga,  
Tik boqaylik, ko‘zlar so‘zsiz sirlashsin.

Qani, do‘stim, qo‘lingni qo‘y qo‘limga,  
Yo‘l boshida yaxshi tilak tilaylik.  
Kuylamasman neki kelsa tilimga,  
Ezgulikning tili shirin, tinglaylik.

Hamroh bo‘lsang, yo‘lim kular charaqlab,  
So‘ngra, men ham do‘st mehriga to‘yarman.  
Gar istasang, ko‘rgil, mayli, varaqlab,  
Yuragimni kafting uzra qo‘yarman.

## **XAYOL**

Orzum ko‘kida kulsa istiqbol,  
Istiqlol oftobi bo‘lib porlagay.  
Umid otlarida yog‘dulardan yol  
Ziyoga yo‘g‘rilgan baxtdek porlagay —  
So‘ngsiz tasavvurim dashtida xayol.

Ezgulik qo‘msagan chog‘ida ko‘ngil,  
Ezgulik daraxti shoxlar nurdek.  
Idrok epkinida tebranib yengil,  
Fikrlar yaprog‘in to‘kadi durdek —  
So‘ngsiz tasavvurim dashtida xayol.

Muhabbat dilimga bo‘lganda oshna,  
Muhabbat gulxani bo‘lib porlagay.  
Hislarim talpinar sahrodek tashna,  
Alanga misoli ko‘kka o‘rlagay —  
So‘ngsiz tasavvurim dashtida xayol.

Burkagan chog‘ida ko‘ngilni qayg‘u,  
Qayg‘u mo‘rkonidir ko‘z oldim — ufq.  
Mo‘rkondagi qushdek patirlar tuyg‘u,  
Qop-qora qurumday quyilar qo‘sishiq —  
So‘ngsiz tasavvurim dashtida xayol.

O‘zin ko‘rsatguncha, toki, kashfiyot,  
Tafakkur qo‘ynida xayol chopadir.  
Tug‘ilmoq istasa bir go‘zal bayot,  
Albatta, uni ham izlab topadir —  
So‘ngsiz tasavvurim dashtida xayol.

## ZARB

Yurakdan taralar zarblar karvoni,  
Yutoqib tinglaydi zarblarni vujud.  
Quvonch-u dardlarim karvon sarboni,  
Zarblarda rang-barang ohanglar mavjud.

Yuragim yonadi, chaqmoqday go‘yo  
Chaqnar tomirlarim chaqmoqlari ham.  
Vujudim sayraydi, olam mahliyo,  
Hatto kuylay boshlar barmoqlarim ham.

Tinglayman,  
Men bo‘lib tinglaydi olam,

Ko‘nglimning ko‘shidan taralar zarlar.  
Men hofiz emasman, qo‘limda qalam,  
Yuragim zarbiga aylanar harflar.

Vujudim to‘lg‘anar, jo‘shib kuylar qalb,  
Men kuy qadar o‘sdim...  
Sen meni qo‘y, jim...  
Men faqat uyg‘otdim yuragingda zarb,  
O‘z qalbing zarbiga quloq sol, do‘stim.

## TABIAT

Go‘yoki tabiat sohibjamol qiz,  
Nozanin qiz yanglig‘ nozlanar bu dam.  
Oshiq qalbim kabi uni etib his,  
Ko‘rkam liboslarga burkaydi ko‘klam.

Go‘yoki tabiat sohibjamol qiz,  
Yoz unga qalb taftin to‘kadi har dam.  
Saxiy qalbim kabi uni etib his,  
Hosildan ziraklar toqadi yoz ham.

Go‘yoki tabiat sohibjamol qiz,  
Tegajak kuz unga gирgitton har dam.  
Havoyi xazonga uni o‘rab kuz,  
Avrab yechintirar, qolgani mubham.

Go‘yoki tabiat sohibjamol qiz,  
Qish uni uxlatib suqlanar har dam.  
Mendek junjiktirar g‘alati bir his,  
Oq choyshabga o‘rab diydirar qish ham.

Go‘yoki tabiat sohibjamol qiz,  
Har xil ko‘zda ko‘rar har fasl uni.  
Mehr ila ko‘rib husnini to‘kis,  
Ko‘klam-u yoz misol bo‘ling maftuni.

## MASHRAB BOBOYEV

(1941–2003)

*Mashrab Boboyev 1941-yil Samarqand viloyatining Chelak tumanida tug'ilgan. "Onamga xat" (1971), "Bahor kayfiyati" (1974), "Gurung" (1975), "Kechki trolleybus" (1977), "Bag 'ishlova" (1978), "Olisdagi chiroq" (1980), "So'z" (1982), "Men bilgan sir" (1990), "Qani mening yulduzim?" (1991), "Nomsiz yulduzlar" (1991) kabi she'riy kitoblari nashr etilgan. "O'ttiz yoshllar", "Yer tomiri", "Suyanch tog'lari" va boshqa sahna asarlari muallifi. "Iroda", "Sevgi nidosi", "Ko'ngil ko'chalari" nomli ko'p qisqli videofilmlar muallifi. V. Katayevning "Xayol chechaklari" romani, Muin Bsisuning "Tashrif qog'oz", O.Chiladzening "Rangin dunyo" kabi asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.*

*2003-yil 23-iyulda Toshkent shahrida vafot etgan.*

\* \* \*

Orom og'ushida dilrabo bu tun:  
Oydin zulumotda jilmayar bahor.  
Gul bo'lib ochilar bargdagi tutun,  
Anhorda salqin bir ehtiros oqar.

Orom og'ushida dilrabo bu tun:  
Yuksakda yulduzlar va'da qilar baxt.  
Birovga qoqilib ketmaslik uchun  
Avaylab egasin izlar muhabbat.

Orom og'ushida dilrabo bu tun:  
Maysalarga alla aytadi sabo.  
Sohilda — majnuntol, qomati durkun,  
Bir boqqil, deganday qilar iltijo.

Orom og‘ushida dilrabo bu tun,  
O‘zi ham bilmaydi — bu ne ajib sir.  
Uni ehtiyotsiz sharpadan o‘qtin  
Cho‘chitib qo‘ymasa bo‘lgani kimdir...

\* \* \*

Ikki surat:

Biri —  
Olamga  
Go‘dakning  
Qiziqishi,  
Ajablanishi,  
Hayrati,  
Soddaligi,  
Tabassumi ila boqadi.

Biri —  
Qat’iy,  
Sipo,  
Ulug‘vor.  
Zaharxandaga moyilroq lablar —  
Yumilgan.  
Qaboqlar ham.

Yana:

Xotiralar, xotiralar...  
Oydin-oydin, shirin-shirin,  
achchiq-achchiq  
xotiralar.

Yana:

Bir tog‘, zil tog‘, ismi —

Armon...

Alamning mangu chakkasi..

Ayriliqning

Yana

Uchib borayotganim

tubsiz qa'ri...

Yana:

Har daqiqasi

"Qanday qilsam u shod bo'lardi?"

savoliga to'lar umr...

Shularni tashlab ketgan

Menga Onam.

\* \* \*

Hayot turli joyda turlicha kechar,

Turli shakllarda bo'lar namoyon.

Hayot — qishni yorib chiqqan boychechak,

Hayot — ushalmagan, ushalgan armon.

U qaydadir mehr-muhabbat, ixlos,

Qaydadir — yozilmay qolgan bir varaq.

U qaydadir ruhan va jisman parvoz,

Qaydadir ruhan va jisman jasorat.

Hayot — chol yuzida ajin va qayg'u,

Zulumot bag'rini tilka qilgan nur.

Bola chehrasida musaffo kulgu,

Vatan taqdiriga tiqilgan umr.

U goho chirmashar koshonalarga,

Ivirsir chumoli kabi g'alati.

Qo'ng'izday g'uvullar mayxonalarda...

U shunda... Tiriklik bo'lib qoladi.

\* \* \*

Bu oqshom ko'zlar singari teran,

Sochlaring singari muloyim.

Bu oqshom o‘zingday erka va beg‘am,  
Ham o‘zingday oromga moyil.

Bu oqshom nafasing singari iliq,  
Bo‘sangday olovli, tabarruk.  
Bu oqshom o‘zingday suygulik.  
Simirib qo‘ygulik, Tasadduq!

Bu oqshom vaslingday hayotbaxsh, qisqa,  
Hajringday beadoq, beedad.  
Bu oqshom o‘zingday oromijon va  
O‘zingday beayov,  
Beshafqat.

Bu oqshom — ko‘changda ilk bor tentirab  
Yurgan klinikdanoq muqarrar.  
Bu oqshom —  
Har oqshom kabi sen bilan...  
Sening yoding bilan munavvar.

\* \* \*

Ko‘nglim chorborg‘iga kuz hokim bugun,  
Umid yaproqlarin yerga to‘shagan.  
Shodligim qaydadir tentirar yupun,  
Shodligimni izlab yo‘lga tushaman.

O‘ylarday eshilib yotadi yo‘llar,  
Yo‘llar qamrab olgan butun dunyoni.  
Meni qaylargadir elmoqchi ular,  
Men-chi, shodligimni izlayman yonib.

Bugun anhorda ham hasrat toshqini,  
Kuylaydi sohilda bir qiz parishon.  
U balki... U balki o‘laydi meni,  
Men-chi, shodligimni izlayman hamon.

Qaydadir kulguga samovot tangdir,  
Qaydadir sog‘inchdan ingranadi nay,  
Qaydadir to‘liqib yig‘laydi tanbur.  
Men-chi, shodligimni izlayman tinmay.

Yuksakdan yulduzlar mo‘ltirar unsiz,  
Pastroqda tomchi yosh turar muallaq.  
Oy nurida muzlab qolibdi, essiz..  
Men esa, shodlikni qidirib halak.

Kiprigin ko‘tarar mudragan ufq,  
Mening kipriklarim yumilar sekin.  
Yaproqlar to‘kilib tugagani yo‘q,  
Shodligimni izlab tinganim yo‘q men...

\* \* \*

Biz odamlar —  
Atomlarmiz asli,  
Kashfiyotlar ichra nodir kashfiyot.  
Yigirmanchi —  
Asabiy asr Kayfiyati bizga kayfiyat.  
yerning umid ko‘zi bilan qadalgan, —  
Meni o‘ldirmang! — deb  
Qilar iltijo.  
Portlashimiz mumkin har bir qadamda.  
To‘qnashib ketishdan asrasin Xudo...

## **QAMBAR OTA**

**(1941–2016)**

*Qambar Ota (O'tayev) 1941-yili Kattaqo 'rg'on shahrida tug 'ilgan. Bolalar va kattalar uchun mo 'ljallangan "Kitobcha va buzoqcha" (1970), "Chinor" (1976), "Bizning koinot" (1980), "Yoshlik quvonchi" (1974), "Vatan tuprog'i" (1976), "Qiyofa" (1981) kabi to 'plamlari nashr etilgan.*

*2016-yil 31-iyul kuni vafot etgan.*

### **SADOQATNI ODAT QILDIM**

Do 'st-yoronni yonib sevdim,  
Yurakdan o 'rtanib sevdim.  
Sadoqatni odat qildim,  
O 'zimga zo 'r madad qildim.

Yomonlik bahridin kechdim,  
Nafratni tashladim, qochdim.  
Omadga keng eshik ochdim,  
Ezgulik sharbatin ichdim.

Bashar ahli aziz menga,  
Uni sevmoq laziz menga.  
Har bir ona onam qadar.  
Unutilmas ustoz padar.

Mehrlardan kamol topdim.  
Ishqdan sohibjamol topdim.  
Muhabbatni odat qildim,  
O 'zimga zo 'r madad qildim.

## SHE'RIYAT

She'riyat — ilohiy kalom javhari,  
Kamolotda tanho,  
Hikmatda tanho.

Adabiy muzaffar haqning sarvari,  
Hukmi zo'r, yengilmas, qudratda tanho.

Halol lafz Allohdan shoirga qismat,  
Umr nasibasi goh lazzat, goh tig' ...

Hech kimda uchramas bu kabi xislat,  
Kuychining hayoti — lovullagan cho'g'.  
Toshlarning ko'ksida o't bo'lib do'ngan  
Bitiklar adabiy umringga asos.

Yurak guli misol qalblarda ungan  
Buyuk muhabbat san — lutfi muqaddas.

Senga sig'inganlar bo'l madilar kam,  
Har oshiq so'zing qalb to'riga bitdi.

Sen sabab atalib haqiqiy odam  
Sevishni o'rgandi — murodga yetdi.

Zo'rlarning yoniga kirib ketmading,  
Hech qachon nohaqni qo'llamagansan.

Yig'ilganni aslo bosib o'tmading,  
Hech kimga yomonlik yo'llamagansan.

Dunyoni pokiza ko'rmoq istading,  
Xalqning dil dardini himoya qilding.

Eng toza odamni yonib izlading,  
Beayov makkorlar bag'rini tilding.

Johil-u zolimlar battar tutaqib,  
Hissiz o'lik ko'zi alanglayverdi.

Sen esa ularni etgancha ta'qib,  
G'olib yurak bilan jaranglayverding.

Ming yillik she'riyat, jur'ating ko'rib,  
Ne qattol jallodlar mag'lub bo'ldilar.

Sezdilar o'zlarin nobakor, g'arib,  
Qonlari ko'pirib, qaqqash so'ldilar.

Najot istaganlar topishdi chora,

Sendan shifo oldi ko 'ngli yaralar.  
Qilmishidan bag 'ri bo 'lib yuz pora,  
Tub-tubidan sindi ichi qoralar.  
Ilohiy ilhomli ko 'ngil bog 'isan,  
Muxlislar sevarlar kuyingda yonib.  
Ezgu yuraklarning suyanch tog 'isan,  
Yasharlar taqdirin senga ishonib.  
Iymonli satrlar — yurakdan cho 'g 'lar  
O 'tlarda kuymagay, suvlarda cho 'kmas.  
Yetuk she 'r atalmish baxti ulug 'lar,  
Har qachon tik so 'zlar, qaddini bukmas.  
Senga teng kelguvchi haqiqatparast,  
Senga teng kelguvchi mangulik yo 'qdir.  
Nazaring nishonga aniq tegar, rost,  
Sening har bir so 'zing otilgan o 'qdir.  
Senga jo 'sh uradi himmat-u shafqat,  
Bag 'ringda jamuljam pokiza tuyg 'u.  
Har neki istasang bo 'lgay ijobat,  
Xohishing dunyoning ishiga uyg 'un.  
Yomonlar istagin aylaroq barbod  
Tilak et xalqingga eng ezgu hayot.  
Dunyoni haqiqat qilgaydir obod.  
Mangulik timsoli Ota she 'riyat.

## QIZNING ISHI QIYINCHOQ

Qiz bola sirli bir tuguncha misol,  
Gulshanda tengi yo 'q gulg 'uncha misol.  
Ulg 'aygach, chiroyin ko 'rib quvnarsan,  
Tun-u kun ertasin, baxtin o 'ylarsan.

O 'g 'il bola ishi misli o 'yinchoq.  
Qiz bola tashvishi jumboq-qiyinchoq,  
Vaqtida tengiga to 'y bo 'lib ketsin.  
Quyosh bo 'lib ketsin, oy bo 'lib ketsin.

Go'shangdan uchganda palaxmon toshi,  
Iloyo tosh bo'lsin qizingning boshi.  
Manguga tosh qotsin tushgan joyida,  
Palak otib, gul unsin qadam-poyida.

Qizing hayotingda jondan kuyunchak,  
Tog'dan-da qudratli tayanch-suyanchiq.  
Bag'ringdan chiqqanda ko'ngling buzilib,  
Jonginang ketganday bo'lar uzilib.

Dilbanding mehrini sog'ingan damlar,  
Boshing osmondadir, desa odamlar —  
Koshonada baxti halinchak ekan.  
Peshonasi kulgan kelinchak ekan.

## HABIB SA'DULLA

(1942–2006)

*Habib Sa'dulla 1942-yil 5-aprelda Namangan shahrida tug'ilgan. O'zbekiston xalq shoiri (1999). O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi (1992). "Bahor bilan suhbat" (1975), "Mu-loqot" (1979), "Yana ostonangda" (1982), "Ehtirom" (1984), "Bog'lar yurtin bolasimiz" (1988), "Tazarru", "Ko'chamdan jonon o'tganda" (1992), "Kosonsoy karvonlari" (1993), "Uch-qo'rg'onning uch xirmoni" (1996), "Ramazon munojotti" (1997), "Nur qadri" (1998), "Tanlangan asarlar" (2 jildli, 2002) kabi she'riy kitoblari nashr etilgan. "Yusuf va Zulayho" nomli drama hamda "Rahmat, ig'vegar" nomli komediya muallifi. "El-yurt hur-mati" (2003) ordeni bilan mukofotlangan.*

*2006-yil 1-martda Namangan shahrida vafot etgan.*

### AGAR SEN...

Agar sen noraso bo'lsang,  
Bu olam noraso senga,  
Hayotga noravo bo'lsang,  
Hayot ham noravo senga.

Bu dunyo kori shundoqkim,  
Topursan har ne izlarsan,  
Agar sen oshino bo'lsang  
Bo'lurlar oshino senga.

Mehr, lutf-u sadoqat — do'st-u  
Yorlikning buyuk sharti,  
Agar sen bevafo bo'lsang,  
Ular ham bevafo senga.

Qidirma o‘zgalardan sahv kim,  
Sahv ichra botgaysan,  
Agar sen sahv etib otsang,  
Oturlar bexato senga.

Hayoli, pok odam hargiz  
Birovlar ustidan kulmas,  
Agar sen behayosan, el  
Ko‘ringay behayo senga.

Seni bu nurli olamga  
Nur ulashmoqqa keturmishlar,  
Agar qalbing basir bo‘lsa,  
Yorug‘ kun ham siyoh senga.

Yorug‘ kunlar umidida, Habib,  
Umring o‘tib borgay,  
Shukurkim, yaxshilar mehri  
Ravo senga, davo senga.

### SIZDAN SADO

Kuldi bahorim Siz tomondan  
Sho‘x sabo kelgan kuni,  
Ul sho‘x sabo qanotida  
Dildor navo kelgan kuni.

Dildor navo bilan bahor  
Og‘ushiga olmish meni —  
Dildor navo ohangida  
Sizdan sado kelgan kuni.

Shu bir shirin sado bilan  
Lutf etdingiz Hotam sifat,  
Poyiga tillo to‘kdingiz,  
Go‘yo gado kelgan kuni.

Go‘yo gado kutgan edim  
Shirin sadongiz xasta dil,  
Olam munavvardir, mana,  
Unga davo kelgan kuni.

Unga davo baxsh etdingiz  
Holin so‘rab, donoginam.  
Yuz yil uzaydi umri ham  
Ahdga vafo kelgan kuni.

Ahdga vafosi hurmati,  
Mehri ziyosi hurmati,  
Boshimga toj aylay, Habib,  
Nozik ado kelgan kuni.

### KO‘CHAMDAN JONON O‘TGANDA

Taralgay mushk ila anbar,  
Ko‘chamdan jonon o‘tganda,  
Izida tuproq o‘lgay zar,  
Ko‘chamdan jonon o‘tganda.

Boshiga soyabon bo‘lmoq  
Umidida oshib devor,  
Butoqlar ta’zim aylarlar,  
Ko‘chamdan jonon o‘tganda.

Devorga jon ato etgay,  
Vale toshlar erib ketgay,  
Agar bir bor nigoh aylar  
Ko‘chamdan jonon o‘tganda.

Jamolini tamoshlo qilg‘ali  
Chiqqach, devor o‘lsam,

Kular holimga majnunlar,  
Ko‘chamdan jonon o‘tganda.

Boshimga yog‘sa ham g‘avgo,  
Ishim yo‘l poylamoq, ammo  
Nigoh solmay etar battar  
Ko‘chamdan jonon o‘tganda.

Tikibsan yo‘lida jonne,  
Habib, bas, noumid bo‘lma,  
Tun ortidan kelur kunlar,  
Ko‘chamdan jonon o‘tganda.

## O‘RTAMIZDA

Qolsa derdim o‘rtamizda zora gap,  
Bo‘ldi-ku el ichra, yor, oshkora gap.

Bilmayin bir kun dahandan chiqli-yu,  
Har qulqoqda yangradi nog‘ora — gap.

Bitta nozik gap edi ul aslida,  
Har ogizda shishdi-ku, bechora gap.

Sizni oppoq ayladi yurt ichrakim,  
Bizni qilmish, vojab, qop-qora gap.

Ne ajab, bo‘lmish g‘animlarga qurol,  
Etgali oshiq dilim sadpora gap.

Dilda turganda muqaddas ganj edi,  
Tilga chiqqach, etdi ko‘p ovora gap.

“Gap”ni yozdim gapchidan bezor bo‘lib,  
Qolsa endi o‘rtamizda zora gap.

## MUHAMMAD ALI

(1942)

*Muhammad Ali (Ahmedov Muhammad Ali) 1942-yil 1-mart kuni Andijon viloyatining Bo'ston tumanida tug'ilgan. O'zbekiston xalq yozuvchisi (1992). "Fazodagi hislar" (1967), "Shafaq" (1968), "Otalar yurti" (1970), "Dostonlar" (1974), "Oq nur" (1977), "Ilhom parisi" (1980), "Sen bir gulsan" (1989), "Ona duosi" (1994), "Saylanma" (1997), "Men o'zim, o'zim" (2012), "Ko'ngil naylari" (2016) kabi she'riy kitoblari, "Mashrab" (1966), "Gumbazdagi nur" (1967) dostonlari, "Boqiy dunyo" (1981) she'riy roman, "Navoiy va Boyqaro" (2015) tarixiy dramasi, "O'z-o'zingni anglab yet" (1988), "Amir Temur chamani" (2003) singari esse va publitsistik maqolalar muallifi. "Sarbadorlar" (1989) roman-dili-giyasi, "Ulug' sultanat" roman-epopeyasi, "Kleopatra" romani nashr qilingan. Hind xalq eposi "Ramayana" (1978), qoraqalpoq xalq eposlari "Shahriyor" (1977), "Masposhsho" (1985), shuningdek, bir qator jahon shoirlari asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. O'zbekiston Yoshlar ittifoqi laureati (1976), Berdaq nomidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat mukofoti sovrindori (1984), Xoja Ahmad Yassaviy nomidagi xalqaro mukofot sohibi (1994), O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti laureati (2007), "Mehnat shuhrati" (1999), "El-yurt hurmati" (2014) ordenlari bilan mukofotlangan. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi (2021). Xalqaro Turkiy akademianing "Ali-sher Navoiy" oltin medali sohibi.*

## HAYOT ABADIY

Tom boshida yoyilgan xirmon,  
Don shopirar bug'doyrang ayol.  
Goh ko'zлari bo'lib nigoron,  
Yiroqlardan chorlaydi shamol.

G‘uv-guv esib qolar shabada,  
Don quyilar g‘alvirdan shov-shuv.  
Pastda esa, mo‘jaz kulbada  
O‘g‘ilchasi yotar beuyqu.

Huv narida, tog‘lar boshida  
Kuylab yotar shalola shov-shuv  
Va ayolning shundoq qoshida  
Sirg‘anadi shabada g‘uv-g‘uv...

Don shovullar, shovullar xayol,  
Mavjudot ham qaytarar sado.  
Esishini hech qo‘ymas shamol,  
G‘alvirda ham don bo‘lmas ado...

\* \* \*

Huv tog‘larga qor tushar,  
Bog‘larda anor pishar.  
Qachon mening tog‘ qalbim  
Sen bog‘ bilan topishar?

Ey, tog‘dagi mag‘rur qush,  
Sovuq toshga bosma to‘sh!  
Huv darada bir qiz bor,  
Yostig‘ining yarmi bo‘sh...

Cho‘qqidagi qoya tosh  
Yolg‘izlikdan egar bosh.  
Yakkalasa yomg‘irlar  
Ko‘zlaridan to‘kar yosh.

Bog‘da ham bir tanho gul,  
Tanhilikda a’lo gul,  
Ko‘z yoshiga yuz yuvar,  
So‘ngsiz g‘amlarga mashg‘ul.

Sen yolg‘izsan, men — diqqat,  
Ikkimizga yo‘q shafqat.  
O‘rtamizda ovora —  
Sarson bo‘ldi muhabbat...

Huv tog‘larga qor tushar,  
Bog‘larda anor pishar.  
Bir kun mening tog‘ qalbim  
Sen bog‘ bilan topishar...

\* \* \*

Ko‘ngil oshno bo‘lmoq istagida mast,  
Makon tutsam deydi oshyoningizni.  
Boshimga ko‘taray yerlarni emas,  
Yolg‘izgina porloq osmoningizni.

Oh, dilda tug‘ilar g‘aroyib bir she’r,  
Oftob to‘kis qizday jilmayib boqar.  
Arshi a’lodan to rutubatli yer  
Ilhomlar selida to‘lg‘anib oqar...

Sevaman! Sevgimni tutolmasman sir,  
Uzaman tilkalab bor rishtalarni!  
Loydan yaratilgan bo‘lsam-da, axir,  
Netay, ko‘nglim tilar farishtalarni!..

\* \* \*

... Yam-yashil kengliklar bag‘riga chorlar,  
Yam-yashil kengliklar, go‘zalsiz muncha!  
Dildor ko‘zlarida zavq-u shavq porlar,  
Bor olam parvona bora-borguncha,  
Bora borguncha.

Ko‘zingda ko‘zlarim jahon ko‘radi,  
yechilib ketadi dilda tuguncha.  
Har lahza, har lavha qoim turadi,  
Xotirda qoladi o‘la-o‘lguncha,  
O‘la o‘lguncha...

## SO‘ROQQA AYLANGAN ODAM

1

Dastavval yo‘q edi, mutlaq yo‘q edi...  
So‘ng ro‘yo ichida ro‘yo bo‘ldi u.  
Jahon ayvonida, hayot ufqida  
Bir kun nuqta yanglig‘ paydo bo‘ldi u.

2

So‘ng nuqta ulg‘aydi, yo‘l tushsa agar  
Ko‘chalar to‘lganday bo‘ldi nazdida.  
“Men endi undovman!” — dedi muqarrar,  
Bosh qo‘ydi osmonni tutmoq qasdida!

3

Uzoq umr ko‘rdi... Qadamlar, hayhot,  
Ko‘p nuqtalar yanglig‘ oqdi samarsiz.  
Ammo bari bilan dil dashti obod,  
Ma’nosiz sezadi o‘zni alarsiz...

4

Endi “so‘roq” misol qoldi munkayib,  
yeldirim zamonga qarab turar lol:  
Nega shundoq?  
Nechun?  
Nega?  
Kimda ayb?..  
U —  
Dunyo yuziga otilgan “savol!”

## **TOSHPO‘LAT AHMAD**

**(1942–2019)**

*Toshpo‘lat Ahmad 1942-yil 13-dekabrda Buxoro viloyatining Shofirkon tumanida tug‘ilgan. “Buxoro yulduzi” (1971), “Qasam va qasos” (1973), “O‘g‘lingman, hayot” (1974), “Qalbning op-poq gavhari” (1975), “Ochiq eshik” (1975), “Minorlar va chinor-lar” (1980), “Oydin xayollar” (1984), “Tabassum bog‘i” (1986), “Ahli muslim mehrobi” (1991), “Iymon qal’asi” (1994), “Fig‘on” (1994), “Sharq tumori” (1996), “Chorbakr” (1996), “Buxoronom-a” (1997), “Gavhari jonim” (2002), “202 atirgul” (2003), “Qut-lug‘ ostona” (2006), “Sharq gavhari” (2007), “Qalam va alam” (2008), “Navro‘zingdan o‘rgilay” (2010), “Sajdagoh” (2011) kitoblari muallif.*

*“O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” (1990), “Mehnat shuhrati” (1998), “El-yurt hurmati” (2007) ordenlari bilan taqdirlangan.*

*2019-yilda vafot etgan.*

## **ISHQNI ASRA**

Kimning elda hurmati bor,  
Yo‘llarida yog‘maydi qor,  
Unga mangu hamroh bahor,  
Bundaylarga darvozang och,  
Qadamiga dil mehring soch.

Subutsizda or bo‘lmaydi,  
G‘anim aslo yor bo‘lmaydi,  
Mard hech qachon xor bo‘lmaydi,  
Bersang noning mardga bergen,  
Hatto joning mardga bergen.

Ishq sof ersa tumor o'sha,  
Qalbda naqsh-u nigor o'sha,  
Minor o'sha, chinor o'sha,  
Ishqni asra, hech cho'kmaysan,  
Ko'zlariningdan yosh to'kmaysan.

Oshkor etma darding bo'lsa,  
Yashnat yupun guli so'lsa,  
Yurt yig'lamas xoin o'lsa,  
Dardi borga darmon bo'lgin,  
Sotqinlardan hazar qilgin.

Elim desang, el gul tutar,  
Uzoq ketsang, yo'ling kutar,  
Gar gadosan podshoh etar,  
Unay desang elim deb un,  
So'nay desang, elim deb so'n...

### **YURAK BILAN MULOQOT**

Bugun uyda ikkimiz qoldik,  
Boqsam, biroz horibsan chog'i.  
Ko'rinasan bir oqsoqoldek,  
Ko'zlariningda yillarning dog'i...

Beshikdan to shu kunga qadar  
Hamroh bo'lib kelding, ming rahmat.  
Sen borsanki, kecham munavvar,  
Tuyuladi tashvish ham rohat.

Dunyolarning ko'rdim qanchasin,  
Samolarda uchdim oqqushday.  
O'tib ketdi barcha-barchasi,  
Eslagayman ularni tushday.

Anglaganim shulki, yurakjon,  
Bag'rikenglik bir jahon ekan.  
Tirik yursa gar ota-onang,  
Boshing uzra soyabon ekan.

Halollikka aslo yetmaskan,  
Ochunning na zari, boyligi.  
Yaxshilik hech o‘chib ketmaskan  
Va birovning hotamtoyligi...

To'lib-toshib tursa ro'zg'oring,  
Bisyor bo'lsa farzand, nevarang.  
So'roqlasa do'st-jo'ralarling,  
Omon bo'lsa yoring-mahraming.

Shu ekandir omadning, baxting,  
Shu ekandir beqiyos savlat.  
Shu ekandir oltin, zar taxting,  
Shu ekandir tiganmas davlat.

Bugun uyda tanho emasmiz,  
Ey, yurakjon, beiz ketmasmiz...

## MEHR DARAXTIM

Men nihol o'tkazdim entikib, titrab,  
Qo'qonda — "Shoirlar xiyoboni"da.  
Nazdimda, buyuklar turardi qarab,  
Ketmon chopib turgan men —  
mehmoniga.

Ilg‘adim, bu bog‘da yurgaydir uchib,  
Ustozlar shod ruhi misli kaptardek.  
Ular ko‘zi, pokni yurgaydir quchib...  
Ey, yurak, sahfang och toza daftardek.

So'ngra yoz shundoq deb har varag‘iga,  
Ki halol so‘z-u soz aslo o‘lmagay.  
Ekkan niholim ham bir yaprog‘iga  
Dard tegmas, yashnagay — aslo so‘lmagay.

Men uni o‘tqazdim qo‘shib qalb qo‘rim,  
Mehr daraxtim-u, sog‘inch daraxtim.  
U o‘sib, har kuni Ahmadiyman deb,  
Ustozlarga salom bersa — shu baxtim!

## MUNOJOT

Ulfati chor bo‘lib suhbat  
Qurarkansan qilib rohat.  
Samo bag‘rin tirkab shu on  
Yulduzning uchgani yomon.

Qo‘ling oshga yetar chog‘da,  
Taqdir gullar tutar chog‘da.  
Jism-u joning o‘rtab fig‘on,  
Omadning qochgani yomon.

Daryo kechsang suzib-suzib,  
To‘lqinlarning avjin buzib,  
Sohilga yetganing zamon  
Girdobning quchgani yomon.

Begonani do‘st fahmlab,  
Dardi diling qo‘ysang gullab.  
U boshing xam bo‘lsin debon,  
Siringni sochgani yomon.

Nomardga duch kelishdan qoch,  
Unga hamdard bo‘lishdan qoch.  
U zo‘r kelsa sotib iyemon,  
Qasamlar ichgani yomon.

Ey, Ahmadiy bog 'bonlik qil,  
El-yurtingga posbonlik qil.  
Yo 'qsa yuraging g'am chekib,  
Bemahal sanchgani yomon...

## MARVARID TOMCHILAR

Bir kaft tuproq olsam, nami bor ekan,  
Demakki, ko 'nglimning g'ami bor ekan.  
Voajab, sho 'rmi deb unga lab bossam,  
Onam yopgan nonning ta'mi bor ekan.

\* \* \*

Zaminning, osmonning ko 'zi bor,  
Imonning, vijdonning ko 'zi bor.  
Hayotda mard bo 'lib yashay olmasang,  
Elingni nomard, deb aytar so 'zi bor.

\* \* \*

Elim, sen, intizor farzandidursan,  
Ming yillik e'tiqod dilbandidursan.  
Har kimga buyursin fidolik farzi:  
Boymisan, qashshoqmi — arzandadursan.

\* \* \*

Bir kaft tuproq olsam, nami bor ekan,  
Demakki, ko 'nglimning g'ami bor ekan.  
Voajab, sho 'rmi deb, unga lab bossam,  
Onam yopgan nonning ta'mi bor ekan.

\* \* \*

Sunbula suvida xayolni poklang,  
Shaffof nazar bilan hilolni poklang.  
Agarchi, dunyoning ozori bisyor,  
Uni ko 'p o 'ylamang iqbolni poklang.

## OYDIN HOJIYEVA

(1942)

Oydin Hojiyeva 1942-yil 22-aprelda Buxoro (hozirgi Navoiy) viloyatining Qiziltepa tumanidagi Xojayi Bo'ston qishlog'ida tug'ilgan. O'zbekiston xalq shoiri (1992). "Shabnam" (1971), "Manzillar" (1971), "Onam sevgan qo'shiq" (1972), "Orzu gul" (1974), "Tarovat" (1976), "Dostonlar" (1980), "Mushfiq onajon", "Xushxabar" (1983), "Chashmalarни izlayman" (1986), "Tamaltoshi" (1988), "Ishonch yulduzlari" (1989), "Ko'zimning oq-u qorasi" (1996), "Panohim" (1998) kabi asarlar muallifi. "El-yurt hurmati" ordeni bilan taqdirlangan (1999).

## MO'JIZA LAHZALARI

Umrим bo'g'otiga qор тушди неча,  
Laylakqorlar yog'di afsona aytib.  
Hayotimga yangi yil kirgan kecha  
Har gal bolaligim uchratdim qaytib.  
Kumush teraklarning qir uchlарida  
Tilla isirg'aday qolgan varraklar,  
Bir hovuch nur o'ynab kulgichlarida  
O'smirligim kelar har yil daraklab.  
Allohdan mo'jiza kutgan go'dakday  
Tutsam ona taqdir etaklaridan,  
Qor bosgan tog'lardan sayrab kaklikday  
Yillarim chiqar qish ertaklaridan.  
Ko'zim-la erkalab g'uncha qizlarni,  
Dilbar singillarim manglayin o'pdim.  
Shamolday aylanib dala-tuzlarni,  
Gullar yaprog'iga shudringlar sepdim.  
Qorxat olib kelgan kemshik bolakay —

Ostonamda turar shoshqaloq elchi.  
Anhor sukutida chalib oqar nay  
Vaqt degan g‘animat g‘aroyib yo‘lchi.  
Yog‘och darchalarning zulfinlarida  
Murg‘ak qo‘llarimning tafti tovlanar.  
Ko‘kka o‘rlagan tut ajinlarida  
O‘n to‘rt kunlik oy o‘tovlanar.  
Qiziydi gap-gashtak, hangoma, gurung,  
Tanchada biqirlab qaynaydi qumg‘on.  
Kimir “Kuntug‘mish”dan o‘qiy boshlar so‘ng,  
Yerning ildiziga tutashadi jon.  
Borliqni chulg‘aydi jannatiy ifor,  
Oppoq kamalakdan qamashadi ko‘z.  
Zamin sukutida guvlaydi bedor  
Yurak — kul ichida tirlgan Qaqnus.

## NAVRO‘Z

O‘riklar shoxida yondi ming chiroq,  
Pushti kapalaklar qo‘ndi bodomga.  
Oftob bir qizdirsa, ko‘zlari qora  
Lolaqizg‘aldoqqiz chiqvolar tomga.  
Jilovsiz toychoqday yugurar kishnab,  
Qish bo‘yi esnagan erinchoq soylar.  
Bahor bisotidan ketadi yashnab,  
Kelinchak uyiday ko‘hna saroylar.  
Sumalak boshida kelinlar chechan  
Lutfida dunyo ishq, sirga aylanar.  
Yomg‘ir qo‘bizini chaladi sho‘xchan,  
Somonlar tilloga, durga aylanar.  
Tarnovda pat tarab oshiq musicha  
Sho‘x-sho‘x muchchilashib baxshi bo‘lodir.  
Kavruk ildizi-yu cho‘l andizicha  
Bol kirib chechakdan yaxshi bo‘lodir.  
Xazin mozoriston daraxtlari-da

Armon gullarini to‘zg‘itib porlar.  
Qabrtoshning vido dastxatlarida  
Xotira shu’lasin o‘qir bahorlar.  
Hayot abadiydir. Hayot — g‘animat.  
Dovul qoqar jarchi, bong urar Navro‘z.  
Ne chog‘ sehrgarsan, ona tabiat,  
Har bir hujayrada yoqasan yulduz.  
Ming torli soz kabi saslanar  
Inson Navro‘ziy sabolar ohangida mast.  
Tonggacha bahoriy zavq ichra jahon  
Bir quchoq guldasta bo‘lsa ajabmas.

\* \* \*

Bog‘larda yosuman gullay boshladi,  
Qumrilar mastona “hu-hu”lay boshladi,  
Oftob yuraklarni yog‘dulay boshladi,  
Yozning shamollari xushyoqar jonga.  
Qulupnay bargida qizil marjonlar,  
Oq tut og‘izlarda novvot-darmonlar,  
Bug‘doy boshoq tortib sut to‘lar onlar  
Yozning xayollari g‘unchalar jonda.  
Urishqoq mayna ham xayolparastdir,  
Kabutar raqlari ishqqa payvastdir,  
Qirqog‘ayni gullar bir folparastdir...  
Suvlar gulduraydi qo‘shtegirmonda...  
Jannat O‘zbekistonda...

\* \* \*

Bir so‘nib, boz yonmoq na xushdir,  
Tiriklikda bashorat tushdir.  
Gulga kirgan bir chog‘imdaydi,  
Ishq shiddati qarog‘imdaydi.

Yondim, ustuxonim-da yondi,  
Tomirlarda qonim-da yondi.  
O't ketdi — ho'l-quruq aralash  
Yonaverdi to'rt taraf yakkash.  
Ajdaho o't nafasi tindi,  
Ko'ksim aro nasimlar indi.  
Kul ostida qolg'an cho'g' edim,  
Mulki borliq aro yo'q edim.  
Bir qatra suv, bir tomchi shabnam  
Bahrul najotmidi o'sha dam?  
Chag'ir-chug'ur qushlarim qaytdi,  
Ma'suma, hur tushlarim qaytdi.  
Men qovrilgan do'zaxni kechib,  
Qaldirg'ochim, xush kelding uchib!

## **SHAFOAT RAHMATULLAYEV**

**(1942–2016)**

*Shafoat Rahmatullayev 1942-yil 10-mayda Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanidagi Oqqo'rg'on qishlog'ida tug'ilgan. "Janub shamoli" (1981), "Umid ostonasi" (1988), "Gulob" (1992), "Ozod so'z" (2003, Saylanma) asarlari nashr etilgan. "Musiqqa uslubiyoti", "Musiqqa alifbosi" (1991–92), "Boshlang'ich musiqqa ta'limi" (2003) kabi risolalar ham yozgan. "Shuhrat" medali (1998) hamda "El-yurt hurmati" (2003) ordeni bilan taqdirlangan. 2016-yilda vafot etgan.*

## **O'TAR DUNYO**

O'tar dunyo, o'tdi do'st-u g'ayir o'tdi,  
Arbob, orif, oshiq Zuhra, Toyir o'tdi.  
Davronini yoqlar o'tdi, ko'yir o'tdi,  
Bani bashar zamoniga doir o'tdi.  
O'taringni o'targacha qayir o'tdi,  
O o'tdi-ya, bu olamdan shoir o'tdi.

Har o'tarning xos qismati, ko'rari bor,  
Har sobitning turari bor, nurari bor.  
Har paykalki, pisharining o'rari bor,  
Bir kun hosil sohibining so'rari bor.  
So'raringni so'rargacha qayir o'tdi,  
O o'tdi-ya, bu olamdan shoir o'tdi.

So'rari bor: — falonchidan nima qoldi?  
Mulki foni, boqiy, yo bir to'ma qoldi,  
Yurt noriga falondin "hayt" — himo qoldi.  
Betavfiqdan zino qoldi, imo qoldi.

Nima qoldi? Qolaringni qayir o‘tdi,  
O o‘tdi-ya, bu olamdan shoir o‘tdi.

Nima qoldi? — Boylaringmi, boying qani?  
Ajdodlarday qurgan ko‘shek, saroying qani?  
Bayt ush-sharaf, bayt ul-adib joying qani?  
Milliy bedor vijdon sari sa’ying qani?  
Qani, qani? Mehmoningni qayir o‘tdi,  
O o‘tdi-ya, bu olamdan shoir o‘tdi.

Qani desa, yurtim shu deb suyalsang-a,  
Har qadringni Makka qilib suyalsang-a,  
Tuproq o‘pib, Vatanim deb kuyalsang-a,  
Suyaksizing soxtalikdan tiyalsang-a,  
Tiyalmasang, tiling rostga qayir o‘tdi,  
O o‘tdi-ya, bu olamdan shoir o‘tdi.

Shoir o‘tdi, kunlari yo‘q, shomlari yo‘q,  
Haqdan bo‘lak kamlari yo‘q, komlari yo‘q,  
Ishqdan bo‘lak g‘amlari yo‘q, jomlari yo‘q,  
So‘zdan bo‘lak shonlari yo‘q, nomlari yo‘q.  
Yo‘q-yo‘q, yo‘qlik Shafoatga doir o‘tdi,  
O o‘tdi-ya, bu olamdan shoir o‘tdi.

## BOBOTOG‘DA BIR OHU KO‘RDIM

Bobotog‘da bir ohu ko‘rdim,  
Tovusxirom, oy yuz, o‘t nigoh.  
Oshiq bo‘lib ergashib yurdim,  
Bir qiz bo‘lib imladi u goh.

Bir kun dedi zebo quraloy:  
“Ey, oshig‘im kelgil yonimga,  
So‘qmoqlarni yoshing qildi loy,  
Shuncha ozor berdim joningga.

Olamda ishq bo‘lardi yolg‘on,  
Yetmasalar oshiq ohiga.  
Bu buloqdan suv ich, ey nolon,  
Juftim bo‘lsang, aylan ohuga”.

Ohu bo‘ldim, ul suvdan tortib,  
Shirin edi visolning dami.  
Bir kun dedi yorim uyg‘otib:  
“Bunda yetdi ovchi qadami”.

Kiyiko‘tni og‘zimga tutib,  
Dedi: “Endi o‘z holingga qayt”.  
Odam bo‘ldim, bir bargni yutib,  
“Qardoshingga — dedi — javob ayt”.

Kiyik uyin ko‘rsataman deb,  
Uloqtirdim merganni jarga.  
“Sayyodingni ketdi sorlar yeb” —  
Ohu bo‘lib so‘zlardim yorga.

U nozlandi: “Sevging bo‘lsa rost,  
Tozalaysan tog‘ni mergandan”.  
Shundan beri olaman qasos  
Ohularga ozor bergandan.

Odam bo‘lib, ovchi ovlayman,  
Ohu bo‘lib, oq kiyikka yor.  
Ertaknamo bu qismat ekan,  
Majnunona taqdirimda bor.

## ULAR OLAM UYIN DERAZALARI

Tun qo‘ynida o‘lkam qishloq, shahari,  
Oyna ko‘zlar porlar, uyg‘oq uy bari.  
Shu chog‘ yulduzlarga boqsam ko‘nglim der:  
— “Ular olam uyin derazalari”.

## **SIZ KIM-U MEN KIM**

Sirtimga qarab siz chiqarmang hukm,  
Bilmasdan dilimda nimalar hokim.  
Davrada vaqt degan bir donishmand bor,  
U hali aytadi siz kim-u, men kim.

## **KEKSALIK**

Sochim zanjirida ajabo oq zang,  
Ko'z demish ko'zgumdan arimaydi chang.  
Vaqt degan egovdan tiralgan yuzim,  
Charxlangan aqlimning tig'iga qarang.

## **ORZU**

Oppoq bulutlardan belanchak qilsam,  
Hilol ipagidan halinchak qilsam.  
Bobotog' kelbatli kuyov bo'lsamu  
Bahorni o'zimga kelinchak qilsam.

## **DARAXT**

Ko'nglimning rangdoshi do'stim-a, daraxt,  
Darchamning tubida o'sding-a, daraxt,  
Erkim yo'lboshisi shu darcha edi,  
Shuni ham ko'zimdan to'sding-a, daraxt.

## **ABDULLA SHER**

**(1943)**

*Abdulla Sher (Sherov Abdulla) 1943-yil 5-avgustda Toshkent viloyati Chinoz tumanida tug‘ilgan. “Ko‘klam tabassumi” (1973), “Alyor” (1977), “Atirgul soyasi” (1979), “Roz” (1980), “Kuz hiloli” (1983), “Qadimgi kuy” (1987), “Aliy shipovnik” (1987), “Nuqtadan so‘ng” (1989), “Toqat” (1997), “Yonayotgan yo‘l” (2007), “Yomg‘irlar oralab” (2009, 2010), “Sarbast qo‘shiqlar” (2010), “Sevgi olmoshi” (2010), “Sevilmagan mening sevgilim” (2010), “Gul yillar, bulbul yillar” (Saylanma, 2012), “Kurtaklar-ga berkingan bahor” (2016), “Chayqalgan qayiqlarda” (2019), “Tanlangan asarlar” (2021) she’riy kitoblari va “Asrlarning araganlari” (2011) nasriy to‘plami chop etilgan. Jorj Bayronning “Don Juan” she’riy romanini ingliz tilidan, Haynrix Haynening mashhur “Qo‘shiqlar kitobi”ni va “Olmoniya” dostonini olmon tilidan tarjima qilgan. Shuningdek, “Abadiyat va umr” (2017) hamda “Go‘zallik yog‘dusi” (2017) nomli yirik falsafiy-ma’rifiy kitoblar muallifi.*

*2016-yilda “Mehnat shuhrati” ordeni bilan mukofotlangan.*

## **MAHMUD YALAVOCH**

Spitamen boshin tilla barkashda  
Keltirib, Iskandar sharobin totding.  
Ming yilki, avlodlar tinmas qarg‘ashdan:  
Sen Vatanni sotding, xalqimni sotding!  
Nega kasb-u koring topar-u, rivoj,  
Nega sen o‘lmaysan, Mahmud Yalavoch?!

O‘zbegin oq ko‘ylak kiygan mahali  
Qutayba poyida sen pusib yotding.

Muqannaning qo‘ri sovimay hali  
Uning oqko‘ylagin arabga sotding!  
Qoldirib xalqimni erkin yalang‘och,  
Nega sen o‘lmaysan, Mahmud Yalavoch?!

Qonga botgan payti Buyuk Xorazm  
Chingiz o‘tovida oltinga botding.  
Ey, o‘zimdan chiqqan baloyi azim,  
Sen Vatanni sotding, xalqimni sotding!  
Ming yilki, la‘natdan kiyganingcha toj,  
Nega sen o‘lmaysan, Mahmud Yalavoch?!

Chimkent-u, Toshkent-u Qo‘qonning oltin  
Kalitin oqposhsho poyiga otting:  
O‘zingni ko‘p qimmat baholab oldin,  
So‘ng Vatanni juda arzonga sotding!  
Qo‘lingda tasbeh-u, ko‘kragingda xoch,  
Nega sen o‘lmaysan, Mahmud Yalavoch?!

Kim Vatan qo‘shig‘in yashasa kuylab,  
Qo‘rg‘oshin bo‘lding-u, bo‘g‘izda qotding,  
Bilmayman, xoinlar saflari bo‘ylab  
Nimani olding-u, nimani sotding!  
Nega hech tugamas senga ehtiyoj,  
Nega sen o‘lmaysan, Mahmud Yalavoch?!

Qo‘lingga tutqazdi tarix yana tosh:  
Fayzullaga otting, Akmalga otting,  
yelkalar hay‘atda bo‘lganda bosh-qosh,  
yelkalar nomidan boshlarni sotding,  
Chinorlarni sotding, bukri qayrag‘och,  
Nega sen o‘lmaysan, Mahmud Yalavoch?!

Qizil niqob tortib qora betingga,  
Minbardan minbarga sen tomir otting.  
Yostiqdek yonboshlab partbiletingga,

Arshni pastdakkina kursiga sotding,  
Hanuz qidirasan yashashga iloj!  
Ming la'nat senlarga, Mahmud Yalavoch!!!

1984

## USMON NOSIR HAQIDA ERTAK

“Ey o'tkinchi, sochlari oppoq,  
Qiyiq ko'zli, sodda amaki,  
Bir zum qo'yko'z qardoshingga boq,  
O'rab bergen, menga tamaki.

O'rab bergen, chekay: majruhtan,  
Tirsagi yo'q qo'llarim uchun,  
Tizzasi yo'q oyoqlar bilan  
Yurolmagan yo'llarim uchun.

Yuragimdan o'zga do'stim yo'q,  
Yovlarim ham chiq mish yodimdan.  
Men asridan sachragan bir cho'g',  
Mensiz yonar olisda gulxan.

Borliq xira, ko'zlarim ko'rmas,  
Bor a'zoyim mening faqat til.  
Qilichingni serma endi, bas,  
Bo'ynim uzra tebrangan, ey qil!

Ro'yolardan qaytay o'ngimga,  
Buyuk Sibir — shafqatli diyor,  
Taskin berma, qo'ygin, ko'nglimga,  
Boq, erimas kiprigimda qor!..

Yo'q, bu yolg'on, bu bir hazildur,  
Parvo qilma bunga, amaki.  
Kel, mehringdan olayin huzur,  
O'rab bergen menga tamaki.

Men-chi, kuylay: muz qotgan bo'shliq  
Jo'r yangrasin olov bardoshga,  
O'zbekiston haqida qo'shiq  
Olib ketsin bizni quyoshta..."

...O'rab berdi. Gugurt ham chaqdi.  
(Qiyiq ko'zli boboga rahmat!)  
Bir uh tortib falakka boqdi:  
"Jallodlarni tug'ganga la'nat!"

Bobo ketdi. Ergashdi, ammo,  
Qo'shiq bo'lib gul O'zbekiston.  
Hanuz borar, to'xtamas bobo,  
O'zbekiston ergashar hamon...

1987

\* \* \*

Men may ichdim, paydar-pay ichdim,  
Gunoh qildim, kattakon gunoh,  
Men Yotgulni quyundek quchdim  
Yot to'shakdan elanib panoh.

Netay, axir, zada bo'ldim men  
O'zim chiroq yoqqan Vatandan;  
Men er bo'ldim, ada bo'ldim men,  
Endi esa — gunohkor banda!

Tuproqlarga belab g'animni,  
Shoirmen deb, uchib osmonga,  
Men bilmabman aylanganimni  
Asta-sekin tirik hamyonga.

Hamyonlikdan dilim og'ridi,  
Men gul quchdim, ichdim gulgun may,

Yot maskanning yorug‘ bag‘rida  
Yorug‘ she’rlar aytdim paydar-pay.

Kechir Yot gul, sen yot, yot, gulim,  
So‘ng bor quchib yo‘lga shaylandim.  
Tuni bo‘yi ikkala qo‘lim  
Seni silab gulga aylandi.

Xush qol endi yorug‘ maskanda,  
Men zulmatga qadam tashlayman.  
Rahmat. Endi o‘lgim kelganda  
Qo‘llarimni hidlab yashayman.

## TURSUNOY SODIQOVA

(1944–2017)

*Tursunoy Sodiqova 1944-yili Toshkentda tavallud topgan. “Qizlar daftari” she’riy turkumining tashkilotchilari va mualliflariidan biridir. Shoiraning bиринчи she’riy guldasasi “Kuy” nomi bilan 1978-yilda chop etilgan. 2017-yil 14-yanvar kuni vafot etган.*

### IQBOL

Yuragimga to‘ldi bir tuyg‘u,  
Men she’r qilib aytmasam bo‘lmas,  
Garchi mening kashfim emas u,  
Balki oddiy bir she’rdir xolos,  
Men baribir aytmasam bo‘lmas.

Ul his to‘lar tomirlarimga,  
Ko‘zlarimga to‘lib boradir.  
Ko‘chirmasam agar she’rimga,  
Naq bag‘rimda o‘tday yonadir.  
Bo‘lmoq uchun bu o‘tdan xalos,  
Men u she’rni aytmasam bo‘lmas.

Menga na shon, na qarsak kerak,  
She’rdan ta’na qilgan shoirmas:  
Chiqmasin-chun qinidan yurak,  
Aylamay deb o‘z-o‘zimga qasd,  
Men u she’rni aytmasam bo‘lmas.

Ayta olsam, bo‘lar mo‘jiza:  
Bir daqiqa qolgum yasharib,  
Qatra g‘ubor qolmas yer uzra,

Bir daqqa kular yer shari.  
Ko'rinadi hamma chiroyli,  
Toshlar — gavhar, giyohlar — zumrad.  
Bir daqqa imkonim tog'dir,  
Bari g'amni qiladurman rad.  
Eh, bo'lay deb o'shal zavqdan mast,  
O'zga emas, o'zim-chun xolos  
Men u she'rni aytmasam bo'lmas!

Taqdirimga ming bor shukurkim,  
Menga dedi: she'r yozishni ol.  
Mayli, she'r deb qurisa ilkim,  
Bo'lay, mayli, beorom, behol,  
Bu dunyoni shoirchasiga  
Kuylamoqning o'zi bir iqbol!  
Yuragimga to'lar ajib sas,  
Men she'r qilib aytmasam bo'lmas,  
Ilhom zavqi, iqbol haqqi, rost,  
Men u she'rni aytmasam bo'lmas!

## YOR-YOR

Bugun qo'shni qishloqqa  
Kelin tushdi, yor-yor,  
Eshitmasam qaniydi,  
Hushim uchdi, yor-yor.  
Hushi uchdi demanglar,  
Qilaman or, yor-yor,  
Ataylab ham shu to'yga  
Bormog'im bor, yor-yor,  
Kuyov yigit, mana biz  
Kulib keldik, yor-yor,  
Bizda qolgan ko'nglingizni  
Olib keldik, yor-yor.  
Muhabbatin yuta olgan

Bir dengizman, yor-yor,  
Sizni o'zga qo'lga bergen  
Mardingizman, yor-yor.  
Mayli, bag'rim sizsiz yonib,  
Tamom bo'lzin, yor-yor,  
Sizni olgan o'zga qo'llar  
Omon bo'lzin, yor-yor.  
To'yingizda tilaydirman  
Toledan taxt, yor-yor,  
Bor bo'lsangiz bu dunyoda  
Shu bizga baxt, yor-yor.  
Mardlik bilan yor-yor aytib  
Turgan o'zim, yor-yor,  
To'yingizdan omon ketay,  
Tilang to'zim, yor-yor.

\* \* \*

Muhabbatim, kiming bo'ldim men?  
Do'stingmanmi, nechun do'st kabi  
Hol so'rmadim, ko'ngil topmadim?  
Nechun so'ndi menda matlabing,  
Xohishingni nega toptadim?  
Yo dushmanmi? Ne uchun unda  
Boshginamga seni etdim toj!  
Nechun tavof qilurman kunda,  
Nechun senda bari ehtiyoj?  
Muhabbatim, kiming bo'ldim men?..

\* \* \*

Gurkirgan quvonchlarim Siz bilan to'ldi,  
Siz-la to'ldi bag'rimdagi titroq dardlarim.  
Sizning bilan olamim ham bir butun bo'ldi,  
Sizning bilan to'ldi hatto ko'ngil gardlarim.

Sizni ko'rgach borlig'imda, o'ng-u so'limda,  
Sizni jon-u jahonimda tuygan boisdan,  
O'zingizni joylamoqlik kelmay qo'lidan,  
Taqdir Sizni olib ketdi bizdan olisga...

\* \* \*

Ming suluvni kuydirgan ul suqsurdayin bo'yingiz  
Xaridormi bo'libdur deb, ajab, yonib ketmadim.  
Shayton qursin, sho'xlik sari tushsa goho yo'lingiz,  
Gunohkor-ku demay sizdan, ajab, tonib ketmadim.  
Sizni deya sizsiz yashash yo'lin o'zim sayladim,  
O'zim ketib goh o't qo'ydim o'zim yer-u samoga.  
Sizning alpday jismingizni mushtday qalbga joyladim,  
Ismingizni yozib qo'ydim, do'stim, arshi a'loga...

\* \* \*

Kechiringiz, guldurakday fe'llarim uchun,  
Uyingizga yashindayin tushdim, kechiring.  
Dovullarim quyunida qoldingiz butun,  
Bari orom, tinchingizni quvdim uchirib.  
Kechiringiz, bahor yanglig' keldim, ketarman,  
Bor gardingiz yuvib ketgum, qoladursiz tinch.  
Sizga qolur pokiza his, muattar armon,  
Izlarimda teradursiz yam-yashil sog'inch...

## NOSIR MUHAMMAD

(1946–2017)

*Nosir Muhammad (Nasriddin Muhammadiyev) 1946-yilning 2-dekabrida Qashqadaryo viloyatining Yakkabog‘ qo‘rg‘onida tug‘ilgan. “Salom, kelajak” (1980), “Bahor taronasi” (1981), “Nasaf va Kesh allomalari” (2001, 2006), “Sumalakdan tosh topdim” (2004), “Anqoni mahram qildingiz” (2004), “Shaytonning iste‘fonomasi” (2008), “Turon davlatlari yilnomasi” (2010), “Hut shamollari” (2012) nomli she‘riy va bir qator ilmiy-ommabop kitoblari chop qilingan. 2008-yilda “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” unvoni bilan taqdirlangan.*

*2017-yil 5-iyul kuni Toshkent shahrida vafot etgan.*

## SOG‘INCH

Diyorim, jismimga jon bergen tuproq,  
Sening mehringga hech bormikin poyon?!  
Bag‘ringdan qanchalik ketmayin yiroq  
Ishqing hamroh bo‘lur menga har qachon.

Sendan go‘zal yurtlar bordir dunyoda,  
Boyligi sendan mo‘l yerlar bor hatto.  
Vale mening uchun sendan ziyoda,  
Sendek sevimlisi yo‘q erur aslo.

Qalbim sayohatlar zavqiga to‘la,  
Ko‘plab o‘lkalarda bo‘lganman mehmon.  
Qayda bo‘lmay, buyuk bir sog‘inch ila  
Sening qiyosingni izladim har on.

Mevazor bog‘laring esladim rosti,  
Qayinazorlar ichra kezganda masrur.

Lol etganda ulkan daryolar basti,  
Amu va Sir yodi baxsh etdi g'urur.

Shaharlar chiroyi ochganda bahrim,  
Ovrupo bag'riga qilganda safar,  
Ko'z oldimda turding jonajon shahrim  
Osiyo quyoshi toblangan gavhar.

Men uchun har joyda bo'ldi bir hujjat  
Bepoyon Vatanning bezavol nomi.  
Xorijiy tillarda qizisa suhbat  
Menga eshitildi o'zbek kalomi.

Sening borligingga shukrona aytdim  
Har qadamda mehring sezgan onimda.  
Goho iztirobda o'rtangan paytim  
Munis ona kabi turding yonimda.

Uzoqda bilinar yurt qadri har vaqt,  
Ko'zlarda yosh bilan yodlashar otin.  
Qadr-u qimmatningni bilmagan farzand,  
Mayliga ayriliq zahrini totsin.

Safar gar zavqlidir, poyonsiz emas,  
Sog'inib qayturman bag'ringga xushhol.  
Uchish zavqi ila bo'lsa-da sarmast,  
Uyaga talpingan palapon misol.

\* \* \*

Gahi shodlik, gahi qayg'u, ajab dunyo ekan do'stlar,  
Bu bir boshda necha g'avg'o, necha savdo ekan, do'stlar.

Pisharmu qaynamay odam gahi turmush qozonida,  
Sinovda kim muzaffardir, o'shal dono ekan, do'stlar.

Hayot ustod bo'lib doim meni ko'p imtihon etgay,  
Uning har bir sabog'ida necha ma'no ekan, do'stlar.

Dilimda qancha dog' qoldi, muhabbat tashnasidurman,  
Agarchi ishq ado bo'lmas azim daryo ekan, do'stlar.

Gahi obihayot istab sarobga duch kelib qoldim,  
Men intilgan ziyoralar gahida ro'yo ekan, do'stlar.

Safarlar zavqiga oshiq necha ellarni kezdim men,  
Axir bildim, aziz yurt — baridan a'llo ekan, do'stlar.

Hamisha kuylagay Nosir diyor-u yorning vasfin,  
Ular ishqisi yurakda doimo tanho ekan, do'stlar.

\* \* \*

Dunyo kezib, telegramda turfa xil odam ko'rdim,  
Yetti qavat yer uzra yetti rang olam ko'rdim.

Nodonlarning yuzida baxt-u quvonch jilvasi,  
Oqillarning dilida goho nihon g'am ko'rdim.

Angladim, nechun derlar doim "biri kam dunyo",  
Qismatidan shodumon komil zotni kam ko'rdim.

Yomonlarning zahridan ozurdadir bu ko'nglim,  
Yaxshilarning so'zida dardimga malham ko'rdim.

Zamonlar suronida, yo'q, o'limgan muhabbat,  
Oshiqlarning ko'zida injumonand nam ko'rdim.

Yarim asr yo'l yurib, topgan boyligim — do'stlar,  
Tashvish-u quvonchimda barin jamuljam ko'rdim.

Mehr-u sadoqat bilan kuylagayman elimni,  
Nosir, aziz bag'rida izzat-u karam ko'rdim.

## MATONATNI O'RGANDIK

*Ozod Sharafiddinov xotirasiga*

Aziz ustoz, nomingiz dilimizda yod bo‘lgay,  
Axir Sizdan bir umr haqiqatni o‘rgandik.  
Elim deb yongan zotlar doim barhayot bo‘lgay,  
Vatanga muhabbat-u sadoqatni o‘rgandik.

Shogirdlarning ko‘zida miltiraydi yosh bugun,  
Ko‘ksida armon degan alamli bir tosh bugun,  
Qani Sizdek donishmand ustoz-u sirdosh bugun,  
Garchi Sizdan bardosh-u shijoatni o‘rgandik.

Chorbog‘ning bog‘lari-yu shatranj ham qoldi yetim,  
Dilkash suhbatlaringiz goho tinglar edik jim,  
Davralarning to‘rida o‘ltiradi endi kim?  
To‘rt muchasi butunlar sabr-toqatni o‘rgandik.

Ne-ne azoblar bilan sinadi Sizni hayot,  
Tinimsiz mehnatda goh topdingiz orom, najot,  
Davrimiz Aflatuni, el-u yurtga suyuk zot,  
Ezgulik uchun kurash, riyozatni o‘rgandik.

Hayotingiz tillarda bir umr bo‘lar doston,  
Siz yaratgan chamanlar aslo bilmagay xazon,  
Ulug‘lar davrasida yodlanursiz har zamon,  
Sizdan insonlik ilmin, matonatni o‘rgandik.

## SULAYMON RAHMON

(1946–2019)

*Sulaymon Rahmon 1946-yilda tug‘ilgan. “Ildiz nima deydi?”* (1973), *“Xayol”* (1975), *“Hilol”* (1977), *“Billur qo‘ng‘iroqlar”* (1979), *“Uchinchi qiz”* (1984), *“Oydin diyor”* (1985), *“Daraxt-larni uyg‘otadi shabboda”* (1987) nomli kitoblari chop etilgan. Bir qator she’rlari rus, ispan, bolgar, turk, turkman, tojik, qoraqalpoq tillariga tarjima qilingan.

*U J. Bayronning “Don Juan” she’riy romanini, P. Nerudaning “Mushtarak qo‘shiq” she’riy epopeyasini va J. Rumiyining “Ma’naviy masnaviy” asarining birinchi daftarinini, yapon adibi K. Abening “Yashik odam”, rus yozuvchisi V. Shukshinning “Xo‘roz uch qichqirguncha”, turkman O’. Eminovning “Shiddat”, bolalar yozuvchisi E. Uspenskiyning “Fyodor amaki, kuchuk va mushuk”, “Kafolat odamchalari” kabi roman va qissalarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.*

\* \* \*

Kut, yetib borgayman bir kun hansirab,  
yo‘limni to‘ssa-da agar qonsirab  
hasadlar,

alamlar,

ta’nalar,

toshlar...

Menga bas kelolmas adovat, hasrat,  
yengolmas nolalar,

g‘amlar,

ko‘zyoshlar...

Kut, senga yetgayman,

ey buyuk MAQSAD!

\* \* \*

Bu sevgimi, otashmi, g'ussa?  
Yo Rabb, dilni tilib tashladi!  
Tasodifiy o'sha bir bo'sa  
meni telba qilib tashladi!

Keyin esa... nachora, sensiz  
yog'ib o'tdi dalalarga qor;  
keyin esa ... bechora, sensiz  
kelib ketdi necha bor bahor;

keyin esa... menga ovunib  
izlaringni axtardi yo'llar;  
keyin esa... seni sog'inib,  
ado bo'ldi hajringda gullar;

keyin esa... ko'zim xobini  
tilab oldi uyquchi tog'lar;  
keyin... qalbim iztirobini  
ko'tarolmay sarg'aydi bog'lar...

Qayt, bu bog'lar tamom so'lmasin,  
qayt, vafodan hikoyalar ayt.  
Mayli, menga rahming kelmasin,  
tabiatga shafqat qil faqat...

\* \* \*

Uzoqlarda chirqillar bir qush,  
kim u buzgan halovatini?  
Bosriqdimi ko'rib yomon tush  
yo gazanda yuldi patini?

Uzoqlarda chirqillar bir qush,  
yolg'izlik yo jondan o'tdimi?  
Kuydirdimi yuragini ishq,  
ishongani tashlab ketdimi?

Uzoqlarda chirqillar bir qush,  
tunni yirtar achchiq nolasi.  
Yo qildimi noboproq bir ish  
erkalanib tantiq bolasi?

Uzoqlarda chirqillar bir qush,  
mitti jonda nechun shuncha dod?  
Yuz burdimi undan el-u xesh,  
qolmadimi do'stda e'tiqod?

Uzoqlarda chirqillar bir qush,  
qushim, so'yla, o'rtagan qay dard?  
Balki xushdir, balki u noxush,  
rahmat, qola bilmabsan loqayd.

Uzoqlarda chirqillar bir qush,  
bir dam keching rohatingizdan,  
madad so'rар balki boyoqish,  
madad so'rар, odamlar, bizdan...

\* \* \*

Nechun yana tushimga kirding,  
yodimni tark etmading nechun,  
dom-daraksiz yitmading nechun,  
nechun yana tushimga kirding?

Yodimni tark etmading nechun,  
hayotimdan ketding-ku axir,  
o'zgaga qo'l tutding-ku axir,  
yodimni tark etmading nechun?

Dom-daraksiz yitmading nechun,  
nahotki sen, nahot, bedardim,  
bo'lib qolding to abad dardim,  
dom-daraksiz yitmading nechun?

Nechun yana tushimga kirding,  
yorug' edi sen-la tunlarim,  
qaro bo'ldi sensiz kunlarim,  
nechun yana tushimga kirding?

Qismatimdan ketsang ham, nechun,  
tushlarimdan ketmaysan, sanam,  
yodimni tark etmaysan, sanam,  
qismatimdan ketsang ham, nechun?

\* \* \*

Bitiklar bor zanjirlarda, kishanlarda,  
jallodlarning kundasida, devorlarda,  
zindonlarda, tangalarda, nishonlarda,  
bitiklar bor qilichlarda va dorlarda...

Bobolarim yozib ketmish e'tiqodin,  
or-nomusin, bu dunyoga qarashlarin,  
yoziб ketmish qahqahasi ham faryodin,  
yoziб ketmish maydon ichra kurashlarin.

Bobolarim qoni olov — or olovi,  
bobolarim qoni isyon — erk isyon.  
Bobolarim qoni yalov — erk yalovi,  
tomirlarim ichra bormi ular qoni?

Men turibman chorrahada oyoqyalang,  
bu chorraha menga sinov chorrahasi.  
Ko'zim boqar chor tarafga alang-jalang,  
menga hayron bu dunyoning chor dahasi:

"Bolam, sen shu bobolarga bolamisan?  
Unda nechun qoning sovuq, qaynamaysan?  
O'z ichingga qamalgan bir nolamisan,  
nechun katta maydonlarda o'ynamaysan?.."

## **ANVAR OBIDJON**

**(1947–2020)**

*Anvar Obidjon 1947-yil 8-yanvarda Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanidagi Poloson qishlog 'ida tug'ilgan. O'zbekiston xalq shoiri (1998). "Usta Gulmat g'azallari" (1974), "Eng yorug kun" (1983), "Akang qarag'ay Gulmat" (1987) va "Masxaraboz bola" (1986), "Juda qiziq voqeа" (1987), "Yerliklar" (1990), "Alamazon va Gulmat hangomasi" (1992), "Ajoyibxona" (1993), "Tanlangan she'rlar" (2006), "O'g'irlangan pahlavon" (2006), "Bahromning hikoyasi" (2007) kabi doston, qissalar, she'rlar, pyesalar va hajviy asarlardan iborat to'plamlar muallifi. "Shuhrat" medali bilan taqdirlangan (1997).*

*Adib 2020-yil vafot etgan.*

## **OTA O'GITI**

Har bitta so'z — suvdek aziz,  
Har bitta so'z — nondek uvol.  
Til boyligin bog' deb bilsak  
Har bitta so'z — bitta nihol.  
Biron so'zni isrof qilmoq  
Bir ko'chatni yulmoqlikdir.  
Bora-bora, otameros —  
Bog'ni xarob qilmoqlikdir.  
E bolam, yot yurtga borsang,  
Ne atalur eling, derlar.  
Qay millatning vakilisan,  
Bormi ona tiling, derlar.  
Shunda, mening qutlug' tilim —  
Navoiyning she'ri, degil.  
Yurtim — Ulug'beg-u Bobur,

Amir Temur yeri, degil.  
Ayt g‘urur-la Beruniylar,  
Farg‘oniyalar ajdodim, deb.  
Faxr et doim qudratli yurt,  
Boy til, nasab-nasling bilan.  
Obro‘yingni baland tutmoq,  
E bolam, o‘z qo‘lingdadir.  
Sening olamdagи narxing  
Vatan, millat, tilingdadir.

### MILTIQCHA QO‘SHIG‘I

Do‘konlarda sotilaman.  
Paq-puq.  
Yolg‘ondakam otilaman,  
Paq-puq.  
Yoqtiraman mard o‘rtoqni,  
Paq-puq.  
Cho‘chitaman lanj, qo‘rkoqni...  
Paq! Puq!

### PARVARDA

Tug‘ilgandi Bo‘richa  
Sakkizinchи yanvarda.  
Bugun bir yil to‘libdi,  
Adashmasa agarda.  
Va‘da qildi oyisi  
Unga quyon go‘shtini.  
Va‘da qildi dadasi,  
Unga kiyik to‘shtini.  
Bilmasa ham yosh Bo‘ri  
Dunyoning keng-torligin,  
Eshitgandi dunyoda —  
Shirinliklar borligin.

Injiqlandi u bordan:  
“Sovga qiling parvarda,  
Hech bo‘lmasa yeb ko‘ray  
Sakkizinch Yanvarda”.

Taskin berdi oyisi:  
“Bolam, adir — do‘konmas”.  
Dadasi der: “Shaharga —  
Borib kelmoq osonmas”.  
Fursat poylab erkatoy,  
Chiqli-yu g‘or — uyidan,  
Shahar tomon yugurdi  
Chopqir anhor bo‘yidan.  
Chiroqlarga angrayib,  
Tushib borgan chog‘ pastga,  
Uni ushlab shaharda,  
Qamadilar qafasga.  
Endi uni yosh-qari  
Qilar har kun tomosha.  
U termilar adirga  
Baland-baland tom osha.  
...Yillar o‘tib oradan,  
Sakkizinch Yanvarda,  
Bir qiz yuvosh Bo‘riga  
Tashlab o‘tdi parvarda.

## BEHI

Ikki yuzim burushqoq,  
Dema meni urishqoq.  
Ishga solib aqlimni,  
Sezdirmayman jahlimni.  
Agar shirin bo‘lmasam,  
Xushomadni bilmasam,  
Meni darrov kesishar,  
O‘rnimga nok ekishar.

## **KALAMUSHLAR KEMASIDA**

Ostki qismin yemangiz,  
Cho 'kib ketar kemangiz!

## **MAYMUNLAR TELEVIZORIDA**

Ko 'rsatamiz bananni,  
Yalamanglar ekranni.

## **BURGUTLAR DARSLIGIDA**

“Tutdik to 'rtta Qarqunoq,  
Yarmin yedik. Juftmi, toq?”

## SADRIDDIN SALIM BUXORIY

(1947–2010)

*Sadriddin Salimov 1946-yil 16-sentabrda Buxoro shahridagi Cho 'pboz guzarida tug 'ilgan. "Oqqushim", "Erka qushim" (1979), "Yorug 'lik odami" (1983), "Ro 'molcha" (1988), "Buxoroga Buxoro keldi" (1999), "Durdonalar" (2005) kabi she'riy to 'plamlari nashr etilgan. Shuningdek, "Bahouddin Naqshband yoki yetti pir", "Uch avliyo", "Hazrat Abu Kafs Kabir", "Ikki yuz yetmish yetti pir", "Hazrat Bahouddin Naqshband", "Hazrat Ka'bul Ahror Valiy" va boshqa tarixiy-ma'rifiy asarlar muallifi. I.V.Gyotening "G 'arb-u Sharq devoni" ni o 'zbek tiliga tarjima qilgan. "Mehnat shuhrati" ordeni (1999) va "Fidokorona xizmatlari uchun" (2005) ordeni bilan mukofotlangan. 2010-yilda vafot etgan.*

\* \* \*

Buxoroning obidalari  
Ming yillardan beradi xabar:  
"Xor bo 'lasan, mute bo 'lasan,  
Buyukliging unutsang agar!"

Buxoroning obidalari  
Hikmat erur moziydan, inon:  
"Buyuklarni buyuk aylagan  
E'tiqod-u erk hamda iymon!"

Buxoroning obidalari  
Har kun yangi hikmat aytadi,  
O 'tmishni-da, kelajakni-da  
Men tomonga olib qaytadi.

## **RUH MEHROBGA TALPINAR**

### **1**

Ruhga parvoz aslida xosdir,  
Uni qamab bo‘larmi yohu!  
Ruh oyoqlar ostida qolib,  
Nechun bo‘lmish munchalar majruh?

Ruh tashnadir, ochdir va lekin  
Unga oziq bo‘lgaymi sarob?  
Ruh mehrobga qarab talpinar,  
Yiqitilgan muqaddas mehrob...

### **2**

Buxoroning muqaddas bag‘ri  
Ne sababdan muncha toptalmish?  
Tiriklar jim, obidalar jim,  
Tug‘lar xomush, qabrular xomush...

Foxiraning faxri qaydadir?  
Bu sukunat asli sirmasmi?  
Tiriklari xomush bo‘lgan yurt —  
O‘liklari tilga kirmasmi?!

## **BUXOROYI SHARIF**

Bu shoh asar, buni ko‘rmoqqa  
Farang kelar, olmoni kelar.  
Uzoq-yaqin yurtning shoh-faqir,  
Yaxshi hamda yomoni kelar.

Bu shoh asar, buni ko‘rmoqqa  
Zax kelmoqda, sho‘rob kelmoqda.

Paxtazori bilan bostirib  
Shior bilan xitob kelmoqda.

O‘zining shoh asarlarini  
Aylab qo‘yib yer bilan yakson —  
Sen!  
Ne uchun kelmayapsan, Sen —  
Ka’basini yo‘qotgan Inson?!

## MILLAT

Qaydan aniqlagaysan  
Havoning millatini?  
Quyoshning millatini,  
Daryoning millatini?

Daho misli quyoshdir,  
Ol zeb-u ziynatini,  
Boshingga urasanmi  
Dahoning millatini?!

Etmagayman hech qachon  
Gumrohlar g‘iybatini,  
Gumroh tekshirmish  
Odam Atoning millatini.

Ma’lum emish hammaga  
Alar past tiynatini,  
Past kimsa qaydan bilsin  
Samoning millatini.

\* \* \*

Qanday sendan olayin xabar,  
Boshlanadi qaydan ostona?  
Qay imloda yozsam xat yetar,  
Arabiymi yo sug‘diyona?

Maysalarda yo‘q erur zabon,  
Maysalarning tilida titroq.  
Etolmaydi holingni bayon,  
Garchi mendan senga yaqinroq.

Bo‘zlagayman yuragim to‘lib,  
Qayda eshik, qayda erur yo‘l?  
Koshki, eshik yo maysa bo‘lib,  
Cho‘zolsaydim sen tomonga qo‘l...

## XAT

Yurakni qiynagan bu sog‘inch,  
Yurakka sig‘magan hayajon,  
Bir parcha qog‘ozga ilashib,  
Ketmoqda yurt tomon.

Maktubda ne hikmat bor ekan,  
Ne xislat maktubda namoyon?  
Bir parcha qog‘ozga ilashib,  
Yuragim ketmoqda yurt tomon.

## ISMOIL MAHMUD MARG‘ILONIY

(1947)

*Ismoil Mahmud Marg‘iloniy 1947-yilda tug‘ilgan. “Shu’la”, “Kelajakka ishonib”, “E’tirof”, “Ishq saodati”, “Gulzor qilur” kabi she’riy kitoblari chop etilgan. Ayni vaqtda, Marg‘ilon shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan Jahon otin Uvaysiy nomidagi yoshlar adabiy to‘garagi rahbari.*

\* \* \*

Yaxshidir har dilda bo‘lsa yaxshilarga iqtido,  
Yaxshilik kelgay ko‘ngilda bo‘lsa shunday muddao.

Yaxshilarga ergashib topgay ko‘ngil o‘z matlabin,  
Qo‘ysa kim bu yo‘lga makdamkim, biling, jonga g‘izo.

Cheksha bu yo‘lda riyozat gar kishi topgay farah,  
Bu saodat rishtasin tutgay, biling, aqli raso.

Topdi kim yordin ajr, topgay, biling, nusratga yo‘l,  
Kim so‘rab Haqdin panohni, bo‘lmayin yuzi qaro.

Norasodan qilmagin, rohi xatarda rost qil,  
Kim shafoat aylabon ojiz qulingni Robbano.

Ikki olamda azizdir yaxshilar ishq ichrakim,  
Haq yo‘lida bo‘lsa kim aylar ani yor to‘tiyo.

Beibolar birla Mahmud, topmading hargiz sharaf,  
Yaxshilarga ergashib topsang ajabmaskim rizo.

\* \* \*

Hajrida qiyndaldi jonim, bu ko'ngil yor istagay,  
Ko'rmakka, baskim, jamolin bu ko'ngil zor istagay.

Vohki, ondin o'zga yorni ko'rmagay bu ko'z mudom,  
Berguchi dardlarga malham chin xaridor istagay.

Ayriliqdin dard chekib, voh, ol yuzim bo'lди sorig',  
Zor-u zorlik ichrakim ham oncha izhor istagay.

Topmadim ishq dashtidan izlab seni, ey yorki, bas,  
Bu ko'ngil zog'-u zag'anlar ichra gulzor istagay.

Charx komida azal bitmis bu tarzliq qismatim,  
Vohki, bu tarzliq ichinda shavq-u asror istagay.

Ey ko'ngil, Majnun-u Farhod tal'atin boz ayla yod,  
Har biri xilqat arokim, bilki, g'amxor istagay.

Ishq kasbi ichra, Mahmud, men bukun kuydim dema,  
Oshiq ahli ikki olam ichra diydor istagay.

\* \* \*

Ilmsizlik kishini oxiri esdan judo qilgay,  
Judolik ichrakim behol etib qaddin duto qilgay.

Duto qaddi bila a'molidan topmas farog'atlik,  
Farog'at topmagay hargiz, hayotini ado qilgay.

Adolik ichrakim hargiz yo'qotgay ul siyoqini,  
Siyoqini siyoh aylab, ikki dunyo qaro qilgay.

Qaro aylab ikki dunyosini jurmi bila g'ofil,  
Ki g'ofillik bila o'zni gunohga oshno qilgay.

Gunohga oshno qilgay o‘zidek bexabarlarni,  
Xabar topmas alarni ham baloga mubtalo qilgay.

Baloga mubtalo qilgayki nomus oridin ayrib,  
Ki, nomus-oridin ayrib jahannamga ravo qilgay.

Jahannam vahmidan qo‘rqib tururman xavf rajo ichra,  
Iymonda ayla Mahmud deb quling hamd-u sano qilgay.

\* \* \*

Etmagil ko‘nglimni hargiz, ey falak, jondin yiroq  
Jonima jon bo‘lguchi ul mohitobondin yiroq.

Borlig‘im, mavjudligim, bil, yor tufayli chin erur,  
Qilmagil bu qulni hargiz tun-u kun ondin yiroq.

Har nafas yor ishqida urgay yurak, bilmas tinim,  
Necha bor urdi dema, voh, urgani sondin yiroq.

Notavonman, norasoman vasli ko‘ying ishqida,  
Chorasiz holimni anglab, qilma imkondin yiroq.

Sen, quyosh yuzli jamolin istagaykim bu ko‘ngil,  
Bir sharorat ahlidin deb qilma rizvondin yiroq.

Mahmudo, holimda rohat topmadim deb chekma g‘am,  
Kim topar baxtini, evoh, bo‘lsa jonondin yiroq.

## MATNAZAR ABDULHAKIM

(1948–2010)

*Matnazar Abdulhakim 1948-yil 20-fevralda Xorazm viloyati-ning Urganch tumanida tug‘ilgan. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi (2000). “Tiniq tonglar” (1982), “Fasllar qo‘sishig‘i” (1984), “Qor qo‘sishig‘i” (1990), “Yonimdagি daryolar” (1993), “Qorachiqdagi dunyo” (1994), “Bir quchoq gul”, “Oydinlik” (1997), “So‘nggi yaproq” (1999) kabi kitoblari nashr qilingan. Shayx Najmiddin Kubro, Shayx Majdiddin Bag‘dodiy, Pahlavon Mahmud, Mirzo Bedil asarlarini forsiyidan o‘zbek tiliga tarjima qilgan.*

*Shoir 2010-yilda vafot etgan.*

\* \* \*

Baxt izladim men dala, dashtdan,  
Orzum bol, umidim — asal.  
Onaginam! Seni aldashdan  
Halokatni sanadim afzal.

Sarmast qildi chamanlar vasi,  
Qayg‘urmadim, rizq-u ro‘zimni.  
Yashadim men bag‘ishlab, asli,  
Faqat o‘zgalarga o‘zimni.

Bilmam, uchdim qanchalar chaqrim,  
Goh mag‘lub, goh g‘olib keldim men.  
Bol deb mehrim, asal deb faxrim —  
Topganimni olib keldim men.

Gullar ichdim ichgandek qasam,  
Loyiq bo‘ldim zahmatkash safga.

Balki... balki yanglishib ba'zan,  
Qo'nib qo'ydim sassiq alafga.

Noz bo'ylardan uyg'onib sahar,  
Uchmoqqa yo'q, ehtimol, haqqim.  
Balki, asal deganim zahar,  
Bol deganim, ehtimol, zaqqum.

Xullas, o'zing bilasan, onam,  
Sen ming sirdan xabardor hakim.  
Xohla, meni qabul et, mana,  
Xohla, boshim uzib tashlagin.

## BAXT

Mukammal bu go'zalligingni  
Yonib qilgim keladi ta'rif,  
Biroq, ne qilayki, qoshingda  
Eng qudratli kalomlar g'arib.

Visolingni qilsam-da havas,  
Mehrim izhor etmadim hech vaqt.  
Sen bilan bir havodan nafas —  
Olish o'zi menga katta baxt.

Bir qayrilib tashlasang nigoh,  
Yurak to'lar so'nmas ziyoga...  
Seni bir bor ko'rish-chun faqat  
Kelib ketsa arzir dunyoga.

## TARJIMAYI HOL

Ko'rinmasdim har kim-har kimga,  
Men — saharlar ufurgan nafas.

Gardsizligim, tozaligimga  
Cheksizliklar qilardi havas.

Bir tong nogah bo‘ldim men shabnam,  
So‘ng bulutga, yomg‘irga do‘ndim.  
Maysalarga aylandim kam-kam,  
Tuproq bo‘lish dardiga ko‘ndim.

Ming yilliklar turkum va turkum  
Qorildilar zulmat, ziyoga.  
Saodatli qandaydir bir kun  
Daraxt bo‘lib keldim dunyoga.

Hayot bir yo‘l — so‘ngsiz, betimsol,  
Ming tirilib, ming o‘lib chopdim.  
Nasib bo‘ldi noyob bir visol,  
Jonzot bo‘lib tavallud topdim.

Qanoatlar, toqat, sabrlar  
G‘ildiragi aylandi gir-gir.  
Kechdi necha tuman davrlar,  
Inson bo‘lib tug‘ildim axir.

Endigina orom topib jon,  
Yetdi desam tolega xush gal,  
Har to‘kisda — necha ming nuqson,  
Har to‘kisda — necha ming ishkal.

Zulmat to‘ydi, yutib ziyni,  
Zulmatlarga ziyo ham to‘ydi.  
Diydoriga to‘ydim dunyoning,  
Diydorimga dunyo ham to‘ydi.

Qo‘ying, so‘ylab bo‘lmay men nolon,  
Siz ham tinglab bo‘lmangiz halak.  
Shu o‘zingiz bilgan to‘polon,  
Shu o‘zingiz bilgan charxpalak.

Nomard bo‘lay agar nolisam,  
Boshqa girilmayman, o ‘lmayman.  
Bir qutulsam, bir ketib olsam,  
Dunyoga men boshqa kelmayman.

## IMKONIYAT

G‘amginlik kam emas qullikdan,  
Lekin mahbusman deb nolish — uyatdir.  
Har lahza, har nafas bu tutqunlikdan  
Xalos bo‘lmoq uchun imkoniyatdir.

\* \* \*

Parvoym yo‘q hozir xom, puxtalarga,  
Unutdim dunyoning nasya, naqdlarin...  
Yurakning olis bir nuqtalariga  
Qaytib kelayotir shoir vaqtlarim.

Arang miltillaydi olisda ovul,  
Tim-tirs... ilg‘anadi bezovta ruhlar.  
Oynako‘l tushiga kiradi dovul,  
Har bargda bir shamol dong qotib uxlar.

Har lahza qa‘riga bekingan ming yil,  
Sukunat hayqirar qutlug‘ otingni.  
Butun borliq qattiq biriktirgan gil  
So‘ndirmaslik uchun yodingni.

Munavvar bir dastyor yog‘dular mulki,  
Tinim bilmaydi hech osmonda quyosh.  
Nur taratar yoding — lablarda kulgu,  
Yog‘du sochar yoding —  
ko‘zlardagi yosh...

## AZIM SUYUN

(1948–2020)

*Azim Suyun 1948-yil 22-fevralda Samarqand viloyatidagi Nukurt qishlog‘ida tug‘ilgan. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi (1997). “Mening osmonim”, “Zarb”, “Zamin taqdiri”, “Xayolot”, “Ziyo yo‘li”, “Javzo”, “Olis tonglar”, “Kuyganim — suyganim”, “Qora ko‘zing sening”, “Saylanma”, “Sharq hikmati”, “Ey do‘st” kabi she’riy to‘plamlari nashr etilgan.*

*Shoir 2020-yil vafot etgan.*

### EY DO‘ST

Ey do‘st!

Odam Atoni, Tangrim, odam yaratdi,  
Moma Havoni unga hamdam yaratdi.  
O, aslida aql-u kuch egasiga  
Illohiy muhabbat-u ilhom yaratdi.

\* \* \*

Ey do‘st!

Gulsiz meva tugar anjir degani,  
Yor gulsiz bo‘lsa ham bir kelsa qani?  
Chechakni yelkada tutgan qoyadek  
Boshimga ko‘tarib yurardim uni.

\* \* \*

Ey do‘st!

Tabiblar ko‘p erur, dorilar bisyor,  
Ular na darkordir, garchi men bemor.  
Yolg‘on kulib, yolg‘on yig‘lab netaman,  
Kifoya yonimga kirib kelsa yor.

\* \* \*

Ey do'st!

Tunda chorlagandik biz yorimizni,  
Ko'zdan nihon tutib xumorimizni.  
Yor chiqqach, o, zulmat ketdi yorishib,  
Oshkor qilib qo'ydi asrоримизни.

\* \* \*

Ey do'st!

Dunyo noraso jang-jadallar bilan,  
G‘am-u anduhlar-u, ajallar bilan.  
Dam g‘animat, jonon bilan suhbat qur  
U raso bo‘lgaydir go‘zallar bilan!

— 10 —

Ey do'st!

Yursa yo'li yorug',  
tursa — dil-ko'ngil,  
Umri — daryolarda oqmas besamar,  
Uyg'oq turib tushlar ko'rmas, kimgaki  
Sevish va sevilish saodati yor.

\* \* \*

Ey do'st!

Olamda bormikin sizdan go'zalroq,  
Olamda bormikin bizdan go'zalroq.  
Ko'zimiz ko'zgudir, bas, ko'rmadik biz  
Hech kimsani go'zal qizdan go'zalroq.

\* \* \*

Ey do'st!

Jahon ayvonida erur jamuljam  
Bu Zamin, bu Osmon, bu turfa Olam.  
Ko'nglimga na xushdur, yonimda agar  
Bo'lmasa ko'nglimni olg'uvchi sanam!

\* \* \*

Ey do'st!

Ishq jodusi qilgan meni mubtalo,  
Qurban qilay shaksiz balo, bu balo.  
Ko'rib keladurman, ko'rgumdir illo,  
Ko'z ochgan kunimdan qabrimgacha to!

\* \* \*

Ey do'st!

Bir boqmas bu gulro', har kun shu sazo,  
Qaysi bir gunohim uchun bu jazo?  
To'yarmi oshiqlar xilxonasi, ayt,  
Tag'in bir oshiqqa yetsa gar qazo?

\* \* \*

Ey do'st!

Go'zallik beqadr bo'lman aslo,  
Uni bilmas kishi o'lgani avlo.  
Qorako'z jononim bo'lsa gar hamroh,  
Bu Shoshdan ketardim mahshargacha to!

\* \* \*

Ey do'st!

Qaragil, biz tomon jonon kelmoqda,  
Xushxandon chechaklar nim egilmoqda.  
Uning tashrifini qutlab, poyiga  
Olchaning gullari sho'x to'kilmoxda.

\* \* \*

Ey do'st!

Ishq — vafo, ishq — jafo,  
jondan kechasiz,  
Hilol u — oy bo'lib to'la-to'lguncha.  
Ishq — chashma, ishq — sharob,  
har kun ichasiz  
Va lekin to'ymaysiz o'la-o'lguncha.

\* \* \*

Ey do'st!

O'n to'rt kunlik oyni osmonda uchratdim,  
Unga yetmoq — orzu, ummonda uchratdim.  
Visol debon o'zni otdim quchog'iga,  
Har yon sochildi u, har yonda uchratdim.

\* \* \*

Ey do'st!

Sahar chog'i barcha ko'zdan go'yo nihon,  
Soy bo'yida cho'milardi bitta jonon.  
Bilgaydir u: jonli ko'rsa jon bergaydir,  
Bilgaydir u: jonsiz ko'rsa kirgaydir jon.

\* \* \*

Ey do'st!

Bir qoshiq tuzdirman, taom bo'lmasman,  
Bir jonga arzirli in'om bo'lmasman.  
Lekin yor taomi mensiz bo'imagay,  
Pok dasturxonida tamom bo'lmasman.

\* \* \*

Ey do'st!

Qaydandir jononlar kulgusi kelar,  
Kishi bundan ketmay turgisi kelar.  
Ularning ichida bizning yor bormi,  
Oh-oh, sabolardan gul isi kelar.

## O'TKIR RAHMAT

(1949)

O'tkir Rahmat 1949-yilda Samarqand viloyati Toyloq tumanining Uzun qishlog'ida tug'ilgan. "Irmoq", "Sog'inch", "Jilg'a", "Rayhon hidi", "Shukrona", "Oy yog'dusi", "Ey, umri aziz..." kabi she'riy to'plamlari nashr etilgan.

### TONGDA

— Daraxtlar, oy-yulduzdan  
boshqa kimni ko'rdingiz,  
— Tun bo'yi tik oyoqda  
nima qilib turdingiz?

— Yelkamizga mindirib  
qushlarni birga yotdik,  
— Chug'urlashib eng avval  
tongni bizlar uyg'otdik!

— Kulayotgan oppoq tong,  
yo'ling poylar qay inson,  
— Baxsh etding sen kimga rizq,  
kimga esa baxt, imkon?

— Subhidamda eshikda  
meni intiq kutganga,  
— Sadqa qilib mehrini  
do'stlariga tutganga!

— Oqayotgan anhor-ey,  
kimni ko'zing yo'l ko'rdi,

— Erta tongda, aytgin, kim,  
sendan kelib hol so‘rdi?

— Sevishganlar parishon  
menga aytdi tushini,  
— Murodingga yetgin deb,  
tiladim baxt qushini!

— Nonni ko‘tarib boshga  
ochilgan ey dasturxon,  
— Atrofingga kimlarni  
sen o‘tqazding yonma-yon?

— To‘rt ko‘z tugal: ham ota,  
ham ona, o‘g‘il-qizni,  
— Oftobdayin tafti bor  
“Assalom” degan so‘zni!

— Erkalanib maysada  
orom topgan shudringlar,  
— Sahar chog‘i bu yerdan  
o‘tgan kimni ko‘rdinglar?

— So‘nayotgan yulduzlar  
mo‘ltiragan ko‘zlarin,  
— So‘ngra dalaga shoshgan  
qishlog‘ingning qizlarin!

## MEHR

Tiq etsa u eshik tomon mo‘ltiraydi,  
Ko‘zlar to‘rt, sog‘inibmi yo‘l qaraydi.  
Kimlar kelib, kimlar ketar bu manzildan,  
Topolmadi istaganin hech bir dildan.  
Hammada ham bordir tashvish, bordir g‘ami,

Kelganlarga kerak faqat uning nomi.  
Biri so‘rar yog‘liroq joy, biri yemish,  
Biroviga bepul qo‘ysa tillo bir tish.  
Mansab istab bor shudini va‘da qilar,  
Turlanishib buqalamun kabi ular.  
Yaldoqlanib yurganlarga to‘yning to‘ri,  
Vodarig‘-e, shularmasmi elning sho‘ri.  
Ko‘zlar to‘rt eshik tomon mo‘ltiraydi,  
Kim kelar deb zada dili qaltiraydi.  
Erta-yu kech allakimni kutar bedor,  
Yo‘llariga sog‘inchlari, nigohi zor.  
Xayolida halizamon quchoq ochib,  
Oqibat-u mehr kelar nurlar sochib.  
Yig‘lay-yig‘lay islariga to‘ymoqchi u,  
Ona ko‘ksin topganday bosh qo‘ymoqchi u!

## KO‘NGIL

*Ustozga*

Dargohingning eshiklaridan  
Kecha-kunduz uzilmas qadam.  
Shodlik o‘tsa qaysi biridan,  
Kirib kelar qay biridan g‘am.

Qarashlaring hammaga tengdir,  
Hammasini birday suyasan.  
Osmondayin fe’ling ham kengdir,  
Jilmayasan, kulib qo‘ysan.

Bu dunyoning tilsimi behad,  
Ko‘zboylag‘ich kabi o‘yini.  
Tutmish hamma farishtaday qad,  
Chalar insof, imon kuyini.

Quvlik — tulki chap berar ko‘zga,  
Ishonch hurkib turadi hayron.

Sehrlanib sehrli so'zga  
Dilda borin ochishing ayon!

Jilmayasan, senga baribir,  
Maqtov yana malhamdek yoqar.  
Bilmaysan kim gul-chechak axir,  
Ilon bo'lib kim zimdan boqar.

Sochiladi qalbning sirlari,  
Eshiklarin bir-bir ocharlar.  
Gullar ekib qaysi birlari,  
Qay birlari og'u socharlar.

Umr o'tar oqqanday daryo,  
Sevinch-g'amni ko'tarib boshga.  
Hamon befarq yashaysan, ammo  
Sho'r peshonang tegsa ham toshga!

Qalbing torin tinglab unini,  
Sho'x jilmayding shunda ham mayin.  
Zahar sochgan ko'rар kunini,  
Gul-chechaklar ekkanga qiyin!

## MIRPO‘LAT MIRZO

(1949–2018)

Mirpo‘lat Mirzo 1949-yil 20-avgustda Chimkent viloyatining Sayram qishlog‘ida tug‘ilgan. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi (1999). “Tong jilvasi”, (1976), “Ishq fasli” (1978), “Yaxshi kunlar” (1981), “Sunbula” (1985), “Moviy daryo” (1988), “Atirgul va yulduzlar” (1990), “Onajon”, (1995), “Saylanma” (2005) kabi she’riy to‘plamlari nashr etilgan. “Somon yo‘li chechaklari” (2004), “Sayra, do‘mbiram” (qozoq she’riyati antologiyasi, 2005), G.E. Lessingning “Donishmand Natan” she’riy dramasini, V. Shekspirning “Yoz kuni g‘aroyibotlari” pyesasini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Boris Pasternak (1999) va “Alash” (2001) nomidagi xalqaro mukofotlar sohibi.

2018-yil 21 fevral kuni Toshkent shahrida vafot etgan.

\* \* \*

Borliqda chechaklar urdilar javlon,  
Ko‘zga — nur, qalblarga ishq etib ato.  
Har kim sevgani-la masrur bu ayyom,  
Qara, juftin izlar musicha hatto.

Kimki yolg‘iz bu on ko‘zлari namdir,  
Ayt, hijron ranglarining qilmasin somon.  
Bahor — bir-birovga gul tutar damdir,  
Bu damlar yolg‘izlik baridan yomon.

\* \* \*

Yillar o‘tar ekan, keksayar tog‘lar,  
Ufqqa yastanib, boqar xokisor.

Qariydi bir paytlar yashnagan bog‘lar,  
Navqiron bo‘lolmas kelsa ham bahor.

Bu dunyoda jami xilqat erta-kech —  
Keksalik faslini bir kun tuygusi.  
Faqat ikki narsa qarimaydi hech:  
Jilg‘a ovozi-yu, chechak kulgusi.

\* \* \*

Buyuk matonatga o‘qiymen olqish,  
Har gal adirlarga bahor sep yoysa, —  
Butkul yo‘qotmoqqa qasd qilgandi qish,  
Biroq yana unib chiqmoqda maysa.

\* \* \*

Seni bahor esga soldi-ku yana,  
Yana qo‘msadim men olis vaslingni.  
Ufqlar iforga to‘ldi-ku yana,  
Tonglarda ko‘rdim men sening rasmingni.

To mudom ikkimiz ikki qirg‘oqda,  
Oqar oramizdan yillar daryosi.  
Bahor dunyolarni entiktirmoqda,  
Nechun entikmasin ko‘ngil dunyosi!

Botgan ishq quyoshi qaytmaydi zotan,  
Biroq zulmatlarga umid urar tig‘.  
Men umrim poyingga sochaman — hotam  
So‘nggi tillolarin sochgani yanglig‘.

Armon zalvaridan qad bukadi dil,  
Ne tong, ushbu sirni gar aylasam fosh:  
Sen yashnab-yoshargung qaytadan har yil,  
Men esa qariyman har bahor bir yosh.

## QORASOCH MOMO<sup>1</sup>

Teran dardingizdan edim ko‘p yiroq,  
Tushimga kiribsiz — sochlaringiz oq...  
Bexos lablarimdan uchdi shu so‘roq:  
“Nega sochlaringiz oqardi, momo?”

Yosh Ahmad otadan qolganda sag‘ir,  
Ming jafoga duchor qilganda taqdir,  
Oqarmagan edi sochingiz, axir,  
Nega sochlaringiz oqardi, momo?

Elovsiz edingiz o‘tkinchi ohga,  
Yashardingiz shukur aylab Allohga,  
Siz ona edingiz valiullohga,  
Nega sochlaringiz oqardi, momo?

Betoqat sog‘inchmi, mehrmi, yo rab,  
Yotibsiz Saryomda siz yo‘llar qarab.  
Ko‘rinar Yassidan ulug‘ maqbara...  
Nega sochlaringiz oqardi, momo?

Yaratgandan ajib hikmatlar bugun,  
Elning ko‘ksidadir “Hikmatlar” bugun,  
Qadrin topmoqda chin xizmatlar bugun,  
Nega sochlaringiz oqardi, momo?

So‘rog‘im falakka yetgay deb zora,  
Kechalar to‘lg‘andim,  
                    axtardim chora,  
Muanbar zulfigiz edi tim qora,  
Nega sochlaringiz oqardi momo?

<sup>1</sup> **Oysha xotun** — Ahmad Yassaviyning onalari. El orasida u Qorasoch momo nomi bilan mashhur bo‘lgan.

Qabringiz ostidan sas keldi shu on:  
“Tingla so‘zlarimni, qadim Turkiston!  
Sening parcha-parcha qismating ko‘rib,  
Sochlarmi oqardi, yuraklarim qon!”

\* \* \*

Boshga g‘am soyasi tushib turgan kez  
Chorasiz boqurmiz, gangib daf’atan.  
Holbuki urvoqcha emas qayg‘umiz  
Sen chekkan g‘ussalar oldida, Vatan!

Yurakni shodliklar chulg‘agan zumda  
Olam jilva qilar, biram bokira.  
Lekin nur balqmasa, Vatan, yuzingda,  
Bizga sevinchlar ham tatimas sira.

Istaymiz, o, mangu qolmoqlikni biz,  
Aslida bu faqat, Vatan, senga xos.  
Sening bag‘ringdagi kechgan umrimiz  
Kiprik qoqqanchalik lahzadir, xolos!

\* \* \*

Kuz kezadi beozor, mayin,  
Kengliklarga to‘shaladi shan...  
Kechalari shirin tushdayin  
Shudgorlarni quchadi tuman.

Bog‘larni ham chulg‘ab olar u,  
Shivirlaydi afsungar so‘zin.  
Ufqqlarda lekin beuyqu  
Uqalaydi chiroqlar ko‘zin...

## MUHAMMAD RAHMON

(1949–2010)

Muhammad Rahmon 1949-yil Qashqadaryo viloyati Kitob tumanidagi Palandara qishlog‘ida tug‘ilgan. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi (2003). “Muvozanat”, “Yashildaryo”, “Yuragimning dastxati”, “Ijobat”, “Asraganim, avaylaganim”, “Taqvim varaqlayotgan odam” kabi she’riy to‘plamlari, “Momaqaymoq”, “Yerga tushgan kamalak”, “Qanotli tushlar” nomli bolalar uchun ham asarlari nashr etilgan. K. Chukovskiy, A.L. Barto she’rlarini, Lizoletta Velskof-Genrixning “Tokey Ito” romanini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

Adib 2010-yil vafot etgan.

### TAQVIM VARAQLA- YOTGAN ODAM

Taqvim varaqlayotgan odam  
Xomush tortishi kerak:  
Umr o‘tyapti, umr!  
Taqvim varaqlayotgan odam  
O‘yga tolishi kerak:  
Rozi qila oldimmi ota-onamni?  
Farzandlarim tarbiyasi nechuk?  
Tiq etsa eshikka termilib,  
Ko‘zлari yo‘limga to‘rt bo‘lmadimi  
O‘sal yotgan birodarimning?  
Uchmadimmi shayton vasvasasiga,  
Iyomonim salomatmi?  
So‘nggi manzilimga qo‘yib qaytsalar,  
Yo‘lda birov astoydil kuyib,  
Xo‘rsinib-xo‘rsinib ayta olarmi:

“Ketgan — qaytar,  
Ketmonlagan qaytmaydi!”  
...Men hali hammasini aytmadim, shoshmang,  
O‘zgacharoq o‘ylashi ham mumkin  
Taqvim varaqlayotgan odam:  
Tushlikni qayerdan qilsam ekan,  
Erta kimning yiloshi edi?  
O‘tirib qolmadimmi bir joyda uzoq,  
Kimning tagiga suv quysam ekan?..  
Poyabzal qalashib yotar ostonasida nuqul,  
Xudoning bergen kuni uyida mehmon —  
Yombi topib olganmi yalangoyoq qo‘shnim?!

Chapqanot qo‘shnimiz — yolg‘iz ayolning  
Eshik dastbandiga kecha allakim  
Ilib ketdi bir savat oq gul! —  
Sababi 8 martmikan faqat?..  
...Vatan uchun osilib ketish,  
Vatanga “osilib” ham yashash mumkin...  
...Men hali hammasini aytmadim, shoshmang,  
Sermulohaza bo‘ladi  
Taqvim varaqlayotgan odam.  
Deylik garchi Ulug‘bek emas,  
Al-Beruniy yoki Galiley,  
Va lekin munajjim ishtiyoqi-la  
Kuzatib borishi mumkin u  
Burjlarda quyoshning harakatini.  
Taqvim varaqlaridan  
Kunma-kun, soatma-soat  
Kuzatib borish mumkin!  
Masalan, javzoning yigirmanchisi:  
Quyosh chiqishi — rappa-raso besh.  
Bir yarim — avji kamoli,  
Vaqti zavoli — yetti yarim...  
Yetkazgan kuniga shukur qilish kerak  
Tasannolar aytishi kerak  
Hisobdon insonning zakovatiga

Taqvim varaqlayotgan odam.

Lekin...

Xulosasi boshqacharoq bo‘lishi ham mumkin.

Aytdim-ku, sermulohaza bo‘ladi

Taqvim varaqlayotgan odam.

Xususan, qalbini o‘ragan bo‘lsa

Kulcha ilon kabi hasad va g‘araz,

Kibr-u havo o‘ragan bo‘lsa.

Hamma va hamma narsaga,

Boringki, Quyoshta ham

Mefistofel nazari ila boqsa:

“Bilamiz, hozir-u nozirsiz qayerda, qachon —

Bosgan qadamingiz o‘lchoqli!”

...Bir kiftimda rahmon,

Bir kiftimda shayton —

O‘zing insof bergil bandalaringga.

\* \* \*

Sen ham eslaysanmi goh qolib xoli,

Qo‘msaysanmi ko‘ngil ko‘chalarini...

Munavvar ayladi oydin xayoling

Savdoli bu umrim kechalarini!

Sen ham eslaysanmi yoshligingni —

sha’n, rangi, iforini — nechuk edi ul?

Meni mast qiladi qirq yil naridan

Kitobing qatiga qistirilgan gul...

Obi otashidan dunyoni o‘tding,

Bekaram, bir kam deb qarg‘arsan yomon...

Sevgi-chi, ilk sevgi... nahot, unutding,

Men esa sog‘inib yashayman hamon.

Nomalar bitardim senga bir talay,

Qog‘ozga ishonib sirlarning sirin.

Xatjildni yopardim shirachin yalab —

Xatjildlar o‘zingdek so‘zingdek shirin!

Tonmayman bo‘g‘zimga botsa ham tishi,  
Eslab xo‘rsingulik yozim, qishim bor.  
Yo‘qdir dunyosining men bilan ishi,  
Mening bu dunyoda yo‘qlar kishim bor!

Sen ham eslaysanmi...

### HAZRATI BISHIR HIKMATLARI

Ko‘p ko‘rganman jazavangni, shovushingni,  
Ko‘tarmasang bo‘larmidi tovushingni!  
Nasihating uchun qulluq...  
O‘ng-u tersdir,  
To‘g‘ri kiyib olgin, bolam, kavushingni.

\* \* \*

Ko‘klam — kechalari yop-yorug‘ tushdir,  
Kunduzi ruhimda sayragan qushdir.  
Yelda chayqalaman qizg‘aldoq kabi,  
Yorab, nafaslaring bunchalar xushdir!

\* \* \*

Ayo zamon, senmi bu nav tarz bergen,  
Ajib bir hol mantig‘ini yo‘qlaydi:  
Shiftga qarab uf tortadi qarz bergen,  
Qarz ko‘targan xurrak otib uxlaydi!

## USMON AZIM

(1950)

*Usmon Azim 1950-yil 13-avgustda Surxondaryo viloyati Boy-sun tumanida tavallud topgan. O'zbekiston xalq shoiri (2000). "Insonni tushunish" (1979), "Holat" (1979), "Oqibat" (1980), "Ko'zgu" (1983), "Surat parchalari" (1985), "Dars" (1985), "Ik-kinchi aprel" (1987), "Baxshiyona" (1989), "G'aroyib ajdarho" (1990), "Uyg'onish azobi" (1991), "G'ussa" (1994), "Uzun tun" (1994), "Saylanma" (1995), "Kuz" (2001) kabi she'riy va "Jodu" (2003) nasriy to'plamlari nashr etilgan. "Bir qadam yo'l", "Al-pomishning qaytishi" kabi dramalari, "Alisher Navoiy" kinoqissa-si, "Alpomish" kinodostoni, "Sevgi" (shu nomli hikoya asosida) va 2 seriyali "Alpomish" filmlarining ssenariysi muallifi. Pol Elyuar, V. Vatsietis, K. Dog'larja, A. Voznesenskiy, Y. Marsinkyavich va boshqa shoirlarning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Gruziyaning Mayakovskiy nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan (1982).*

\* \* \*

Tong titraydi kech kuzakning quchog'ida,  
Yulduzlarni o'chirmoqda gulgun shafaq.  
Jonim, qalbim she'riyatning pichog'ida...  
Zamin — tilsim, osmon — tilsim...  
she'r — beshafqat!

Men qiynaldim. Xayolimning qanotida  
Dengizlarni ko'targancha tolib uchdim.  
Yulduzlarni ko'p ko'rganman hayotimda,  
Dengizdagi yulduzlarni keldi quchgim.

Ko'kka boqdim, o't tutashdi jonio aro...  
Qat-qat bulut qatlarida ne sir-asror!

Hayrat ichra o'ldirgusi meni samo,  
Ona zamin, ucha qolay, qo'yib yubor!

Men yor dedim... Laylimi yo, Shirinmi yo!  
Yoki endi tug'ilajak biror malak?  
Mana men, deb ko'z oldimda bo'ldi paydo,  
Mana men, deb she'r dan boqdi yakto yurak.

Yulduzlarni o'chirmoqda gulgun shafaq,  
Tong titraydi kech kuzakning quchog'ida.  
She'r yozilar... Qiynoq, senga bo'lzin sharaf,  
Jonim, qalbim she'riyatning pichog'ida...

Hali butun ro'yi jahon she'r bo'lajak.  
Faqat bekor bilib orom quchog'ini —  
Bu dunyoni sirga ko'mib yashash kerak  
Qalbga sanchib she'riyatning pichog'ini!

\* \* \*

Rashk g'iybatning to'lqinlarida  
Kema misol chayqaldi xonam.  
Endi bizlar hech uchrashmaymiz...  
Xayr!  
Tong otadi,  
Sen yo'q.  
Kun botadi,  
Sen yo'q.  
Stolimda sen yozgan xatlar,  
Devordagi suratdan ham sen  
Mehr bilan boqib turibsan.  
Derazadan ko'ringan osmon  
Parchasiga shodmon boqardik,  
Yulduzları kulganida ham,  
Ol shafaqqa to'lganida ham...

Xonam, o'zim, bu ulkan olam  
Sendan qolgan g'amgin xotira.  
Tong otadi,  
Sen yo'q.  
Kun botadi,  
Sen yo'q.  
Uzoqlarda bepoyon yo'lda  
Yig'lab ketib bormoqdasan sen,  
Oyoqlaring tagidagi yer  
To'lqin otar monandi dengiz.  
Oq chorlog'im, uchib charchading —  
Yiqilasan daqiqadan so'ng,  
Yiqilasan, to'lqinlar yutar...  
Tong otadi,  
Sen yo'q.  
Kun botadi,  
Sen yo'q.  
Chidab bo'lmaydi.  
Endi mendan ketdi ixtiyor!  
Yuragimni qo'yib kaftimga  
Shivirlayman besabr, takror:  
Qiblanamom, yo'l ko'rsat menga!

\* \* \*

Yolg'izlik ortimdan huvullab quvdi,  
Toki yiqilguncha yugurdim betin...  
Bir ayol tuflimning loyini yuvdi —  
Unga sevaman deb aytmagan edim.  
Qismat masxaralab bizni otgandi  
Tanhilik kechasin tor quchog'iga.  
Bilmadim, qay mahal ayol uyg'ondi  
Tufli yuvmoqlikning ishtiyooqida.  
Asli masxaralash qismat matlabi,  
Ammo hayrat ichra gangidi xiyol:

Quvonib (masalan, gul tergan kabi),  
Tufli yuvar ekan tunda bir ayol.  
Menga ko'zi tushib ayol qizardi,  
Uyaldi — qo'llari tushdi shalvirab.  
Endi u qarshimda yig'lab turardi,  
Yomg'ir qo'ynidagi bargday qaltirab.  
Qo'ymog'im shart edi bir jasur qadam,  
— Qulab tanholikning g'arib arshidan.  
Cho'chidim men — mehr ko'rмаган одам —  
Sevgi tuqli yuvib chiqsa qarshimdan.  
Ketdim... Yomg'irdayin o'tdim-u ketdim,  
Ming asr tanholik kechdi boshimdan.  
Ming asr oralab qaytadan yetdim,  
O'sha yolg'iz qolgan ayol qoshiba.  
U menga baxt berdi osmonday ulkan,  
Men-chi?.. Men qovrildim baxtning dog'ida...  
Bedorman-u nechun uyg'onolmayman  
Tuqli yuvmoqlikning ishtiyoyqida.

\* \* \*

Qurban qushning patlari kabi  
Ruhim — to'zg'in, yuragim — to'zg'in.  
Qonli bazm qurmoqda, rabbim,  
Vujudimda uyg'ongan quzg'un.  
Dardlarimning sohili yo'qdir,  
Shamoli yo'q, shakli yo'q — tuman.  
Yuragimning bulbuli — surur  
Uxlamoqda g'ofil uyquda.  
Qurban qushning patlari kabi  
Yo'q bo'laman uchib, to'zg'inib...  
Qalb tug'ilalar yo'qlikdan, rabbim,  
Nay qiladi qonli bo'g'zini...

## YO'LDOSH ESHBEK

(1950)

Yo 'ldosh Eshbek 1950-yil 1-sentabrda Samarqand viloyati, Ishtixon tumanida tavallud topgan. "Sog 'inib yashayman" (1981), "Yuksak daraxtlar" (1985), "Moviy turnalar" (1987), "Yaxshilikka qarayman" (1988), "Daraxtlar ertagi" (1989), "Hayot chechagi" (1990), "Mangu masofa" (1991) kabi she'riy to'plamlari nashr etilgan. Imom G'azzoliyning "Ey farzand", Ahmad Lutfiyining "O'gay ona", "Hazrati Ali", Fotima Temurning "Ko'ngil do'stlari" ("Tazkirat ul-avliyo"), Amina Shank o'g'lining "Vijdon azobi" ni hamda O'ljas Sulaymon ("Sopol kitob") va boshqa adiblarning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. "Shuhrat" medali bilan taqdirlangan (1998).

### QADIM OHANGLARDA

Ostonangga dilimning  
Torlarini boyladim.  
Men bir dunyo suluvdan  
Sen suluvni sayladim.

Sayladim-u ko'zimda  
Xalqob-xalqob yosh bo'ldi.  
Bu bevafo dunyoning  
Bag'ri menga tosh bo'ldi.

Sen yulduzsan — qo'l yetmas,  
Oshiq bo'ldim, suluvim.  
Endi sening o'rningga  
Qo'shiq qoldi, suluvim.

Bir qo'shiqki, dilimning  
Tublariga zil bo'lar.

Aytsam ohdir, aytmasam —  
Sarg‘aytirib sil qilar.

Ostonangga dilimning  
Torlarini boyladim.  
Men bir dunyo suluvdan  
Sen suluvni sayladim.

Eshiging zulfaklari  
Tillo ekan, bildim-ku.  
Qo‘lim kalta ekanin  
Bilib, bag‘rim tildim-ku.

Tilim bag‘rim ichinda  
Darding sizib yotadi.  
Qo‘shiq qilib qalbimni  
Ko‘zlarimga otadi:

Ko‘zlarimda aylangan  
Xalqob-xalqob yosh bo‘ldi.  
Bu bevafo dunyoning  
Bag‘ri menga tosh bo‘ldi.

### YIG‘LAYOTGAN QIZ

Bu og‘ir bog‘ ichra og‘ir qadamlar  
Tashlab ketayotgan og‘irgina qiz,  
Dunyo ko‘zlarining dunyo alamlar  
Tomchilar, har biri bir ulkan yulduz.  
Tomchilar ko‘zingdan norasidalik,  
So‘zga aylanmagan yonish tomchilar.  
Beshafqat diydormi og‘ir judolik,  
Yo‘qotish tomchilar, topish tomchilar.  
Yo‘q, seni aldagan, birov aldagan,  
U seni sevgandir, yo‘q, yo‘q, sevmagan.  
Ko‘ksingga chiroyli o‘qlar qadagan,  
Birovlar aldagan, birov aldagan.  
Tomchilar ko‘ksingdan kelayotgan kuz,

Og‘ular tomchilar, gullar tomchilar.  
Yaqin xotiralar... idrok faromush,  
Vijdoningni o‘yib urar tomchilar.  
Vijdonsiz nomusli niqobin qo‘ymas,  
Vijdonning har dami ruhiy iztirob.  
Vijdonsiz xatosiz kunlardan to‘ymas,  
Vijdon bu xatodan ulg‘aygan azob.  
Seni yupatmoqqa jurat yo‘q menda,  
Sen mening kechmishim, umrim bo‘lagi.  
Faqat men qayg‘ular tilarman senga,  
Kattakon quvonchning unsiz o‘lanin!  
Aldanmoq tilarman senga ko‘p marta,  
Aldanmoq — dunyoga nazar, anglamoq.  
Aldanmoq — ko‘z yoshi qilmoq, yo‘q, artmoq,  
Aldanmoq — kurashga otlanmoq demak.  
Yig‘lamoq tilarman, qaynab yig‘lagin,  
Tishlaringga sekin qayrab yig‘lagin!  
O‘nta mard o‘g‘loning bo‘lguncha yig‘la!  
Yuzta mard o‘g‘loning bo‘lguncha yig‘la!  
Mingta mard o‘g‘loning bo‘lguncha yig‘la!  
Paymonang to‘lguncha, to‘yguncha yig‘la!  
Ular lazzatxo‘rlar, qaroqchilardir,  
Umrlari uzun, sob bo‘lmas, esiz!  
Bu dunyo — aslida aldoqchilardir!  
Bu dunyo — aslida yig‘layotgan qiz!  
Men senga qo‘shilib yig‘lay olmasman,  
Faqat bosh egaman qayg‘ungga so‘zsiz.  
Men senga talpinib, aslo tolmasman,  
Men seni sevaman, yig‘layotgan qiz!

## SENING QO‘SHIG‘ING

Biz baxtiyor bo‘lgaymiz xo‘b,  
Bizni zafar quchajak!  
Tepamizda charx urishib  
Qaldirg‘ochlar uchajak!

Shunday qo'shiq aytgan eding sen,  
Shunday qo'shiq... hayotday aziz.  
Va dunyoga qaytgan edim men,  
Dunyo menga qaytdi o'sha kez.

Qo'shig'ingni buloqlar tinglab,  
Shamollarning tili tugildi.  
Osmon yuzi ko'zing nusxalab,  
O'pmoq bo'lib senga egildi.

Qaldirg'ochlar uchdi tepangda,  
Qo'shiq aytib sho'xchan, dilrabo.  
O'n yettida eding o'shanda.  
O'n yettiga to'lgandi dunyo.

\* \* \*

Sen ketib borasan daraxtlar aro,  
Kichrayib borasan, torayadi yo'l.  
Senga oq ko'ringan bu yo'llar qaro,  
Yengil tin olasan kengayar o'ng-so'l.

Shamolda sochlaring pastlar-balandlar,  
Shamolda sochlaring — qushning qanoti.  
Sen uchib borasan — pastlar-balandlar,  
Balandlar pastlaydi, erkin hayoting!

O'zimga la'natlar o'qiymen bot-bot,  
Men senga havaslar qilurman, erkam.  
Senga qurolmadim go'zal bir hayot,  
O'zimga zindonlar qazdim... juda kam!

Yelkangni shamollar silkitar nega,  
Nega ko'ylagingni o'ynar beshafqat?!

Shamolda mixlanib qarayman senga,  
Shamolda qo'llaring silkinmas faqat.

## XOSIYAT BOBOMURODOVA

(1950)

*Xosiyat Bobomurodova 1950-yili tug‘ilgan. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi. “Samarqandga maktublar”, “Qalb titrog‘i”, “Vatan yagonadir”, “Jonimning egasi”, “Bormisan, o‘zbek” kabi bir qator she’riy to‘plamlari nashr etilgan.*

### BAHOR

Buncha nozik, mitti g‘unchalar,  
Qanday qilib ochilar, kular?  
Balki uning jasoratini  
To‘lg‘oq tutgan onalar bilar.  
Qirg‘oqlarga sig‘may toshar suv,  
Shivirlaydi yashil yaproqlar.  
Turnalarning qaytganin ko‘rib,  
Vujudimga kirar titroqlar.  
Karaming mo‘l, qodir Allohim,  
Maysa ekding hatto toshgacha.  
Yashash darsin o‘tarsan balkim,  
Bahoringda keksa, yoshgacha.  
Ufqlarga yetsa qulochim,  
Lolalarni bag‘rimga bossam.  
Kapalakning qanotlariga  
Yonib turgan dilimni ossam.  
Bahorning gul quchoqlarida  
Tirilgim ham o‘lgim keladi.  
O‘zbekiston, onam, bag‘ringda,  
Bahor bo‘lib qolgim keladi.

\* \* \*

Sizning ham qirlarda o'sarmi maysa?  
Bir-birin suyagan daraxtlar bormi?  
Yer-u ko'k qish bo'yi sog'inchda kuysa,  
Sog'inarmi siz-u mendek bahorni?

Sizda ham bulbullar chekarmi afg'on?  
O'riklar novdasi gullashadimi?  
Bir-birin ko'rmasa yurak bag'ri qon  
Bo'lib sirli maktub yo'llashadimi?

Sizda ham suvlarning ko'pirib qoni,  
O'zlarini tog'dan tashlashadimi?  
Kurtaklarning gulga aylanish oni,  
Bir shirin azobni boshlashadimi?

Sizda ham quyoshning aylanib boshi,  
Bulutlarning ko'zi tinib ketarmi?  
Qaytar turnalarning to'kilib yoshi,  
Qadrdon maskanga qo'nib o'tarmi?

Sizda ham oh ursa bo'liq tuproqlar,  
Hovuri hammaga seziladimi?  
Tinmay shivirlasa ko'm-ko'k yaproqlar,  
Ildizlarning tinchi buziladimi?

Ko'ngildagi armon, yurakdagi g'am,  
Ko'chib o'tmadimi, gulga, chamanga?  
Nega buncha jimsiz, buncha xotirjam,  
Bahor kelmadimi, Sizlar tomonga?

\* \* \*

Navro'z keldi, qirlar ko'kardi,  
Qirlar ostidagi zo'rlar ko'kardi.  
Ko'karmayman degan o'rlar ko'kardi,  
Mehr ko'karmadi sening dilingda.

Bulutlar eridi, to'kdilar ko'z yosh,  
Balandda bo'lsa ham kuydirdi quyosh.  
Bardoshlari bitib, uvalandi tosh,  
Bir so'z aylanmadi sening tilingda.

Yo'limdan barq urib bo'stonlar chiqdi,  
Yuragim tubidan dostonlar chiqdi,  
Qomati yoy bo'lib Rustamlar chiqdi,  
Faqat sen chiqmading mening yo'limdan.

\* \* \*

Dilimdan to tilimgacha so'z,  
Oyog'imdan qo'limgacha so'z.  
Tangrim, so'zdan aylama judo,  
Hayotimdan o'limgacha so'z...

Dunyosiga yo'g'-u borimni,  
So'zim bilan aytib ketaman.  
Tinglamasa tilim zorimni  
Ko'zim bilan aytib ketaman!

## TIKAN

Senga she'r bitmoqchi emasdim asli,  
Gul tutib yo'limga chiqib turmasang.  
Yer-u ko'kni yoqqan saraton fasli,  
Bunchalar yashamoq zavqin surmasang.

Yam-yashilsan, mayin maysa rangida,  
Quyosh bor mehrini boshingdan to'kkkan.  
G'olibsan, chillaning olov jangida,  
Tomiri daryoga yetgan ey, tikan!

## ISMOIL TO'XTAMISH

(1950–2015)

*Ismoil To'xtamishev 1950-yilda tug'ilgan. "Cho'l boychechagi", "Onam tilaklari", "Dunyo ustuni", "Hayqiriq", "Ko'hna Nasaf xayoli", "Senga intildim", "Dil sadolari", "Ot — yigitning yo'ldoshi", "Had", "Bu gulshan sahnida", "Ko'ngil bitiklari", "Yerqo'rg'on", "Shonli tayanch", "Yonib yashash baxti" kabi to'plamlari nashr etilgan.*

*Shoir 2015-yil vafot etgan.*

\* \* \*

Chiroy ochmish bu shahri azim,  
Husniga lol qolmishdir falak.  
O'zligi bor qadim vohaga  
Yurtboshimiz mehri ham bo'lak.

To'y bahona topgandir sayqal  
Jahonga bo'y ko'rsatgan Nasaf —  
Qad rostlagan oila-haykal,  
Uzukka mos tushgan ko'z — sadaf.

Dovrug'in tan olgan jahon,  
Ortib borar shon, ehtiromi.  
O'tsa hamki necha bir zamon,  
O'chmas dildan farzandlar nomi.

Nasafiyalar yaratgan ilm —  
Fanga hissa bo'lgan munosib.  
Ziyo, nurdir zakovat, bilim  
Kelgan olis shonli yo'l bosib.

Mard, tantilik toledan ehson,  
Hamroh mudom ezgu o'y, xayol.  
Bo'y ko'rsatib go'zal xiyobon,  
Aqli hushni qoldiradi lol.

Tovlanadi gullar ranggo-rang,  
Ko'ngillarga hayajon solar.  
Mehmonlarni etar hang-u mang,  
Savlat to'kib ko'rakm binolar.

Kelajagi yanada porloq,  
Egasini topmishdir qadr.  
Tomoshabin yo'liga mushtoq  
O'ziga xos Amfiteatr.

Hikoyatlar mavj urar to'lib,  
Har bir koshin muqaddas, sirli.  
Men ham bitta farzandi bo'lib,  
Ish qildimmi biror arzirli?!

Shaydodirman ko'rk, chiroyiga,  
Mavjlariga to'sh urib jo'shay.  
Bosh urayin har on poyiga,  
Poyandozday mehrimni to'shay.

Shubha, gumon sololmas g'ulu,  
Ko'rganim kim qilolgay inkor?  
Ezgu har ish yashaydi mangu,  
Bu hayotda Vatan barqaror.

Yiqilganni bo'lgay suyanchi,  
Yuz ochadi orzular qat-qat.  
El-u yurtning shonli tayanchi —  
Mehnatlash xalq yashaydi abad.

## BIR KO'RISH SHAVQIDA...

Nima bor olamda visoldan ortiq,  
Ko'klarga chorlagan xayoldan ortiq,  
Uchrashmoq — aslida xudodan tortiq,  
Bir ko'rish shavqida intizor bo'ldim.

Yashashimdan men faqat Haqqa intilib,  
Beshafqat hijronlar bag'rini tilib,  
Xatolar qildim ko'p bilmay yo bilib,  
Ulgurish zavqida intizor bo'ldim.

Goho otda kezdim, goh otga minmay,  
Dovon, g'ovdan oshdim shashtlarim sinmay,  
Ko'pirib qirg'oqqa to'sh urgan tinmay  
To'lqinlar mavjida intizor bo'ldim.

Dard olsam qo'lladi aziz pirlarim,  
Oshkora aytildi ko'ngil sirlarim,  
G'am cheksam, dardlashdi faqat she'rlarim,  
Hayotim avjida intizor bo'ldim.

Mastona ayladi bu gullar meni,  
Safiga chorlagay bulbullar meni,  
Qaylarga yetaklar bu yo'llar meni,  
Qiziqdim-da juda, intizor bo'ldim.

Rad qildi, ishq izhor ayladim qayta,  
Ko'nglimni orzuga boyladim qayta,  
Ishqni izhor qildim qo'shiqlar ayta,  
Balki men behuda intizor, bo'ldim.

## VATAN

Sarhadlari purviqor, yuksak,  
Eshdir unga yorqin kelajak,

Ko'ksimizda lov yongan yurak  
Zarblaridan boshlanar Vatan.

Sadosidir jo'sh urgan qonning,  
Ibtidosi quchilgan shonning,  
Tanti, o'ktam har qiz-o'g'lonning  
Qalblaridan boshlanar Vatan.

Nola cheksa bag'ir bo'lar xun,  
Har bir gardi to'tiyodir chin,  
Kerak bo'lsa qarich yer uchun  
Harblaridan boshlanar Vatan.

Kurashlardan olmagan hadik,  
O'limga ham boqa olgan tik,  
Shoirlarning guldan ham nozik  
Ta'blaridan boshlanar Vatan.

Nazokatli gulgun bahorning,  
Maskanidir g'ururning, orning,  
Sadoqatli sevimli yorning  
Lablaridan boshlanar Vatan.

Gar beparvo bo'lib qolsak goh,  
"Muqaddasdir misli sajdagoh" —  
Payg'ambarlar aylagan ogoh  
Gaplaridan boshlanar Vatan.

## CHAVANDOZLAR QO'SHIG'I

Ishqim G'irotga tushdi,  
Tolmas qanotga tushdi,  
Sovringa — zotga tushdi,  
Urho-yo, urho.

Uchib borar Boychibor,  
Shiddati daryocha bor,

Dunyo kelar unga tor,  
Urho-yo, urho.

Bobomdan apllik meros,  
Qo‘yanman otga ixlos,  
Tantiligi menga xos,  
Urho-yo, urho.

Uloq — mardlar o‘yini,  
Izlab bordim to‘yini,  
Yor ko‘rsatsin bo‘yini,  
Urho-yo, urho.

Muhabbatda men no‘noq,  
Uyiga bo‘ldim qo‘noq,  
Ertaga chopgum uloq,  
Urho-yo, urho.

Chidamlidir takasi,  
Gul taqqan uy bekasi.  
Uloq chopar akasi,  
Urho-yo, urho.

Orzular dilda qat-qat,  
Chopag‘on kutmas shafqat.  
Halollab olgay faqat,  
Urho-yo, urho.

Takani qilma nimta,  
Uni bosgin taqimga,  
Haqing berma hech kimga,  
Urho-yo, urho.

Do‘stlar, tilang, baxt kulsin,  
Otimdan ko‘nglim to‘lsin,  
Yurtda har kun to‘y bo‘lsin,  
Urho-yo, urho.

## **SA'DULLA HAKIM**

**(1951–2020)**

*Sa'dulla Hakim 1951-yil 25-martda Jizzax viloyati Forish tumanidagi Garasha qishlog 'ida tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi (2002). "Hamal tonglari" (1981), "Sen kutgan bahor" (1986), "Yoz oqshomi" (1996), "Ona so'z" (2000), "Saylanma" (2001), "Ko'ngil yuzi" (2006) kabi she'riy to'plamlari nashr etilgan. A.S. Pushkin, M.Y. Lermontov, S. Yesenin, Gyote kabi shoirlarning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.*

*2020-yil 11 oktabrda Toshkent shahrida vafot etgan.*

## **VATANGA MANSUBLIK**

Banogoh cho'qqidan qulasa bir tosh  
Tog' poyiga tushar, tog'ni tark etmas.  
Et bilan tirnoqdek bir jon-u bir tan  
Vatandan yaralgan Vatandan ketmas.

Quyoshga intilgan havoyi bug'lar  
Baland parvozlarni qilsa ham havas  
Bir kun qaytib kelar o'kirib-yig'lab,  
Vatandan yaralgan Vatandan ketmas.

Shashmaqom — ming yillik navo muattar,  
Ochsam ko'krugimni yangrar qadim sas.  
Avlodlar tug'ililar, ajdodlar o'tar,  
Vatandan yaralgan Vatandan ketmas.

Ulug'lar yuksalar yer ostida ham,  
Haykal bo'lib o'sar, eli unutmas.

Shahidlar bog‘idan kuylab o‘taman:  
Vatandan yaralgan Vatandan ketmas.

Toshdan uchgan uchqun yalt etib o‘char,  
O‘chgan cho‘g‘ qayta o‘z holiga kelmas.  
Choponing silkisang g‘ubori ko‘char,  
Vatandan to‘qilgan Vatandan ketmas!

## EY, KO‘NGIL

Nopisand bosma xazon yaprog‘ini,  
Boshing uzra esla soya chog‘ini.

Tanfi hukmiga azal bir chora yo‘q,  
Bandasi bilmas kelib-ketmog‘ini.

Istasa bergay shifo bemoriga,  
Dard berib solg‘ay sinovga sog‘ini.

Umr o‘tar daryo kabi qalqib-oqib,  
Aylagil taqdir nasib qirg‘og‘ini.

Rabbano qodir o‘zi, g‘ofir o‘zi,  
Har nafas tortib turar qarmog‘ini.

Boq, quyoshni qon etib har ro‘zi shom  
Na uchun ko‘z-ko‘z etar o‘rog‘ini?

Bilmasa me’yorini oftob ham  
Quvratar bog‘i chaman har yog‘ini.

Ey ko‘ngil, bu hodisot ibrat senga,  
El aro fasona et kelmog‘ini.

Olmoq ersang, bir g‘arib ko‘nglini ol,  
Ayro etsang, ayro et dil dog‘ini.

Sa'di olloga yetar qirmochi ham,  
Yori jonga tuhfa qil qaymog'ini.

Shon desa, yo'l oldi deb Toshkanni ayt,  
Sha'n desa, ko'rsat Nurota tog'ini!

## IZLAR

Ikki cheti orasta,  
Yolg'izoyoq chambil yo'l.  
Ketib boraman asta,  
Har yonda giyohlar mo'l.

Qurib qoraygan yantoq,  
Cho'kir shuvoq. Ko'k barra.  
Uzoqda kungura tog',  
Osmonga tortar arra.

Shu birgina so'qmoqda  
Ot izi, qulon izi.  
Eshak izi, it izi,  
Qush izi, ilon izi.

Shu birgina so'qmoqda  
Don izi, bug'doy izi.  
Suzib o'tar ohista  
Quyosh izi, oy izi.

Balki bunda bir chog'lar  
Ozod qo'yib chavkarin,  
Yelib o'tgan quyunday  
Amir Temur navkari.

Balki... Mashrab so'zona  
Navolar qilib o'tgan.

Tushgancha yo‘l uzala  
Oyoqlarini o‘pgan.

Shu yo‘lda bobom izi,  
Otam izlari poydor.  
Qor o‘tgan, yomg‘ir o‘tgan,  
Shamol o‘tgan necha bor.

Shu so‘qmoqda mening ham  
Izim qolar ekilib.  
Bug‘doy donasi kabi  
So‘zim qolar to‘kilib.

...Qay bir zamon, begona  
Yo‘lovchi qo‘ysa qadam,  
Ma‘yus bir sog‘inch ila  
Eslarmikan meni ham?

## CHOSHTEPADA YOZ

Yo‘lim tushib, yoz chog‘i  
Choshtepada to‘xtadim.  
Osmon sariq, yer sariq,  
Sap-sariq qir-u adir.

Salqin joy qidirib suv  
Qochmish quduq tubiga.  
Har yerda to‘p-to‘p suruv,  
Chashma kirar tushiga.

Esadi iliq-il iq  
Yalqov shabboda ovush.  
Tumshug‘in cho‘mich qilib  
Hansirab nur ichar qush.

Loysuvoq imoratlar  
Bog‘ ichiga bosh suqib  
Sokin soyalab yotar,  
Sukutga cho‘mgan sukut.

Ko‘lanka quyuq, qalin,  
Baxmal ko‘rpacha monand.  
Soyasining soyasi  
Kabi rangsiz dov-daraxt.

Zardoli tanasida  
Mudrab yotgan o‘t-otash  
Shoxlarda yonar sachrab,  
Bamisli kahrabo tosh.

Ishkom osti supada  
Ko‘zga chalinar xiyol.  
Ko‘krak tutib, beshikka  
Suyangan so‘lim ayol.

Bari yurakka yaqin,  
Kelmas odam ketkisi.  
Nur qanotida oqib,  
Mast qilar shuvoq isi.

...Bo‘liq tuproq — etigim,  
Quyosh qalpog‘im mening —  
O‘tib ketar yonimdan  
Bolalik chog‘im mening!

## NAY

— Ohanglaring munglar nahrimi,  
Nay, bunchalar ma'yussan nega?  
— Aytolmagan hasratlarini  
So'zlashadi odamlar menga!

## IKROM OTAMUROD

(1951)

*Ikrom Otamurod 1951-yil 5-mayda Qashqadaryo viloyatining Kasbi tumanidagi Kasbi qishlog‘ida tug‘ilgan. “Vaqt ranglari” (1982), “Janub qushlari” (1983), “To‘rg‘ayli manzillar” (1984), “Ufqlar orti bepoyon” (1987), “Ruhimning qayg‘usi” (1995), “Sen” (1999), “Kanglum, o‘zing” (2002), “Tavr” (2005) “Muqadar”, “Huviyyat”, “Sukut sadosi” kabi she’riy kitoblari nashr etilgan. M.Darvish, M.Bsisu, U.Uitmen, P.Neruda, O‘. Sulaymon, Y.Yevtushenko kabi shoirlarning she’r va dostonlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.*

\* \* \*

Kanglum, mendan bo‘lak kiming bor sening,  
kanglum, sendan bo‘lak mening kimim bor?  
Ne desang, deguvchi — yolg‘izim mening,  
Ne aytsang, aytguvchi — o‘zing xokisor.

Kanglum, meni tushunguvchi o‘zingsan faqat,  
kanglum, faqat seni anglab yetguvchi o‘zim.  
Mening vujudimda ulg‘ayar toqat,  
sening vujudingda gunchalar to‘zim.

Kanglum, g‘amlarimning ashklari — daryo,  
kanglum, armonlaring qayg‘ulari — tog‘.  
Kanglum, seni qa‘riga tortar bu daryo,  
kanglum, meni yanchib ketadi bu tog‘.

Dahri dun dayrida chirpiragan gard —  
kanglum, bir kun ketarmiz chiqarmay na tog‘.

Kimgadir qoldirib g‘aribgina dard,  
Kimgadir qoldirib g‘aribgina dog’.

Kanglum... kang... lum...

\* \* \*

Vatan — bobolardan meros bir iymon —  
ruhim mundarijasida muqaddas yozuv.  
Tanish va notanish imlolarsimon  
ruhimda hislarning to‘foni tizuv.

Vatan — bobolarim kechgan xotira —  
ruhim mundarijasin qadimiylar muhri.  
Ruhim tufrog‘iga ildiz botirib,  
bo‘y tortar buyuk daraxtday zuhri.

Vatan — bobolardan qolgan e’tiqod —  
ruhim mundarijasin ko‘hna suvrati.  
Ruhim ranglariga rang berib bot-bot,  
ruhim yuragini bezab turadi.

Vatan — ruhim suyagi, jonim —  
ruhim darichasin chertayotgan sir.  
Ruhim tomirlarida oqayotgan qonim,  
ruhimda nur sochgan kavkabir.

Vatan — sof, pokiza, beg‘ubor umid —  
ruhimda mo‘g‘jalab barg yozgan dunyo.  
Taxlari buzilmagan o‘ylarga cho‘mib,  
gardlarin ruhimga qilgum to‘tiyo.

Men — ruh chizgisidan yaralgan jism,  
ruhim daftarida chizgilar necha?  
Vatan — ruhimda uyg‘ongan ism,  
ruhim — Vatanda gullagan chechak...

\* \* \*

Sen dilingni ochding, men dilim ochdim,  
Dilin bayon etib, dillar uchrashdi.

Sen qaylarda eding, men qayda edim,  
Qaylardan kelgan bul yo'llar uchrashdi?

Sen — bag'ri chok-u choq, men —  
bag'ri chok-choq

Ishq uyin supurgan qullar uchrashdi.

Sen — tashnayi quvra, men — tashna quvra,  
Dashti Karbaloda cho'llar uchrashdi.

Sen — qadimiy armon, men — qadim armon,  
Armonni yigirgan yillar uchrashdi.

Sen dilingni ochding, men dilim ochdim,  
Dilin bayon etib, dillar uchrashdi.

\* \* \*

Ko'pchilik yurgan yo'l...

Ko'pchilik tushgan o'yin...

Ko'pchilik yugurgan tomon...

Ko'pchilik xushlagan narsa...

Ko'pchilik intilgan davra...

Ko'pchilik kirgan ko'cha...

Ko'pchilik...

...keltirolmadim bu naql raftin,

ixtiyor etmadim, singmadi bu dars.

Yiroq bo'ldim ko'pchilik to'qigan safdin,  
o'z foydasin bilmagan men — chars.

Qotishmadim. O'zimni tortdim,  
ko'pchilikka o'xsholmadim tani.

Ne bo'lsa — og'irim o'zimga ortdim,  
ne bo'lsa — o'zim ko'tardim ani...

Yolg‘izga yukindim, yolg‘izning jabrin  
ko‘zlarimga surtdim, dilga boyladim.  
Sog‘indim, sig‘indim, ruhimning sabrin  
yolg‘izning poyiga tufroq ayladim...

\* \* \*

Kavokib kokilin siladi osmon,  
chaqmoq qinidan sug‘urar tilin.  
Huv, olis dashtlarda yo‘rtib to‘rt tomon  
adashgan uyurin axtarar qulun.

Bulutlarning shalvirab choki,  
suprasi teshilar ko‘zmunchoqlarning.  
Eski ariqlarda rayhonlar oqib,  
ko‘zları qonaydi qadim bog‘larning.

Osmoñning beþoyon kengliklarida  
uloqib-uloqib yig‘lar abrlar.  
Kasbi qo‘rg‘onining do‘ngliklarida  
sassizgina cho‘kar yerga qabrlar.

Qo‘zigul isini taratar, ayo,  
naysonlar atrini ichadi g‘ulg‘ul.  
Men seni sog‘indim yomg‘irlı Dunyo,  
men seni sog‘indim Qo‘zigul!

## **MAQSUDA ERGASHEVA**

**(1951–2014)**

*Maqsuda Ergasheva (Ergasheva Maqsuda Muhammadsiddiq qizi) 1951-yilning 17-fevralida Farg‘ona viloyati Oltiariq tumani Oqbo ‘yra qishlog‘ida tug‘ilgan. “Bahorni axtarib”, “Ezgu so‘z”, “Diyorimga ko‘zing tegmasin”, “Ko‘ngil kishilari”, “Taqdir hikoyatlari” kabi to‘plamlari nashr qilingan.*

*Shoira 2014-yili vafot etgan.*

### **UYG‘ON, BOLAM**

Alla aytay orom tilab,  
Butun jahon uxlasin.  
Motorlarga boshin qo‘yib  
Uchqur zamon uxlasin.  
Orom olib shabbodalar,  
Jamiki jon uxlasin.  
Faqatgina sen uxlama,  
Sen uxlama, jon bolam.  
Uyg‘on, bolam,  
uyg‘on, bolam,  
uyg‘on, bolam!

Sen uxlasang, bog‘laringdan  
Qushlar uchib ketadir.  
Xotirangdan avlodlaring  
Yodi o‘chib ketadir.  
Daryolaring qurib, sendan  
Suvlar qochib ketadir.  
Sen uxlama, jonim bolam,  
Sen uxlama, jon bolam,  
Uyg‘on, bolam,

uyg‘on, bolam,  
uyg‘on, bolam!

Sen uxlasang, atrofingda  
Yog‘iy mudom uyg‘oqdir.  
Seni aldab nasibangga  
Sheriklikka mushtoqdir.  
Unda sening avlodlaring  
Ko‘rgan kuni qyinoqdir.  
Sen uxlama, jonim bolam,  
Uyg‘on, bolam,  
uyg‘on, bolam,  
uyg‘on, bolam!

Farzandlari g‘ofil elning  
Imoni ham uxlaydi.  
Yomg‘ir-qorlar yog‘may o‘tar,  
Osmoni ham uxlaydi.  
Bog‘lar bitmay, o‘tlar unmay,  
Imkoni ham uxlaydi.  
Sen uxlama, jonim bolam,  
Sen uxlama, jon bolam.  
Uyg‘on, bolam,  
uyg‘on, bolam,  
uyg‘on, bolam!

Sen uxlasang qizchalarining  
Tugmalari uzilgay.  
Otalarning qoni, ona  
Ko‘krak suti buzilgay.  
Juvonlari o‘zin yoqib,  
Shoir dili ezilgay.  
Sen uxlama, jonim bolam,  
Uyg‘on, bolam,  
uyg‘on, bolam,  
uyg‘on, bolam!

O‘ylamagil, yog‘iy bizga  
O‘zga eldan keladir.  
Har elning ham o‘zi tug‘gan  
Xoinlari bo‘ladir.  
O‘zdan agar chiqsa balo  
Qaydan davo bo‘ladir?  
Sen uxlama, jonim bolam,  
Uyg‘on, bolam,  
uyg‘on, bolam,  
uyg‘on, bolam!!!

## QUTLOV

Toshlarning qatida o‘sgan mitti gul,  
Nozik yaproqlaring muborak bo‘lsin.  
Tiriklik tomiga ko‘tarib chiqqan  
Yashil yaproqlaring muborak bo‘lsin.

Chechakjon, mittijon, yur, meni boshla,  
Boraylik Orolning tuzliklariga.  
Bostirib kiraylik xalqini sotgan  
Xoin yuraklarning muzliklariga.

Har yili tug‘ilar O‘zbekistonda  
O‘ttiz uch ming dona mitti tepalik.  
Chechakjon, ko‘tarib bayroqlaringni  
Ularning boshiga yig‘lab boraylik.

Chechakjon, mittijon, qani, yo‘l boshla,  
Beton qasrlarning oralariga.  
Buyuk og‘asidan til so‘rab turgan  
O‘zbekning o‘zbegi bolalariga.

Chechakjon, mittijon, qutlug‘ kelibsang,  
Ko‘zimga surtayin oyoqlaringni.  
Boshimga ko‘taray seni, chechakjon,  
Shu yashil, shu mitti bayroqlaringni.

## SHARIFA SALIMOVA

(1951)

Sharifa Salimova 1951-yil 30-dekabrda Toshkent viloyati-ning Parkent tumanida tug'ilgan. "Hayot zavqi", "Mening baborim", "Xizr bulog'i", "Giyohlar bilan tillashgan inson", "Ayolga ehtirom", "Tongga qasam", "Diydor saodati", "Olimlik va odamiylik", "Vatan suvrati", "Vafoning iffat yo'li" kabi she'riy va badiiy-publitsistik to'plamlar muallifi. "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" faxriy unvoni (1993), "Mehnat shuhrati" ordeni (1993) bilan taqdirlangan.

## NOGAH YURAK...

Nogah yurak hapriqib ketar...  
Men bilaman, u kutar meni.  
Hech qanday kuch yo'q qila olmas  
Qalbimdagi bunday sevgini.  
Qadamlarim qanot kabidir,  
Uchib, tunning ko'ksini tilar.  
Anhordagi bo'tana suv ham  
Mening ajib sevgimni bilar.  
Tog'ga chiqib hayqirganimda  
Daralardan qaytdi aks sado.  
Yashil vodiy, daryolar aytdi  
— Qalbingdagi sevgi bebafo.  
Keksa tutlar — tanasi bujur,  
Meva tutgan olma daraxti.  
Meni qo'ymay savolga tutdi:  
— Oshiqmisan, rostini aytgil.  
Qishlog'imning tuproq ko'chasi —  
Bolaligim kechgan ul hayot.

Dedi: sening shivirlaringga  
To‘layotir bugun koinot.  
Hassa tutgan oqsoqol chollar  
“Qizim” desa baxtga to‘lganim,  
Padarim, deb ko‘zlarim quvnab,  
Har birida Xizr ko‘rganim.  
Bu shunday el. Zamini oltin,  
Bu shunday el. Ko‘ksi Tangritog‘.  
Seni shunday sevaman yurtim,  
Seni shunday sevaman tuproq.

## ZORIQISH

Oy osmonda yig‘laganda qon,  
Tog‘ termilib turgach so‘qmoqqa.  
Alloh ismin yozganda osmon,  
Ketgim kelar ona qishloqqa.  
Men kimman, bu tosh qal’alarda,  
Yo yog‘duman, yo bir soyaman.  
Men gar qaytsam ona tuproqqa,  
Boshlarimni urib boraman.  
Yo‘lga chiqsam, qadamim meni  
Hur manzilga eltid boradi.  
Yuragimni qiynagan sog‘inch  
Mendan oldin yetib boradi.  
Yo‘lga chiqsam, shamollar esib,  
O‘zgaradi osmonning tusi.  
Uzoqlardan urilaverar,  
Dimog‘imga onamning isi.  
Otam sochim silaydi xushnud...  
Yuragimdan sachrab ketar oh.  
— Kel, bir hovuch duo beray, deb,  
Ko‘z tikadi ul ziyyoratgoh.  
Oh, xayollar.. Go‘zal xotira...  
Yalpizlarni quchib yuraman.

Tushlarimda oppoq tonggacha  
Arg‘imchoqda uchib yuraman.  
Zangor qirlar. Yashil o‘tloqlar.  
Cho‘qqilarda erimagan qor.  
Quyoshga tik boqqan burgutlar,  
Shabnam ingan maysa — baxtiyor.  
Bolaligim kechgan hur qasr.  
Huv, xarsangtosh — tengsiz oltin taxt.  
Bular bari Alloh amri-la  
Yuragimga qo‘yilgan dastxat.  
Sog‘inaman, part bo‘lar yurak,  
Kimdir maktub bitib turadi.  
Go‘yo eshik oldida mangu  
Meni onam kutib turadi...

## VATAN

Bir kuni yo maysa — giyoh bo‘lamiz,  
Shunda ham holingdan ogoh bo‘lamiz.  
Shoir qalamingga siyoh bo‘lamiz,  
Sendan bir dam ayro tushmaymiz, Vatan!

Yo yomg‘ir bo‘lamiz, bo‘lamiz shabnam,  
Maysalar kiprigin aylajakmiz nam.  
Nogah xazon misol to‘kilganda ham  
Sendan bir dam ayro tushmaymiz, Vatan!

Yulduzlar kulgusin ichganda hilol,  
Sochlarin daryoda yuvsu majnuntol.  
Bir boychechak bo‘lib, surgancha xayol,  
Sendan bir dam ayro tushmaymiz, Vatan!

Biz singil yo ini, yoki og‘amiz,  
Bag‘ringda daryo yo tog‘dek qolamiz.  
G‘anim boshiga tosh bo‘lib yog‘amiz,  
Sendan bir dam ayro tushmaymiz, Vatan!

Ko'ksingda qulunlar bo'lib chopamiz,  
Archa bo'lib tog'lar ko'ksin yopamiz.  
Burgut bo'lib cho'qqing izlab topamiz,  
Sendan bir dam ayro tushmaymiz, Vatan!

Mayli, tikanlaring qonatsin qo'lim,  
Mayli, izg'irinlar qilsinlar zulm.  
Sen rozi bo'lsang bas, enajon elim,  
Sendan bir dam ayro tushmaymiz, Vatan!

Sendan xayolda ham ketmaymiz nari,  
Onasini quchgan farzand singari.  
So'ng so'z yozganda ham umr daftari,  
Sendan bir dam ayro tushmaymiz, Vatan!

Tug'ing nafaslarin ichganda dunyo,  
O'zbek degan nomga to'lganda samo.  
Biz bag'ringda yotib, qilgancha duo  
Sendan bir dam ayro tushmaymiz, Vatan!

\* \* \*

Vatan, aylanayin tuproqlaringdan,  
Soya-salqin bergan yaproqlaringdan.  
Men daryo ko'ksida Vatan ko'rdir, deb  
Cho'qqidan otilgan irmoqlaringdan.

Qaldirg'och valfajr aytadi sayron,  
Tumshug'in intilib cho'zar palapon,  
Vassajuftli uying aylagach makon,  
Qaldirg'och rizq tutar urvoqlaringdan.

Zangor dengiz yanglig' chayqalar dalam,  
Rayhonga suv separ kelinchaklar ham,  
Bog'ingda olmalar yuzlari taram,  
Shirmoy non uzilar o'choqlaringdan.

Oolloh nazar qilgan sehrli diyor,  
Dunyoni titratgan daholaring bor,  
Tuprog‘ing zarrasi jonimga tumor,  
Yuz chaygum iymondek qirg‘oqlaringdan.

Bugun oltin tojli Alpomishim sen,  
Qodiriy ham o‘zing, ham Kumushim sen,  
Zarlarga belangan Humo qushim sen,  
Dunyo gul og‘ushlar quchoqlaringdan.

Vatan, onajonim, jon-u jahonim,  
Ko‘ksida o‘stirgan firdavs makonim,  
Mangu zavol bilmas O‘zbekistonim  
Vatan, aylanayin tuproqlaringdan!

## SHUKUR QURBON

(1951)

*Shukur Qurban 1951-yilda tug‘ilgan. “Oqqushlar ko‘li”, “Sog‘inch darvozasi”, “Nafas”, “Yoz kunlari”, “Bir qalb manzarasi”, “Baliqchiliklar”, “Ozoringni sog‘indim”, “Sharq marvaridi” kabi she’riy va badialardan iborat bir qancha kitoblari nashr etilgan.*

### VATAN HAQIDA BITIKLAR

1

Bobolardan qolgan ko‘hna aqida:  
Har kimning so‘zi bor Vatan haqida.  
Yozilib yashar u, toki tirikmiz,  
Zarhal harflar-la qalb peshtoqida.

2

His etmoq lozimdir dardlarni dildan,  
Aks holda xom so‘zlar chiqadi tildan.  
Vatan to‘g‘risida gap ketganida  
Fikrlab bo‘lmaydi oshqozon bilan.

3

Ortiqcha qiynamoq shart emas ongni,  
Ezgu niyat bilan kutib har tongni  
Va aylab mustahkam qalbda iymonni,  
Sevmoq lozim xolos O‘zbekistonni.

Xalos ixlosdadir, ixlosda — xalos,  
 Yurtim qonunlarin odilligi soz!  
 Bilsin bilmaganlar: demokratiya  
 Bizda o'ziga xos, o'zimizga xos.

Xususiy lashtirish bo'lib, odamlar  
 Ko'p narsaga ega chiqdi bu damlar,  
 Xususiy dardlarga ochildi keng yo'l,  
 Yo'qoldi qaygadir umumiy g'amlar.

Tanim sog', dilim tog' damlar ham keldi,  
 Shodlikdan ko'ksim tog' damlar ham keldi.  
 Ba'zi g'arib do'stlar men kabi goh-goh  
 Quvonsaydi, degan g'amlar ham keldi.

El-yurt yillar bo'yi kutgan hurlik bu,  
 Buni tan olmaslik o'ta surlik bu.  
 Qur'oni Karimni nashr etib bergen  
 Zamondan nolimoq noshukurlik bu.

Vatan, sensiz netardim men,  
 Devonaday ketardim men.  
 Gulzoridan ayro bulbul  
 kabi faryod etardim men.  
 Onam, dedim, bolang bo'ldim,  
 Ko'ksingda oh-nolang bo'ldim.  
 Muhabbatting tuyib jondan,  
 Bu dunyoda odam bo'ldim.

Ko'z ochib ko'rganim sensan,  
Qizg'onib yurganim sensan.  
Vujudim yo'q bo'lib ketar,  
Jonom sensan, jonom sensan.  
O'zbekiston, O'zbekiston,  
Baxtimga bo'l doim omon.  
Doim ozod, doim obod  
Ko'rsin seni jumla jahon.

## USTOZ SHOIR HIKMATLARIDAN

### 1

Bunda yolg'on urchigan, qulinqing keragi yo'q,  
Soxtaliklar behad, ko'z-qaroqning keragi yo'q.  
Nafsning zo'rligidan yurakning o'mini ham —  
Oshqozon egallagan... Ko'plarning keragi yo'q.

### 2

Nafslar junbushga kelmishlar behad,  
Ko'zlar ko'r, qulqlar tom bitgan, faqat —  
Hamma bir-biriga og'zini ochgan:  
Ber, der, der, yeaman, der beun, beshafqat.

### 3

Ikkinci basharang qolgach ochilib,  
Xayollaring har yon ketdi sochilib,  
Aytilgan eng yumshoq gap-so'zlarim ham  
U yer-bu yeringga o'tdi sanchilib.

### 4

Mustabid davrda asab toblandi,  
Aytilgan har so'z, har oh hisoblandi.

Ko‘p shoirlar ko‘rib turib haqso‘zni  
Aytmagani uchun mukofotlandi.

5

Turlanib, tuslanib yashaysan ildam,  
Do‘stmi sen? Dushmanmi?

Kimimsan, bilmam?  
Boqib zamonaga qay yuzing-la, oh,  
Aytursan bu so‘zni qayering bilan?

**SONET**

Oilani boshqara olmay qoldi u,  
Bilmaydi: adashdi qayerda, qandoq.  
Yurakda yurakni to‘ldirgan qayg‘u,  
Yurakda yurakni sirqiratgan oh.

Xotin gap qaytarar, farzandlar qaysar,  
Qo‘l ham ko‘tarishar unga ba’zida.  
O‘zining uyida yot kabi yashar,  
Har xil so‘zlar chiqib ketar og‘zidan.

Yo‘q, boylik mol-dunyo emas, boshqa bir  
Muammo bor bunda, butunlay boshqa.  
“Sevib turmush qurgan edi-ku, axir...”  
Durustroq bir fikr kelmaydi boshga.

His etmas xazonday tutayotganin,  
Xudoni tanimay o‘tayotganin.

## XURSHID DAVRON

(1952)

*Xurshid Davron 1952-yil 20-yavarda Samarqand viloyati Chordara qishlog‘ida tug‘ilgan. O‘zbekiston xalq shoiri (1999). “Qadrdon quyosh” (1979), “Shahardagi olma daraxti” (1979), “Tungi bog‘lar” (1981), “Uchib boraman qushlar bilan” (1983), “To‘marisning ko‘zлari” (1984), “Bolalikning ovozi” (1986), “Qaqnus” (1987) kabi she’riy to‘plamlari nashr etilgan. “Samarqand xayoli” (1991), “Sohibqiron nabirasi” (1995), “Shahidlar shohi” (1998) kabi tarixiy-ma‘rifiy qissalar muallifi. Tarixiy siymolar hayoti haqida ham sahna asarları yozgan (“Mirzo Ulug‘bek” — “Alg‘ul”, 1995; “Boburshoh”, 1996). Sharq va G‘arb shoirlarining asarlaridan iborat “Qirq bir ishq daftari” (1989) va yapon shoirlari she’rlaridan tarkib topgan “Dengiz yaproqlari” (1988) to‘plamlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.*

## YOZ ERTAGI

Dalalarning qoq o‘rtasida  
Yer-u osmon aro bir ertak —  
Yulduzlarning mayin sasidan  
Tebranadi oppoq belanchak.

Uxlab qolar horigan ota,  
Uxlab qolar terimchi — suluv,  
Uxlab qolar chorborg‘ ortida  
Ariqchada jildiragan suv.  
Faqat qora ko‘zlarin ochib,  
Hayratlarga to‘ldirib quchoq.  
Onasiga o‘xshatib oyni,  
Tamshanadi oyday chaqaloq.

Va mehrdan ichib, ko'ksini  
Chaqaloqqa tutar oy xushhol.  
So'ng allalar aytib, o'ksinib,  
Belanchakni tebratar shamol.

## **YONAYOTGAN GULXANLAR**

Ko'z o'ngimda bepoyon bog'lar,  
Yaproqlarda tillarang g'ubor.  
Yaqinlashib qolgandek tog'lar,  
Havo shunday tiniq, beg'ubor.  
Shitirlagan tungi yomg'ir ham,  
Tumanlarni quchoqlagan tong,  
Qop-qoraygan dala-yu qir ham  
Bari menga tanish, qadrdon.  
Daraxtlarda lovullar gulxan,  
Yuragimda uning tafti bor.  
Bog'chadagi xazonlar bilan  
Uchib yurar kechagi bahor.  
Meni tashlab ketmoqchi do'stni  
To'xtatmoqchi bo'lganday, bu on  
Men jimgina qo'lim cho'zaman,  
Yonayotgan gulxanlar tomon.

## **DARAXTZOR QOSHIGA KELAR BIR AYOL**

Tunda silkitarkan daraxtni shamol,  
Daraxtlar titrarkan mahzun, bukchayib,  
Daraxtzor qoshiga kelar bir ayol,  
Nozik oyoqlarin shabnamga chayib.  
U gullar sochadi hovuch-hovuchlab,  
Hayratga to'ladi armonli bog'lar.

U kuylay boshlasa, gullarni tishlab  
Uyg'ona boshlaydi qurigan shoxlar.

## KUZ ERTAGI

Terimchi qizlar  
Shoxlardagi qushlarday yengil,  
Qomatli — xayol,  
Quyosh isi anqib turar chehralaridan.  
Ular  
To'lib ketgan armonlar kabi  
Egatlarga sochilgan,  
Orzulari mezonlar kabi  
Oppoq-oppoq uchib yurguvchi  
Oydin shamollarga osilgan.  
Huv... Bo'g'ilib sayragan  
Qushdan ham uzoq,  
Qishlog'imning cheksiz dalalarida,  
Oppoq shiyponlarda ko'ksini titroq,  
Iliq, moviy shamollar o'pib,  
Uxlab yotar terimchi qizlar  
Tushlarini quyoshga ko'mib...

## AYOL, QAYG'U VA MUHABBAT HAQIDA

### 1. Ayol

U ayolning qo'llari dag'al,  
U ayolning ko'y lagi dag'al.  
Uni har kun kaltaklar eri,  
Har kun yuzda ko'karar dog'lar.  
Kecha nogah yo'lning chetida  
Ko'rib qoldim o'sha ayolni:

U hidlardi men sezmay o‘tgan  
Mittigina marvarid gulni.

## 2. Qayg‘u

Lattani ho‘llar ekan  
Qotib qoladi,  
yerga egib boshini  
O‘yga toladi.  
Ajin bosgan yuzlarida  
Aks etar qayg‘u —  
Kimni o‘ylab, kimni eslab  
G‘am chekadi u?

## 3. Muhabbat

— Men sevaman, — shivirlar ayol —  
Kirlaringni yuvib beraman.  
Dazmollayman ko‘ylaklaringni  
Seni quchgan qo‘llarim bilan.  
Bir kun tongda to‘sakda yotib,  
Qulog‘ingga shivirlasam, bas:  
“Yuragimning ostida kimdir  
Xuddi sendek olmoqda nafas”.

## TURSUN ALI

(1952)

*Tursun Ali (O'rmonov) — 1952-yil 5-fevralda Farg'on'a viloya-*  
*tining Quva tumani, Toshyo 'li qishlog'ida tug'ilgan. "Zangori ovo-*  
*za" (1979), "Yurakdagi so'zlar" (1983), "Yorug 'kunlar" (1985),  
"Iztirob ostonasi" (1992),, "Tun tovushi" (1993), "Yolg'izim"  
(1995), "Uyg'oq sukunat" (1999), "Tuyg'ular rangi" (Saylanma  
2001), "Sokin xayqiriq" (2005), "Tanlangan asarlar" (2022) kabi  
she'riy to'plamlari nashr etilgan. "D o'stlik" Ordeni Bilan Muko-  
fotlangan (1994).*

## USMON NOSIR

Zulmat kecha...  
Shamollar esar,  
Chil-chil sinar deraza ko'zi.  
Usmon Nosir xayolin buzar,  
Tundek og'ir zamona so'zi...

Qora shamol zulmida, uning  
Oyoq-qo'li,  
Ko'zлari bog'liq.  
Yurak yonar simirar tunni,  
She'r bag'ri, oh, naqadar dog'liq.

Asov yurak  
Tinarmi yo'lda,  
Uchgay nahot nozim ovozi.  
Sinsa nahot Majnun ilkida  
Yordan afzal suyukli sozi.

Sibir qahri qaqshatar tanni,  
Sil o'pkasi  
Qon qusar, evoh.  
Yiroqlarda qoldi vatani,  
Bunda izg'ir shamollar nechog'?..

O'z qoni-la,  
Shoir yozar she'r,  
Devorlarda satrlar qon rang.  
Dil tubida o'kiradi sher,  
Avaxtadan taralar ohang...

Bog'im ichra sayrar bir qushcha,  
Qarog'ida ajib alanga.  
Nechun,  
Unga qarayman buncha?  
U ko'z tikib to'ymas Vatanga!

## XUMO QUSHI

Daryo sokin oqmagan kabi,  
Notinch erur dunyo hamisha.  
Odamzodning nogoh asabi  
Sinar ekan — bamisli shisha.

Vatanimning burjida bir zum,  
Tun va kunduz to'qnashdi go'yo.  
O'z ko'nglimga tiladim to'zim,  
Dil ko'ziga sachrasa siyoh.

Ona zamin qalqidi bir dam,  
Kay bir joyda shamol-u bo'ron.  
Xira tortgan ko'zlarda shabnam,  
Zalolatga yo'l tutdi nodon...

Zamona tinch turmas muqarrar,  
Qaylardadur itlar galasi.  
Bo‘ri, shoqol yurakni o‘rtar,  
Gohi tunlar, sahar pallasi.

Ne baxt parvoz qilur humo qush,  
Qanotidan nurlanur borliq.  
Inson, jonzot yig‘adur es-hush,  
Bir sokinlik topgay xaloyiq...

Daryo sokin oqmagan yanglig‘,  
Notinch erur dunyo hamisha.  
Humo qushi qanoti qutlug‘,  
Yurtni quchsin asrlar osha!

## TOG‘DA

Yoz. Lovullar quyosh yuksakda,  
Tog‘ og‘ushi tarar tarovat.  
Ajib orom kezar yurakda,  
Hatto rohat olar halovat.

Chotqol sari boqsam, ne ajab,  
Ungirlarda oppoq qor uyum.  
Suyaklarim biz zumda qaqqashab,  
Sovuq qotdi ruh va vujudim.

\* \* \*

Yoz chillasi. Sovidi havo,  
Engil-boshda kuzgi-sarpo.  
Atrofimda kezar benavo  
Yoz sarpoychan, sokin, beparvo.

Tabiat ham o‘xshar ruhimga,  
Bir qarasam yonadi issiq.  
Kelolmayman goho hushimga,  
Osmon, havo soviydi qiziq.

Inson hamda tabiat ajib  
Shu qadar bo‘lmasa uyqash.  
Tabiatga odamzod najib,  
Insonga-chi tabiat yakkash...

\* \* \*

### 1

Men uxlayapman,  
Uxlayotgan odamni  
Faqtat uyg‘otadi shoirlar.

### 2

Qish. Qorli so‘qmoq,  
Oh, qanday og‘ir  
Birovning izidan yurmoq.

### 3

Sahar. Men qayta tirshdim.  
Yo‘l ko‘rsat,  
Bor bo‘lsang, ey, tirik odam!

### 4

Sensiz kirdir oq kunlarim,  
Sensiz qoradir oydin tunlarim.  
Sensiz men —  
men emas yorug‘ dunyoda!

Taqillatar eshikni shamol,  
Nimagadir orziqib ketdi  
Mening o‘jar yuragim.

\* \* \*

Sen qaydasan,  
yaraqlar ko‘zlarim.  
Yo‘qsan-ku  
ko‘zlarimga urilgan  
baxt qushi.

## **QUTLIBEKA RAHIMBOYEVA**

**(1952)**

*Qutlibeka Rahimboyeva 1952-yil 9-fevralda Turkmaniston Respublikasiga qarashli Toshhovuz shahrida tug‘ilgan. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi (1994). “Yuragimda ko‘rganlarim”, “Uzun kunduzlar”, “Uyg‘onish fasli”, “Ozodlik”, “Ko‘ksimdagি Tangritog”, “Chaqmoqlar fasli” kabi she’riy to‘plamlari nashr etilgan. “Tohirning Zuhrosi” nomli dramatik asar ham yozgan. L. Ukrainka, M. Svetayeva kabi shoirlarning asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.*

### **QORLI TONG XAYOLI**

Mo‘jiza yuz bergen.  
Kechagina boshqa edi hammasi,  
Ayozdan qorayib yotardi yo‘llar.  
Shamol teraklarning boshiga minib,  
yupqa yaproqlarin yulardi.  
Anorlar ko‘milgan sokin sayhonlik  
tortmasdi hech kimning e’tiborini.  
Mo‘jiza yuz bergen;  
Teraklar — alpqomat yigitlar:  
egnida oq po‘stin, boshida oq bo‘rk.  
Hatto qamchisining dastasi kumush.  
Sayhonlik bag‘rida haybatli otlar  
Kun chiqish tarafga qarab oromda,  
olmos egarlari qamashtirar ko‘z.  
Mo‘jiza yuz bergen.  
Mening nazarimda, hozir yigitlar  
mudroq tulporlarin uyg‘otib shoshqin,  
Dunyoning qaysidir parchalarida

archinlangan Erkni qutqarmoq uchun  
buyuk kurashlarga kirib ketadir.  
Ular jim, men ham jim.  
Nimadan cho‘chiysiz, og‘alar.  
Axir to‘rt tomonning yo‘llari yorug‘.  
Butun ishonch bilan turibman hamon,  
Mo‘jiza yuz bersin!

## QISH YAXSHI

Teraklar o‘xshamas ozg‘in o‘smirga,  
Bukchaygan tollarga o‘xshamas tollar.  
Qish kiyim tikdirdi bariga birday,  
Oqshomda qo‘li gul chevarlar yollab.  
Ko‘proq ko‘rganiga ishonar ko‘zing,  
Tegrangda podsholik qilar oq ranglar.  
Shu xayol hovurin isitib ko‘ksing,  
Labingda chiroqli ovoz jaranglar.  
Quyosh qizdirmaydi, lekin yarqirab  
Yorug‘lik sochadi. Yorug‘lik aziz.  
Boshingni devorga turmaysan tirab,  
Topasan oyog‘ing sig‘adigan iz.  
Kuychisiz sultanat g‘arib sanalar,  
G‘ariblar safiga qo‘shilmaydi qish.  
Munojot aytmasa hamki qarg‘alar,  
Har qalay ho‘kizmas, sayraydigan qush.  
Daryoni sog‘insang, yotmaysan bo‘zlab,  
Qirg‘oqqa chiqasan. Qaraysan pastga.  
O‘zini ko‘rsatmay hikmatlar so‘zlab,  
Tip-tiniq daryolar oqadi asta.  
Qish yaxshi. Faqat bir kichik nuqsi bor:  
Yo‘llar muz. Muz amri bilan yurasan.  
Erkingda yurmakni etsang ixtiyor,  
Qulaysan. Manglaying yomon yorasan.

## KIMNI SUYIBMAN?

*Men suyib, men suyib kimni suyibman?  
Cho'lpón*

Sevgimni daryoga tashlasam, agar  
suvlarga qo'shilsa, ichsa baliqlar —  
sayragan bo'lardi bulbullar kabi.  
Sahroga tashlasam, yesa ilonlar —  
bari parilarga aylanib qachon  
malika bo'lardi shahzodalarga.  
Toshbaqa totinsa, qo'shganot bog'lab,  
ko'tarib kelardi Bog'i Eramni.  
Sevgimni kechaga sochsaydim agar  
oy quyosh bo'lardi, yulduz ham quyosh.  
Men buyuk sevgimni senga beribman.  
Baliqlaring baliq.  
Iloning — ilon.  
Toshbaqang — toshbaqa.  
Kechaning kunduzga qadamlari sust.  
Sevgim kuchsizmikan, yo sevgim essiz?  
Tillanmog'ing uchun, uchmog'ing uchun,  
kechadan batamom kechmog'ing uchun,  
Ayt, qancha xohlasang, shuncha suyarman,  
Ayt, qandoq xohlasang, shundoq suyarman!

## KUZ

*kuz, oh.  
Zahiriddin Muhammad Bobur*

Kuz, oh. Bikajon.  
Quyosh mag'lub lashkarboshidir,  
Yig'ar jonsizlangan nurlarin.  
Xazon bog'ning so'zon yoshidir,  
So'zon etgan biri-birlarin.  
Atirgul — bahorning sag'iri,  
Qalbidan yozlarni kechirgan.

Sariq suvlar umid chog‘iri,  
Quyqasiga qadar ichilgan.  
Qumrining qushligi susaygan,  
Pastga rozi, yelrlarga rozi.  
Qarg‘aning tillari uzaygan,  
Ochilib boradi ovozi.  
Bulut qayta butlangan qatqon  
Shamol qilich, daraxtlar zirlar.  
Ajib faqat ko‘rinmaydi qon,  
Shitob yuvar g‘assol yomg‘irlar.  
Kuz, oh. Bikajon.

## NAFRAT

Bolalari qirib tashlangan ona —  
Gullari yulingan daraxt sen emas,  
Baxtning nasibasi — bebaxt sen emas,  
U o‘zga turkiyidir — dali-devona,  
Bekajon, jon shirin, ko‘zlarining yum!  
Xonlar qopchig‘ini to‘ldirgan ayol —  
Panjalari bo‘m-bo‘sh Sabr sen emas,  
Bo‘shligi joniga jabr sen emas,  
U o‘zga turkiyidir — siqilgan anor,  
Bikajon, jon shirin, ko‘zlarining yum!  
Erlar egik kun ham tik qolgan ayol,  
Yovga tiz cho‘kmagan beklik sen emas,  
Izg‘iringa qarshi ko‘klik sen emas,  
U o‘zga turkiyidir — olis bir xayol,  
Bikajon, jon shirin, ko‘zlarining yum!  
Ha, zarba emassan, emassan turtki,  
Mudroqlik sen emas, g‘aflat sen emas,  
Yo isyon sen emas, nafrat sen emas,  
U o‘zga bir turkiy, sen qanday turkiy?  
Bikajon, jon shirin, ko‘zlarining yum!

## MAHMUD TOIROV

(1952)

Mahmud Toirov 1952-yil 31-avgustda Toshkent viloyatining Parkent tumani, Parkent qishlog‘ida tug‘ilgan. O‘zbekiston xalq shoiri (2005). “Ayt endi, yuragim” (1991), “Biz nechun uchrashdik” (1992), “Muhabbat shevasi” (1995), “Oqib ketgan armonlar” (1996), “Barmoqlar bodasi” (1998), “Haqni tanib” (1999), “Yuz to‘rtlik”, “Saylanma” (2002), “Otamning o‘kinchi” (2002), “Vatan ne deb so‘rganlarga”, “Savob asli samodan tushmas”, “Armon tuni” (2017), “Yangi she’rlar” (2018), “Uyg‘oq dil” (2019), “Men ostobga alishmagan ayollar” (2021), “So‘z saodati” (2021), “Yaxshilikka kelganman” (2021) kabi doston va she’riy asarlari, “Yangilanayotgan O‘zbekiston” (2018), “Yevropa sayohati: hayrat va shukronalik” (2018) kabi publitsistik to‘plamlari nashr etilgan.

Shoir “Mehnat shuhrati” (2000), “El-yurt hurmati” (2017) ordenlari bilan mukofotlangan.

## PARKENTIM

Qirlarida qirg‘iysin qanoti qayrilmagan,  
Ovchisi imoni-yu, oridan ayrilmagan,  
Suvga cho‘p tashlash bunda qushga ham buyurilmagan,  
Vatan ichra bu chaman Vatanning parchasidir,  
Chotqol tog‘ tizmalari quyoshning darchasidir.

Maysalari jilmayib, jilolar to‘kar bunda,  
Turnalar boshingizdan duolar to‘kar bunda,  
Rayhonlarning poyiga sabolar cho‘kar bunda,  
Ko‘rsangiz ko‘zingizga quvonchlar chirmashadi,  
Yursangiz izingizni gullari talashadi.

Jilg‘alarin jarangi joningizga chertadi,  
Buloqdari baxt tilab zam-zam suvlar tutadi,  
Kunduz quyosh, oqshom oy yo‘lingizni kutadi,  
Qushlarin qo‘shig‘ida tangrining kalomi bor,  
Majnuntol ta’zimida kelinlar salomi bor.

Masjidlarin ko‘kiga farishtalar sig‘maydi,  
Bunda kimki yig‘lasa, Xudoyimga yig‘laydi,  
Bu maskanda Bobomochin, ne valiylar ulg‘aydi,  
Yaratgan osmonidan orom sochib turadi,  
Tongda gullar bulbulga kitob ochib turadi.

Momolarin allasi toshlarni ham balqitar,  
Qirq kokilli qizlari qarog‘ingiz qalqitar,  
Parkentda bir bor bo‘lgan ming bir dardni unutar,  
Boburga bolish bo‘lgan atri buлоq chaman bu,  
Hofiz Ko‘hakiy suygan jannat jamol Vatan bu.

Kimga jonday azizmas ona bo‘lib tug‘gan yer,  
Onam desa Mahmudni bir so‘zidan uqqan yer,  
Ko‘ksiga gul chechagin tumor qilib taqqan yer,  
Yetti emas, yetmish ming avlodimga Vatansan,  
Bag‘ringda yotar bo‘lsam sen yodimga Vatansan.

## O‘TINCH

Meni osmonlarga olib chiqmangiz,  
Quruq nog‘orani chalib chiqmangiz.  
Mening ko‘nglim yerda, tovonim yerda,  
Osmondan uyalib qolmayin yana.

Menga amal emas, oshiq dard bering,  
She‘rning sharobidan chimdim gard bering,  
Yerda maysa bilan yashagim kelar,  
Rayhondan uyalib qolmayin yana.

Yerda onam yashar, bolam yashaydi,  
Otam qabrin quchgan nolam yashaydi.  
Onadan qarzini uzgan bormikin,  
Vijdondan uyalib qolmayin yana.

Qonimda oshiqlar isyon qiladi,  
Jonimda qo'shiqdar giryon qiladi.  
Shayton ishvasida jannat ko'rsatmang,  
Rahmondan uyalib qolmayin yana.

Onam dedim, Momo yerga yukindim,  
Ko'z yosh bo'ldim, yana unga to'kildim.  
Hovuchim to'ldirib bug'doy berdi u,  
Somondan uyalib qolmayin yana.

Men yerdan kuzatgan jonim, oftobim,  
Men yerdan termilgan oyim, mohtobim.  
Osmoningiz o'zingizga buyursin,  
Iymondan uyalib qolmayin yana.

Meni osmonlarga olib chiqmangiz,  
Chiqsangiz siz yerdan nolib chiqmangiz.  
Xudoning oldida, yerning oldida,  
Insondan uyalib qolmaylik yana.

## OQQAN DARYO OQAVERADI

Sen yo'limni to'sma, ey g'anim,  
Yantoq bo'lib o'sma, ey g'anim,  
Sokin daryo bu ko'nglim manim,  
Ishqim gulxan yoqaveradi,  
Oqqan daryo oqaveradi.

Men qoqilsam yer ko'targaydir,  
Erka bo'lsam el ko'targaydir,

Ojiz avval qo'l ko'targaydir,  
Chayon zoti chaqaveradi,  
Oqqan daryo oqaveradi.

Sen ham bir bor yulduz bo'lib ko'r,  
Tun bo'limagin, kunduz bo'lib ko'r,  
Bir maysaga ildiz bo'lib ko'r,  
Ko'klam chechak taqaveradi,  
Oqqan daryo oqaveradi.

Haq so'z jonim jarangi meni,  
She'rim dilimning rangi meni,  
To'kur hasadning zangi seni,  
Havas chaqmoq chaqaveradi,  
Oqqan daryo oqaveradi.

Sen kulmasang kulmaydi dunyo,  
Men yig'lasam yig'laydi dunyo,  
Bo'yin bizga bo'ylaydi dunyo,  
Yaxshi elga yoqaveradi,  
Oqqan daryo oqaveradi.

## SIZGA BARIBIRMI?

Azizim, bag'rimni tig'laydi sog'inch,  
Men kimga to'kilay limmo-lim to'lsam.  
Jonimda charx urar ushalmas ilinj,  
Sizga baribirmi, yig'lasam, kulsam.

Hovuchim hapqirar quvonch yosh to'ksa,  
Ne qilay qarshimda anduh tiz cho'ksa,  
Alam qilar ekan do'stdan o'q tegsa,  
Sizga baribirmi, yig'lasam, kulsam.

Bo'yladim, bo'yladim dorga yetmadim,  
Qatorda kerilgan norga yetmadim,

O'z ko'nglimdan bo'lak zorga yetmadim,  
Sizga baribirmi, yig'lasam, kulsam.

Toshlarni chiritib bo'lmas ekan-ku,  
Oy dog'in aritib bo'lmas ekan-ku,  
Quyoshni qaritib bo'lmas ekan-ku,  
Sizga baribirmi, yig'lasam, kulsam.

Omonat dunyoga g'animat mehmon,  
Men chindan so'rasam egilgay osmon,  
Oy o'tar, yil o'tar, ey do'sti nodon,  
Sizga baribirmi, yig'lasam, kulsam.

## MUHTARAMA ULUG‘OVA

(1952)

*Muhtarama Ulug‘ova 1952-yilda Marg‘ilon shahrida tug‘ilgan. “Boychechakning tushlari” (1983), “Muhabbatga to‘ymasman sira” (1985), “Kunlarning bag‘ri keng” (1987), “Ey dilim!” (2008) nomli she’riy to‘plamlari, “Muhabbat saroyida mangu qolganlar” (2005), “Bahor keldi seni so‘roqlab” (2015), “Iztiroblar halovati” (2022) nomli badiiy-publisistik kitobi nashr etilgan.*

*Shoira “Shuhrat” medali, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” unvoni, “Mehnat shuhrati” ordeni bilan taqdirlangan.*

## SO‘ZGA BOQDING

So‘zga boqding: kim yaxshi, kim yomon bo‘ldi,  
Kimga mehring, kimga qahring ummon bo‘ldi.  
Qoshingda kim mazlum-u, kim sulton bo‘ldi  
Va oqibat kim o‘ng, kim chap tomon bo‘ldi.  
So‘zga boqding, dillar bilan dillashmoqqa  
Fursat, toqat topmading, ko‘p zamon bo‘ldi...  
Turlandi so‘z qulog‘ingda erib sening,  
Kim bilar, kim qalban Alloh tomon bo‘ldi?..

## KUN-TUN BEHALOVAT

Ko‘z yumib ochguncha...  
Dil-u jon istagi — farog‘at,  
Tariqcha himmatim — ovoza,  
Chin hojattalabga mehrimning —  
Ostona, ravog‘i ko‘p baland.

## TILAK

Misoli qirdagi qizg‘aldoq  
Titranib turibman omonat...  
Chumoli yo‘lin ham buzmayman.

Yuzlarim nur bo‘lsa!.. Qalbimga —  
To‘r tashlar nafs-u kin, xiyonat...  
Qog‘ozga ham soya chizmayman.

Men — suyuk banda, har zarrada —  
Fazlidan mo‘jiza, karomat.  
Har jondan fazilat izlayman.

Tilagim — dargohi oliyda  
Xeshlarim — eng oliv jamoat.  
Tuproqni ham endi sizlayman.

## BOMDOD

### I

Oy — ko‘ngli butun dilbar,  
Yulduzlar — tongdan xabar,  
Oy, yulduzlar samodan  
Yuksalar qalbim qadar.  
Atrofim sokin, mudroq,  
Ko‘z yumsam, ko‘ngil uyg‘oq,  
Bag‘rimda — shu’layi Toq...  
Osmon — yaqin, yer — yiroq.

### II

Muyassar bo‘ldilar dilimga  
Osoyish tuyg‘ular nasimdek.  
Ne g‘ubor, ne g‘ashlik — yuvildi

Qumlarga chizilgan rasmdek.  
Ajab, tun kunduzdan charog‘on,  
Dil meni qizg‘onar uyqudan.  
Ul qaysar shamollar yiqtgan  
Gullar bosh ko‘tarar ruhimda.

### III

Bomdod bu — yetti qat osmondan  
Shu'lalar yog‘ilar sim-simlab.  
Nigohing tushgan to‘rt tomondan  
Yangidan ochilar tilsimlar.  
Gar ogoh, gar uyg‘oq — eng qutlug‘  
Mo‘jiza, evrilish — ko‘ksingda.  
Tilayver hidoyat, shoyad nur —  
Dilingga osmonlab to‘kilsa...

## TOHIR QAHHOR

(1953)

Tohir Qahhor 1953-yil Namangan viloyatining To'raqo'rg'on tumanida tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, xalqaro Ahmad Yassaviy, Turk dunosiga xizmat (Turkiya) mukofotlari bilan taqdirlangan. "Oq o'rik", "Oqayotgan daryo", "Osmon kimniki", "Eshik taqillayotir", "Kun ko'zi", "Yulduzlar mening bog'im", "Tog'ning parvozi", "Hur Turkiston uchun" kabi she'riy va publitsistik kitoblari bosilgan. G.G. Markesning "Oshkora qotillik qissasi", H.N. Otsizning "Ko'kbo'rilar ning o'limi", "Ko'kbo'rilar ning tirilishi", D. Alpning "Sharqning eng buyuk hukmdori Temur" romanlari, I. Akaning "Buyuk Temur davlati", Nasimiyning "Jononni sevarman", S. Shirvoniyning "G'azallar" va boshqa qator jahon adabiyoti namunalarini tarjima qilgan. U "Zamonaviy o'zbek she'riyati" (Anqara 1995), Z2 jildli "Turk duniyosi adabiyoti antologiyasi"ga mansub uch jildli "O'zbek adabiyoti" (2000) muallifi.

## UMIDSIZ OSHIQ

necha kundir ko'zim ko'rmaydir  
ko'z o'ngimda bir qorong'uliq  
borliqsiz bir kir qorong'uliq  
kimsa bilmas holim so'rmaydir  
ko'z o'ngimda tovushsiz olam  
yashamidan xabarsiz yasham  
necha kundir ko'nglim yurmaydir  
xayolan boqurmen yulduzga  
u o'xshar men yo'qotgan ko'zga

## TANGRINING IPI

to‘g‘rilar og‘ir kunda  
to‘g‘riga ko‘mak etar  
har yerda va har ishda  
tangri ipidan tutar  
kimsaga sig‘inganlar  
borar uni ketidan  
talab zug‘um qilishda  
qolmas uning itidan

## G‘IR-G‘IR

(yoki “Qarab o‘tayin”, qo‘shiq)

Tongda eshigingda ko‘cha supursang,  
Yo‘l ustida bir-bir qarab o‘tayin.  
Qo‘shning bilan yayrab so‘zlashib tursang,  
So‘zlay olmay, zir-zir, qarab o‘tayin.  
Ko‘nglim oltin edi, tilab oldilar,  
Talab bo‘lmas ne bor, talab oldilar,  
Oy yuzini itlar yalab oldilar,  
Qaramasam og‘ir, qarab o‘tayin.  
Qarg‘alar to‘vida “qag” etayinmi?  
O‘tar kunda vaqtim chog‘ etayinmi?  
Ikki dunyoligim dog‘ etayinmi?  
Chetda qushday, chir-chir, qarab o‘tayin.  
Kel, go‘zal! Shu ko‘klam bog‘larin ko‘tar,  
Yuragim bosgan muz tog‘larin ko‘tar.  
Hech ne istamasman, shu bori yetar,  
Shamol bo‘lib, g‘ir-g‘ir, qarab o‘tayin.

## ESKI DO‘ST

(*Hirotlik o‘zbek qo‘shigi*)

Qayg‘ururman ko‘zda yoshim bir buloq, kel, eski do‘st!  
Yig‘laganlar tovshiga solgin quloq, kel, eski do‘st!  
Ayrilib ketdi necha jon do‘stlar-u qondosh-urug‘,  
Qayrilib boqmas bular, yovlar inoq, kel, eski do‘st!  
Olmayin to‘g‘ri so‘zim, bir chetga surmishlar o‘zim,  
Qolmadi insof, ko‘paydi kek nifoq, kel, eski do‘st!  
Qayda baxt deb yo‘lga chiqqanlar qayirda botdilar:  
Ko‘rdilar — ko‘prik buzuq, tuz, yo‘l yiroq, kel, eski do‘st!  
Ko‘rdilar — shul ham odam deb hech birin so‘rguvchi yo‘q,  
Ko‘kda bo‘lsang, in-da, holim qil so‘roq, kel, eski do‘st!  
Tushdilar eski qayiqqa; eshkagi yo‘q ham teshik...  
Voh, qayiqchi chiqsa qo‘lsiz! Ne sinoq? Kel, eski do‘st!  
Ikki qirg‘oqqa to‘libdir ikki dunyo o‘g‘risi,  
Har qaroqchi, men qo‘riqchi, der biroq, kel, eski do‘st!  
Eski kunga qaytayin, qil qaytariq, der necha ko‘r,  
Ne toparlar kunduzi ushlab chiroq?! Kel, eski do‘st!  
Shermuhammad, Boyqaro, Bobur, Temurlar kelmasa,  
Kel, O‘g‘uzxon! To‘nyuquq, kel! Kel, Shiroq! Kel, eski do‘st!..

## QIRG‘IYAK<sup>1</sup>

(1918-yil; qo‘qonlik qo‘rboshining qo‘shig‘i)

Qirg‘iyakda, qirg‘oqlarda qirg‘ovullar qirildilar,  
Qo‘tonlarda qorasondan qoramollar qirildilar,  
Qoralangan qishloqlarda qirgo‘g‘illar qirildilar,  
Qorako‘zlar qoldi qattol qoraqo‘lga qaray-qaray.  
Qo‘g‘aylikda, qirda quvnar qo‘sh qulunchoq, qo‘sh quralay...  
Qo‘y-qo‘zini qo‘rqtadir qo‘shotarlar, quray-quray!  
Qirg‘iyakda qirg‘iy — qog‘on! Qo‘shnidir qo‘g‘ay-qo‘g‘ay,

<sup>1</sup> **Qirg‘iyak** — kuz boshi; qorason — qoramollarga qirg‘in keltiradigan kasallik; qulun-choq — toychoq; qumay — o‘laksaxo‘r yirtqich qush.

Qoyalarda qanot qoqar qo‘mondoni — qo‘tir qumay.  
Qari, qirriq qurbaqalar! Qurillama! Quring qursin!  
Qo‘ri qum-qum qaroqchilar! Qo‘ring qursin! Qo‘ring qursin!  
Qardoshing-la qurganlaring qon qasridir — quring qursin!  
Qutulingiz, qarovchisiz qolgan qushlar, quray-quray!  
Qumtoshlarni qaynatolmas qorong‘uda qora qumg‘on,  
Qorabudun qayg‘usini qovuradi qora qozon,  
Qirq qaroqchi! Qozonganing qora quldan qoramsiq qon!  
Qirq qaroqchi! Qora qulning qonlariday qoray! Qoray!..  
Qopqasiz, qoq qishloqlarda qo‘yilmishdir qopqonlaring,  
Qop-qop qonni qoplatguncha qochib qolar qoplonlaring,  
Qashshoqlikda qaqqhatdilar qashqirlaring, qabonlaring,  
Qora qishda qutqararmi qora qulni qora bug‘doy!..  
Qirg‘iyakda qo‘llab qo‘yay qo‘lsizlangan qurdoshimni,  
Qirq qaroqchi qirmadimi qirlardagi qirdoshimni?  
Qirg‘inlardan qo‘riyolsam qaniydi qon-qardoshimni,  
Qo‘rimasam, qirilurman qirqimdayoq qariy-qariy!..  
Qoraqurum, Qoraqumdan, Qizilqumdan qirq qahramon,  
Qo‘llarida, qalblarida qirqmingtadan qilich-qalqon!  
Qora quyun qo‘zg‘olganda, qutulolmas qora qog‘on!  
Qavm-qardoshim qirganlarni quturay-da qiray-qiray!!!

## **USMON QO‘CHQOR**

**(1953–2017)**

*Usmon Qo‘chqor 1953-yilda tug‘ilgan. “Hayajonga ko‘milingan dunyo”, “Akssiz sadolar”, “Uyqudagি minora”, “Og‘ir karkon”, “Chamangul”, “Shiroq” kabi she’riy kitoblari nashr etilgan. “Quvg‘un” dostoni va “Imom Buxoriy” she’riy dramasining muallifi. Husayn Jovidning “Amir Temur” va “Shayx San‘on” dramalarini, Yusuf Samad o‘g‘lining “Qatl kuni”, Anorning “Besh qavatli uyning oltinchi qavati” romanlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.*

*Shoir 2017-yilda vafot etgan.*

\* \* \*

Bu ayol nimadan qo‘rqadi buncha,  
Hurkak bir ohuga o‘xsharmi gohi?  
Majol topib unga ko‘z qadaguncha,  
Zaminga to‘kilib tushar nigohi.

Zoriqar,  
zo‘riqar,  
chingillar yodim.  
Hozir chiqib ketar tanasidan ruh.  
Men uni ko‘rganman ming yillar oldin,  
Mana, ming yil keyin — yana shu anduh.

Lol bo‘lib bu jamol, bu ruh, bu qaddan,  
Ortidan shamoldek chopolmaganman.  
Oh, men bu ayolga ming yil muqaddam  
Atigi bitta so‘z topolmaganman.

Nimadan bunchalar afsusda ayol,  
Nigohi nigohni muzday qotirar?

Chalqinar kishanband mahbusday xayol,  
Yondirar kechikkan kuzday xotira...

\* \* \*

O‘t tushgan sahroga boshladi yo‘lim,  
Kuydi dil, kuydi dil... Kuyib bitmadi.  
Yulduzlarga yetgan mening bu qo‘lim  
Yonginamda turgan gulga yetmadi.

Oysan — men zaminda yopolmaganim,  
Ko‘ngilda ilohdek tutganim mening.  
Izlagan kunimda topolmaganim,  
Kutmaganda kelgan kutganim mening.

Xudoyimning mendan yashirib, mubham  
Qaysi sandig‘ida yotgan sirisan?  
Daf’atan kelarkan baxt ham, balo ham,  
Bilmayman, gulim, sen qaysi birisan.

Ko‘rdim men taqdirning qasos olganin,  
Roziman, men hamma narsaga shayman.  
O‘tgan umrim o‘tdi... Ammo qolganin,  
Xongulim, men sensiz qandoq yashayman?

Xayolingda menga jannat to‘rt taraf,  
Olovingda hechdir do‘zax degan choh.  
Seni sevmoq nahot shunchalar sharaf,  
Seni sevmoq nahot shunchalar gunoh?..

\* \* \*

Ko‘z yoshda buyuk bir hikmat bor ekan,  
Tasalli bor ekan dardda, yig‘ida,  
Yana men bu darddan yosh to‘kdim, bekam,  
Kuydim ko‘zlarining qorachig‘ida.

Sen ketding... uzilib tushdi tomchi yosh,  
Harakat to'xtadi. Hayot to'xtadi.  
Hattoki falakda jovidon quyosh,  
Endi qotib qolgan qora nuqtadir.

Dengizda nogahon tindi po'rtana,  
Bog'larda shamollar bosilib qoldi.  
Bandidan uzilgan yaproqlar, ana,  
Havoda muallaq osilib qoldi.

Sen ketding... bu bog'lar xazonga botdi,  
Kezmakdan to'xtadi — oy tortdi xira.  
Falakda yulduzlar nuqtaday qotdi,  
Muzdek qotib qoldi xotira...

Dunyo to'xtab qoldi... Dunyo — qiziqmas,  
Barchasin to'xtatdi bitta ishorat.  
Sen ketding... Bu umrim endi chiziqmas,  
Qotgan nuqtalardan iborat...

\* \* \*

Ishq — junun, so'ngandan keyin anglangan,  
Na iloj, ishq — Haqdan tortiq deganlar.  
Avjlanar suv sepgan sayin alanga,  
Qattiqroq kuyadi qattiq sevganlar.

Qanday savdolarga belandi boshim,  
Oh, qachon bu yurak toshga aylanar.  
Ichimdan bir isyon keladi toshib,  
Bu isyon ko'zimda yoshga aylanar.

Oshiqning ahvoli fe'lidan ayon,  
Ko'rganlar achinib ketadi nari.  
Bu sho'rlik qavmga ming yildan buyon  
Yolg'on bir tasalli: "O'tadi bari..."

Ohimdan muhit bir siltanadi-da,  
Tog‘dan pastga qaqshab quyilar toshlar.  
Ishqning bu zulmkor sultanatida  
Yolg‘on rostga o‘xshab tuyila boshlar...

\* \* \*

Zamin to‘zon sochar. Osmon — alanga...  
Qizarib boqadi oftob ham ufqdan.  
Quduqlar ko‘milgan... Karvon talangan...  
Shom tushar... Boshlanar aftoda xufton...

Yolg‘iz o‘zi qoldi. Panoh — Xudodan.  
Omon qolganini saodat bilar.  
Sahroda qiblasin yo‘qotgan odam  
Duch kelgan tomonga ibodat qilar...

\* \* \*

Yomg‘iring kutdim giyohdek tashnayi giryon bo‘lib,  
Qovjiratding sen otashda bebulut osmon bo‘lib.

Tong kavokibdan yog‘ar shabnam deya kelgach vahiy  
Men qadah tutdim falakka lolalardek qon bo‘lib.

Dayr yeli essa agar shabnam inolmay zor ekan,  
Yaproq‘im uchdi quyunda sayri sargardon bo‘lib,

Qilmagandim men axir dunyoni dunyodan talab,  
Dunyo aylandi boshimda toshi tegirmon bo‘lib.

Kimga xor-u, kimga gul erdim va men ketsam qolur  
Qancha dil shodmon bo‘lib, qancha ko‘ngil vayron bo‘lib.

Ishqda yo‘q menga ajal, qaytib kelurman dunyoga  
Daryo — Usmon, maysa — Usmon, lolazor — Usmon bo‘lib.

## MUHAMMAD YUSUF

(1954–2001)

*Muhammad Yusuf 1954-yili Andijon viloyatining Marhamat tumanida tavallud topgan. O‘zbekiston xalq shoiri (1998). “Taniш teraklar” (1985), “Bulbulga bir gapim bor” (1987), “Iltijo” (1988), “Uyqudagи qiz”, “Halima enam allalari” (1989), “Ishq kemasи” (1990), “Ko‘nglimda bir yor” (1991), “Bevafo ko‘p ekan”, “Yolg‘onchi yor” (1993), “Erka kiyik” (1995), “Osmonimga olib ketaman” (1998), “Ulug‘imsan, Vatanim” (2004) kabi bir qancha she’riy kitoblari chop etilgan.*

*Shoir 2001-yil 31 iyulda vafot etgan.*

## VATANIM

Men dunyoni nima qildim,  
O‘zing yorug‘ jahonim,  
O‘zim xoqon,  
O‘zim sulton,  
Sen taxti Sulaymonim,  
Yolg‘izim,  
Yagonam deymi,  
Topingan koshonam deymi,  
O‘zing mening ulug‘lardan  
Ulug‘imsan, Vatanim...

Shodon kunim gul otgan sen,  
Chechak otgan izimga,  
Nolon kunim yupatgan sen,  
Yuzing bosib yuzimga.  
Singlim deymi,  
Onam deymi,

Hamdard-u hamxonam deymi,  
Oftobdan ham o'zing mehri  
Ilig'imsan, Vatanim.

Sen Mashrabsan,  
Xalqda tumor,  
Balxda dorga osilgan,  
Navoiysan, shoh yonida  
Faqrinи duo qilgan.  
Yassaviysan, meniki deb,  
Ko'ringan da'vo qilgan,  
Ming bir yog'i ochilmagan  
Qo'rig'imsan, Vatanim.

Sen Xo'jandsan,  
Chingizlarga  
Darvozasin ochmagan,  
Temur Malik orqasidan  
Sirdaryoga sakragan,  
Muqannasan qorachig'i  
Olovlargacha ragan,  
Shiroqlarni ko'rgan cho'pon,  
Cho'lig'imsan, Vatanim.

Kim Qashqarni qildi makon,  
Kim Enasoy tomonda,  
Jaloliddin — Kurdistonda,  
Boburing — Hindistonda,  
Bu qanday yuz qarolig', deb  
Yotarlar zimistonda,  
Tarqab ketgan to'qson olti  
Urug'imsan, Vatanim...

O'g'lim desang osmonlarga  
G'irot bo'lib uchgayman,  
Chambil yurtda Alpomishga

Navkar bo‘lib tushgayman,  
Padarkushdan pana qilib  
Ulug‘beging quchgayman,  
G‘ichir-g‘ichir tishimdagı  
So‘lig‘imsan, Vatanim...

O‘tgan kuning — o‘tgan kundir,  
O‘z boshingga yetgan kun,  
Qodiriyni bergen zamin,  
Qodiriyni sotgan kun.  
Qo‘lin bog‘lab,  
Dilin dog‘lab,  
yetaklashib ketgan kun,  
Voh bolam! deb aytolmagan  
Dudug‘imsan, Vatanim.

Yoningda qon yig‘lagan bir  
Shoiringga qarab qo‘y,  
Gar Qo‘qonga yo‘ling tushsa,  
Detdomlarni so‘rab qo‘y.  
Hech bo‘lmasa Usmon xokin  
Keltirmoqqa yarab qo‘y,  
Olislarda qurib qolgan  
Qudug‘imsan, Vatanim...

Sen — shoxlari osmonlarga  
Tegib turgan chinorim,  
Ota desam,  
O‘g‘lim deb,  
Bosh egib turgan chinorim,  
Qo‘ynimdagı iftixorim,  
Bo‘ynimdagı tumorim,  
O‘zing mening ulug‘lardan  
Ulug‘imsan, Vatanim!

## ONAMGA XAT

Men sizni o‘ylayman shom-u saharda,  
Ona, sog‘insam ham bora olmayman,  
Tunlari charog‘on shunday shaharda  
Hech kimga ko‘nglimni yora olmayman.

Men siz aytgandayin hammani sevdim,  
Hammaga ishondim, mana oqibat:  
O‘z do‘stim uyiga ko‘mildi sevgim,  
Kun bo‘lib ko‘ksimni kuydirdi nafrat.

Boshimdan o‘tgani ko‘kka ham ayon,  
Yulduzlar qiqirlab kular oqbadan:  
Men — zangor yaylovda olis, bepoyon,  
Uyuridan ajrab qolgan qulunman...

Mana, men ketyapman tosh yo‘lda ko‘zim,  
Qadamim moshinlar yo‘rg‘asiga mos.  
Yig‘lasam yupatib o‘zimni o‘zim,  
Pishqirib qo‘yaman toychoqlarga xos.

Va sizni o‘ylayman shom-u saharda,  
Ona, sog‘insam ham bora olmasman.  
Tunlari charog‘on shunday shaharda  
Hech kimga ko‘nglimni yora olmasman...

Ha, sevgi haqida. U dilga ne zeb,  
Kuyinmang, ne iloj qilmasa nasib,  
Baxtimga hamisha Siz sog‘ bo‘ling deb,  
Sog‘ingan o‘g‘lingiz — Muhammad Yusuf.

## ONA TILIM

Garchi zug‘um qilganlarni yoqtirmadim,  
She’r yozdim-u, bo‘lak ishni qotirmadim.  
Tilim turib o‘z tilimda gapirmadim,  
Bir eslasam eziladi bag‘ri-dilim,  
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Onam “erkam” deb quchganda tunlar yarim,  
Erkim yo‘q deb zirqirardi bir joylarim,  
Parovozni hansiratgan bug‘doylarim,  
Oltinlarim, ma’danlarim, ipaklarim,  
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Kimlar uchun biz edik bir badaviylar,  
O‘zbekni qon qaqqhatganni o‘zbek siylar,  
Holimizni qon kuzatdi Yassaviylar,  
Topganimiz handalakdek tilim-tilim,  
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Kimdir mayda millat bo‘ldi, kimdir katta,  
Katta millat — Afandisi yo‘qdir hatto,  
Biz piyoda, biz boqqanlar yurdi otda,  
Zulm o‘tsa faqat sendan o‘tdi zulm,  
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Sen bo‘lmasang nima bizga silliq she’rlar,  
Bu dunyoda tili yo‘qda dil yo‘q derlar,  
Bahoing-ku berib ketgan Alisherlar,  
Yuragimning to‘ridagi so‘lmas gulim,  
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Bir qarasam har shevangda ming jilolar  
Har novdangda, har mevangda ming jilolar.  
Qodiriylar, Cho‘lponlar-u Abdullolar,  
Sening qaytgan kuning men tug‘ilgan yilim,  
Ona tilim, ey muqaddas ona tilim.

## ENAXON SIDDIQOVA

(1954)

*Enaxon Siddiqova 1954-yil 28-avgustda Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanida tug'ilgan. O'zbekiston xalq shoiri (2015). "Qorako'z turnalar" (1993), "Sumanbar nasim" (1997), "Ko'nglim ufqlari" (2007), "Ishq ifori" (2009), "So'z ustidagi dunyo" saylanmasi (2014), "Sizni dedim" (2022) kabi she'riy kitoblari, "Sirli tun faryodi" (2004), "Sehrli tush" ertaklar (2012), "O'zbek ishi" (2016), "Ona haqida qo'shiq" (2019) dostonlari, "Barxanlarda ungan gul" (2019) liro-epik qissasi, "Qizoyimlarga kelinlik saboqlari" (2007), "Tibbiyot fidoyilar" (2007), "E'zozli ayollar" (2009), "Farg'ona ayollar" (2011) badiiy-publitsistik asarlari chop etilgan.*

*"Do'stlik" (2003) hamda "El-yurt hurmati" (2009) ordenlari bilan mukofotlangan.*

## SHOIRLIK

Shoirlik —  
So'z ekib, umid o'stirmoq,  
Ozodlik tilida dars bermoq.

Jonin yoqib o'tgan  
qora o'choqqa  
Onamdek hayotni o'chirmay o'tmoq!

She'rlarim  
Epkindan o'chsa sham... kabi,  
Haqir ovozim o'chgani yaxshiroq!

Elim, deb ko'p yozdim.  
Aritmadim-ku!  
Qaysi dardin oldim yelkamga biroq?!

Onamning shodligin ko‘klatsa edi,  
Otamga choy tutsa  
mehriday qaynoq!

Bug‘doy noning yedim,  
Voya, qarzim ko‘p!  
Bug‘doy so‘z aytishga no‘noqman,  
No‘noq!

O go‘zal satrlar,  
Uydirma she’rlar —  
O‘zimdek orsiz-u, o‘zimdek qashshoq!

Juda uyotliman xalqim oldida —  
So‘zlarning  
ko‘ziga qarayman qandoq?!

Qiyomat kunida ne deb ochgum lab,  
Noshud shoirlarga  
Tortilsa sirtmoq!

Kechirmang to‘mtoq, g‘o‘r satrlarimni,  
Axir ko‘p g‘udrandim,  
Yashadim uzoq.

Shoirmi?!

Javobni eshitgim kelmas!  
Mening shoirligim achchiq bir so‘roq!

Bir satrim qolarmi  
xalqim yodida —  
Yuragi suvko‘rak, qalbi uchchanoq!

Bu so‘zni aytishga haqqim bormi, yo‘q,  
Shoirlik  
Zulmga qarshi yashamoq!

Buyuk yo‘lga chiqding!  
Olis bir yo‘lga  
Bo‘lsaydi she’rlarim oddiy yo‘lchiroq!

## BOLALIK. ADABIYOT DARSI

Kech qish. Maktab...  
To‘lgan ketgan jom.  
Eski tomdan o‘tadi chakka.  
Butun sinf mixlangan go‘yo,  
Qo‘llarini qo‘ygan iyakka.

O‘, bolalar yuragi ortiq  
Ko‘tararmi zulm, munglarni?  
Kipriklarda qayg‘ular qalqib,  
Tinglashadi “O‘tkan kunlar”ni.

Eshitilmas chak-chaki g‘amning,  
O, yuraklar to‘xtagan taqqa.  
Adabiyot muallimining  
Tovushidan o‘zga quloqqa.

O‘rtada sham va qonlig‘ yurak,  
Ishq eriydi.  
— Unutmaysizmi?  
Otga qamchi bosar Otabek,  
Jonga qamchi uradi zulm.

Kumush o‘ldi!!!  
Qon quimdi, ohkim!  
So‘zlarinrar...bo‘zlar chirqirab.  
Kim o‘krar,  
                  kim yig‘laydi yum-yum,  
Va partalar yuborar ho‘ngrab.

Pechka o'chgan.  
Lovullar sinf.  
Dildiratar sovuqni bu xol.  
Shiqirlaydi buzilgan qulf,  
Tashqarida izillar shamol.

Tiriladi qalbda shu nafas,  
Tomirda dard, ishqni uyg'otib.  
Va bolalik tugar, beuvvos  
O'z-o'zini yurakka otib.

Xo'rsinadi bolalar beun.  
Dars tugagan.  
Qo'zg'olmas hech kim...  
Yuraklardan sirg'alanicha  
Sassiz chiqib ketgan muallim!

### BIR KUN...

Boshoqday egilsam, titrab to'kilsam,  
Dardga to'lmasaydi egam hovuchi.  
Qaniydi bilolsam, bila olsaydim  
Kaftingda sovrilgan sarakmi, puchmi?!

Kulbalarda suzgan oftob singari  
Kira olsam edi qalbga ichkari.  
Balki yetar edim qoshingga rabbim,  
O'zingni topardim o'zdan ilgari.

Safarim qaridi, qancha adashdim,  
Shamollarga berma ruhimni tangrim.  
O'zi qancha to'zdim, talandim, ozdim,  
G'amdan ko'tarilgan balki tanglayim.

Boshoqday egilsam, titrab to'kilsam,  
Butun chiqarmanmi tegirmoningdan.

Ne tong karaming-la qayta tug‘ilsam,  
Turnaga aylansam osmonlaringda.

Boshoqday egilsam, titrab to‘kilsam,  
Ilkingda yanchilsam, toza yanchilsam,  
Gulbarglar ohidan nur kabi sizsam,  
Shabnamday titrasam ko‘zlarim ochsam.

Boshoqday egilsam, titrab to‘kilsam,  
Sog‘inchda unsaydim tuproqni yorib.  
Balki oyday oydin buloqlaringda  
Ko‘kdan tushgan oyday turarman balqib.

Boshoqday egilsam, titrab to‘kilsam...

## MIRZO KENJABEK

(1956)

*Mirzo Kenjabek 1956-yil 20-fevralda Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanida tavallud topgan. "Quyoshga qaragan uy", "Munojot", "Sharq tili", "Bahorim yellari", "Muhabbatning yo'li xatarli", "Hasrat kitobi", "Xushxabar", "Hayot saodati" kabi she'riy va publitsistik majmualari chop etilgan. A.S.Pushkinning "Yevgeniy Onegin" she'riy romani, F.Attorning "Tazkirat ul-avliyo" kitobi va boshqa bir qator islomiy asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilgan.*

## O'ZBEKISTON

Oppoq qayinlarga bo'ldim oshino,  
Sayr etdim men bahri jahannamlarni.  
Mening she'rlarimda tovlandi hatto  
Beqaror Afrika savannalari.  
Sahroyi Kabirda yozsam ko'nglimni,  
Ruhimda chinorday turding ko'karib.  
G'afur G'ulom bo'lib nechun men seni  
Bir umr boshimda yurdim ko'tarib?  
Zardushtiy edim men — qutlug' o't o'zing,  
Butparast bo'ldim men, sanam-but — o'zing.  
Sensan e'tiqodim, o'zingsan tangrim,  
Mangu sig'inmoqqa loyiq yurt — o'zing.  
Yerning har burchida odamlar goho  
Menga o'z tilimda so'ylar, gumon yo'q:  
O'zbek ko'p butun yer yuzida, ammo  
Olamda boshqa hech O'zbekiston yo'q!

\* \* \*

“Sevasizmi?” — degil,  
Savollar yog‘dir,  
Bor gapni sug‘urib olgin ko‘nglimdan.  
Jim qovushtirilgan qo‘llarim oxir,  
Ohista sirg‘alib tushar qo‘ynimdan.  
“Sevasizmi?” — degil,  
Savol ber, qiyna,  
Nursiz kunlarimning bitsin hisobi.  
Tug‘yonli onlarga chorlasin yana  
Sovuq bo‘salarning qaynoq azobi.  
“Sevasizmi?” — degil,  
So‘rayver, so‘ra,  
Nigohim titrasin oppoq ko‘ksingda.  
Parishon aksimni bir nafas ko‘ray,  
Parishon o‘tinib turgan ko‘zingda!..  
Yolg‘iz sening sevging yetmaydi, netay,  
Umriz bog‘lari qoladi g‘arib.  
Sen sevgi so‘rayver,  
Men chiqib ketay,  
Muhabbat axtarib, mehr axtarib.

JAZO

Sening yashnab turgan ko‘ylaklarining bor,  
Yodimga soladi xushbo‘y kezlarni.  
Hayotning torgina yo‘laklari bor,  
To‘qnash keltiradi goho bizlarni.

Tunlar jim kezaman tinch daraxtzorni,  
Bir qasos sezaman tinch shamollarda.  
Uzun sochlaringning hasrati bordir  
Jimjit yig'layotgan majnuntollarda.

Axir yonayotgan yuraklaringni  
Qismatim yuziga qarab otsang-chi!  
Boshingni xam qilgan gunohlarimni  
O'zimning bo'ynimga ossang-chi!

Nega jim yashaysan, sokin yashaysan?!

Sezmaysan, qo'lllarim ketsa ham tegib.  
Olamda men yo'qdek hech payqamaysan,  
Yashaysan jimgina boshingni egib.

Men esa tirikman hayot bag'rida,  
Tirik o'kinchlardan yongan qalbim bor.  
Lekin men bilaman, sening qalbingda,  
O'zimning...  
qarovsiz qolgan...  
qabrim bor!

## IBODAT

Ibodat ne? Yaratganga itoat ham ibodatdir,  
Haqiqiy bandalik birlan saodat ham ibodatdir.

Ibodatdir, tiriklikni etolsang ma'rifat bog'i,  
Mashaqqatlik ilm, san'at, qiroat ham ibodatdir.

Onang birla otang qalbi o'tar Ka'ba tavofidan,  
Alar ko'nglini shod etsang, shu xizmat ham ibodatdir.

Xabar oldingmi bemordan, qarindosh, do'st, musofirdan?  
Birovni yo'qlasang dildan, ziyorat ham ibodatdir.

Umrni etmayin isrof, o'zing ro'za, vujuding sof,  
Agar pok holda uxlarsen, shu rohat ham ibodatdir.

Mudom Allohni zikr etsang, halol boriga shukur etsang,  
Qiyomat kunni fikr etsang, tijorat ham ibodatdir.

Butun borliq, nabolat ham Yaratganga etar tasbih,  
Bobodehqon ekib yursa ziroat ham ibodatdir.

Ibodatdir, biror zolim, jafokorga desang haq so'z,  
Va nodonga sukut qilsang, sukunat ham ibodatdir.

Agar jufti halol birla ko'ngilxushlik etar bo'lsang,  
Falak shohid, malak hozir, bu suhbat ham ibodatdir.

Bu Islomdir, butun umring ibodat holiga kelgay,  
Va ogohlik bilan o'tgan shu fursat ham ibodatdir.

Tamal — iymon-u ixlosdir, bu qullik bandaga xosdir,  
Xudo deb qilganing har ish va niyat ham ibodatdir.

Sevib, Mirzo, faqat do'stlik bilan dillarni obod et,  
Agar Alloh uchun sevsang, muhabbat ham ibodatdir!..

## FARIDA AFRO‘Z

(1956)

*Farida Afro‘z (Farida Bo‘tayeva) 1956-yil 5-martda Qo‘qon shahrida tug‘ilgan. “Qirqkokilligim” (1986), “Iztirob ko‘ylagi” (1992), “Tunlar isyoni” (1994), “Ko‘zim manim...” (1999), “O‘zimdan o‘zimgacha” (2001), “Ushshoq” (2004), “Tasbeh” (2006) kabi she’riy to‘plamlari nashr etilgan. “Qurbanjon dodxoh” (2000) tarixiy drama muallifi. “Shuhrat” medali (1999), “Do‘stlik” ordeni (2017) bilan taqdirlangan.*

\* \* \*

Sendan  
shafqat  
kutgandan ko‘ra,  
Qurigan daraxtga yig‘layman,  
Etagim olmaga to‘ldirar.

Sendan  
mehr  
kutgandan ko‘ra,  
Ajdahoga borib bo‘zlayman,  
Bag‘rimda bolamday u xlabeldi.

Sendan  
v a f o  
kutgandan ko‘ra,  
Ko‘ksimga xanjarlar ekaman,  
Bexato ko‘karar, gullaydi!

\* \* \*

Men o‘zi kimman  
tashlandiq quduq,  
yomg‘irlarning esidan chiqqan,

baliqlari tashna, jon bergan,  
qamishlari o'yib naylangan  
tashlandiq quduq.

Sen o'zi kimsan,  
suvga cho'kkан tosh,  
qoyalarning yodi o'chirgan,  
zilzilada to'kilgan duv-duv,  
cho'qqilardan mangu haydalgan  
suvga cho'kkан tosh.

Ishq o'zi nima,  
eski tegirmon,  
dunyolarning xotirida yo'q,  
boyo'g'lilar in qurban unda,  
shapalaklar yayragan makon,  
ikkimizni donday yanchigan  
eski tegirmon.

\* \* \*

Ruh shamoli tanni qaqshatdi,  
Chaqmoq vujud olov sachratdi,  
Kecha yoqqan yomg'ir charchatdi,  
Kel, bugunni bayram qilaylik.  
O'tgan kunim nadomat, armon,  
Orom bilmas sargardon bu jon,  
Esiz, umr o'rtada sarson,  
Kel, bugunni bayram qilaylik.  
Azal jonga zavol andisha,  
Bu dunyoda yolg'iz ishq pesha.  
Ayrilmoqqa o'chmiz hamisha,  
Kel, bugunni bayram qilaylik.  
O'pib tursa sochlaringni nur,  
Baxt neligin kapalakdan so'r,  
Ne bo'lsa ham tur, o'rningdan tur,

Kel, bugunni bayram qilaylik.  
Axir seni ko'rganim tushmas,  
Xayolingsiz hushlarim qushmas,  
Osmon sinib, zaminga tushmas,  
Kel, bugunni bayram qilaylik.  
Bir xo'rsinsam, qaytib kelar soy,  
Ayt, tilashng ayt, deb kelar soy,  
Qaytib jonni qay yerdan olay,  
Kel, bugunni bayram qilaylik.  
Tongim balki armonlarga soz,  
Ishq qismati ikkimizga rost,  
Men entikib chorladim, xolos,  
Kel, bugunni bayram qilaylik.

\* \* \*

Ayolni sev,  
ayolga yolbor,  
Ming bir kecha ertaklarling ayt,  
Alpomishlar tug'ib beradi.  
Ayolni sev,  
ostonasin o'p,  
Qasr qurma, ko'nglini so'ra.  
Balo kelsa, turib beradi.  
Ayolni sev,  
o'laman degil,  
Ishq yaratgan parvardigordan,  
Senga umr so'rab beradi.

\* \* \*

Yuragimning qayeridir kuyadi,  
Simillaydi,  
charsillar,  
sanchar,

Go‘yo ming yil yuraksiz yashab.  
Bir qadoq og‘riqqa kunim qolganday...

Seni sog‘inganman...

Ko‘zimda daryolar jimirlar asta,  
Ufuradi,  
bug‘lanar, toshar,  
Go‘yo ming yil toshqinsiz yashab,  
Bir tomchi iqrorga kunim qolganday...

Seni sog‘inganman...

Hushyor tortar ruhim — imtihon berar,  
Qaltiraydi,  
dildirar, titrar,  
Go‘yo ming yil ko‘ngilsiz yashab,  
Bir ahmoq aqlga kunim qolganday...

Seni sog‘inganman...

Derazamni yopaman, etim uchadi,  
Jondan o‘tar izg‘irin, shamol.  
Go‘yo ming yil quyoshsiz yashab  
Bir nuqra cho‘g‘ingga kunim qolganday...

Seni sog‘inganman...

Seni sog‘inganman, oh, nima qilay,  
Nima qilay, axir, ayt, nima?!  
Go‘yo ming yil seningsiz yashab,  
Bir yutim ajalga kunim qolganday...

Seni sog‘inganman...!

## **BAHODIR ISO**

**(1956)**

1956-yilda Rishton tumanidagi Do ‘tir qishlog‘ida tavallud top-gan. “Xayrli tun”, “Odamlar ichidan odam izladim”, “Yaxshilar bor yaxshiyam”, “Qishloqdagil shoir” nomli she’riy to‘plamlari, Muhammad Yusuf xotirasiga bag‘ishlangan “Bulbul dili bor edi” nomli qissasi chop etilgan. 2022-yilda “O‘zbekiston Respublikasi-da xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” faxriy unvoni bilan taqdirlangan.

## **UCHRASHUV**

Oydin kecha. Bog‘ tomon  
lang ochilgan deraza.  
Bog‘ga boqib bir jonon  
musht o‘qtalar:  
“— Ko‘rasan!”  
Musht o‘qtalar erkalab,  
mushti mushtmas, olmadir.  
...O‘zi bilmay, bog‘ taraf  
egiladi qomati...  
Shunda nogoh “cho‘lp” etar...  
Shitirlaydi bog‘ ichi...  
Sharpani quvib ketar  
g‘aflatda qolgan kuchuk...

## **ESHAKNI ESLASH HAQIDA**

Men  
qachon  
nodonni  
so‘kmoqchi

bo‘lsam,  
sen  
shunda  
esimga  
tushasan,  
eshak...

## HALI O‘LMAGAN ODAM

“Boshiga tosh bilan bir ursam...”,  
deb o‘ylaydi kimdir men haqimda.  
“Boshini bag‘rimga bossam...”,  
deb o‘ylaydi kimdir men haqimda.  
Men esa  
ko‘tarib yuraman  
o‘sha —  
ming marta tosh tegib yorilgan,  
issiq bag‘irlarda dimiqqan,  
hamma uchun qiziq  
boshimni...

## SIYOSAT HAQIDA

(Hazil)

Siyosat bu — ko‘p nozik narsa,  
U bilan o‘ynashib, qiynalma,  
Siyosatga tegma, qiz bola bo‘lsang,  
o‘g‘il bola bo‘lsang, uylanma.

## ALAHLAYOTGAN MUTAFAKKIR

Kapalak tishlaydi odamni yomon,  
Boshliq baqiradi quloqni yorib,  
To‘qchilik keltirar qurigan ummon,  
Paxtani yeb bo‘lar och qolsa qorin.

## IBODAT RAJABOVA

(1956)

*1956-yilda tug'ilgan. "Osmondag'i farishta", "Buxoroda gujumlar gulladi", "Qush kiprigi" singari she'riy hamda bir qator nasriy-tarixiy asarlari chop etilgan.*

### BOBOM SHAHAR KETDI

Nimdosh xurjun obdan yuvildi,  
Ko'ylak-chalvor tikildi yangi.  
Kavush, mahsi moylangach, sekin  
Hassaning ham o'zgardi rangi.

Ot yoliga taroq berdi zeb.  
Qo'lro'molga sepildi gulob.  
Puflab-puflab uzum uzildi,  
Tom boshiga kelganda mahtob.

Yog'li kulcha hidi anqidi,  
Soz idishga sig'di sariq yog'.  
Masjid ustun hansirab chopdi,  
U ulovga minib ketar chog'.

Itimizning fe'li buzildi.  
Sal-pal hordiq chiqardi ketmon.  
Qamishqalam siyohdon minib,  
O'tib ketdi qo'shni uy tomon.

"Men ham..." dedi sarhovuz toli.  
Sal ranjigan bo'ldi uygujum.  
Qo'riqchining ketganin ko'rib,  
Qushlar bog'ga yoprildi shu zum.

\* \* \*

Bu dunyoning zorlari,  
Yuragimdan tashqari,  
Yashil ko'nglim ichida,  
Gulchanglarning safari.

Moy qog'ozdan moy ichdi,  
Belbog'ingiz gullari.  
Zarafshonning zaridan  
Go'shangta tikdi pari.

Chorbog'i shom qizardi,  
Devorlari nilufar.  
Yalpiz tuggan urug'lar,  
Falakdan oldi xabar.

Qarsak chaldim Jamshidning,  
Jomlari sharbatil dil,  
Tug' poyida bosh urdim  
"Mashrab turgil, tur, tiril!"

Qalamimning kavushi,  
Poygakni qilsa mehrob,  
Buxoroning bazmlari  
Gulxona bo'ldi, oftob!

## KO'NGLIMGA KIRGANING MUBORAK

Ko'zguning ortidan yugurdim,  
Kiprigim mulkiga sig'di shom.  
Bo'ynimga marjonday osildi,  
Xayyomni qo'msagan eski jom.

Boshimni osmoncha ko‘tardim,  
Yelkamda qush yozdi joynamoz.  
Tohirlar sandig‘in ichidan  
Qulf buzib topganim ko‘k parvoz.

Kulgungni to‘tiyo shimdi-yu  
Duolar bo‘lganda dilqalqon.  
Yonimda turganing nuridan,  
Belimni bog‘ladi Zarafshon,  
Ko‘nglimga kirganing muborak...

### YOZ RANGI

Ninachi qiz turmushga chiqdi,  
Kuyov qildi bir davra ari.  
Teraklarni titroqqa qordi,  
Qovunlarning pishgan xabari.

So‘qmoqqamish qayrilib o‘ynar,  
Boshlarida shamol yelpig‘ich.  
Shomdan o‘zin maqtashga tushar,  
Chigirtkalar tili bir qarich.

Kunda yuzin ming bor yuvadi,  
Chig‘irlarga yopishgan ko‘za.  
Tutuntandir hididan sarmast,  
Dasturxonlar tortar homuza.

Aravalar qishloq qayig‘i,  
Chumoliday uyg‘onar sahar.  
Qish kosasi oqarmas edi,  
Shu xo‘roزلار bo‘lmasa agar.

Bir-birini qitiqlab kular,  
Suvto‘lqinning erka qizlari.  
Tokzor tomon chopib boradi,  
Kirpilarning tungi izlari.

## KATTA HOVLI

Onam — olma daraxti,  
Otam — qishloqiy terak.  
Bobom der: “Uylan bolam,  
Uyimga mehmon kerak!”

Onam xutba tingladi,  
Otam gullahsga intiq.  
Bobomning cho‘ntagidan  
Chopib chiqdi chimildiq.

Onam kunga suyandi,  
Otam sanab yurdi oy.  
Bobomning keng hovlisi,  
Qushchalardan bo‘ldi boy.

Onam — ona qaldirg‘och,  
Otam endi qaynarqum.  
Bobomning tizzasida,  
Ulg‘ayyapti o‘n gujum.

## XAZONREZ

Yomg‘ir yana donolik qildi,  
Yaproqlarni yuvib qo‘ydi shom.  
Loyshuvoqqa botmas tomchini,  
Tarnov tomon yo‘llab qo‘ydi tom.

Xurmozorlar kamzuli shohiy,  
Yarqiraydi chiqqanda oftob,  
Nastarinlar to‘pdan bo‘y cho‘zar,  
Erta-indin bo‘lay deb gulob.

Bog‘ darchalar xuddi Iskandar...  
Daraxt yukin o‘lchar o‘lchagich,  
Tarozilar falakka qaytgach,  
Qatortollar chaynaydi saqich...

## ABDUMAJID AZIM

(1957)

1957-yilda tug‘ilgan. “Qalbimning Vatani”, “Quyosh bolasi”, “Yorug‘lik olami”, “Ruhi ravanom”, “Oshiq dilim”, “Umid belanchagi”, “Oshiq dilim” singari she’riy to ‘plamlari chop etilgan.

\* \* \*

Ko‘ngil, sen o‘zingni ovutib yasha,  
Taqdiri azalning ishiga ko‘ngil.  
Umrning past-baland yo‘llari osha,  
Sendayin qadrdon topmadim, ko‘ngil.

\* \* \*

...ga

Yigirma yil — qisqami, uzoq,  
Biz sog‘indik bir-birimizni.  
Ko‘p yosh edik va o‘yinqaroq,  
O‘ylamabmiz taqdirimizni.

Sen sarvqad, sochlari anbar,  
Parilarga nasabing tutash.  
Men alplarga go‘yoki navkar,  
Chaqnar edi ko‘zimda otash.

Behishtlarda yashardik go‘yo,  
Jannatlardan terardik gullar.  
Baxtga to‘liq edi bu dunyo,  
Baxtli edi biz yurgan yo‘llar.

Tilsim aytgan kokillaringni,  
Tortqladi beadab shamol.  
Baxtli qildim men yillaringni,  
Sen dunyoda eng baxtli ayol.

Yigirma yil — qisqami, uzoq,  
Sog‘inchlarni aylading tavof.  
Har nigohing ming bitta so‘roq,  
Menda qani bo‘lsaydi javob.

Yigirma yil, bu mening sirim,  
O‘zimdan ham saqlayman nihon.  
Ko‘zlarining der: “Garchi siz erim,  
Ammo sevmaganman hech qachon”.

## YANA BAHOR

Yana bahor, olam uyg‘ondi,  
Maysalar ham oftobga qondi,  
Qirlar uzra qizg‘aldoq yondi,  
Yana bahor, olam uyg‘ondi.

Yana baxtga chorladi yo‘llar,  
Iforini taratdi gullar,  
Yashnab ketdi sahro-yu cho‘llar,  
Yana baxtga chorladi yo‘llar.

Mening baxt-u bahorim kelmish,  
Ol yanoqli nigorim kelmish,  
G‘unchalarda diyormi kulmish,  
Mening baxt-u bahorim kelmish.

Yana qaytib bola bo‘lsaydim,  
Boychechakni suyib o‘psaydim.  
Yomg‘irlarda yalang chopsaydim,  
Bolaligim qaytib topsaydim.

Ey, yoshligim, pokiza tuyg‘u,  
Uzoqlarda qolib ketmish u,  
Muhabbat ham qo‘l yetmas orzu,  
Yuragimni olib ketmish u.

Yana bahor, uyg'ondi borliq,  
Ko'klam tutar qo'limga boda.  
Do'stlar, sizga tilayman sog'lik,  
G'am ko'rmangiz asti dunyoda.

## BU QIZ

Ko'zi chiroylidir, ko'zi bu qizning,  
Buxor ohusidek hurkak, yovvoyi.  
Besh asr lol etib turkiy ulusni,  
"Qaro ko'zum", deya yig'lar Navoiy.

So'zi chiroylidir, so'zi bu qizning,  
Har gal tinglaganda, qilaman huzur.  
Go'yo to'kiladi har kalomida  
Ul sanam og'zidan novvot ila dur.

O'zi chiroylidir, o'zi bu qizning,  
Bir umr termilsam nigohim uzmay.  
Bu xilqat misoli tuzoqning o'zi,  
Domiga tushganim qolibman sezmay.

\* \* \*

Qay, bodomqabog'im, yupqa tomog'im,  
Yozning o'rtasida gullagan bog'im,  
Mangu osmonimni tark etgan mohim,  
Oh ursam, O'ziga yetmasmi ohim?!

Aqiq lablaringga lablarim qo'yib,  
Seni bir quchoqlab o'pgim keladi.  
Sen esa o'tasan qabog'ing uyib,  
Ko'zing ummoniga cho'kkim keladi.

Sen nochor holimga kulib ming bora,  
Yillarkim, yonimdan o'tding beparvo.  
Yillarkim, dardimga topolmay chora,  
Sening yoding bilan yashayman tanho.

## **CHORI AVAZ**

**(1957–1992)**

*Chori Avaz 1957-yil 11-dekabrda Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumanida tug'ilgan. "Hayotiylik chog'ida", "Tortilgan kamon", "Uyg'onishdan o'zga tole izlama", "Kuz ertasi" (1992), "Saylanma" (2003) kabi asarlari nashr etilgan. Fin eposi "Kalevala"ni hamda I. Takuboku, R.Akutagava va boshqa shoirlarning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. 1992-yil 29 noyabrda Toshkent shahrida vafot etgan.*

### **KUZ ERTASI**

Tong yeli badanga o'rmalar,  
Vujudim bir shirin junjikar.  
Men kutib turibman quyoshni,  
Qizarib bormoqda kunchiqar.

Kun nafis va iliq kafti-la  
Sap-sariq barglarni silaydi.  
Yel ko'zim o'ngida o'zini  
Oftobning rangiga belaydi.

Tabiat qaytadan jonlanar,  
Lahzalar ardoqli kechadi.  
Ufqqa termilgan tiriklik  
Quyoshni — olovni ichadi.

Ko'ksimda umidlar yonmoqda,  
Ketayapti yuragim gupirib.  
Nigohim bilanmi quyoshni  
Olganday ufqdan sug'urib.

## ERTA

Meni qushlar uyg‘otar erta,  
Erta kutib olaman tongni.  
Bahor erta aytadi ertak,  
Men tinglayman hovuchlab jonni.  
O‘n oltiga to‘lgan boladay  
Unutaman erta o‘tmishni.  
Erta meni kuylay boshlar nay,  
Kuzataman ertaga qishni.  
Qushlar erta yelkamga qo‘nar,  
Chah-chahlashar yoqimli, mayin.  
Kadarlarning qaddin yo qilib,  
Tong ertaga boshqacha otar.  
Men yonurman tongning muzdayin  
Havosidan bot-bot yoqilib.

## “YORILTOSH” ERTAGINI O‘QIB

Nozik vujudingni titroq silkitar,  
Ona yer shoshirar — tuproq silkitar,  
Faqat bir yo‘l menda — ko‘nglim zil ketar,  
Elan, tosh yorilgay: “Yoriltosh, yorim!”

Lahza-lahza ot dupuri yovuqdir,  
Jisming muzlab borar — olam sovuqdir,  
Singilginam, toshga dardingni uqtir,  
Yorilgay tosh, yorilgay tosh, yoriltosh.

Otlarning shiddati balanddir, barqdir,  
Seni unga duchor etarkan taqdir,  
Toshlarni uyg‘otgil, degil: “Men — faqir!”  
Yorilgay tosh, yorilgay tosh, yoriltosh.

Ipakdek ovozing toshni kesdimi?  
Ola-tasirlardan tosh ham bezdimi?

Toshdanmikin erk epkini esdimi?  
Yorildi tosh, yorildi tosh, yoriltosh.

Bu sirli qudratga bo'ldim guvoh men,  
Tiriklik darsidan bo'ldim ogoh men,  
Angladim kimda haq, kimda gunoh men,  
Haq qal'asi, xalq qal'asi yoriltosh.

## SO'Z

Yuraklardan kelar hamisha,  
Vohalarni, qirlarni qo'msab.  
Ammo yurak sog'inchlariga  
Doimo ham qo'ya olmas lab.

Sho'rlik, goho sayyoddan cho'chib  
Suvsab yurgan ohular misol.  
Tilning o'tmas qirralarida  
Kun kechirar jim, aftodahol.

Mijg'ilasa shubha va gumon,  
Yuksaklikni qo'msab qolar u.  
Goh yurakda qo'zg'ar g'alayon,  
Goho esa soladi g'ulu.

Lekin ortga qaytganmi sira,  
Bo'lsa shunday aziz makoni.  
So'z — muzaffar insoniyatning  
Quyosh yanglig' sodiq imkoni.

\* \* \*

Qadamda duch kelaverasan  
Bir nokasga yoki yomonga,  
Toshmi, kesak otaverishar  
Pinhon, oshkor pok bir odamga.

Ayb taqashar begunohlarga,  
Aldashadi, tuhmat to‘qishar.  
Agar shular bo‘l magandaydi,  
Qanday ozod yashardi bashar.  
Nogah tanda qon to‘lqinlanar —  
Uyg‘oqmisan, bormisan, isyon!  
Qani, sen ham turgin, ey dunyo!  
Qani, sen ham, ey dunyo, uyg‘on!  
Biroq dunyo sokin, Shunchalar sokinki,  
Yoqasidan tutib dunyoning —  
Silkitging kelar...  
Toki Yomonlari to‘kilgunicha.

\* \* \*

Tun kechadi.  
Ufq ortidan  
Yoyiladi borliqqa sahar.  
Qo‘ng‘irog‘in yangratib qayta,  
Yana yo‘lga tushadi shahar.

Tun kechadi.  
Ufq ortidan  
Bir parivash tong otar oppoq.  
Podalarin qirga haydaydi,  
Ko‘zlarini uqalab qishloq.

\* \* \*

Tark et, orom, avrama.  
Avrama, ey yorug‘ dard.  
Sen ko‘z nurim, yolg‘izim.  
Ammo tark etgil faqat.

Ko‘ngil sog‘inchli, axir,  
Axir, sog‘inch ham ozor.  
Ket, ko‘ngilda yoshini  
Yashab bo‘lgan sabr bor.

## YAHYO TOG‘A

(1957)

*Yahyo Tog‘a 1957-yil 20-yanvarda Toshkent viloyatining Qo‘rg‘oncha (“Yulduz”) qishlog‘ida tug‘ilgan. “Ko‘klam qaldirg‘ochlari” (1988), “Qafasdagи burgut” (1989), “Tasalli” (1994), “Kuyla, hofiz” (2004) kabi she’riy kitoblari chop etilgan.*

### SOG‘INCH

G‘unchagam-u gulga parvona  
Qush tilida xonishlar etdim.  
Garchi, bu gap sal shoirona,  
Lekin seni sog‘inib ketdim.

Tovuslar suv quydi qo‘limga,  
Qaytgim keldi Oydinko‘limga.  
Bir gul yig‘lab chiqdi yo‘limga,  
Lekin seni sog‘inib ketdim.

Sayrayverdi bulbul men uchun,  
Yig‘layverdi ul gul men uchun.  
Balki, bari bir pul men uchun,  
Lekin seni sog‘inib ketdim.

Yulduz sanab bu kecha dilgir,  
Eslab qo‘yar meni ham kimdir?!  
Do‘stilarimni unutdim bir-bir,  
Lekin seni sog‘inib ketdim.

Qanot istab kuydim, bo‘zladim,  
Qarchig‘ayday ko‘kni ko‘zladim.  
Rost so‘zladim, yolg‘on so‘zladim,  
Lekin seni sog‘inib ketdim.

Jumla bitdim dalli, devona,  
She'r, deb tutdim jumla jahona.  
Men bir bedard bolangman, ona,  
Lekin seni sog'inib ketdim.

### SUVCHI

Unga rahmat aytib o'tirma,  
Behuda bir she'r bilan maqtab...  
Bir piyola choy bergen unga,  
Bir yostiqqa yetgulik paxta.

Qo'shiq qo'yib bergen, eshitsin —  
Komiljonning "Dugoh"larini.  
So'ng yoniga cho'kkin-da sekin,  
Uqalab qo'y oyoqlarini.

### BAXT QUSHI

Mana baxt qushi ham yelkaga qo'ndi.  
Bu yag'ir yelkaga qo'ndi-ku oxir,  
Og'ir baxt qushi.  
Etga botib ketdi tirnog'i.  
Bag'ir qon.  
Qanotlar qon.  
Labga silqqan qon ta'mi — taxir.  
Men bu qushdan faqat  
Baxt so'ragandim, axir.  
U esa...  
Meni qurbanlikka so'radi.

### TEGIRMON TOSHI

Dil ma'raka maydon, til beor jangchi,  
Doshingda aylanar tegirmon toshi.  
Qo'llaring o'qiga yetmaydi, garchi  
Qoshingda aylanar tegirmon toshi.

Har kimning tashvishi o‘zigadur esh,  
Oh, qachon to‘libdur ro‘zg‘or degan mesh?  
Xiva-yu Andijon, Samarqand-u Kesh,  
Shoshingda aylanar tegirmon toshi.

O‘zing jardasan-u ko‘zing quyoshda,  
Yosh joning qarg‘alar aro taloshda.  
Dunyo aks etarmish bir tomchi yoshda,  
Yoshingda aylanar tegirmon toshi.

Har gul o‘z hididan mastdur chamanda,  
Asrlar shamoli aplaydi xanda...  
To hayotsan, yasha, ey ojiz banda,  
Boshingda aylanar tegirmon toshi.

Kiprigi o‘qmonand, o‘smaband qoshi,  
Xazonga o‘t qo‘yar falak farroshi.  
Yahyo, yuragingda ming armon toshi,  
Toshingda aylanar tegirmon toshi.

### **YETIM QISSASI YOXUD BARDOSH DAN BINO BO‘LGAN BOLA**

Yamoq yengi qurimas yoshdan,  
Yoshin toshday yostiqlar ichgan.  
Taqdir boshin yaratgan toshdan,  
Ko‘ylagini qarg‘ishdan bichgan.

Tili achchiq, noni minnatda,  
Qahri qattiq o‘gay onaning.  
Qo‘li qotib ketar mehnatda,  
Suyagi qotmagan bolaning.

Goh beshigin quchoqlab yig‘lar,  
Taskin bo‘lar sutningmi hidi..

Bu bolaning onasi o‘lgan,  
O‘limgandir faqat umidi.

## SUTDAY TUNDA

Sutday tunda tutday to‘kilib,  
bahorgi bulutday to‘kilib,  
soyga termilgan ko‘yi,  
suv betida yoshday qalqib turgan  
oyga termilgan ko‘yi,  
nimalarni o‘ylading, do‘stim?

Nega kifting titrab chiqdi  
tun bo‘yi?

Kelding axir kimlardan to‘yib,  
kimlardan kuyib?

Qo‘sish aytmaganing rost, biroq,  
mening eshitganim ne nola, do‘stim?  
Sutday tunda ranging nega bo‘zday oq,  
tun bo‘yi bo‘zlagan bo‘z bola do‘stim?

## SABR TAGI...

Men sabr ayladim,  
Men juda boyman.  
Sabrning tagidan  
Tillo kovladim —  
Har biri oyday.  
Men sabr ayladim,  
Men juda boyman.  
Topgan tillolarim  
Olisda mendan  
o y d a y...

## SIROJIDDIN SAYYID

(1958)

*Sirojiddin Sayyid 1958-yil 30-oktabrda Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanidagi Kundajuvoz qishlog‘ida tug‘ilgan. O‘zbekiston xalq shoiri (2006). “Ruhim xaritasi”, “Salqin xarsanglar kaftida”, “Sevgi mamlakati”, “Asragil”, “Mehr qolur, muhabbat qolur”, “Kuydim”, “Uyingdagi beshiklar”, “Vatanni o‘rganish”, “Egasi bor yurt”, “Qaldirg‘ochlarga ber ayvonlaringni”, “Dil fasli”, “Yashasin yomg‘irlar” (badialar, suhbatlar, adabiy maqolalar), “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur” (doston), “Bug‘doybo‘y Vatan” (badialar, maqolalar), “Ochil, ey gul, ki bo‘ston vaqtি bo‘ldi”, “So‘z yo‘li” (ikki jildli saylanma), “Onamning kulchalari”, “Matonat manzumasi”, “Eldoshlarim, dildoshlarim” singari kitoblari nashr etilgan. “Do‘stlik” ordeni (1999), “Mehnat shuhrati” ordeni (2021) hamda O‘zbekiston Respublikasi davlat mukofoti bilan taqdirlangan (2017).*

\* \* \*

Yashinlar yoritgan, ey olis uyim!  
Shuncha yillar kuyib,  
Qancha qismat kechib,  
qancha o‘y-u firoq,  
Hikmat ko‘rmadim men sendan buyukroq!

\* \* \*

Sen ma‘sud dunyoning borini  
O‘ylading. Yashading. O‘tkarding.  
Berding qorachiqlar umrini,  
Tunlarni kiprikda ko‘tarding.

Farzandlar ketdilar har taraf,  
Sokin qoldi uying — anglading.  
Sog‘inding.  
Sog‘inch-la yo‘l qarab  
Bir vujud sog‘inchga aylanding.  
U kunlar yodi ham senga shon!  
Tunlar xotirasi boqiyidir.  
Salomlar abaddir, onajon,  
Vidolar foniyyidir!  
Foniyyidir!

## ILINJ

Yurtim, menga zar kerakmas zarlaringdan,  
Kipriklarim o‘psalar bas gardlaringdan.  
Men bir nasim bo‘lib keldim, men bir nasim,  
Aytib o‘tsam deyman ko‘hna dardlaringdan.

Almashdilar seni nom-u rutbalarga,  
Munglug‘ bo‘lib qolding botib shubhalarga.  
Hilollaring qaytar yana qubbalarga,  
Moziylarga so‘ylab-so‘ylab zorlaringdan.

Menga qadim minorlardan bir sas yetar,  
Shul sas mening ko‘nglim oxir serfayz etar.  
Menga dunyo kerak emas, bir xas yetar  
Yassaviylar yotgan aziz yerlaringdan.

Oqsaroyga qay kunki yuz burgandim men,  
So‘nmish shon-u shavkating deb kuygandim men.  
She‘r aytishni sal-palgina o‘rgandim men  
Chinorlarda yig‘lab yotgan barglaringdan.

Bu dunyoda ko‘ngillarga chirog‘ yoqsam,  
Mozorlaring sukutidan saboq olsam,

Tiniqqina buloq bo‘lib oqib qolsam  
Olloyorlar nazar qilgan jarlaringdan.

## ALAMLI DUNYODA

Qo‘llarim shoxlarday zor qolgan kunlar,  
Dil ketib va lekin or qolgan kunlar  
Sen ketding, muzladi o‘ng ila so‘lim,  
Alamli dunyoda alamli gulim.

Suvlarda sadosiz sindilar oylar,  
Afsunday jim, sokin oqdilar soylar.  
Tugunlarin ochib yillar va oylar  
O‘tdilar, sen hamon tili tugunim,  
Alamli dunyoda alamli gulim.

Sendan so‘ng ko‘nglimni beomon yanchib,  
Ne suluvsalar o‘tdi o‘zicha ranjib,  
Baland poshnalarin ko‘ksimga sanchib,  
Bevaqt so‘ldirdilar sehr-u jununim,  
Alamli dunyoda alamli gulim.

Mung‘ayib qoldilar umid bog‘lari,  
Mangu zirqiraydi bag‘ir dog‘lari,  
Bog‘larning dudlari hamda zog‘lari  
Mening fig‘onimdir ham mening kulim,  
Alamli dunyoda alamli gulim.

Bu holim ko‘rganlar taqdir, deydilar,  
Taqdir azal-azal haqdir, deydilar,  
Chin qalblar hamisha toqdir, deydilar,  
Qanday san’atdir bu, qandayin ilm?  
Alamli dunyoda alamli gulim.

Senga shamim shomlar munglar keltirib,  
Menga tiriklikdan aytib, bildirib,

Kuygan ko'klamlarning o'rmin to'ldirib,  
Ko'ksimda yashaydi eng go'zal o'lim,  
Alamli dunyoda alamli gulim.

\* \* \*

Teskariqa oqqan daryolar qaytdi,  
Tog'larda yo'qolgan sadolar qaytdi,  
Meni izlab ketgan nidolar qaytdi,  
Bolalik qaytmadi. Qaytmadi.

Somonlar yanchilmay qolgan kuz payti  
Adirlar za'faron alvido aytdi.  
Meni olib ketgan podalar qaytdi,  
Bolalik qaytmadi. Qaytmadi.

Bu ko'cha, bu hovli, bu uy, bu tandir  
Bir kun seskanadi, sassiz siqtaydir:  
O'n yil g'oyib bo'lgan olapar qaytdi!  
Bolalik qaytmadi. Qaytmadi.

Qoldirib ketdimmi uni dashtlarga?  
Yoki topshirdimmi shiddat, shashtlarga?  
Bo'zlab chorlasam-da, bitib xatlarga  
Bolalik qaytmadi. Qaytmadi.

Qaldirg'ochlar qaytdi. Toydar ot bo'ldi.  
Yurtning tog'-u toshi menga yot bo'ldi,  
"Uh" deganim mening xotirot bo'ldi,  
Bolalik qaytmadi. Qaytmadi...

\* \* \*

Birodar!

Qo‘lda jom, ko‘zda yosh nadir?  
Savdolar ichinda yolg‘iz bosh nadir?  
Nasihat nimadir?  
Babs-talosh nadir?  
Fano darvozasi abad yopilmaydi.  
Dunyo topiladi,  
Odam topilmaydi.

Birodar!

Oshiqlik bahordir — o‘tgay.  
Bu toshqin tuyg‘ular daryodir — o‘tgay,  
Goh ko‘ngil berganing xatodir — o‘tgay,  
Umid g‘unchalari doim ochilmaydi,  
Dunyo topiladi,  
Odam topilmaydi.  
Birodar!  
Umrni farzona etgil.  
Neki dardmandliqdir darmona etgil,  
Neki armonliqdir tarona etgil,  
Har dil ham she’r bo‘lib nur socholmaydi,  
Dunyo topiladi...  
Odam topilmaydi.

Birodar!

Dunyodan nechun shikoyat?  
Nechun bu tiganmas mahzun hikoyat?  
Tiriklikning o‘zi buyuk inoyat.  
Shudir o‘tganlarning eng komil bayti:  
Dunyo topiladi,  
Odam topilmaydi.

\* \* \*

Men ishq elining nola-yu afg'onida kuydim,  
Ko'ngil uyining otashi armonida kuydim.

Mehrin tilabon o'tsa agar oshiqi zorlar,  
Mehrimni berib men esa tovonida kuydim.

Mushkul edi yo'l, ranj ila izhoriga yetdim,  
Sizlar ko'yida, men esa domonida kuydim.

Do'st kim, raqib kim, haq birla hakim kim —  
Bilmay aslin lol ila hayronida kuydim.

Har yon sado berdi maning zori dilimga,  
Intildim-u, lekin dag'i har yonida kuydim.

Dunyoyi azalning g'azaliy matlayi buldur:  
Boshlab hama ishni ani poyonida kuydim.

Ham maqsad-u, ham matlab-u, ham dard-u va ham ishq,  
Ham ishq elining nola-yu afg'onida kuydim.

\* \* \*

E, Xudoyim, dushmanim mard bo'lsa bas,  
Ko'ksim ichra otashin dard bo'lsa bas.  
Kiprigimga Mavlaviydan bir g'ubor,  
Yassaviydan zarra bir gard bo'lsa bas.

\* \* \*

Umr desang, ob-u gil kuyar, ey do'st,  
Bir onda ne oy-u yil kuyar, ey do'st.  
Ko'kdan yulduz uchsa, yelkang kuygaydir,  
Yerga bag'ir bersang, dil kuyar, ey do'st.

## ASQAR MAHKAM

(1958–2007)

Asqar Mahkam 1958-yil 27-noyabrda Tojikistonning Kofarnihon tumanida tug'ilgan. Xo'jand Davlat pedagogika institutini tamomlagan (1981). "Navro'z" (1988), "Tazarru" (1982), "Tavajjuh", "Ishq" (1994), "Ibodat" (1993), "Haq" (1998), "Analxaq", "Tabriz daftari", "Oqkitob" (2003) kabi asarlari nashr etilgan. "Avesto", Xoja Abdulloh Ansoriyning "Kashf ul-asror" (Qur'oni Karimning adabiy-irfoniy tafsiri), J. Rumiyining "Ma'naviy masnaviy"si (1-daftari)ni, Shams Tabriziyning g'azallari hamda Eron shoirlari she'rlaridan namunalar tarjima qilgan ("Tuyg'ular yaprog'i", 2005).

2007-yil 6-martda Toshkent shahrida vafot etgan.

## NASIBA

Men bilaman, nimadir Vatan,  
Vatan!.. Mening tanam bag'rida  
yashayotir bir kampir — dardmand,  
bu dunyoning tirik dardiday.  
Darichada tutatqi — shamlar  
tuni bo'yi tutaqib kuyar,  
chetan orti, pichan g'aramlar  
halqa taqqan ho'kizga o'xshar.  
Oy ilinar terak uchiga,  
Suvga tushgan qiz kabi karaxt.  
Allaqanday horg'in yo'lchiga  
termiladi g'amangiz daraxt.  
Salom, omon keldingmi, Odam?  
Xayr, xush qol, xayr ey, xush qol!..  
Zamburug'ga aylangan oy ham

tunda ko'zi yorishgan ayol...  
Men bilaman, ko'plar suymaydi  
yalang'och gap — sening yoshlaring.  
Nechun, jonim, axir, kuymaydi,  
poxol tusin oldi sochlaring.  
Lek bilaman, nimadir Vatan  
va nimadir ko'ksi lattalar.  
Tog'orada chakillar ba'zan  
tomimizdan sizgan chakkalar.  
Buvi, gapir, ro'zg'ordan gapir,  
sakkiz so'mga oshdi moyanang...  
Teridagi yozuvlar kabi  
mening buyuk she'rim — peshonang!  
Bir bor yolg'on so'zlay umrimda,  
men yashadim sening qadringni.  
Kel, quritay oyning nurida  
mol bulg'agan ko'ylaklaringni.  
Men bilaman, nimadir Vatan,  
u o'xshaydi sening sochingga,  
bu bod chalgan oyog'im bilan  
yetarmanmi bir kun qoshingga?  
Ichdim do'stning og'ularini,  
Raqiblarim shoshmay tomizdi.  
Oyning marmar yog'dularini,  
yuzlaringga, buvi, kim chizdi?  
Nasib qilsa, qaytarman erta,  
bu so'nggisi bo'lar, hoynahoy.  
Yana seni eslatdi menga  
kuyib-kuyib ado bo'lgan oy...

\* \* \*

Dovdir shamol ohlar — sig'indi,  
Daryo o'krak tortib yig'laydi.  
Tomog'idan silqjan to'lqinni  
kuchangancha tuflab tashlaydi.

Yulduz esa yonar — yolg‘iz, jim,  
Huv darchadan titraydi chiroq.  
Zikr qilar — tun, tuproq, buvim,  
Men, daryo va shamoldan yiroq.

Umr esa uning sochiday,  
Sinib-sinib ado bo‘lmoqda.  
Yolg‘iz kulba, yolg‘iz sohilda,  
Mening ko‘nglim daryo bo‘lmoqda...

## BUVIM BILAN XAYRLASHUV

Xayr, buvi,  
Xayr endi, buvi.  
Men ketarman o‘sha yo‘llarga.  
Mana, bu kech oymomo to‘ldi,  
Panoh bo‘lgin o‘g‘illarimga.

Devorimiz ortida zimdan  
Tingladim men it ulishini.  
Shunda yoshlar oqdi ko‘zimdan —  
Itlar bilar o‘z o‘limini.

Kofarnihon — bizning daryomiz,  
Sinib tushar to‘lqinlarga oy.  
Duo qilgil, buvi, duosiz  
U ham qurib qolgay, hoynahoy...

Xayr, buvi,  
Xayr endi, buvi.  
Men ketarman o‘sha yo‘llarga.  
Mana, bu kech oymomo to‘ldi,  
Panoh bo‘lgin o‘g‘illarimga.

## AKAM ANVARGA

Sen devor tiklaysan shoir ukangga,  
Yashirib qo‘ysan topganingni ham.  
Buncha termulasan shu tor qo‘rangga,  
Odamlar dunyoga sig‘maydi, og‘am.

Yashirma, bilaman, o‘zingdan ortib  
Ko‘plarday yashashga qurbing yetmaydi.  
Nima ham qilarding sigirni sotib,  
Axir shu devoring qochib ketmaydi.

Buvimiz keksardi, biroq bemavrid  
Sen ham qarib qolding, alam qiladi.  
Judolik, nobakor turmush — boru bud,  
Buni men bilmasam, kim ham bilardi...

Kim nima demasin, qo‘yaver, og‘a!  
Qaytaman, qochmaydi shu tirikchilik.  
Hech kimsa chiqolmas men chiqqan toqqa  
Va o‘zim qaytaman u yerdan tirik!..

## MANZARA

Kuz... oxirgi barglar yiqilar,  
burishadi og‘ochlar labi.  
Qip-yalangoch tollar o‘y surar,  
Qadim-qadim roviylar kabi.  
Oy kezadi mahzun, aftoda,  
Olislardan-olisdir yo‘li.  
G‘udranadi devor ortida  
Mastu-alas shamollar tili.  
Ayoz tushar keskir, berahm,  
o‘char oshiq turnalar izi.  
Chakalaklar uvishar, marhum

xazonlarning kul – uyundisi.  
Kunning esa chehrasi siniq,  
yuzga tortar ko‘z surmasini.  
Sanay boshlar achchiq izg‘iriq,  
yaydoq tolning qovurg‘asini,  
Tunlar oyni kemira boshlar,  
sochiladi shu'lalar unsiz.  
Yiroqlarga zoriqib boqar,  
yiroqlarda qolib ketgan qiz

Kuz... oxirgi barglar yiqlilar.

## ZULFIYA MO‘MINOVA

(1959)

*Zulfiya Mo‘minova 1959-yil 15-iyulda Samarqand viloyatining Narpay tumanida tug‘ilgan.*

“Vatan tashlab ketmaydi” (1984), “Beshiklarni asragin dunyo” (1986), “Yonayotgan ayol” (1992), “Istiqlol oltin gulim” (1998), “Samoga sochilgan yulduzlar” (2000), “Qudratli yurtimga” (2003), “Nikoh shartnomasi” (2005), “Birinchi o‘qituvchim” (2008), “Ayolga baxt bering” (2011), “Xo‘roz nega ucholmaydi?” (2014), “Bir kun dars qoldirgan bir umr pushaymon” (2015), “Ishq bog‘ida bor edim” (2016), “Yumshog‘oy ismli tipratikancha” (2017), “Buyuk uyg‘onish” (2020), “Donishmand toshbaqaning ko‘z oynagi” (2020), “Yuragida anor gullagan ayol” (2021), “Bolalarga kitob bering” (2021) kabi she’riy, badiiy publitsistik hamda bolalarga bag‘ishlangan kitoblari nashr qilingan.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi. “Do‘stlik”, “Mehnat shuhrati” ordenlari bilan taqdirlangan.

\* \* \*

Ayolga baxt bering, saodat bering,  
Demang yuribdi-ku kulib, jilmayib.  
Ayol kulib turib o‘lishi mumkin,  
Dunyonı olishi mumkin jilmayib.

Ayolga baxt bering, saodat bering,  
Gar ko‘zları kulib tursa-da,  
Bo‘g‘zining ostida necha ming hasrat,  
Oyuzlari kulib tursa-da...

Ko‘nglini ko‘taring hech bo‘lma ganda,  
Qo‘lini silashga shafoat toping.  
Yig‘lab turganida hech bo‘lma ganda,  
Yoshini artishga muruvvat toping.

Nogah yerga tushsa oppoq ro‘moli,  
Bosib o‘tmaslikka shafoat toping.  
Chaqaloq yalagan etaklarini  
Toza deb aytishga adolat toping.

Ayolga baxt bering, saodat bering,  
Demang yuribdi-ku kulib, jilmayib.  
Ayol kulib turib o‘lishi mumkin,  
Dunyoni olishi mumkin jilmayib.

Ayolga baxt bering, saodat bering,  
Illohi nur toping, hidoyat toping.  
Illohi baxt bergen ayol yonidan  
Baxtiyor o‘tmakka inoyat toping.

Illohi qalqonsiz, illoh qo‘rg‘onsiz  
G‘iybatlar yirtmasin ko‘ylakkinasin.  
Illohi hushyorsiz, illoh bedorsiz,  
Itlar tishlamasin yurakkinasin.

Ayolga baxt bering, saodat bering,  
Tog‘ qimirlab, toshlar so‘zga kirsa-da,  
Ayolga baxt bering, saodat bering —  
Oltmishta kirsa-da, yuzga kirsa-da.

\* \* \*

Mana turna qaytdi, qaytdi qumrilar,  
Qay daraxt yiqildi, qay tosh surildi,  
Boshga tushganini ko‘z-la ko‘rilar,  
Turnalar qaytguncha omon bo‘laylik.

Qay kun turna qaytdi, onam qaytmadi,  
Ko'ngli yarim-ku, deb hech kim aytmadi.  
Dunyo vasl-u, vido uchrar baytmdi,  
Turnalar qaytguncha omon bo'laylik.

Umr — mahzungida matal, kutaylik,  
Eshiklar yonida mahtal, kutaylik,  
Turnalarni to'rtko'z tugal kutaylik,  
Turnalar qaytguncha omon bo'laylik.

Men ko'nglimning quli, o'zing hushyor bo'l,  
Menga tosh otsalar, tani devor bo'l.  
Do'stim, sen o'limagin, yonimda bor bo'l,  
Turnalar qaytguncha omon bo'laylik.

Izlasak — anqo ne, anqo topilar,  
Har kimga bir joni fido topilar,  
"Odam topilmaydi, dunyo topilar",  
Turnalar qaytguncha omon bo'laylik.

Goh bilib-bildirmay o'tar odamlar,  
Suvga ketgan kabi ketar odamlar,  
Dunyo barchamizga yetar, odamlar...  
Turnalar qaytguncha omon bo'laylik.

## VATAN

Shu Vatanni sevaman jondan,  
Sevdim — yana go'zal bo'ldi u.  
Oqqush bo'ldi har tushgan qori,  
Har yomg'iri asal bo'ldi u.

Qo'limga suv quydi bulog'i,  
Shamollari tutdilar sochiq.  
U qo'lini ochgani sayin,  
Yo'li bo'ldi shunchalar ochiq.

Shu Vatanni sevaman jondan,  
Sevdim — yana dilbar bo‘ldi u.  
Oq kaptarlar — opam, singlim-u  
Jayronlari jigar bo‘ldi u.

Gulzor ichra xonqizchalar  
Labin qo‘ydi barmoqlarimga.  
Musichasi tunlari yuvosh,  
Yurib chiqdi qaboqlarimda.

Shu Vatanni sevaman jondan,  
Sevdim — baxti bekam bo‘ldi u.  
Bo‘richalar emishganlarim,  
Qoplondari akam bo‘ldi u.

Shu Vatanni sevaman jondan,  
Sevdim — qatra qonim bo‘ldi u.  
Ko‘zim, so‘zim, umri bayonim,  
Jonim bo‘ldi, jonim bo‘ldi u.

### FOZIL EL TARAFDAMAN

Qaydasan, deb so‘rmagin,  
Men ko‘ngil tarafdaman,  
Sen mening jonimdasan degan  
Shirin til tarafdaman.

Qirmizi qaboardaman,  
Qizil gul tarafdaman,  
Bargida durri shabarro‘z  
Atirgul tarafdaman.

Chuchmomalar chiroq yoqqan  
Nurli yo‘l tarafdaman.

O'zbekiston, deb kuylagan  
Shod bulbul tarafdaman.

Oydin oqshom g'azal aytgan,  
Oydin dil tarafdaman.  
Parishtalar olma otgan  
Oynako'l tarafdaman.

Devonayi dalli emas,  
Sof aql tarafdaman,  
Navoiyda, Yassaviyda,  
Men Bedil tarafdaman.

Bayramdaman,  
xurramdaman,  
To'y, sayil tarafdaman.  
Yurtni g'aflatdan uyg'otgan  
Fozil el tarafdaman.

Qaydasan, deb so'rimagin,  
Men ko'ngil tarafdaman,  
Sen mening jonimdasan degan  
Shirin til tarafdaman.

Qirmizi qabiqdaman,  
Qizil gul tarafdaman,  
Bargida durri shabarro'z  
Atirgul tarafdaman.

## FAROG‘AT KAMOLOVA

(1959–2022)

*Farog‘at Kamolova 1959-yil 27-martda Jizzax tumanida-gi Mo‘lkanlik qishlog‘ida tug‘ilgan. “Osmon parchasi” (1982), “Uzoq safarlar”, “Bargizub” (1990), “Holatlar kitobi” (2000) kabi she’riy to‘plamlari nashr etilgan. Serb shoirasi Desanka Mak-simovich, rumin adabiyoti vakillari Oktavian Goga, Nikita Stenes-ku, Nikolay Labish, Jorje Bakoviya, Mixay Eminesku, Zaxariya Stanku, Nikita Stenesku, Anna Blandiana she’rlarini mahorat bilan o‘zbek tiliga tarjima qilgan.*

*2022-yil 1-avgust kuni vafot etgan.*

\* \* \*

Chog‘im yo‘q o‘zimni tark etgan chog‘im,  
Jismi uryonimda o‘sgan puchmog‘im,  
Ruhim daraxtidan to‘kib yaprog‘im,  
Seni so‘rab borsam, ostonang qani?

Gulxan o‘chgan bo‘lsa, ko‘nglim kulmasmi,  
Yo‘ling kesgan bo‘lsam, sevgim yo‘lmasmi,  
Ilkingda so‘ldirgan menday gulmasmi,  
Gavhar ekay desam, gulxonang qani?

Izimni izlasa, topgay iztirob,  
Kulbamga bir bora boqmaydi oftob...  
Ranjim ko‘p, umidim undan behisob,  
Sevmoqni o‘rgansam, darsxonang qani?

Jonimda bir jonday kechdi malolim,  
Ko‘ngil vayronida dardim — jalolim,  
Nechun noming aytsam, yig‘lar xayolim,  
Yashab o‘tay desam, koshonang qani?

Sohir ko‘zlarinida g‘ayr xayoli,  
Rashk ila to‘lg‘anib qon bo‘ldi gullar.  
Telbalanib o‘tdi gulshan shamoli,  
Bag‘ri so‘zon bo‘ldi, boshi niginlar,  
Payqamadingiz.

Ko‘kning ravoqidan to‘kildi saslar,  
Sizni oydin nurlar jum yorlaqadi.  
Tunning qarog‘idek qaro nargislar,  
Boshingizga to‘kkani nurni alqadi,  
Alqamadingiz.

Dardi begonalar begona bo‘ldi,  
Ko‘zning ko‘zgusida rozlar balqidi.  
Umid dilimizga afsona bo‘ldi,  
Yor, dedik sahro-yu zamin qalqidi,  
Qalqimadingiz...

Sohir ko‘zingizda g‘ayr xayoli,  
Hajringiz motami jonlarga yetdi.  
Sizni sevganlarning bevaqt zavoli  
To sahar bu dahr gulshanin tutdi.  
Yor, demadingiz...

## XOTIRA

Men bilaman, xotiramga ishonib bo‘lmas,  
Menmi unga yoki xolos o‘xshagan Beka?  
Ba’zan o‘zim tushunmayman uning fe’liga —  
Go‘yo pinhon o‘zgartirar kechmishim kam-kam.

Bilintirmay aldar o‘tgan yillarimni ham,  
Kecha olar noxush kechgan voqealardan.  
Men sezaman, meni juda ayar negadir,  
Qutqaradi dilni og‘ir xotiralardan.

U haq! Balki shunday bitar nomunosib do'st,  
Dilga bergen jarohati, og'ir darslari.  
Balki shunday singib ketar olis-olisda, —  
Yuragimni ezib o'tgan qadam saslari...

\* \* \*

Tabiat, sen mening dugonam kabi,  
Ayniqsa, oqshomlar tushunarlisan.  
Sukunat bag'rida juda o'zgacha  
Go'zalsan, sokinsan, ishonarlisan.

Bunda hamma narsa oyga intilar,  
Sevgiga intilar ayol singari.  
Yerdagi to'qilgan oppoq injular,  
Sevgiga bo'y bergen oyning singani.

Daraxtlar daraxtg'a o'xshamas hozir,  
Seni tinglamoqda bir to'p ayollar.  
Ularni baxtiyor qilasan oxir  
Baxsh etib osuda, sirli xayollar.

Visolga otlangan qiz bola monand,  
Ming xil turlanasan, ming hunarlisan.  
Sen mening dugonam kabi, Tabiat,  
Ayniqsa, oqshomlar tushunarlisan...

Tun cho'kar bo'ysunib ul aqidaga,  
Chor atrof qorayar ovozsiz zikri.  
Mening ojiz fikrim Tun haqidagi  
Kunduzga ko'nikkan odamning fikri.

Oy nuridan eshar o'rgimchiklar ham  
Dorlarin, ilinar shamol faryodi.  
Bu tunning bag'rida mening xotiram  
Yo'qotar narsasi yo'q odam yodi.

Nimani kutaman?  
Bilolmadim, yo‘q.  
Biroq ishonaman yolg‘iz fikrga.  
Men uchun bu kecha omonat qayiq,  
Mangulik ko‘lida chayqalib turgan.

## BOLALIK

Sen ham maysamiding bahor qo‘ynida,  
Yayrab o‘sgan eding daryo bo‘yida.  
Bilmadim, qay orzu, armon o‘yida  
Seni to‘lqinlarga oqizdim o‘ynab.

Boshimga turnalar to‘kkanda xayol,  
Berk eshik kibridek dunyoda malol.  
Ko‘klarga boqdim-u beparvo, behol,  
Seni to‘lqinlarga oqizdim o‘ynab.

Endi umrim ummon sari yeldimi,  
Bahor o‘tib yana bahor keldimi?  
Ba’zida dur oqdi, dunyo bildimi?  
Seni to‘lqinlarga oqizdim o‘ynab...

\* \* \*

Oshiqman-u, lekin oshkor emasman,  
O‘zimdan o‘zgaga ag‘yor emasman.  
Sening darding dil-u jonim o‘rtadi,  
Bemor emasman-u bedor emasman.

Ul tuyg‘u qadahdan to‘kilgan maydek  
Jonimni kuydirar, hushyor emasman.  
Bilmayman, o‘zimni izlayin qaydan,  
Menam ishq, savdoda takror emasman.

Ketding mendan, ko'zi nigorim mening,  
Bari behuda-ku, iqror emasman.  
Sen mening ishq faslim ekansan bilsam,  
Xazon emasman-u bahor emasman.  
Xazon emasman-u bahor emasman...

\* \* \*

Yana shunday bo'lar, har safar shunday,  
Men kutgan ranglarda kelaverar Kuz.  
Bog'lar qismatiga qancha kuyunmay,  
Bargrezon faslini sevaman hanuz.

Mangulik oldida yuragi ochiq,  
Sokin kengliklarday ozod va beg'am,  
Hech kimga bog'lanmay yashaydi bir Ishq,  
To'kilib yashaydi xazonlar bilan

Va maftun etadi mening ko'nglimni,  
Dunyoni unutib ruhim sarxush, jim...  
Tinglayman har safar ketmoq kuyini,  
So'nggi yaproq kabi titrab yuragim.

\* \* \*

Qushlar uchib ketdi, qisqardi kunlar,  
Deding: yuragimga sig'mas hech nima.  
Ko'zlarining olding g'amgin kunlardan.  
Ko'ngling darichasin berkitding shunday,  
Na quvonch, na hasrat bo'lindi mehmon.

Sezmading, o'zgarar tegrangda dunyo.  
Men sening nomingni aytib chaqirdim.  
Menga javob qildi keng bir sukunat,  
Menga javob qildi sensiz kunlarim.  
Sen aylangan eding Vaqtning o'ziga...

## RAVSHAN FAYZ

(1959–1995)

Ravshan Fayz 1959-yil 1-yanvarda Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi Ko'ralos qishlog'ida tug'ilgan. "Uxlayotgan odam" (1989), "Tashrif" (1990), "Kel, ey ko'nglim" (1997) kabi asarlari nashr etilgan. "Men shamolni tutvoldim" (1992) she'riy to'plami bolalarga bag'ishlangan. 1995-yil 30-avgustda Toshkent shahrida vafot etgan.

### QISHLOQ SOG'INCHI

Ey ota yurt, ey tug'ishgan el,  
Men bir o'smir, men bitta gulni,  
Orzu-havas degan tanti el  
Qay bir bahor bag'ringdan yuldi.

So'ng taqdirga rahmatlar aytib,  
O'shal yuksak orzumga yetdim:  
Tinim bilmas devona, daydi  
Shamollarga aylanib ketdim.

Ulangandim yuragim bilan  
Asli sening jon-u jismingga.  
Endi yana bu dunyo bir kam —  
Orzum yo'q, armonim mingta!

Endi tunlar yuragim og'rir,  
Sog'inaman seni qishlog'im,  
Dashtlaringni eslayman og'ir,  
Qoyalarga urilgan chog'im.

Turib-turib keladi ko‘rgim,  
Sen-chi, sen ham sado bergen, hoy.  
Bilinarmi hali ham o‘rnim,  
Og‘riydimi men yulungan joy?!

\* \* \*

Mana, sohilingdan ketyapman men,  
Ortimda qolyapsan sarg‘ayib, sinib.  
Endi senga so‘zim: yuragingni yeng.  
Endi suratimga yasha isinib.

Erka hislarimni yanchib bu lahza,  
Ketyapman, ketyapman teng bo‘lib toshga.  
Sen ham jim kuzatgin... agar xohlasang,  
Yuzlaringni yuvma, jonio, ko‘z yoshga.

Mayli, sir bo‘lib qol, asror bo‘lib qol,  
Savollar yashasin men bilan birga.  
Toki kun kechirmay befarq, bermalol,  
Seni o‘rganayin butun umrga.

Xat-xabar qilsang-da, yuraging to‘lib,  
Baribir tilingga bo‘lolgan sobir.  
Toki sen deganda ko‘ngil to‘q bo‘lib,  
Shaharda xiyonat bo‘lmasin sodir.

Qara, ich-ichimdan ketmoqdaman zil,  
Qara, yelkanlarin ko‘tardi kema.  
Sen qoram o‘chishin kutgil, sabr qil,  
Sen qoram o‘chguncha “Sevaman!” dema.

\* \* \*

Shoshmang, qishlog‘imga ketarman bir kun,  
Ketarman otamdan qolgan yurtimga.  
Yoqavayron bo‘lmay, bo‘lmasdan dilxun  
Ketarman, men bunda kerakman kimga?!

Bilaman, qo‘limdan tortqilar shamol,  
Oyog‘im qo‘yvormas bu tep-tekis yer.  
Baribir ketarman befarq, bemalol,  
Ketarman, kiftimga qanot bo‘lar she‘r.

Bilaman, ketma, deb yig‘laydi osmon,  
Ucholmas o‘shanda biron tayyora.  
Men esa ketarman shunchalar oson,  
Ketarman, qayrilmay eng so‘nggi bora.

Uyg‘onib hayronlar qolarsiz bot-bot,  
Xat ham qoldirmayman hatto hech kimga.  
Kunchil ko‘nglingizni etgancha obod,  
Ketarman, otamdan qolgan yurtimga.

\* \* \*

Ko‘nglimga orzular solgan qishlog‘im,  
Olis-olislarda qolgan qishlog‘im.  
Kelib qolarmi, deb har sahar, har shom  
Ko‘zlari yo‘limda tolgan qishlog‘im.

Mening maqsadimdan ko‘nglim ko‘p to‘qdir,  
Armon nishoniga tegmagan o‘qdir.  
Orzunga izmida hamon hayotim,  
Lekin bu yo‘llarning adog‘i yo‘qdir.

Aytgil, selmasmidi men tanlagan yo‘l,  
Sayrga elmasmidi men tanlagan yo‘l.  
Olis-olislarda ovoradurman,  
Borsa-kelmasmidi men tanlagan yo‘l.

Ko‘zlari yo‘limda tolgan qishlog‘im...

\* \* \*

Seni deb bilmasman tinim nima ul,  
Tejab-tergaganim seniki butkul.

Yuragimni yutib topganim senga,  
Tiyinni-tiyinga urib topganim senga.

Bobolarim yotgan yerlarim qolar,  
Shamollar shovuri — she'rlarim qolar.  
Uzilgan kunidan nasibam, nonim  
Sengadir she'r yozib orttirgan nonim.

To umr o'tkinchi ekan — netarman,  
Ertami-kech barin tashlab ketarman.  
Ketarman tuproqqa teng bo'lib, illo,  
Bu-chi parvoyingga kelmaydi ammo.

Boyisi, sen o'jar bolamsan, dunyo,  
Bo'g'zimga sig'magan nolamsan, dunyo.  
Zorlarni bilmagan zolim, zo'rimsan,  
Dunyo, sen eng erka merosxo'rimsan.

\* \* \*

Men yaxshi ko'ryapman sizni tobora.  
Tobora ko'zimdan yitmoqda tuman,  
Qarangiz, qisqarib boryapti ora,  
Orada to'siq yo'q endi umuman.

Men yaxshi ko'ryapman sizni kun sayin,  
Kun sayin yaqindir diydoringiz, yor.  
Yo'llar ko'p ravondir, havo ham mayin,  
Mayin so'nmoqdadir kosagul, alyor.

Men yaxshi ko'ryapman sizni shunchalik,  
Shunchalik muhimdir endi zor, dodim:  
Xudoyim, ishqilib salom-u alik  
Umricha bo'lsa bas, qolgan hayotim.  
Men yaxshi ko'ryapman sizni tobora...

## ODIL IKROM

(1960)

*Odil Ikrom — 1960-yil 26-yanvarda Tojikiston Respublikasi Sug'd viloyati Isfara shahri Ko'lkent qishlog'ida tug'ilgan. "Ufq daraxti" (1990), "Tahajjud" (2007), "Uzlat" (2011), "Tahammul" (2012), "Xayol maqbarasi" (2020) nomli she'riy to 'plamlari nashr etilgan. Jaloliddin Rumiyning "Ma'naviy masnaviy" (6 kitobdan iborat) asari, Furug' Farruxzodning "Qayg'u guli", Loyiq Sheralining "Onaginam", Farzonaning "Ishq tasbehi", Ozaraxshning "Xayrli tong" nomli she'riy to 'plamlarini, Zahiri Samarqandiyining "Xotinlar makri" nasriy kitobini, oltmish bitta tojik shoiri she'rlaridan tarkib topgan "Zamonaviy tojik she'riyati antologiasi" ni fors-tojik tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan. Rudakiy nomidagi Tojikiston Davlat mukofoti laureati.*

\* \* \*

Qayerlarda edim...  
O'zimdan nari,  
Kun ko'rdimmi seni ko'rмаган kunsiz?  
Qismatning bag'ritosh go'yandalari  
Qadring qabri uzra yig'ladi unsiz.  
Ko'nglimdan ko'nglingga axtarmay darcha,  
Toleyim darziga izladim yamoq.  
Ofatdan hol so'rdim sharmandalarcha,  
Joning zulmatlardan so'rganda taloq.  
Menda ham bor edi toliblik ta'bi,  
Baxtim — sendan kichik, yoshim — kattaroq.  
Kundaga bosh qo'ygan gunohkor kabi  
Kimning jufti edim — toqatlari toq?  
G'aflat girdobiga cho'kdi daryolar,

Xayoling mulkidan tonib ketdi erk.  
Boshingdan betinim kechdi savdolar,  
Gadoning rizqiga mo'ltaygan itdek.  
Quruq tuhmatlarning etagidek nam —  
Dilni tutqun etdi tavq-u tamg'alar.  
Osoyish topolmay o'tdi lojaram,  
Qorsiz qahratonday yupun lahzalar.  
Ogohlik uyg'otar qo'rquv, tahlika,  
Balokash bardoshga aylandi boring.  
Ermakday tuyular ig'vo ahliga,  
Kiprikka osilib, chayqalgan zoring...  
Qayerlarda edim...  
O'zimdan uzoq?  
Bir taskin ovutar ozurda jonni:  
Ko'nglim sahosida o'sgan bir titroq  
Tog'day ko'tarilar...  
O'par osmonni...

## SAZOYI

Ko'zing — chiroq ko'rgan chilladek basir,  
Yovuq keltirarman senga qurbimni.  
Bilaman, gunohim qolmaydi sag'ir,  
Ko'rguligim kesar quloq, burnimni.  
Suvga zor daryodek yonimdan o'tdi  
Haqir umidlarim...  
Mandan uyalar.  
Gunohim bir qoshiq qonimdan o'tdi,  
Yuzimdan o'tolmas qorakuyalar.  
Kechmishim aybidan tongan lahzalar  
Talab vodiysida jon etar taslim.  
Ko'nglimdan badnomlik izin axtarar  
Telba bo'lish uchun yetmagan aqlim.  
Xayr-u hikmat bordek kulfat so'ngida,  
Ko'ngilga boqay deb ko'zimni yumdim.

Sazoyi etildi har ko'z o'ngida  
Eshakka teskari mingan bu umrim.  
Tandan bezgan jonim  
Vayrona sari  
Tirik jasadimni eltar uyqudek.  
Ne-ne qurbanlikka yaraydi hali  
Zindoniy hislardan bulg'anmagan erk.  
Bilaman, jon uchun manzil falakdir,  
Alloh huzuri deb bilmasman go'rni.  
O'ziga kelolmay, keltirar takbir  
Qoraygan darchadek yulduzlar o'rni...  
Dil o'tda o'rtansa,  
Baxsh etib salqin,  
Xalil gulzoriga do'ngay jahannam.  
Boq, bitta osiyman,  
Bitguncha avfin  
Qismat xokidan bosh chiqargan qalam.  
Bilmasman, ne nihon Lavhi Mahfuzda,  
Qarog'ing dashtida kezgan xotirman.  
Azim gunohlarning masnadi uzra  
Ko'zlarining o'ngidan o'tayotirman...

## QORA CHO'G'

Ko'zlarining tubida tun bo'ldi g'oyib,  
Ko'zlarining tubida osmon yaraqlar.  
Osmonga uzangan qo'llarin yoyib,  
Oyni emib yotar uryon daraxtlar.  
Tun yonar ko'zlarining qorachig'ida,  
Kiprigingga qo'nar arzanda Humoy.  
Zardobda zanglagan oftob tig'ida  
Kesilgan siynaga o'xshab ketar oy.  
Zaharlangan yerning qursog'i kabi  
Qappaygan xazonlar eslatar go'rni.  
Ko'zlarining tubida to'lg'anar sabil,

Sitilgan ko‘z yanglig‘ butoqdir o‘rnii.  
Tuxum qo‘ygan kabi oqqush xayollar  
Kallaning tirjaygan chanog‘iga jim,  
Ko‘zlarining tubida ma’yus shamollar  
Go‘yanda arvoofday boshimda nadim.  
Ko‘zlarining tubidan seni qidirdim,  
Ustimda kulmoqda osmon ham, oy ham.  
Men ikki dunyoni unga sig‘dirdim,  
Men — ikki dunyoga sig‘magan odam.  
... Faqat, senga — yolg‘on, o‘zimga ayon,  
Mening tushlarimga kiradi har kun:  
Sening ko‘zlarining eslatgan osmon,  
Sening ko‘zlarining sog‘intirgan tun.

\* \* \*

Ko‘zingda bir kalom tentirar unsiz,  
Ko‘zingda bir qayg‘u jilmayar ma’sum.  
Axir men — kafanga o‘ralgan bir his,  
Ko‘zlarining oqiga chulg‘angan mardum.  
Axir men — zaminda yashagan osmon,  
Axir men — osmonga yetmagan ovoz.  
Axir bu dunyoning rostligi — yolg‘on,  
Axir bu dunyoning yolg‘onligi — rost.  
Axir bu dunyoda men boshqa dunyo,  
Meniki emas bu o‘tkinchi kadar.  
Axir, men qirq yilda bo‘lay deb bunyod,  
Kechdim to‘qqiz oylik dunyodan badar.  
Jismimni kinnaday yorib kirgan jon  
Chaqirganim bilan chiqmas bir muddat.  
Yolvorganim bilan yorishmaydi tong,  
Haydaganim bilan ketmaydi zulmat.  
Aytsang-da — aytmasang ketarman to‘zib,  
Gumrohman — yo‘limga tikaverma ko‘z.  
Axir men — dunyoga o‘tmagan so‘zing,  
Axir men — dunyodan o‘tayotgan so‘z...

Qaydadir bir yurak yashaydi notinch,  
 Qaqshatib, qaqshaydi kimningdir qalbi.  
 Yo'llarda tiriklay yonmoqda sog'inch,  
 Chorasi qolmagan zardushtiy kabi.  
 Hozircha, tunlarning poygohidaman,  
 Meni chorlamoqda zalolat arshi.  
 Meni qarshi olar ozurda tuman,  
 Ozurda yuragim — tumanga qarshi.  
 Hammani bezdirdim, hammadan bezib,  
 Qachondir sargardon kezganman bunda.  
 Hammani kechirdim, hammadan kechib,  
 Hilol dargohiga sig'magan tunday.  
 Qaysi bir jasadga bo'ldim kafanlik,  
 Qaysi bir kafanga chulg'andi baxtim?  
 Aqlimi to'ldirdi qay bir balandlik,  
 Qaysi bir chuqurni to'ldirdi aqlim?..  
 Yomg'ir ham yuvmadi yuraklar dog'in,  
 Menga hamroh bo'lib charchadi shamol...  
 Yo'llarda tiriklay yonmoqda sog'inch,  
 Chorasi qolmagan zardushtiy misol.

## **ABDUVALI QUTBIDDIN**

**(1960–2019)**

*Abduvali Qutbiddin 1960-yil 20-iyunda Qashqadaryo viloyati-ning Qarshi shahrida tug‘ilgan. “Nayson”, “Humo”, “Baxtli yil”, “Xayol kechasi”, “Sen va sen uchun”, “Uzoqdan olisga”, “Bor” kabi she’riy to‘plamlari nashr etilgan. “Do‘stlik” ordeni bilan mu-kofotlangan (1997). 2019-yil 8-dekabrda vafot etgan.*

\* \* \*

Bizdan xafamisiz, sarvim, xomushsiz,  
Kunduzi parisiz, tunda oqqushsiz.  
Ruhi ravonimiz sizga baxsh etdik,  
Izingiz yoniga labni naqsh etdik.

Puflasangiz o‘chdik, silasangiz oqdik,  
Ufq naryog‘iga imladingiz, boqdik.  
Qonimizni to‘kdik barmog‘ingizga,  
Ko‘nglimizni urdik tirnog‘ingizga.

Yot desangiz, yotdik suvdek jimirlab,  
Bir-bir o‘ynadingiz ko‘zlarimizda.  
Shivir-shivir qildik sizga shivirlab,  
Tosh bosib qo‘ydingiz so‘zlarimizga.

Qalqidik, yulduzga uzatsangiz qo‘l,  
Chor atrof rasvodir, bezatmadingiz.  
Tinchlandik, boshi berk bo‘lsa hamki yo‘l,  
Biz hamon xastamiz, tuzatmadingiz.

Bizdan xafamisiz, sarvim, xomushsiz,  
Shudring oqartirdi yuzlarimizni.  
Muztog‘ni eritgan muqaddas tushsiz,  
Qaytaring, titragan bo‘zlarimizni...

Osima,

Ne qilay ko'nglim ushmundoq,  
Bir cheti osmon-u, bir cheti tuproq.  
Bir tunda podshoman ikki kishvarga,  
Bir kunda zordirman bir qur nazarga.  
Hilvirab, simillab bo'zardi ruhim,  
Xohla portlatib qo'y, xohla parchala,  
Esiz, har tomonga urdi shukuhim,  
Esiz, o'tolmadim shum darichadan.

Osima,

Roziman, mendan asar yo'q,  
Ista, men haqimda boshqa xabar yo'q.  
Ammo dilim erka dilingni istar,  
Mendek xushxabar yo'q,  
Mendek xatar yo'q.

Osima,

Alarga ko'p ham ishonma,  
Ular qush ko'mganlar xiyobonlarga.  
Qumlari zarlangan  
Bo'lsa ham bordir,  
Lek harom o'rmalar tavonlarida...

Osima,

Sen haqsan,  
Men tugab botdim,  
Bu qissa so'ngida, shudir qasida.  
Men go'zal borlig'im maydalab sotdim,  
Yo'g'imni qaytardim  
O'z egasiga...

## NAFAS

Nafasing yuzimda uxlasin endi,  
Qaynoq so'zlaring ham tinsin shu muddat.  
Qo'llaring qo'limni tinglasin endi,  
Shoshilma, muvaqqat, bari muvaqqat.

Yuragim, yuraging vasl topsinlar,  
Nigohim, nigohing yoshlansin, jono,  
Bo'salar qadalib sabza ursinlar,  
Ohlarim ohingdan boshlansin, jono.

Marvarid qorlarga boraylik, sevgim,  
Bag'rimiz yuksakda to'lsin havoga.  
Cho'qqida zumgina turaylik, sevgim,  
Suvratday qulaylik zilol ma'voga.

Yoshligim bo'ysunmas, chiqqan izmimdan,  
Qistaydir ketmakka so'rab ijozat.  
Xayrlashayapman lolaligim-la,  
Jonom, nafasingni yuzimda uxlat.

To'xtamas hech narsa: uryon, lahzalar,  
Jismimda larzalar olgan halovat,  
Bu ne tilovatdir bo'g'zimga qadar,  
Jonom  
Nafasingni  
Yuzimda  
Uxlat...

## EY, DILBARIM

Ohumiding yobonimda suv izlagan,  
Yohumiding tomonimda lab izlagan,  
Dalligina jahonimda  
Siym-u zarim:  
— Ey, Dilbarim...

Chashmamiding toshlar uzra to'kilasan,  
Ufqmiding quyosh ketgach yiqlisan,  
Yamoq tushgan hayotimda  
Sen chevarim:  
— Ey, Dilbarim...

Biy dalada quyun ila sochilding-a,  
O'rtasida yavshan ila ochilding-a,  
Yuragimga qadab qo'ygan  
Oq gavharim:  
— Ey, Dilbarim...

Koshkiydi, to qiyomat biz yonma-yon,  
Koshkiydi, to qiyomat biz jonma-jon,  
Gulxan yoqib uzun tunning etagida  
Bilagimiz tilib qo'ysak ust-ustiga.  
To qiyomat  
Zikr aytsam,  
Mohpaykarim,  
To qiyomat zikr aytsam, mohpaykarim:  
— Ey, Dilbarim...

\* \* \*

Baliqning tishi-la tilimni tildim,  
Yuragim urchuqday uch aylantirdim.  
Ko'zimni qiynadim, Qiynog'im qiziq...  
Yayradim.

Indamay ruhimga ergashib oldim,  
Devona xayolim g'ilmon sanadim.  
Tuf dedim botqoqqa,  
Guliston qildim...  
Yayradim.

Qaldirg'och loysuvoq qilgan ochunda  
Sevgim yo'llariga zor-zor qaradim.  
Yoshlarim yal-yali  
taraldi tunda...  
Yayradim.  
Majnuntol darchasin ochdi, kiritdi,

Yuz bitta qizidan birin tanladim.  
Xivich qasrlarda  
Barglandim biram...  
Yayradim.

Dunyoni tark etdim, hur safar etdim,  
Yorim-la tuyqus-u bexabar ketdim.  
O'n besh kun to'y berdim  
Dorulbaqoda...  
Yayradim,  
Yayradim,  
Yayradimaa!

\* \* \*

Qora qoshing qasdima xunxorlar chaqirmishdir,  
Birlashib zulmat bilan ag'yorlar chaqirmishdir.

Ruhi ravanom aro mijgonlar uchmish o'q kibi,  
Etgali mahv umidim, ozorlar chaqirmishdir.

Dunyoyi dun makrning sharobidin badmastdur,  
Zardobig'a cho'ktirib hushyorlar chaqirmishdir.

Andalib qabog'inda jamolin ko'z-ko'z etib,  
To'kilib sadog'indin bahorlar chaqirmishdir.

Naylayin sahrodir ishq, qaqraganlar qoldimu,  
Munragan chiltor tutib, abgorlar chaqirmishdir.

Sirim oshkor aylasam, tong yaqin bu Valiyni,  
Mash'alalar ko'tarib bedorlar chaqirmishdir.

## A'ZAM O'KTAM

(1960–2002)

*A'zam O'ktam (A'zam Xudoyberdiyev) 1960-yil 4-oktabrda Farg'onada viloyatining Buvayda tumanida tug'ilgan. "Kuzda kulg'an chechaklar" (1989), "Kuzatish" (1990), "Ziyorat" (1992), "Taraddud" (1993), "Ikki dunyo saodati" (1998), "Qirqinchi bahor" (2000) she'riy to'plamlari nashr etilgan. "Bola dunyoni tebratar" (1988), "Xabar" (1995) kabi nasriy asarlar muallifi. Rabindranat Tagor va Nikolay Rubsovning turkum she'rlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.*

*Shoir 2002-yili vafot etgan.*

## TARADDUD

Aniq hech narsa yo'q, har narsa tusmol,  
Ayblarim o'ylasam — hushdan ozarlik.  
Qizlarning yuziday ochilgan osmon  
Bulut kelishiga ko'rар hozirlilik.  
Bitta sham o'chgaydir shabboda yelsa,  
Kulgi libos balki, asli u qayg'u.  
Bosqinchi birovning yurtiga kelsa,  
Bir kun quvilishga hozirligi shu.  
Ko'zni sovuq ko'rdim, yuraklarni muz,  
Shaylandim o't ila o'ynashmoq uchun.  
Muhit bo'lsa qishni boshlab kelar kuz,  
Yuzma-yuz chiqmasang — yashamoq nechun.  
Yo'l aniq, qaytish yo'q.  
Men ketdim endi.  
Kechgan narsam — jonni o'ylamam hecham.  
Bitta maydon kerak — kurashgim keldi:  
To'shakda yotkulik qilmasin o'lim!

## ORALIQDA

Jonimga tegmoqda barchasi bir-bir,  
Jon esa halqumga kelar oxiri.  
Bitta men yo‘q bo‘lsam ne bo‘pti axir —  
O‘zbekning kamayib qolmas shoiri.  
Na Toshkent, na Qo‘qon biladi meni,  
Axir o‘z-o‘zimni aldab, netaman?  
Shu oppoq qog‘ozdan yashirayneni —  
Bir o‘lib ko‘rmadim, xolos. Ketaman!  
Bir qaltis quladi kech kuzgi oftob,  
Cho‘qqidan cho‘qqiga urilib sindi.  
Kunning siniqlari bunchalar serob —  
Ular yulduz bo‘lib miltirar endi.  
Yana begonalar yanglig‘ turarman,  
Mezbonlarga o‘xshar otam ham onam.  
Qishloq ko‘chalarin kezib yurarman,  
Tanimas do‘stimming bolalari ham.  
Qiynagay har narsa yurakni ezib:  
Shoxi sinib qaytdi qo‘chqor podadan.  
Ayanchli g‘ingshiydi ko‘nglimni buzib,  
Itim yaralanib keldi to‘dadan.  
So‘ng tongda jo‘narman yana qaltirab,  
O‘z holim o‘ylayman achchiq jilmayib.  
Shaharda bolalar kutar mo‘ltirab,  
Qishloqda validam qolar mung‘ayib.

## SO‘ROQ

Talpinding, yig‘lading — yelding dunyoga,  
So‘ylagil, sen nechun kelding dunyoga,  
Buzildi, ayt, nima qilding dunyoga,  
O‘zingni kim deya bilding dunyoga?  
Tilingni tiymaysan — besharm so‘ylar,  
Ko‘zingni tiymaysan — buzuqqa bo‘ylar,

O‘zingni tiymaysan — nelarni o‘ylar,  
Hech jazo yo‘qmikan bunday zinoga?  
Malomatning toshi tegmagan boshing,  
Mag‘rur tutmoqlikdan tiymagan boshing,  
Hattoki onangga egmagan boshing —  
Berdeing bu havoyi, puchak safoga.  
Tengsiz ta’riflarni o‘qigan ko‘zing,  
Ulug‘ tarixlarni o‘qigan ko‘zing,  
Qutlug‘ harflarni o‘qigan ko‘zing —  
Ne uchun tikding bu yuzi qaroga?  
Qishda qushlarga don sochgan qo‘lingni,  
Nopok luqmalardan qochgan qo‘lingni,  
Olloh, deb duoga ochgan qo‘lingni —  
Uzatding yeishi, ishi haromga.  
To‘ydirib o‘t, qonga to‘ygan yurakni,  
O‘ldirib haq deya to‘lgan yurakni,  
So‘ldirib ishq ila kulgan yurakni,  
Sen qandoq sig‘yapsan yorug‘ dunyoga?

## NEGA?

Kun uzun, kun issiq — malollar kelur,  
Tunlari qop-qora savollar kelur,  
Tong chog‘i musaffo xayollar kelur,  
Aqlim mening tiniq tortmadi hanuz.  
Yetti oq-qorani ajratish oni,  
Bu umr, bu o‘lim kimning ehsoni?  
Har lahza shu qarzni uzish imkonni,  
Bildim, chin sarvatni yig‘madim hanuz.  
Eng ulug‘ so‘zdan-da titramas yurak,  
Ko‘zimga yosh kelmas — bu nedan darak,  
Xalqimga ne berdim va’dadan bo‘lak,  
Ekkan niholim yosh, mevasiz hanuz.  
Mahkam bog‘lasam-da rost yo‘lga belni,  
Ko‘ngil ravshan emas, dog‘i bor dilning,

Yuragimni tanidim, bildim-ku elni,  
Biroq unutmadiim o‘zimni hanuz.

## ISHQ HAQQI

Ajab, dil shod bo‘lur tinglab  
Qiyomatdan xabarlarni.  
Tobora shavqim ortgaydir  
Sezib kelgich xatarlarni.  
Na rohat, na azob bois  
Sen aytgan yo‘lga kirmishman.  
Shu ishq haqqi, xatarsiz qil  
O‘zing sori safarlarni.

## HALIMA AHMEDOVA

(1960)

*Halima Ahmedova 1960-yilda Buxoro (hozirgi Navoiy) viloyati-ning Qiziltepa tumanidagi Po‘loti qishlog‘ida tug‘ilgan. “Ko‘zimning tili” (1986), “Tungi marvaridgullar” (1987), “Erk darichasi” (1996), “Tiyramoh” (2005), “Afsun” (2007), “Umid soyasi” (2008), “Nigoh qiblasi” (2011), “Shafaq ibodati” (2012), “Yosuman gulining soyasi” (2013), “Tashbeh” (2017), “Yashil” (2018) kabi she’riy va nasriy to‘plamlari nashr etilgan.*

\* \* \*

Xayol kechalari qismat bog‘ida,  
Yolg‘izlikda adashgan manmu?  
Olloh, kaftlaringda bir kuni  
Maysa bo‘lib egilamanmu?

Yomg‘ir kabi yog‘ilsa jonim,  
Qarog‘larim bo‘larmikin jom?  
Tig‘ urilgan bag‘rim qoniga  
Yuragini chayarmu oqshom?

Men nur bo‘lib o‘psam jimgina,  
Dil shahrining ertaklarini,  
Tillarida so‘zlashamanmu  
Onam qabrin chechaklarini?

Qushlar ko‘zin qorachig‘ida,  
Asir etib ko‘milgan manmu?  
O, jahannam otashi, sandan  
Qochib, sanga intilamanmu?

Ko'z yosh kabi silqigan jonni  
Ichkanida ichikkan diydor,  
Dil qonidan man sarxush o'lsam,  
Bandangmanmu, ayt, Parvardigor?!

Xayol kechalari qismat bog'ida,  
Yolg'izlikda adashgan manmu?..

\* \* \*

Ko'ksimga qamadim haydalgan ishqni,  
Kishanlar yasadim qorong'u tundan.  
Qonagan oyog'in ko'zimga surtib,  
Bir yurak so'radim telba Junundan.

Vujudni xokistar etdi alanga,  
Yaproqni kuydirdi tiyra bo'zlarim.  
Qayta daraxt bo'lib yuksalarmanmi,  
Tuproqqa to'lganda ishqli ko'zlarim?

Yaratgan, azobing ichra ochildim,  
Garchi nigohingda nihon edim man.  
Zaminga xokistar bo'lib qorishdim,  
Qushlar ko'zidagi osmon edim man.

Ko'ksimga qamadim haydalgan ishqni,  
Ashkim daryosidan yurakkinam nam.  
Dilning ko'z yoshini qurita olmas  
O'n sakkiz ming olam quyoshlari ham.

So'ngagim ichida oqqan bahorlar,  
Yo rab, muzlagaymi umrim so'ngida?  
Mening ishqqa to'la o'jar yuragim  
Chirsillab yonmoqda ko'zim o'ngida.

Yongan yuragimni ko'maman o'zim,  
Yaproqlar bandida qolar dog'larim.  
Bir kun daraxt bo'lib yuksalsam, Ollo,  
Meni tanigaymi kuzgi bog'larim?!

\* \* \*

Ufqlar ortida zangori yo'l bor,  
Balki u xayolim, balki afsonam.  
Pokiza kunlarin shu yo'lga bog'lab,  
Kechmoqda qismatim — yo'lovchi sanam.

Ufqlar ortida zangori yo'l bor...  
Yuragim vujuddan ketar sitilib,  
Yashayman kimningdir yodidan qochgan —  
Adashgan arvohdai unga intilib.

Ufqlar ortida zangori yo'l bor...  
Ruhimni izlayman, qayda u, evoh?  
Osmon, yulduzlarning qabrini ko'rsat,  
Unda ko'milganmi ruhim begunoh?

Ufqlar ortida zangori yo'l bor,  
O'lim erk ustiga qadalgan tug'dir.  
Ketaman, qontalash ufq ortiga,  
Xayolim munavvar, yo'lim yorug'dir.

Ufqlar ortida zangori yo'l bor,  
Hayqir, dalli dilim, sen nechun nigun?  
Nega jim kechasan, la'livash qonim,  
Sen kimni izisan, ko'zimdagi mung?  
Ufqlar ortida zangori yo'l bor...

## O‘G‘LIMGA DARSLIKALAR

### 1. Tabiat darsi

Har bitta daraxtda bir dil yashaydi,  
Tiqilgani sari o‘sadi ko‘nglim.  
Ularga quloq sol, ularni tushun,  
Daraxtlar aldashni bilmaydi, o‘g‘lim.

Jajji yuragingda kimning sog‘inchi,  
Sezaman, ne qilay, boshqadir yo‘lim.  
Senga dadangdan ham mehribon, yaqin,  
Daraxtlar nomardlik qilmaydi, o‘g‘lim.

Jasur bo‘l, ko‘zingda ko‘rmay sira yosh,  
Har qanday alamni ichingga yut jim.  
Do‘stlardan azizroq, do‘stlardan baland,  
Daraxtlar hech qachon sotmaydi, o‘g‘lim.

Qachondir barvasta yigit bo‘lursan,  
Toleingni ko‘rib to‘lgaydir ko‘nglim.  
Ulardan sadoqat sabog‘ini ol,  
Daraxtlar xiyonat qilmaydi, o‘g‘lim.

### 2. Adabiyot darsi

Goho bo‘m-bo‘sh ko‘nglim oralab  
Sudraladi kuzak shamoli.  
Sarg‘aygan gul yaproqlariga  
Dilim chizar ishqning xayolin.

To‘kilmoqda tomchilab umr  
Malaklarning gul kosasidan.  
Men tug‘ilgan edim-ku bir kun  
Yomg‘irlarning sirli sasidan.

Daraxt edim, egilmas daraxt,  
O'sardim nur emganim sayin.  
Yashil dunyo sog'inchilarida  
Bir kun xazon bo'lmosg'im tayin.

Shoir edim, bebos yuragim, —  
Talashardi ruhim, samo, yer.  
Men sendayin paytimda, o'g'lim,  
Dalalarga o'rgatardim she'r...

O'g'lim, sendan boshqa kimim bor,  
Ko'zlariningda oqadi dilim.  
She'rday Majnun kunlarim haqqi,  
Sen dunyoni shoir qil, o'g'lim!

### 3. Matematika darsi

Men ancha bo'sh edim, toliqar edim,  
Aqlim chalkashtirib ketganda sonlar.  
Hali ham qalbimni o'rtaydi ba'zan —  
Qalbi tenglamaga o'xshash insonlar.

Sen esa miriqib yechasan misol,  
Jajji barmoqlaring yayrab sanaysan.  
Meni g'amalarimdan ayirgin, desam,  
Ishonib-ishonmay kulib qaraysan.

Hayot masalalar turkumi ekan,  
Kimnidir kimidan ayirar o'lim.  
Kimdir ko'paytirar cho'ntakda cho'g'ni,  
Sen qalbda cho'g'ingni ko'paytir, o'g'lim.

Haqni nohaqlarga qo'shib qo'yimagin,  
Kambag'alni boydan ayirma hech vaqt.  
Mening bilimdonim, kichik oqilim,  
Senga nasib bo'lsin men ko'rmagan baxt.

Bir kun vujudimdan ayrıladı jon,  
Qay ildiz ostida chirqirar dilim.  
O'shanda men sevgan bir tup rayhonni  
Qoraygan qabrimga qo'shib qo'y, o'g'lim.

\* \* \*

Kunday yorug‘ qorong‘ulikda  
Oyning nafasiga yediring dilni.  
Bedil bo‘lib kiring mastona —  
Ma'yus xayoliga qaro sunbulning.  
Kunday yorug‘ qorong‘ulikda  
Kiprikda chizingiz tunning suratin.  
Yiqilgan osmonga sekin shivirlang,  
Tongda ochilguvchi g‘uncha hayratin.  
Kunday yorug‘ qorong‘ulikda...

## AMIRQUL KARIM

(1960)

*Amirqul Karim (Amirqul Karimov) 1960-yil 2-sentabrda Shahrисабз tumanining Yangi qishlog‘ida tug‘ilgan. “Kuzda gullagan daraxt”, “Oq tunlar”, “Shabnam terayotgan quyosh”, “Ilinj”, “Sening gullaring” kabi she’riy to‘plamlari nashr qilingan. V.Cherevanskiyning “Amir Temur” tarixiy qissasini, J. Steynbekning “Javohir” qissasini, V. Visotskiyning “Taqiqlangan qo‘shiqlar” she’rlar to‘plamini tarjima qilgan.*

\* \* \*

Umrimni elga berding,  
Ko‘z yoshim selga berding,  
Qalbimni elga berding,  
Falak, sendan so‘rog‘im,  
Ko‘nglimni kimga berding?!

Shundayin yorug‘ dunyo,  
Zulmatni menga berding.  
Kimga shodlik, g‘am degan  
Ulfatni menga berding,  
Falak, sendan so‘rog‘im,  
Ko‘nglimni kimga berding?!

Rizqimni yo‘lga berding,  
Gulimni cho‘lga berding,  
Xanjarni qo‘lga berding...  
Falak, sendan so‘rog‘im,  
Ko‘nglimni kimga berding?!

## UNUTDING

Nahot sen bir hovuch zarni deb,  
Dilingni gulkanni unutding.  
Suydirgan baxt ta'min tuydirgan.  
Ishq degan gulshanni unutding.

Seni deb o'tkazgan onini,  
Sen desa berajak jonini.  
Qahringdan ushoqdek mo'jaz-u,  
Mehringdan ulkanni unutding.

Nigohing devona aylagan  
Visoling parvona aylagan,  
Baxtim deb bir seni tanlagan,  
Sevging-la to'lganni unutding.

Shamolsiz ichikkan yaproqlar,  
Havasin keltirgan titroqlar...  
Oqshomni yoritgan oy nuri  
Izimiz bosilgan tuproqlar.

Biz uzgan atirgul iforin,  
Va'damiz..., sevgimiz tumorin,  
Ul shirin bo'salar xumorin...  
Chehrangsiz so'lganni unutding.

Nahot sen... sog'inching ko'yida,  
Bevafo yorining to'yida,  
"Yor-yor" u nog'ora kuyida  
Tiriklay o'lganni unutding..?!

Nahot sen...

## YORNING JAMOLI

Eramning bog'i, Firdavs bulog'i  
Dilimning dog'i yorning jamoli.

Yuzida yog‘du, ko‘zida jodu  
Olamda toqdur qaddi kamoli.

Sochi — shalola, yonog‘i — lola  
Ko‘nglimda nola — labining boli.

Suv kabi oqsam, yuziga boqsam  
Qaniydi yoqsam... — bahor shamoli.

Bunchalar zolim ul qaro xoling  
Amir zavoling — yorning xayoli.

## YANGI LAZGI

*Bobur ohanglarida*

Yuzi — gul, labi — yoqut,  
sumbulsoch, ko‘zi — ohu,  
Bir ishva tabassuming  
ayladi mani jodu.

Sendan bir nafas eltgan,  
dunyoni qafas etgan,  
Dilimni otash etgan  
aytgin, qandayin tuyg‘u.

Bir ko‘rishda bo‘ldim lol,  
ey, pari sohibjamol,  
Sensiz yashamoq malol  
chashmimga kelmas uyqu.

Bo‘lsang san Xorazmdan,  
shamsona orazingdan,  
Lutfing-u arazingdan  
ko‘nglimga tushdi qutqu.

Tuyg‘ulari pinhonim,  
baxshida senga jonim,  
Amiring, navniholim,  
ishqingga endi tutqun.

## **ABDULLA QO'SHBOQ**

**(1960)**

*Abdulla Qo'shboq 1960-yil Jizzax viloyatida tug'ilgan. "Oshiq dunyo", "Yo'lovchi" kabi she'riy kitoblari chop etilgan.*

### **MEN QUSHMAN**

*Rassom Isfandiyor Haydarovga*

Men qushman,  
Bulutlar oralab uchgan,  
Chiqyotgan quyoshga bosh urib quchgan,  
Yana ne istaysiz yarador qushdan,  
Odamlar yonida yashamoq og'ir.

Odamlar ichida butkul begona,  
Ranglarni axtarib yurgan devona,  
Men qushman,  
Majburan odamman yana,  
Odamlar yonida yashamoq og'ir.

Begona osmonlar bo'g'dilar yomon,  
Ortimdan ovchiday quvladi zamон,  
Meni ko'kdan izlang,  
Qushdirman hamон,  
Odamlar yonida yashamoq og'ir.

Vatandan quvildim, Vatanga qaytdim,  
Osmondan quvildim, osmonga qaytdim,  
Qog'ozlar tushundi, qog'ozga aytdim,  
Odamlar yonida yashamoq og'ir.

Bulutning do'l degan sharchasin sevdim,  
Oyqorning mo'ysafid archasin sevdim,

Meni kim tushunsa,  
Barchasin sevdim,  
Odamlar yonida yashamoq og‘ir.

Dardlarni chizaman osmonday yirik,  
Umidni chizaman,  
Umid ham tirik,  
Ne qilay, dunyoning bori shu — chirik  
Odamlar yonida yashamoq og‘ir.

Kimga do‘s tutindim, kimgadur dushman  
Barini unutib uchganim- uchgan.  
Meni tushuninglar,  
Axir men qushman,  
Odamlar yonida yashamoq og‘ir.

### YO‘Q QIL...

O‘n yil-ku chidadim, amallab, og‘rib,  
To‘lib ketsa hamki qonlarga ichim.  
Qirq yil-ku chidadim, jonim tosh bo‘ldi,  
Yuz yil chidamoqqa yetmaydi kuchim.  
O, Xudo! Dunyodan sevgini yo‘q qil!

Ayol va muhabbat. Ikkisi sirdosh,  
Belgilab beradi zamonning zaylin.  
Fitna ittifoqi yetsin so‘ngiga,  
Istasang ayolni saqlab qol, mayli.  
O, Xudo! Dunyodan sevgini yo‘q qil!

Shohlar ham gadolar yo‘liqqan birday,  
Bitta men haqimda emas bu doston.  
Hayotning ustuni, deb atar kimdir,  
Shusiz ham yiqilib ketmas-ku osmon.  
O, Xudo! Dunyodan sevgini yo‘q qil!

Zamin dumaloqdir qayga qochsang ham,  
Shu joyga kelasan boshqasi yolg'on.  
Qo'lida Majnunning kishinan tutib,  
Har yerda oyoqdan chalgani chalgan.  
O, Xudo! Dunyodan sevgini yo'q qil!

Balkim mendan keyin cho'zilar ming yil,  
Ayol va muhabbat qul qilar erkni..  
Ko'plarning boshiga yetgaydir aniq,  
Muhabbat jodusi, ayloning ko'rki.  
O, Xudo! Dunyodan sevgini yo'q qil!

Ayol va muhabbat kuldilar sirli,  
Meni telba qildi o'rtaga olib.  
Qarshilik qilmoqqa qolmadikuchim,  
Mayli, bo'la qolsin ikkisi g'olib.  
O, Xudo! Dunyodan sevgini yo'q qil!

O'n yillar ko'zimdan oqdi qonli yosh,  
Meni ado qildi g'iybat, fisq, fujur.  
Hammadan yashirib yig'ladim qirq yil,  
Yuz yil yig'lamoqqa emasman majbur.  
O, Xudo! Dunyodan sevgini yo'q qil!

## UCHINCHI KO'Z

*Shavkat Rahmon xotirasiga*

Horg'in ko'zlarin yumdimi, demak,  
Shoir ko'ksi bilan turar tikilib.  
Doim uchinchi ko'z ochilganida,  
Haqiqat degan uy tushar yiqilib.

Oson aldanadi ikki sodda ko'z,  
Tabassum qilishga kuch topar hatto,  
Nogah uchinchi ko'z fosh qilar sirni,  
Hammasi aldamchi,  
Hammasi xato.

Aytishga til bormas ko‘rganlarini,  
Uchinchi ko‘z sabab tortadi jabr:  
Hasratning balosi ekan yomonlik,  
Goho yaxshilikning ortida kibr.

Nega hamma uchun bo‘lar xijolat,  
O‘zida his etar og‘riq, uyatni,  
Axir u tugatgan emas dunyodan,  
Qachondir bor bo‘lgan samimiyatni!

Kulgular ikki xil,  
Yuzlar ikkita,  
O‘rtada pardalar saqlar jimlikni.  
Shoir gunohkorday ezilar garchi,  
Hech kimga o‘rgatgan emas shumlikni.

Shoir azob chekar  
Ko‘rlar ichida  
Yurganday sezadi gohida o‘zni.  
Xudoning bergani shudir,  
Birovdan  
Tortib olmadi-ku uchinchi ko‘zni.

O, dunyo,  
Qiynama bu bechorani  
Ne bo‘pti yashirgan sirini bilsa.  
Shoirni uxlatib qo‘ygin sehrlab,  
Shoirni sotib ol,  
Qo‘lingdan kelsa.

O, dunyo,  
Ikkita ekan-ku yuzing,  
Bittasi yaxshilik,  
Bittasi Baxmal tumanida tug‘ilgan tuzoq,  
Agar uchinchi ko‘z bo‘limganida,  
Shoir yashar edi hammadan uzoq...

# GAVHAR IBODULLAYEVA

(1961)

*Gavhar Ibodullayeva 1961-yilda tug‘ilgan. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi. “Qutlug‘ so‘zlar”, “Bir vujud sog‘inch”, “Yuragimda yashayotgan sir”, “Vatan siyrati” nomli kitoblari chop etilgan.*

\* \* \*

Faqat ko‘zim yashaydi siz-la,  
nigohim zimnida  
bir suvrat muqim.

Faqat rangim yashaydi siz-la,  
qaynoq kaftlaringiz  
sog‘inib.

Faqat so‘zim yashaydi siz-la,  
har kuni ming bora  
ismingiz alqab.

Faqat bo‘zim yashaydi siz-la,  
kelar yo‘lingizda  
og‘rinib.

Yuragim. Tilagim.

Xohish. Irodam.

Orzum. Armonim.

Ohim. Va zorim.

Bari-bari siz bilan birga.

Faqat,  
o‘zim yashay olmayman  
siz bilan...

Sevaman deng,  
 qismat yo‘liga  
 bu so‘zingiz sadaqa bo‘lsin.  
 Sevaman deng,  
 ma’shuqa ruhning  
 shodon bo‘lib, qalbi-da to‘lsin.  
 Sevaman deng,  
 inomni qalbdan  
 etagimga tashlang non kabi.  
 Zor-u nolon  
 ochiqqan qalbning  
 ko‘zi to‘ysin, to‘yinsin ta’bi.  
 Xayr qiling,  
 bir tomchi suvday  
 toki, jon vujudga quyilsin.  
 Sevaman deng,  
 shafoat eting,  
 peshonamning sho‘ri yuvilsin.  
 Sevaman deng,  
 shu zar tilloni  
 bir chaqaday soling kaftimga.  
 So‘nggi nafas,  
 so‘nggi damgacha  
 boj-u xiroj bo‘lsin baxtimga.  
 Sevaman deng, marhamat qiling,  
 tortiq eting dunyoga ishqni.  
 So‘ngra haydab  
 soling mayliga,  
 so‘ngra qaytib ochmang eshikni...  
 Faqat,  
 sevaman deng bir bora...

\* \* \*

Hammasi tugadi,  
hammasi tamom,  
hukmi Haq —  
vidoni cho‘zib netaman?  
Diydamdan dur bo‘lib oqar  
dunyongiz,  
men unga dilimni qo‘yib ketaman!

Hammasi tugadi,  
hammasi tamom,  
endi naqd sukutning qo‘lin tutaman.  
Fikrim — chosh,  
ko‘zim — yosh,  
dilingiz esa tosh,  
shu toshga ismimni o‘yib ketaman!

\* \* \*

Sizni sog‘insam gar,  
yuragim  
esimga keladi.  
Esimga kelsa gar  
yuragim,  
sog‘ina boshlayman o‘zimni.  
O‘zimni sog‘ina boshlasam,  
siz chiqib kelasiz  
qalbim tubidan.

\* \* \*

Buncha so‘roqlaysiz sevasanmi deb,  
Sizni sevdim deyish oson ekanmi?  
Tillarim uvushsa, jonim uvushsa,  
Sevgi dilga botgan sanchiq, tikanmi?

Sevaman deng,  
 qismat yo'liga  
 bu so'zingiz sadaqa bo'lsin.  
 Sevaman deng,  
 ma'shuqa ruhning  
 shodon bo'lib, qalbi-da to'lsin.  
 Sevaman deng,  
 inomni qalbdan  
 etagimga tashlang non kabi.  
 Zor-u nolon  
 ochiqqan qalbning  
 ko'zi to'ysin, to'yinsin ta'bi.  
 Xayr qiling,  
 bir tomchi suvday  
 toki, jon vujudga quyilsin.  
 Sevaman deng,  
 shafoat eting,  
 peshonamning sho'ri yuvilsin.  
 Sevaman deng,  
 shu zar tilloni  
 bir chaqaday soling kaftimga.  
 So'nggi nafas,  
 so'nggi damgacha  
 boj-u xiroj bo'lsin baxtimga.  
 Sevaman deng, marhamat qiling,  
 tortiq eting dunyoga ishqni.  
 So'ngra haydab  
 soling mayliga,  
 so'ngra qaytib ochmang eshikni...  
 Faqat,  
 sevaman deng bir bora...

Hammasi tugadi,  
hammasi tamom,  
hukmi Haq —  
vidoni cho‘zib netaman?  
Diydamdan dur bo‘lib oqar  
dunyongiz,  
men unga dilimni qo‘yib ketaman!

Hammasi tugadi,  
hammasi tamom,  
endi naqd sukutning qo‘lin tutaman.  
Fikrim — chosh,  
ko‘zim — yosh,  
dilingiz esa tosh,  
shu toshga ismimni o‘yib ketaman!

Sizni sog‘insam gar,  
yuragim  
esimga keladi.  
Esimga kelsa gar  
yuragim,  
sog‘ina boshlayman o‘zimni.  
O‘zimni sog‘ina boshlasam,  
siz chiqib kelasiz  
qalbim tubidan.

Buncha so‘roqlaysiz sevasanmi deb,  
Sizni sevdim deyish oson ekanmi?  
Tillarim uvushsa, jonim uvushsa,  
Sevgi dilga botgan sanchiq, tikanmi?

Sizni o‘ylar bo‘lsam, lahzalar yildek,  
Kun-kunim sixlasa, umrim tig‘lasa.  
Kiprik qoqolmasam tunlar g‘am bosib,  
Kiprigim ustida sog‘inch uxlasa.

Sizga yurar bo‘lsam, yo‘lim gullasa,  
Ruhimda boshlansa Navro‘z ayyomi.  
Dilim oqib ketsa mendan ilgari,  
Sevgi qirg‘oq bilmas toshqin daryomi?

Sizni ko‘rar bo‘lsam, o‘z dunyom abas,  
Dilni poralasam, bag‘rimni tilsam.  
Mayli, ko‘rmasam-da, mayli, yetmasam,  
Hajringiz malolin bo‘ynimga ilsam!

Sizni topar bo‘lsam, o‘zni yo‘qotsam,  
Jonimga yoprilsa hislar quyuni.  
Ilkis dovdirasam, tinsam, tutilsam,  
Boshim gangisa bu baxtdan suyunib.

Sizga talpinishdan tolmasa yurak,  
Oxiri bo‘lmasa bu shirin tushning.  
Ayting, nima qilsin, ayting, ne desin,  
Zaboni bo‘lmasa sho‘rlik bu qushning?

Buncha so‘roqlamang sevasanmi deb,  
Sizni sevdim deyish oson ekanmi?..

## BAHROM RO'ZIMUHAMMAD

(1961)

Bahrom Ro'zimuhammad 1961-yilda Xorazm viloyatining Shovot tumanida tug'ilgan. "Tovushsiz qadam" (1987), "Terakka yaqin yulduz" (1989), "Ikki nur" (1994), "Davsaman" (1995), "Tinch gullaydigan daraxt" (1997), "Kunduz sarhadlari" (1999), "Soyalar suhbat" (2006) kabi she'riy to'plamlar muallifi. 20-asr nemis shoirlarining ijodidan namunalar tarjima qilgan (X. M. Ensensberger va boshqa). "Cho'lpon — tong yulduzi demak" risolasi chop etilgan.

### ARAFA

Siz havoni ushlab ko'rib  
olmaxonga aylantirishingiz mumkin.  
Yaproqqa qo'l tekkiszangiz  
suvratdagi daraxt novdasiga  
ninachi qo'nadi  
Ko'kqarg'aning tushi  
sim ichidan  
elektr quvvatiga o'xshab o'tadi.  
Quyoshlar shu qadar ko'payib ketdiki  
kulba bo'sag'asiga tashlab qo'ydik  
bo'yraga o'xshatib.  
Siz bayroqni yirtib  
jarohatingizni bog'lab qo'ydingiz  
siz eng ezma kishi nutqini  
favqulodda qiziqish bilan tingladingiz  
siz odam ko'ziga qaragan yanglig'  
o'ta jiddiy holda nigoh tashladingiz bo'shliqqa  
Havodan yasalgan olmaxon

kurtak ichiga bekinib oldi o'tkir  
yashil hid chiqadi kurtak ichidan  
hidlasam boshim aylanadi  
bosh aylanaverar hidlayversam men  
va bu menga nihoyatda xush yoqadi  
atrofga tun cho 'kar-u  
mening jismim egallab turgan joyda  
qotib qolar to 'satdan kunduz  
Qani havoni ushlab ko 'ring endi  
qop-qora olmaxon  
qo 'lqopdek yopishmasmikan qo 'lingizga  
Qani yaproqqa qo 'l tekkizing  
suvratdag'i daraxt novdasi  
aynan ninachiga aylanmasmikan  
Ko 'kqarg' aning tushi  
sim ichida erib bitmasmikan  
Oyoq qo 'ying  
jizg' anak qilmasmikan daf' atan quyosh  
Bayroq ham yo 'q edi  
jarohat ham yo 'q  
shunchaki mavhum bir arafa  
nima ro 'y berishin hech kim bilmaydi

## INSONNING SARGUZASHTLARI

Men g' aroyib mevaman  
Yolg' izlik Daraxtidan uzilgan meva  
Yo 'q men yerga tushmadim  
yer ko 'tarilib keldi men tomon  
va bandimdan uzildim qo 'ydim  
Bir sap-sariq maymun  
oq farishta bilan suhbatlashayotgan edi  
farishta ko 'rsatkich barmog 'i ila  
ishora qilardi osmonga

qiqirlab kulardi maymun  
farishta takror va takror  
osmonga cho‘zardi ko‘rsatkich barmog‘in  
qornini ushlab xoxolardi maymun  
farishta uchinchi marotaba jiddiy  
so‘z qotdi maymunga  
maymun sarosimada  
menga qaradi  
va o‘sha lahzada  
Yolg‘izlik Daraxtidan uzildim birdan  
suhbat shabadasi chirt uzdi meni  
g‘aroyib mevaman  
Yolg‘izlik Daraxtining mevasi

## KUBRONING ITI

It muallaq havoda  
o‘rgimchak to‘rida  
tipirchilar it  
Tillo halqa  
yarqiraydi bo‘ynida  
odamning ko‘zidek  
it ko‘zi chaqnaydi  
Nazar tashlar kimyonazar piyr  
vovullab ibodat qilar ekan it  
ovozi aylanar hamd-u sanoga  
Ollo deb o‘sadi chechaklar  
qaldirg‘och tumshug‘ida odam shajarasi  
zum o‘tmay  
besh daqiqa  
ilonga aylanib turadi halqa  
Goh tilda halqa u  
goh ilon  
goh halqa  
goh

It odam qavmiga qo'shildi  
uzlatga chekindi  
itning jismi-yu  
odam qalbi va ko'zi bilan

## AFSUNGAR

Osmon yam-yashil edi  
qizil bulutlardan  
nimpushti rangda sharbat yog'ardi  
Azroil  
tik boqsa  
bu manzaraga  
Farishtalar  
qulinqi teshgudek jarangdor ovozda  
quduqqa qulagan zangori echki  
xususida qo'shiq kuylardi  
Tamaki tutuni  
uchiq izi kabi shakl qoldirdi havoda  
nimpushti manzaraga hoshiya bo'ldi  
Azroil panjasidan  
aynan shu lahzada  
qutuldi arvohlar  
Qandaydir bir maxluq bor ovozi bilan kuldi  
so'ng avvalgidek jimlik cho'kdi  
yerga osmonga

## AZIZ SAID

(1961)

Aziz Said (Aziz Saidov) 1961-yil 25-sentabrda Dushanbe shahrida tug‘ilgan. “Chiltor” (1988), “Dili qani Bedilning” (1996), “G‘oyibdan do ‘st bilan suhbatlar” (2001), “Fursat darvozasi” (2007), “Vaqt manzili” (2021) nomli she’riy kitoblar mualifi. U.Uitmenning “Maysa yaproqlari”, N.Hikmatning “Yusuf va Zulayho”, B.Brextning “Teatr va realizm”, Paulo Koeloning “Alkimyogar” kitoblarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

\* \* \*

Buxoroning darvozasini,  
Kamalaklar ochadi har tong.  
Bodi qutni yetaklab minor  
Ko‘chalarda chalib yurar zang.  
Alla aytib bobom Chor Minor  
Beshigimdan yasadi chiltor.  
Chashmi Ayub kosa-kosalab,  
Axli ishqqa tutadi ziyo.  
Gul chayadi Labi hovuzda  
Kelinchaklar, zulflari siyoh.  
Chiltorimga qil tortdi laylak —  
Bahor o‘pgan dil kabi sayrak.  
Shaharga bir karvon kiradi,  
Ustida bor qirqta oshig‘i.  
Shahardan bir karvon chiqadi,  
Yulduzlarga yetar qo‘shig‘i.  
Chiltorginam, kuyla boringni,  
Chertdim faqat bitta toringni.

\* \* \*

Mashrab qadamlaridan  
to‘kiladi yulduzlar,  
Xurjunning teshigidan  
mo‘ralaydi oppoq tong.  
Sahar chog‘i mashriqdan  
Mashrab bo‘lib keladi  
Sarpoychan O‘zbekiston.  
Darvozalarga cho‘zar  
qadoq bosgan qo‘lini:  
— “Namangon shahridin ketsam  
meni yo‘qlar kishim bormu?  
G‘ariblik shahrida yursam  
meni yo‘qlar kishim bormu?”  
Jimjitlikda qag‘illar  
Mashrabga qora qarg‘a,  
Ketar poy-u piyoda  
bechora bir badarg‘a.  
Mashrab yana qadamlab  
yulduzlarni sudraydi,  
Xurjunning teshigida  
oppoq bir tong mudraydi.

\* \* \*

Kecha yig‘lar, qora sochiga  
Qadab singan oy — tarog‘ini,  
Shamol sekin o‘rmalab suvdan  
Sudrab chiqar bo‘sh chanog‘ini:  
— Dili qani Bedilning?

Qushning bo‘m-bo‘sh uyasin daraxt  
Tuni bilan chiqar paypaslab.  
Kapalaklar tog‘ni uyg‘otib,

Sahrolarga ketadi boshlab:

— Dili qani Bedilning?

Chumolilar uchar falakka —

Nigohlarin puflar ko‘zлari.

Yulduz tushar hovuz tubiga —

Baliqlarga aytar so‘zлarin:

— Dili qani Bedilning?

Toshbaqalar misqol-misqollab

O‘lchab berar baxt hamda alam.

Qarg‘a taqdir toshini qirar —

Tumshug‘ida qadimiy qalam:

— Dili qani Bedilning?

Shafaq asta yirtilib oqar —

Bir ko‘za sut biyday sahroga.

Karvon jilar, qo‘ng‘iroq yig‘lar —

Savol berib gumroh dunyoga:

— Dili qani Bedilning?

\* \* \*

Deding: seva olasanmi o‘zingdan kechib,

Chayon yegan bo‘lsa yuragim nishlab?

Jonim simillatib keldi huqqaboz,

“Yo ishqdan” irg‘itdi ko‘zim tarashlab.

Seva oladurman nurdan-da kechib.

Deding: seva olasanmi o‘zingdan kechib,

Men ilon izidan adashgan bo‘lsam?

Tomirim kesdi oy — kuldi chuvalchang,

Baliqqa yedirdi faqat bir tishlam.

Seva oladurman tundan-da kechib.

Deding: seva olasanmi o'zingdan kechib,  
Aldagan bo'lsam gar hatto ertakni?  
Yulduz xato yondi, kemamiz cho'kdi,  
Baribir kuyladik qirqta qaroqchi.  
Seva oladurman yo'ldan-da kechib.

Deding: seva olasanmi o'zingdan kechib,  
Manguga tushdayin bo'lsam gar g'oyib?  
Tasavvur charxpalak kosalariga  
Yodingni quyarkan umrimni sog'ib.  
Seva oladurman sendan-da kechib.

\* \* \*

Bu xato yo'lni sekin barmog'iga o'raydi,  
Makrul o'smani siqar piyolaga, to'lmaydi,  
Ishq-u gunoh qozonda, o't-olovsiz qaynaydi...  
Ishq-u gunoh qozonda...

Ruh qanotin savaydi, savacho'pin juft qilib,  
Urchug'iga o'raydi tun-u kunni ip qilib,  
Qilichini qayraydi qasd lashkarin saf qilib,  
Qilichini qayraydi...

Oyna qildim falakni, dil chohiga qaray deb,  
Taroq yo'ndim dutordan, xayolini taray deb,  
Ignal oldim, aldasam, ko'zlarimga suqay deb,  
Ignal oldim, aldasam...

Kaftimda gulxan yoqdim, yig'lab-yig'lab o'chirdi,  
Bo'ynimga zanjir taqdim, ishq yurtidan ko'chirdi,  
Jonni sepib qush boqdim, dard ko'liga uchirdi,  
Jonni sepib qush boqdim...

Men bir bozingarman, bugun so‘nggi bor  
Pardasiz sahnaga chiqaman kulib.  
Aldab kelgan edim sizlarni har kun,  
Ming bir bor tug‘ilib, ming bir bor o‘lib.  
Ko‘ksimga sanchilgan nayzalar nayza  
Emas, ko‘zim ekkan maysalar edi.  
Kaftimga qo‘ngan qush qo‘shig‘im tinglab  
Sizlarni kuldirdi, tilimni yedi.  
Tosh bilan boltani qarsillatgan men,  
Bu yolg‘on o‘rmonda adashgan sizziz.  
Nay chaldim, darz ketgan umr ko‘zamdan  
Ishqdan mast ilonlar chiqmadi, essiz.  
Men bir bozingarman, bugun so‘nggi bor  
Jaranglar tillari bog‘liq qo‘ng‘iroq.  
Chiroqlar o‘chadi, boyo‘g‘li huvlab  
Sarupo tikadi menga ming yamoq.  
Chiqaman bo‘g‘zimda olovlar o‘ynab,  
Xatoni pichoqday yutadi yurak.  
Ko‘zimda favvora qon bilan o‘ynab,  
Yuzimga sepadи — siz uchun ermak.  
Dovullar chalinar, langarcho‘p sinib  
Qularkan men dordan, so‘ramam shafqat.  
Qumsoat sirlarim sanarkan bir-bir,  
Alvido aytaman — sizlarga nafrat!

Men bir bozingarman, bugun so‘nggi bor  
Pardasiz sahnaga chiqaman kulib...

## ESHQOBIL SHUKUR

(1962)

*Eshqobil Shukur 1962-yil Surxondaryo viloyatining Qumqo'rg'on tumanidagi Boymokdi qishlog'ida tug'ilgan. O'zbekiston tonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi. "Yurakni o'rghanish", "Sochlari sumbul-sumbul", "Tungi gullar", "Yashil qushlar", "Hamal ayvoni", "Ko'z yumib ko'rghanlarim" she'riy kitoblari, "Ko'hna bog' rivoyatlari", "Asr rivoyatlari" nasriy kitoblari, turkiy so'zlar tarixiga bag'ishlangan "Bobo so'z izidan" nomli asari nashr etilgan.*

## RUHIM

Ahay-aha-hay. Ahay-aha-hay!  
Men qushlarning tushlarida ko'rinyay,  
Men tushlarning qushlarida ko'rinyay.

Ahay-aha-hay. Ahay-aha-hay!  
Men tillarning gullarida ko'rinyay,  
Men gullarning tillarida ko'rinyay.

Ahay-aha-hay. Ahay-aha-hay!  
Men to'ylarning kuylarida ko'rinyay,  
Men kuylarning to'ylarida ko'rinyay.

Ahay-aha-hay. Ahay-aha-hay!  
Men ko'zlarining so'zlarida ko'rinyay,  
Men so'zlarining ko'zlarida ko'rinyay.

Ahay-aha-hay. Ahay-aha-hay!

Suv ustida, suvlar ustida  
 Yuraklarim chisirlaydi-yey.  
 Ishq dastidan, hijron dastidan,  
 Suyaklarim qisirlaydi-yey.  
 O't ustida, o'tlar ustida  
 Ko'z yoshlarim daryo bo'lди-yey.  
 Ishq qasdida, hijron qasdida  
 Bardoshlarim ado bo'lди-yey.  
 Tosh ustida, toshlar ustida  
 Ko'nglim erir oy kabi ma'yus.  
 Ishq faslida, hijron faslida  
 Yig'la, Bahor, mening ismim — Kuz.  
 Yo'l ustida, yo'llar ustida  
 Oyoqlarim yurak bo'lди-yey.  
 Ishq kasridan, hijron kasridan  
 Umrим faqat tilak bo'lди-yey.

## OLAPAR

Olaparni shundoq ko'zim oldida  
 Otdilar — do'stini bolaligimning...  
 Onam o'rgatganday: "Rozi bo'l" dedim,  
 Shu ilk bor rozilik so'rashim mening.  
 Jigarrang, alamli ko'zlarin tikib,  
 Olapar vidolar aytarkan beso'z...  
 Birdan o'q otildi. Ortga burildim —  
 Yelkamga qadalib qoldi ikki ko'z.  
 Yillar o'tib ketdi. O'z o'tmishim bor —  
 Kechganim goh dushman, goho do'st bilan.  
 Men endi qarayman bolaligimga  
 Yelkamga qadalgan bir juft ko'z bilan...

## SEHR

Kecha tildan qoldi, qoldi-ya tildan...  
Hilol etagida yig‘layotgan sen...  
Qadimiy oyatlar bitilgan yo‘lda,  
Eshqobil emasman endi men.  
Dengizlar ko‘karib tortadi chilim,  
Baxmal bulutlarni kiyayotgan sen.  
Oltin baliqchaga aylandi tilim,  
Eshqobil emasman endi men.  
G‘uborli tumanlar chimildig‘ida,  
Olov qanotida titrayotgan sen.  
Qara, ko‘zlarimning topildig‘iga,  
Eshqobil emasman endi men.  
Kecha tildan qoldi, qoldi-ya tildan,  
Nafas torlarimda uxlayotgan sen.  
Qushdan ildiz oldim, qanotni guldan,  
Eshqobil emasman endi men.

## ARUZ

Temir xalajidan Ters o‘tgan momo,  
Qurbaqaning butiga shardoz boylab ber endi,  
Yig‘layapman... Yog‘li-yog‘li ilik chaqib ber endi.  
Kelim-ketim dunyodan O‘ng o‘tgan momo,  
Suruv-suruv qayg‘ulardan suluv saylab ber endi,  
Ola toshdan qoq yelkamga tumor taqib ber endi.  
Temir xalajidan Ters o‘tgan momo,  
Qurbaqaning sol butiga ko‘k tomirim boylandi,  
Ko‘r qurbaqa meni sudrab zindon bo‘ylab aylandi.  
Kelim-ketim dunyodan Keng o‘tgan momo,  
Talonzada ko‘kragimga avrab gulmix qoqdilar,  
Ichidan qo‘sh daryo oqqan iligimni chaqdilar.  
Temir xalajidan Ters o‘tgan momo...

\* \* \*

Tilimni kuydirdi bulbulning suti,  
Tanglayimni yoqdi gul ichirgan qon.  
Men ikki dunyoni bir hatlab o'tib,  
Og'zimga solganim bor-yo'g'i tolqon.  
Ko'zimni muzlatdi jahannam o'ti,  
Ko'nglimni xor qildi bu "gulzor, chaman".  
Men ikki dunyoni bir hatlab o'tib,  
Ko'z ochib ko'rganim bor-yo'g'i tuman.  
Qulog'im kar qildi haqning sukuti,  
Bu sukutmi va yo tilisiz qatag'on.  
Men ikki dunyoni bir hatlab o'tib,  
Eshita olganim bor-yo'g'i yolg'on!

\* \* \*

O, meni yig'latma...  
Yomon tushlar ko'rib namozshomgulim,  
meni yig'latma.  
Men poyi-pataging bo'lay qayg'ulim,  
meni yig'latma.  
Otingdan aylanay, og'rima gulim,  
meni yig'latma.  
Uh tortsang, ustuni qular falakning,  
yig'latma.  
Ko'krak qafasiga yanglishdan xudo  
Ayloning yuragin qo'ygan erkakni  
yig'latma.

## ABDURAHMON AKBAR

(1962–2015)

*Abdurahmon Akbar 1962-yil 22-aprelda Toshkent viloyati Yangiyo'l tumani Niyozbosh qishlog'ida tavallud topgan. "Kichkin toy va paxtaoy", "So 'zlovchi yomg 'ir", "Ehtiyotkor toshbaqa", "Yozning tug 'ilgan kuni", "Kuylayotgan bog'", "O'yinqaroq bulutch'a", "O'rdakcham", "Jonli savatcha", "Uyquchingning tushlari" kabi kitoblari chop etilgan.*

### SO'ROV

Yaproqlarning boshin silading,  
Daraxtlarga o'rgatding o'yin.  
Bulutlarni "yum-yum" yig'latding,  
Buzib qo'yib nogahon "to'yin",  
Shamol, bitta yuzingni ko'rsat.

Goh uvlaysan, goh chiyillaysan,  
Seni kimdir quvlarmi bu payt?  
Kayfiyatning bilmay hayronman,  
Xursandmisan, xafamisan, ayt,  
Shamol, bitta yuzingni ko'rsat.

Yelayapsan, jivirlar buloq,  
Kelayapsan, shivirlar yaproq,  
Nima bo'lar o'zing ko'rsatsang,  
Nahot yuzing shuncha badqovoq?  
Shamol, bitta yuzingni ko'rsat.

Bir qarasam, yo'qqa o'xshaysan,  
Bir qarasam, o'xshaysan borga.  
Tanib qo'yay seni ham axir,  
Bir bor xo'p de, men qilgan zorga,  
Shamol, bitta yuzingni ko'rsat!

## KITOBNI KO‘P O‘QIYDIGAN UKAM

Kitobni ko‘p o‘qiydigan ukam  
Nimagadir juda ham kamgap.  
Kitobni ko‘p o‘qiydigan ukam  
She’rlar yozar onamga atab.

Kitobni ko‘p o‘qiydigan ukam  
O‘yga tolar ba’zida uzun  
Va shivirlar: — Hali kelmabdi  
Suvlar suvga o‘xshaydigan kun.

Kitobni ko‘p o‘qiydigan ukam  
Bir kun menga shundayin dedi:  
— Oq mo‘ynali qalpog‘ingiz ham  
Quyon edi, joni bor edi.

— Bunaqangi jumboq gaplarni  
Qaydan o‘ylab topasan? — desam,  
Bosh chayqar-da, “uf” tortib qo‘yar,  
Kitobni ko‘p o‘qiydigan ukam.

## YOMG‘IR

Tunlari kuladigan  
Gullar ekan yulduzlar.  
Ko‘zga ko‘rinmas ekan  
Shu boisdan kunduzlar.

Oftob bilan Oymoma  
Ota-yu ona ekan.  
Bolalarin boshida  
Doim parvona ekan.

Bolalari kim dersiz  
Kun va Oyni sizlar ham.  
Menga ishonavering,  
Ular Bulutlar desam.

Bulutlar ham bizlardek  
O'ynar, uxlar, tush ko'rар.  
Dengiz-u ummonlarda  
Cho'milmoqni xush ko'rар.

Bas, suvdan chiqing, deya  
Koyimasa ham hech kim,  
Yuvor yuz-qo'llarini  
Ular goh chala-yarim.

Bundan ranjib Oftobjon  
Egniga peshband tutar.  
Farzandlarin bir joyga  
To'planishlarin kutar.

Bulutvoylar g'uldirab,  
Yo'talishsa ham "quv-quv",  
Ularning ust-boshidan  
Quyosh quyar tinmay suv.

Ko'ngli to'lsa-ku xo'p-xo'p,  
Yo'qsa: quyar tunda Oy.  
Natijada tevarak  
Bo'lib ketar ho'l va loy...

Uydan chiqmay shu kezlar  
Derazadan bo'ylaymiz.  
Eng qizig'i, bu suvni  
Biz yomg'ir deb o'ylaymiz.

## FAXRIYOR

(1963)

*Faxriyor (Faxriddin Nizomov) 1963-yilda Samarqand (hozirgi Navoiy) viloyati Xatirchi tumanidagi Sangijumon qishlog‘ida tug‘ilgan. “Dardning shakli” (1987), “Ayolg‘u” (2000), “Geometrik bahor” (2004), “Izlam” (2019) she’riy to‘plamlari, “Yangilanish an’analari” (1988) publitsistik maqolalar to‘plami nashr etilgan.*

*Qozon shahrida bo‘lib o‘tgan XI Turkiy xalqlar she’riyat festivalining Rami Garipov nomidagi bosh mukofotiga sazovor bo‘ldi (2015).*

### SANGIJUMONDA YOZ MANZARALARI

Saraton.

Darmonday qurigan suvlar.

Buloqlarning ko‘zlari o‘yiq.

Suvsoq soylar ilon kabi bilanglab  
ketib borar  
suvloq yerlarga.

Bunda chanqamas quduqlar faqat,  
Yozning chanqog‘in ko‘rib,  
xijolatdan yerga kirib ketgan quduqlar.

\* \* \*

Keldigim, kelmaging bunchalar qiyin?  
Kuldigim, kulmaging bunchalar qiyin?  
Bildigim, bilmaging bunchalar qiyin?

Suydim, allayor-allayor,  
kuydim, allayor-allayor!

Bu ko'ngil emrandi,  
azobim — bilgich,  
visoling falajdir,  
hijroning — kelgich,  
tabassum ko'rmagan  
shikasta kulgich.  
Suydim, allayor-allayor,  
kuydim, allayor-allayor!

Baxtning darvozasi zanglab yotadi,  
yurak ochilmog'in angnib yotadi,  
ortiga oy botar, yulduz botadi.  
Suydim, allayor-allayor,  
kuydim, allayor-allayor!

Ne nayson edingki, abr kelmadi,  
qoshing qarosidan qadr kelmadi,  
na jahr-u na zikr-u sadr kelmadi.  
Suydim, allayor-allayor.  
kuydim, allayor-allayor!

Ko'ngil oynasiga ko'z yosh to'kildi,  
falakdan oy bilan quyosh to'kildi,  
umid kosasidan bardosh to'kildi.  
Suydim, allayor-allayor,  
kuydim, allayor-allayor!

Dildan yulib oldim har bitta baytni,  
kulindim, tilindim, alyorlar aytdim,  
shoyad tunlarimga suydigim qaytsa.  
Suydim, allayor-allayor,  
kuydim, allayor-allayor!

\* \* \*

Tiyramoh bog‘lari rutubatlidir,  
kezinar, ezinar telba ruhunat.  
Yomg‘ir bo‘lib bo‘zlar sag‘ir sukunat,  
ichingda o‘rmalar kuygin bir gidir.

Gulim, bahorlarda ketding sen qolib,  
oramizda to‘qson, bir qishlik yo‘l bor,  
taroqdan o‘rmon-u, oynadan ko‘l bor,  
na ohim yetgaydir, na qiylu qolim.

Tushovin uzolmas vaqt — arg‘umoq,  
chiltanning qo‘llari qanotga do‘nar.  
Ketarman, bu yerda qolmog‘im gumon.

Ketarman, izimdan xazonlar haydab,  
shamollar ergashar. Daraxtlar to‘nar.  
“Bor-ho, kel-ho, hamalam-ha, yo‘l qaydi?..

\* \* \*

Sen meni aldaysan tush kabi,  
bahorlar keladi, kelmassan.  
Janublardan qaytgan qush kabi  
mening kulbam qayon, bilmassan.

Yulduzdan so‘rayman — devona,  
men seni oylardan so‘rayman.  
Kuyadirman shamsiz parvona,  
samandardek kuldan to‘rayman.

Sen meni aldaysan, gulgina,  
kimning bog‘lariga qaytarsan?  
Ko‘nglim sinar, muz bo‘lib sinar.

Sen meni aldama, aldama,  
suydim deb kimlarga aytarman?  
Umid sog‘inch idrokin yamar.

## GULIM

Yurakni tikaman, tavakkal bu — mir,  
Yutaman, hijroning chiqadi. Ne sir?  
Qaroqda armonlar aylanar gir-gir:  
Gulim,  
ruxsoringni ko‘rolmadim bir.

Boshimda quzg‘undek charx urar kunlar,  
Na der bor, na she’r bor seningsiz tunlar,  
Ko‘ksimdan Oy bo‘lib otadi munlar,  
Gulim,  
ruxsoringni ko‘rolmadim bir.

Ne rostki, dunyoning yolg‘onlari mo‘l,  
Bermog‘i mushkuldir, olganlari mo‘l,  
Ne g‘amki, ketgandan qolganlari mo‘l,  
Gulim,  
ruxsoringni ko‘rolmadim bir.

Ne bahor, men uni sog‘inmay qo‘ydim,  
Ne sabr kosasi — hajr, may quydim,  
Ne orzu edingki, armonga yo‘ydim.  
Gulim,  
ruxsoringni ko‘rolmadim bir.

Gullarga qarayman, gulim yo‘q mening,  
Yo‘llarga qarayman, yo‘lim yo‘q mening,  
Yondim-u, kuydim-u, kulim yo‘q mening,  
Gulim,  
ruxsoringni ko‘rolmadim bir.

Ne nayki, bo‘g‘zida navolar kuyar,  
Qobirg‘am o‘rnida havolar kuyar,  
Oqqushning bo‘ynida savollar kuyar,  
Gulim,  
ruxsoringni ko‘rurmanmi bir?

## VAFO FAYZULLOH

(1963)

Vafo Fayzulloh 1963-yil, 27-iyulda Navoiy viloyati, Karmana tumanining Tog‘guzar qishlog‘ida tug‘ilgan. “Hut”, “Xabarsiz sevinch”, “Mangu lahza”, “Jon yo‘li”, “Azaliy g‘ussa”, “Chaqmoq yorug‘i”, “Kurtakda daraxtni ko‘rmoq baxti” kabi she‘riy va nasriy kitoblari nashr etilgan. F. Kafkaning “Jarayon” romanini, “Otamga xat” essesini, M. Miterlinkning “So‘qirlar” dramasini, G.G. Markesning “Polkovnikka hech kim xat yozmaydi” qissa-sini, X. Borxes, K. Hamsun, R. Akutagava hikoyalarini, Sh. Bodler, P. Verlin, A. Rembo, I. Bunin, N. Gumilyov, I. Brodskiy va M. Svetayeva she‘riy turkumlarini tarjima qilgan.

## KUZ VA BAHOR ORALIG‘IDA

Osmонning rangiga qo‘shilgan ranglar  
Olmalar hidini hidlaydi tutib.  
Qishloq. Boshlanadi pistoqi janglar,  
Yashamaydi ular bahorni kutib.

So‘lg‘in bog‘. Qabarib qolgan qabrlar  
Ko‘ksimni to‘ldirar aytmay alvido.  
Tunlarni quchoqlab yig‘lar adirlar,  
Eskirgan fasldan bo‘lmasdan judo.

Tongda uyg‘onadi ko‘kargan tuproq,  
Tugaydi men ekkan so‘nggi sabrlar.  
Qahraton ostida qolmasdan chorbog‘,  
Quyoshga talpina boshlar qabrlar...

Sumbula suviga chaydim ko‘nglimni,  
Garchi yuvib bo‘lmas gunohlarim bor.  
Garchi g‘arib ko‘rdim gulday umrimni,  
Bexayol bo‘g‘zimda tilla bog‘ich dor.

Chaydim, Majnunlar xor, ishqimdan yodgor,  
Tuyg‘um cho‘qqisiga lolalar ildi.  
Xotiram qirida ko‘milgan bahor,  
Ruhimning bir etak bolasi keldi.

Ne bir dahshat sirlar tomiri dilda,  
Aytsam o‘zaniga qaytadi dunyo.  
Aytsam, telba derlar tug‘gan elimda  
Bulbuligo‘yolari Haq demas aslo.

Chaqmoqqa mingancha kelar vidosi,  
Qani edi men ham qiyqirib kulsam.  
Meni-da sog‘inadi tongning Egasi,  
Chayilgan ko‘nglim bilan ko‘klarda o‘lsam.

## QISHLOQI SHOIR BAXTI

Qishloq armonlari yig‘ilgan do‘nglik,  
Ovozalar sevar ul qizning husnin.  
Mendan bo‘lak yana shaydo to‘qqiz bek,  
Tunlarni tebratib takrorlar ismin.

To‘daboshi borib turgan bezori,  
Qonagan burunlar kuchiga tilxat.  
Qo‘rqitib olmoqchi bo‘lar bahorni,  
Sevgi haqiqatning lunjidagi bayt.

Sho‘xlik ko‘chasida biri kuchukboz,  
Qarog‘ida yashar ovul itlari.  
Qishloq kuylariga ular jo‘rovoz,  
Oqshomlar yo‘rgagin esa yirtadi.

Agar to‘daboshi bo‘lsa zo‘ravon  
O‘sib kelayotgan yurak cho‘liga.  
Ishoning, kuchuklar edi hukmron  
Ul pari qatnovchi qishloq yo‘liga.

Ana, kengliklarda tushdi esimga  
Kuylari osmonga yoyilgan Cho‘lpon.  
Uning kuylaridan ho‘ngrab yig‘ladim,  
Lekin boylik deya o‘ladi jahon.

Havas oshiqlikni olmoqchi sotib,  
Qishloqning tilida aylanar armon.  
O‘q yo‘qmi, qo‘zg‘aling kesaklar otib,  
Boylit sevolmaydi, sevgisi yolg‘on.

Tepalikning dardi oshiq o‘novlon,  
Qayralgan tishlarda ko‘rmoqlik havas.  
Go‘zallik mag‘rurdir misoli osmon,  
Maktublar yirtilgan, hech kimga boqmas.

Bilaman, hammangiz bo‘saga zorsiz.  
Orzular to‘zoni ichra turibman.  
Yillar qahratonda qolgan bahorsiz,  
Men uning qalbini o‘pib yuribman.

Mayli, qoptiringiz tishlong‘ich itga,  
Men ham ul sevgiga axir daxldor.  
Do‘sstarim, baribir qolgaysiz chetda,  
O‘nta dard meniki va bitta bahor.

Hayot she’rlarini yodlab, yukungan,  
Hayajonim qishloq husniga ovchi.  
Mening tomonimdan, mening ishqimdan  
Hofiz bilan Xayyom bo‘ldilar sovchi.

Do‘sstarim, baribir qolgaysiz chetda,  
Siz sevgan, men kuygan, ul esa bitta.

She'r yozdim yo'liga, ismidir vasfi,  
Tayyorman Isodek mixlansam butga.

Uning qanotidir qishloq alvonchi,  
Bulut ovozimda kunlar quvonchi.  
Mening tomonimdan, mening ishqimdan  
Hofiz bilan Xayyom bo'ldilar sovchi.

## MUHIDDIN OMON

(1963)

*Muhiddin Omon—1963-yilning 18-martida Samarqand viloyati Payariq tumanidagi Qorakesak qishlog‘ida tug‘ildi. “Ko‘ngil darvozasi” (1993), “Tole fasli” (1997), “Munavvar sog‘inch” (2009), “O‘rtamizda ishqning gulxani” (2018), “Kuz sonatasi” (2022), bolalar uchun “Dakang xo‘roz va uning jo‘jalari” (1999, 2006), “Sog‘lomjon alifbosi” (2005), “39 topishmoq” (2011), “Zehni a’lo, tili burro” (2012), “Buyumlar tilga kirsa” (2012) kabi she’riy kitoblari chop etilgan.*

*Tarjimon sifatida M.Omon portugal mumtoz shoiri Luis De Kamoen, rus adabiyotidan K. Balmont, I. Brodskiy, M. Svetayeva, A. Voznesenskiy, B. Okudjava, R. Rojdestvenskiy, arman shoirlari A. Isaakyan, Y. Charens, latish shoirlari O. Vatsietes, P. Zirnites, ozarbayjon shoiri Mirza Hasan Qorabog‘iy va boshqa ko‘plab ijodkorlarning asarlarini o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan.*

## BAXT CHORLAGANDA

Yur ketamiz. Qo‘llaringni ber,  
Qaynoq kaftingga olay.  
Bo‘zlab qolsin Sensiz Ona yer,  
Misli o‘qqa uchgan qarchig‘ay.

Yur ketamiz. Yelkamga boqqin.  
Qanoti bor menda Humoning,  
Shubhalaring daryoda oqsin,  
O‘tda kuysin, bo‘lsa gumoning!

Yur ketamiz. Ketamiz, jonim,  
Sen ham to‘yding. Men ham to‘yibman.  
Ko‘z yoshimga qorilgan nonning  
Tolqonidan asrab qo‘yibman...

Yur ketamiz. Bo‘laqol tezroq,  
Gurlaganda olov shaxdimiz.  
Shuuringda portlasin mudroq,  
Chorlayotir, axir, baxtimiz!  
Yur ketamiz. Yur ketamiz...

\* \* \*

Hilolimsan desam, havolab ketding,  
Umrим oftobisan dedim, kuydirding.  
Asiringman, desam, jazolab ketding,  
Vafoga kibrdan libos kiydirding...

Oh urdim, ohimdan samo sadpora,  
Sen eding-da axir, vujudimda jon...  
Ketarda ortingga qara bir bora,  
Tutundek ergashur bu ruhi ravon...

Ehtimol, men sevgan sen emasdirsan,  
Seni ishq tufayli men ko‘rdim o‘zga.  
Yanglishib atadim, “Malak Farishtam”,  
Va o‘zim ishondim shu yolg‘on so‘zga...

Ehtimol, taqdirning bitgani qismat,  
Samodan ekanin unutdim mutlaq.  
Ehtimol, shuning-chun Sohibi qudrat,  
Men osiy bandaga bergandir saboq...

Endi mohiyating, mazmuning ayon —  
Timsoling yaratmish xayol doyasi:  
Angladim, ishqdirsan men uchun armon,  
Sen — menga atalgan BAXTNING SOYASI...

## MENI ESLAMAGIN...

Meni eslamagin, barini unut,  
Izhor-u iqrорим yodingdan chiqar.  
Endi hayotingda emasman mavjud,  
Aqlim izmidadir asov tuyg‘ular...

Necha yil ortingdan bamisli soya  
Ergashdim bir qatim muhabbatga zor.  
Bugun o‘shal kunlar topdi nihoya,  
Haqiqat ko‘z ochdi, tarqaldi g‘ubor...

Bir narsani bildim, qildim xulosa:  
Ishqda tarozining tengdir pallasi.  
Agar kimdir sevsa, sevilolmasa,  
Umrin yashnatolmas ishqning nafasi...

Zero, “Sevdim” so‘zi sadaqa emas,  
Ko‘ngilda ko‘kargan bir gavhar ekan.  
Ishq Tangridan tuhfa ekan muqaddas,  
Yo‘qsa “oh-u voh”lar besamar ekan...

Sevilmoq baxtidan judolig‘imni  
Tan olmog‘im garchi — men uchun o‘lim...  
Nogahon anglatdi gadolig‘imni,  
Sen tomon ishq tilab cho‘zilgan qo‘lim.

Lek ishqda gadolik — shohlik masnadi,  
Bundan sha’n-u qadrim topmagay rahna.  
Garchi oshiq bo‘lib bahra topmadim,  
Sevgilim, men Senga tilayman bahra...

Sendan ranjimoqqa yo‘q menda asos,  
Ko‘ngilni yolvorib qilib bo‘lmas rom.  
Har kimning hayoti toleyiga mos,  
Muhabbat bobida ketmaydi g‘irrom...

So‘nggi diydor chog‘i tilagim bisyor:  
Tangrim hayotingni qilsin purziyo,  
Sevsang, sevilmoq ham etsin baxtiyor,  
Meni deb Sendan qarz bo‘lmasin dunyo...

Meni eslamagin, barini unut...  
Endi hayotingda emasman mavjud...

### **SENI XAFA QILDIM...**

Seni xafa qildim, Seni ranjitdim...  
Bu mening gunohim, bu mening aybim.  
Bir lahza jaholat yo‘lini tutdim,  
Bu qanday yuz berdi... koshki bilsaydim...

Seni xafa qildim, Seni ranjitdim...  
Yuzlaringni yuvdi ashki nob taxir...  
Yig‘laganing ko‘rib, men og‘u yutdim,  
Buni istamovdim... tushungin, axir...

Seni xafa qildim, o‘zim-da purg‘am,  
Bani basharga xos yanglishmoq azal,  
Bilsang, bir xato deb, hazrati Odam  
Behishtdan mosuvo bo‘lgan bir mahal...

Seni xafa qildim... oh, bu xatolig‘  
Meni-da jannatdan tuproqqa otdi...  
Nahot, boshga tushdi mangu judolig‘,  
Nahot, pok sevgimiz quyoshi botdi?!

Seni xafa qildim... Do‘zaxda yondim,  
Jahannam otashi kuydirdi tanim...  
So‘ngsiz azoblarda o‘zlikdan tondim,  
Lek Sendan tonmadim, tanho suyganim ...

Seni xafa qildim... O'zni o'ldirdim...  
Jismimni tark qildi ruhi ravanom,  
Borliqni bor etgan SO'Zni o'ldirdim,  
Ishq edi, Sen eding, axir, iymonim...

Seni xafa qildim bilib, bilmasdan...  
Seni xafa qildim... men osiy, gumroh.  
Holbuki, qoshingda farqim yo'q xasdan,  
Sen esa...Farishta... Farishta evoh...

Seni xafa qildim...

## RUSTAM MUSURMON

(1963)

*Rustam Musurmon 1963-yil 26 avgustda Qashqadaryo viloyati Kitob tumani Yakkatut qishlog‘ida tug‘ilgan. “Ruhimning tovushi” (1995), “Xirgoyi” (1997), “Bozbarak” (2021), “Bir juft so‘z” (2022) kabi she’rlar va dostonlar to‘plamlari nashr etilgan. Rus tilidan Aleksandr Faynbergning “Chig‘ir” (2007), “Qoralamaga qasida” (2021), qoraqalpoq tilidan Berdaqning “Yurt g‘amxo‘ri kerak menga” (2021), Kengesboy Karimovning “Masofalar” (2021), Sarvinoz Musatdinovaning “Karvon yo‘llari” (2011), Alla-yar Darmenovning “Oy do‘st” (2017), Baxtiyor Genjamurodning “O‘kuzdaryo bitiklari” (2006), “Yurakning o‘rtli osmoni” (2021), Sog‘inboy Ibrohimovning “Yo‘l o‘rtasi” (2021) she’rlar va dos-tonlar to‘plamlarini, Kengesboy Karimovning “Og‘abiy” (2020) romani, Sharap Usnatdinovning “Ibroyim Yusupov” (2022) roman-essesini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.*

*“O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” (2016), “Qaraqalpog‘iston xalq shoiri” (2019) faxriy unvonlari bilan taqdirlangan.*

## BOZBARAK

Hech kim yer sharini ko‘tarolmasmish,  
Tayanch nuqtasini topmasmish, biroq  
Mening bir qo‘limda zamin chirpirak,  
Barmog‘im uchida aylanar falak.  
Bozbarak, bozbarak, bozbarak.

Tugma qadab bo‘lmas emish shamolga,  
Tutqich bermas emish hech kimga, biroq  
Men esa shamolning ikki betiga

Tortib yuborganman ikki shapaloq.  
Bozbarak, bozbarak, bozbarak.

Hech kim ucholmasmish oyog‘i bilan,  
Parvoz qilolmasmish osmonga, biroq  
Mening oyog‘imda tolmas qanot bor,  
Mening oyog‘imga joylangan yurak.  
Bozbarak, bozbarak, bozbarak.

Umr daryosidan kechdi bolalik,  
Shul daryo girdida qolgan charxpalak.  
Qamishday bo‘yimga qo‘ngan ninachi,  
Gulday hayotimdan uchgan kapalak.  
Bozbarak, bozbarak, bozbarak.

\* \* \*

Gull ekurman jahoo-na  
Gul-zoor o‘l-ma-g‘unn-cha-h...  
Joon chekurman jo-noo-na  
Dil-door o‘l-ma-g‘unn-cha-h...

Yooor vasliga qalann-dar,  
Yooor vasfiga saman-dar,  
I-shq ahliga chamann-zor  
Moo-zoor o‘l-ma-g‘unn-cha-h...

Dorr vahmidan fa-laak-lar,  
Kushood o‘lmaz, ma-laak-lar,  
Xoor zahmidan yu-raak-lar  
Gul-door o‘l-ma-g‘unn-cha-h...

Gull-pushsh-ta-g‘aa, gul-moo-himm,  
O‘g‘o‘t o‘lur tur-poo-g‘im —  
Semurg‘-lar-g‘aa guul-boo-g‘imm  
Boo-zoor o‘l-ma-g‘unn-cha-h...

Gull ekurman jahoo-na  
Gul-zoor o'l-ma-g'unn-cha-h...  
Joon chekurman jo-noo-na  
Dil-door o'l-ma-g'unn-cha-h...

## QO'RIQCHI

Hoy gala-gala, hoy gala-aaa...  
Karkas keldi bir gala-aaa...  
Mening bog'im kichkina-a,  
Katta bog'larni tala-aaa...  
Hoy gala-gala, hoy gala-aaa...

Uzumzor orasinda  
Tun-u kun poylab yottim.  
Yurakni palaxmonga  
Tosh qilib joylab ottim.  
Hoy gala-gala, hoy gala-aaa...

Kiygizdim vujudimni  
To'rt tayoqning ustiga.  
Boyladim jon rishtasin  
To'rt-t-a-yo-g'i — dastiga.  
Hoy gala-gala, hoy gala-aaa...

Cho'p chayla — usti jonsiz,  
Pasti jonli ustunlar.  
Olib qochar chaylani  
Birin-birin ustunlar.  
Hoy gala-gala, hoy gala-aaa...

Bir kafan so'ngaklarim  
Ishkom ostiga ildim...  
Haydash-chun karkaslarni  
Shaqqurr-shuquurrdoq qildim.  
Hoy gala-gala, hoy gala-aaa...

Qalbimdan qaqnus qushi  
Uchib chiqar bir gala.  
Bog‘ ichra ming ko‘ngilga  
Tuxum qo‘yar ming gala.  
Hoy gala-gala, hoy gala-aaa...  
Hoy gala-gala, hoy gala-aaa...

## **QOR ZAVQI**

Chiroyli yog‘moqda qor, mayda-mayda yog‘ar qor,  
Osmondag'i bulutlar yerga sepgandek shakar.  
Falak cheksiz boylikni boshidan aylab nisor,  
Kumush sochayotgandek huzur qilmoqda shahar.

Yer yuragimdek issiq, yer nafasimdek qaynoq,  
Qor uchib tushar qushdek qanotlarini kerib.  
Oqbadan qorni quchib terlab ketadi tuproq,  
Qor objo‘shdagi shakar misoli ketar erib.

Qor yog‘moqda oppoq qor, go‘yo un separ osmon,  
Barchaning fikri yodi barakaga chulg‘angan:  
Bamisoli falakdan un sepati tegirmon,  
Odamlarning ust-boshi oppoq unga bulg‘angan.

## **MENI TUSHUNSAYDI ODAMLAR**

Men kitobman mashhur  
Nomimni afsus,  
Qarovsiz yillarning changlari bosgan.  
Men pichoqman  
Keskir damimni nafsiz,  
Yaroqsiz qo‘llarning zanglari bosgan.  
Meni tushunsaydi odamlar —

Titiliii-ib ketsaydim...  
Katiliii-ib ketsaydim...

Har kun darsxonada go‘zal toliba  
Qoldirmay o‘qisa varaqlarimni.  
Har kun oshxonada go‘zal sohiba  
Bildirmay to‘g‘rasa yuraklarini —  
Titiliii-ib ketsaydim...  
Katiliii-ib ketsaydim...

Keyin odamlarga toliba meni  
Suyunib-suyunib sharhlab bersaydi.  
Kiyin odamlarga sohiba meni  
Kuyunib-kuyunib charxlab bersaydi.  
Titiliii-ib ketsaydim...  
Katiliii-ib ketsaydim...

Meni tushunsaydi odamlar...

## G'ULOM MIRZO

(1964)

*G'ulom Mirzo (G'ulom Mirzayev) 1964-yil 4-yanvarda Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumaniga qarashli Xushvaqt qishlog‘ida tug‘ilgan. “Yaxshiyam siz borsiz”, “Unutilgan hur”, “Otamning bog‘i” kabi she’riy to‘plamlari nashr etilgan.*

### YANA...

Yana qoshlar ota boshlar  
Ko‘ngil ko‘zgusiga toshlar.  
Yana chil-chil sinar ko‘ngil,  
Yana zil-zil botar toshlar.

Yana so‘zlar qota boshlar, —  
Manim jonim hovuchimda.  
Yana kul-kul-ku bardoshlar  
Aning bulbul tovushindan.

Yana ko‘zlar — sohir qo‘sniq,  
Oqlar-qarolar qaroshlar.  
Yana hil-hil yetilgay ishq,  
Yana sim-sim oqar yoshlar.

Yana sochlar sochar tushlar,  
Yana qushday uchar hushlar.  
Yana jim-jim egilgaydir  
Muhabbat poyiga boshlar...

## SIZ

Qo'limni uzatsam — yetadiganim Siz,  
Gulimni uzatsam — tutadiganim Siz.  
Sog'inchning sap-sariq chechaklari-la  
Dilimni bezatsam — kutadiganim Siz.

Sizsiz kunim o'tmas... Sizsiz o'tgan oy —  
Yilimni kuzatsam — o'tadiganim Siz.  
Sizsiz g'amim bitmas, na bitar tole,  
Chin so'zimni bitsam — bitadiganim Siz.

Oh, buncha sarkashman, dunyoyi dunda  
Fe'limni tuzatsam — yutadiganim Siz.  
Ne alam, baxt qushi ortidan giryon  
Qoladigan men esam — ketadiganim Siz.

Qo'limni uzatsam — yetadiganim Siz...

\* \* \*

Insmi yo parisiz — keldingiz-u duch,  
Ot-u zotingizni bilolmay dog'men.  
Sizni orzulagan xayollarim puch,  
Lahzalik visol — Siz,  
Mangu firoq — men.

Diydam diydoringiz deydi-ku, netay?  
Bu g'am yuragimni yeydi-ku, netay?  
Ko'zim kuydi, o'zim kuydim-ku, netay —  
Ichida o't qalqjan Ikki qirg'oqmen.

Lahzalik visol — Siz,  
mangu firoq — men...

\* \* \*

Ko'zingiz — ikkita cho'g'-olov,  
O'zingiz — bittasiz.  
Qoshingiz yog'dirar ko'p balo,  
Boshimga yetasiz?..

Boqasiz — yurakda kipriklar  
Gulxanin yoqqan Siz.  
Yoqasiz — ketarkan ko'priklar  
Gulxanin yoqqan Siz.

Labingiz halitdan xun degay,  
Tinimsiz bunchalar.  
Tilingiz indamay, indagay  
Dilingiz, g'unchalab.

Tishingiz gavharin g'avg'osi  
Har biri — bir bozor.  
Ishq bahrin jamiki g'avvosi  
Shul durga xaridor.

Sochingiz — sarin bo'y taratgan  
Serg'uluv, sho'x shamol.  
Sarvni rashk ichra qaritgan  
Qaddingiz — ne nihol?

Qo'lingiz — parvozga shaylangan  
Qo'sh qanotmikin yo  
Ko'ksingiz ganjini poylagan  
Ikki oq ajdaho.

Lutf etib, boz suxan axtardim  
Aytgali quloqqa.  
Vasl deb sirg'aday sarg'ardim, —  
Osildim firoqqa.

Ko'ngil — xun, hol — zabun, til — tugun,  
Ruhimda zilzila.

Hukm etmang: "Qalaysiz!?" deb, bugun —  
Oltiningiz bo'lay!..

\* \* \*

Turnalar, siz bilan birga qaytaman,  
Kindik qonim tomgan yerga qaytaman,

Sizning tasbehingiz — mening tashbehim,  
Shoda-shoda tizib, she'rga qaytaman.

Yuz yilki, ichikib dog' bo'ldi dilim,  
Endi qizg'aldoqzor qirga qaytaman.

Qahraton qahridan, zulmat bag'ridan  
Oftobga qaytaman, nurga qaytaman.

Axir, qachongacha giryon, sarg'ayib,  
Sog'inganda — xavotirga qaytaman?..

Turnalar, siz bilan birga qaytaman...

## HUMOYUN

(1964)

*Humoyun (Akbarov Humoyun) 1964-yil 31-yanvarda Andijon viloyati Bo'ston tumanida tug'ilgan. "Yurakdag'i rangin kamalak" (1997), "Unutilgan gul" (1998), "Dilxiroj" (1999), "Ko'nglim guli" (2005), "Yoshlik bekati" (2008), "Tuyg'ular raqsi" (2010), "Intihosiz navolar" (2012) singari she'riy kitoblari chop etilgan.*

*Aleksandr Pushkinning "Tumor", Persi Bishi Shellining "G'arb shamoli", Jeyms Joysning "She'rlar", David Samoilovning "To'lqin va tosh" she'riy kitoblarini, Viktor Shklovskiyning "Lev Tolstoy" nomli biografik romani, Yuriy Nagibinning "Tiniq ko'llar" qissa va hikoyalari to'plami va boshqa bir qator jahon adabiyoti namoyandalarining ijodidan tarjimalar qilgan.*

## E'TIROF

Olis yurtlar bog'larin kezdim,  
Uzdim alvon lolalarini.  
Ammo ko'nglim qo'msashin sezdim —  
Farg'onaning dalalarini.

Chet shaharlar binosi go'zal,  
Ko'rdim turfa favvoralari.  
Lekin menga qadimiy g'azal —  
Samarqandning minoralari.

Yurtim, har ne giyohing aziz,  
Alloh issiq etmish bag'ringni:  
Sen dunyoda birgana yolg'iz —  
Anglaguvchi mening qalbimni!

## O'N UCH YOSHIM

Dalalarda kechdi bolalik,  
Egatlarda qoldi izlarim.  
Ko'tarolmay paxtam, jolalik  
To'rt tarafga intiq ko'zlarim.

Madad so'rsam baland tog'lardan,  
Oq bulutga tutdi qoyasin.  
Otalarning ishidan ba'zan  
Anglolmadim so'zin, g'oyasin.

Tarozida tortilgan kunlar,  
Varaqlanmay qoldi kitobim  
Bu paxtazor cheksiz naqadar  
Singib ketdi hazin ovozim.

Navoiy she'r bitib so'z ila  
Olam ahlin etgan edi tang,  
Bobur podsho bo'lgan bu yoshda,  
Mendan paxta ilmini so'rang...

## UNUTILGAN GUL

O'stirgandi aqiq qizil gul  
Xonasining darichasida.  
Dunyodagi eng go'zal suluv  
Talabalar shaharchasida.

O'tarkanman bu yo'ldan sahar,  
Unga boqmay o'tgan kunim yo'q.  
Qarshilarkan meni, tebranar  
Gul misoli lovullagan cho'g'.

Tahsilini tugatdimi qiz,  
Ketdimikin olis qishloqqa.  
Huvullagan xonada yolg'iz  
Bir gul qoldi boqib yiroqqa.

Kunlar o‘tib borar, na chora,  
O‘rtanadi bezovta ko‘nglim.  
Evoh, so‘lib borar tobora,  
Bag‘ritosh qiz unutgan gulim...

## KEKSA DENGIZCHI ISATAY OG‘ANING DEGANI

Dengiz ketdi, bildirmay ketdi,  
To‘lqinini tindirmay ketdi,  
Asta-asta sohilni tashlab,  
Ko‘nglimizni sindirmay ketdi.

Orqasidan ergashdi dunyo,  
Bahriy gullar, bulutli samo,  
Oq yelkanlar ketdi yiroqlab,  
Men ketmadim Mo‘ynoqdan, ammo!

To‘lqin-to‘lqin barxan taftida,  
Kimsasiz bandargoh taxtida,  
Kemam ham turibdi purviqor,  
Ishonadi dengiz shahdiga.

Dengiz qaytar, soladi suron:  
Sarkash to‘lqin, qudratli to‘fon.  
Mening kemam tanho va mag‘rur  
Yelkanini yig‘magan hamon...

## QADIMGI QO‘SHIQ

Chorrahada o‘ychan o‘spirin,  
Savol berar o‘tgan-ketganga:  
— Shu yo‘l baxtga eltarmi, og‘a?  
— Eltsa qaytarmidim, attang-a...

Boshqa yo‘lga o‘tar. U — yigit,  
Yuzlanadi yana kelganga:  
— Shu yo‘l baxtga borarmi, og‘a?  
— Borsa qaytarmidim, attang-a...

Yillar misli achchiq izg‘irin,  
Yuzga ajin tortar, bevafo...  
Termiladi o‘tgan-ketganga  
Chorrahada o‘tirgan  
Gado...

## DARVESHE

Kimlar uchrashmaydi bu qadim yo‘lda,  
Hayotning tog‘i-yu bog‘ida, cho‘lda.

Yo‘lchiman, cho‘lchimas yoki tog‘chimas,  
Ko‘lmak suvday qolgan vaqtichog‘imas.

Fasllar yo‘llarim bo‘yiga pardoz,  
Undan gohi mungli, gohi quvnoq soz.

Bir kun o‘tib qolsam sening ko‘changdan,  
Tog‘ingdan, cho‘lingdan yo kun, kechangdan.

Dunyo dardlaridan kuylasam birpas,  
Sen mening ortimdan tosh otmasang, bas.

Voh, mening qalbimda Dunyo aylanar,  
Bu yurak falakka borib boyланар.

Cho‘lingda tog‘larni undirsam, ne tong,  
Cho‘lingda bog‘larni kuldirsam, ne tong.

Sen faqat ko‘nglimga ozor bermagil,  
Bu ko‘ngil asli sen tushgan kemadir.

## SALIM ASHUR

(1964)

Salim Ashur 1964-yil 16-dekabrda Tojikiston Respublikasining Qo‘rg‘ontepa viloyati Qo‘rg‘ontepa tumanida tug‘ilgan. “Yashil giyoh”, “Atirgul”, “Siz ertaga kelasiz”, “Kechikkan tong”, “Atalgan kunlar”, “Darz”, “Issiq uy”, “Titroq”, “Mangu el” kabi she’riy kitoblari nashr etilgan. A.Blok, I.Bunin, A.Fet she’rlaridan namunalar hamda J.P.Sartr, K.Paustovskiyning qissa va hikoyalariini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

### SIZ ERTAGA KELASIZ

Siz ertaga kelasiz,  
Hozir  
Xabarini yetkazdi simlar.  
Bu xatarnok yo‘lda karvonni  
yutgan vabo —  
ohangdor qumlar.

Siz ertaga kelasiz —  
Sabo  
Salimga ham guloblar quydi.  
Ko‘zingizdan o‘pdim. Lablarim  
Yulduzlarga tekkanday kuydi.

Labingizda — beshikda jahon,  
Jahonlarni suydim mastona.  
Siz ertaga kelasiz,  
Bugun  
Yangi ranglar kiyar ostona.

Siz ertaga kelasiz  
“1”day,  
Odamlarga noma’lum sirday.  
Ko‘rasiz —  
Sevgimni ilib qo‘yibman —  
Yakshanbada yuvib yoyilgan kirday.

Siz ertaga kelasiz,  
Hozir  
Yuragimni qo‘ydim o‘rtaga.  
Agar tuzlar yutib olsalar,  
Topolmaysiz meni ertaga.

Siz ertaga kelasiz, qochib  
Ta’qib etgan farangi kuydan.  
Siz kelasiz shoshib, ammo men  
Chiqib ketgan bo‘laman uydan.

Siz ertaga kelasiz...  
Bog‘ga  
Liboslarni xazonday tashlab.  
Bugun mening cho‘llik qishloqqa  
Ketgim kelar ko‘zimni yoshlab.

Siz ertaga kelasiz,  
Biroq  
Bugun tushub qoldim men asir.  
Bu dunyoda nima bo‘lsayam,  
Menga hozir kerakdir, hozir.

Siz ertaga kelasiz,  
Bugun  
Oy nuriga lim-lim to‘laman.  
Siz ertaga kelasiz,  
Ammo  
Ertaga men o‘lgan bo‘laman...

\* \* \*

Ishoning, bir umr sodiq qolaman,  
Sizni avaylayman men cho‘kayotib.  
Men sizdan og‘ushlar sotib olaman,  
Sizni qutqaraman o‘zimni otib —  
Men sizga bir umr sodiq qolaman.  
Tursangiz — men sizga panoh bo‘lgumdir.  
Yursangiz — men sizga bo‘lgum posbon.  
Sizni sevib o‘lmoq — go‘zal udumdir,  
Sizni sevmay yashash — o‘lim begumon, —  
Men sizga bir umr sodiq qolaman.  
Askarning darg‘aga sadoqatidek  
Siddiqligi kabi tomchining toshga,  
Oftobning har kungi sayohatidek  
Tayyorligi kabi ko‘zimni yoshga,  
Nega bundoq, nima, nechun demasdan,  
Bog‘liqligi kabi kiyikning tog‘ga,  
Men sizni har kuni yonib sevaman,  
Men sizni har kuni sevaman boshqa.  
Falak egalari qilmasdan amr,  
Farmonlar chiqarmay hali podshoh,  
Qalbim siniqlarin etmasdan ta‘mir,  
Hali tuzalmasdan buzilgan dunyo,  
To‘g‘ri yo‘lga kirmay toki odamzod,  
Toki tarqaguncha hayotdan tuman...  
Bir umr, bir umr itingiz kabi  
Sizga xizmat qilay sadoqat bilan.

\* \* \*

Mana gugurt, mana tosh, mana  
Bitta zarb. Va tugaydi umr.  
Faqat chaqmoq — cho‘g‘ oshiqona —  
Faqat chaqmoq olovni emar.

Faqat chaqmoq gapiradi rost,  
Faqat chaqmoq kesadi to‘g‘ri.  
Dil, o‘zingni o‘z doringga os,  
Dil, xayr de to‘lg‘onib, og‘rib.

Dil, o‘prilgan qirg‘oqlaringga  
Izlarini otdi nilufar.  
Dil,  
chayqalgan charchoqlaringdan  
Baxtsizlikning isi ufurar.

Dildaraxtning shoxlaridan  
Bosh ko‘tarar hurkovuch firoq.  
Dilni chaqmoq yoqalarida  
Chaqmoq,  
chaqmoq va yana chaqmoq.

Dil, nilufar kaftlari bo‘ylab  
Anor kabi tilgil, sitilgil.  
Sochlarning har torin kuylab,  
Qaro, qaro to‘kilgil, ey dil.

Qoshi — osmon. Osmon ostida  
Bir juft qarg‘a. Qop-qora, chaqnoq.  
Qarg‘a qarg‘ar. Qarg‘ish dastidan  
Kiprigida tirilar titroq.

Men ham qadim osmon tagida  
Ming bir toshga urib to‘zimni,  
Xayr degan qir etagida  
Chinor yanglig‘ yoqdim o‘zimni.

Bu dunyoga bo‘lolmadim en,  
Daryo kabi quridi diydam.  
Senga bo‘y ham bo‘lolmadim men,  
O‘qlar tegib yiqlidim men ham.

Men ham kirib chiqdim olamning  
Bor ko'chasi, xilvatlariga.  
Yuragimni kesib berdim men  
Yuragimning ulfatlariga.

Chaqmoq faqat gapirodi rost,  
Dil, danakday chaqilgil, chaqna.  
Dil, o'zingni o'z doringga os,  
Mana gugurt, mana tosh, mana...

ZEBO MIRZAYEVA

(1964)

*Zebo Mirzayeva* 1964-yil 15-dekabrda *Qashqadaryo* viloyati Kitob tumanining Beshterak qishlog‘ida tug‘ilgan. “Tun malikasi”, “Ajr”, “Nur kukunlari”, “Ishq” kabi she’riy to‘plamlari nashr etilgan.

OTA YURT

Balki ilk musavvir,  
balki ilk shoir --  
O'tkir qoyalari Zarautsoyning?  
Adashib ketaman,  
ostonalardan  
Bostirib kelarkan poygir asrlar.  
Qo'llarim tekkan har vayronalardan  
Tiklana boshlaydi oltin qasrlar.

...Qaylardan boshlanar tarixing, Vatan?  
Balki Boychiborning qanotlaridan?  
Ovozing keladi  
goh yer qa'ridan,  
Gohida Alpomish bayotlaridan!  
Qancha uzoq kirsam bag'ringga shuncha  
Chuqurroq qalbimga otasan ildiz.  
Tobora porlaydi  
osmon toqida  
Sening noming bilan har bitta yulduz!  
Ey ulug' davronlar bunyodkori xalq,  
Mag'rib-u Mashriqning buyuk karvoni.  
Ummonlar to'smasa edi yo'lingni,  
Aylanib chiqarding butun dunyoni!  
Ey, Tangri nazari tushgan ota yurt,  
Har on, har zarrasi  
siylangan tuproq.  
Uchar arg'umoqlar izidan pishib,  
Valiyalar ruhidan iylangan tuproq.  
Senga sochilgandir shahidlar xoki,  
Senga yog'ilgandir Kavsar bulog'i.  
Shu bois sen Firdavs bog'isan yoki  
Sendan olingandir jannat tuprog'i!  
Yo'q yana adashdim,  
qulochim yoysam,  
Nega dil qanotim yig'maysan, Vatan?  
Sening ilking yetgan sarhadlaringni

Chizsam xaritaga sig‘maysan, Vatan!  
Ko‘kdan boshlanmasa  
agar manziling  
Koinot bag‘rini etarmiding band?  
Butun yer yuzining edi sayqali,  
Bugun samolardan boqar Samarqand!  
Tomirlaring izlab  
Tomirlarimdan,  
Balki o‘z-o‘zimga yetyapman, Vatan!  
Senga atalgan shu boshimni olib,  
Sening yuragingga ketyapman, Vatan!..

## QAYTING

Uyga qayting...  
Yurakka qayting...  
Agar qolgan bo‘lsa...  
Sevgingiz omon...  
“Nihoyat... Men keldim!  
Keldim!..” — deb ayting...  
Qolsangiz-da, zulmat ichida pinhon...  
Yo‘lga tushing,  
Tushing g‘urur otidan...  
Bu yog‘i Yolg‘izlik — Ruhiyat yo‘li...  
Chiqing bu qafasdan...  
Xasm yodidan...  
Chirmashib tortsa-da chirmoviq qo‘li...  
Dunyoni qoldiring...  
Qoldiring tamni...  
Ilon terisini yechgandek... yeching!  
Izlang...ichingizda kutgan Vatanni...  
Zanjir Oltin bo‘lsa-da... Keching!..  
Onangizga boring...  
Tirik bo‘lsa — U!  
Ketgan bo‘lsa agar... qabriga boring.

Yorug‘ diydorini ko‘rmoq bo‘lsangiz,  
Ko‘ksingizning o‘rtasin ...yoring!

Bir piyola chashma...  
Bir obihayot..  
Sizga bergen ko‘z yosh —  
tomgan tomchi Nur!  
Tirik tomiringiz tuproqda toki...  
Demak,  
Ruhingizda Haq etar zuhur!  
...qayting. Uyga qayting...  
Loysuvoq...devor...  
O‘chmagansiz hali xotirasidan...  
Bir dilni topasiz...  
Rumiyo Mashrab...  
Va yoki Navoiy chodirasidan!..  
...agar unutmagan bo‘lsangiz yo‘lni,  
Tikanlar qoplagan bo‘lsa so‘qmoqni...  
Isodan...  
Musodan so‘rang... Duch qilsin  
Rasullulloh bayt qilgan tog‘ni!  
...agar tosh ustida bo‘lsa musicha,  
Agar g‘or og‘zini to‘sса o‘rgimchak...  
Qayting!  
Belingizda hali zunnor bor,  
Hali ichingizda Butlar bor...demak!

...joynamozga yig‘lang...  
Ko‘kka oching kaft...  
Cho‘k tushing...  
Eng go‘zal vasldir Sujud!  
“Axir borligingiz uchun dunyo bor,  
Axir yorligingiz uchun Ishq mavjud!”  
...hijob — Siz!  
Devor — Siz!..  
Eshik — o‘zingiz!..

Taqillating uni!..  
“Keldim!..” deb ayting!  
Sizi kutib turgan shu diydar haqqi..  
Parvardigor haqqi,  
Asl Yor haqqi...  
Ichkariga kiring!..  
Yurakka qayting!

## KISHAN KIYMA...

*Kishan kiyma, bo 'yin egma,  
ki sen ham hur tug 'ilg 'onsen!  
Abdulhamid Cho 'Ipou*

“Kishanlar kiyaymi,  
Bo 'yin egaymi”,  
Erkimni beraymi senga qaytarib?  
O 'zni unutaymi,  
qonlar yutaymi,  
turaymi qoshingda mute, muztarib?!

Chopaymi  
Chopilgan tomirlarimni,  
Sug 'urib beraymi tilimni?!

Bir “hayt!” deb,  
Sirmasang qamchining,  
Qul qilib beraymi Elimni?!

Ko 'zimni yumaymi,  
Endi ochilgan  
Tarixning asotir kitoblaridan?  
Yuzimni buraymi,  
Yovdan yuzini  
Burmagan ajdodim xitoblaridan!?

Qilichim tashlaymi  
Sinmasdan burun...  
Qattol qilichiga tegmay jarangi?

Qo‘qonmi, Marg‘ilon  
va yoki Jizzax...  
Janggoh etagida tugamay jangi?  
Sanchaymi  
Har bitta go‘daklarimni,  
Vahshiy bir askarning miltiq tiyg‘iga?  
Ko‘ylagin ilaymi  
Ko‘kaldosh, Ko‘kcha...  
Masjidin to‘rida turgan tug‘iga?  
O‘taymi  
Pok muslim,toza muslima  
Bobom yo momomning qabrini buzib?  
yerga urayinmi yalovlarimni  
Onam tumorini uzganday uzib?  
Ketayinmi yana  
Yuz yillar nari,  
Peshonamga lanat tamg‘asin bosib?  
O‘ldiraymi  
gul-gul farzandlarimni  
Surgunga jo‘natib,  
Dorlarga osib?!

Qarab turayinmi  
Suvrati ayon,  
Sotqin siyog‘iga jimgina boqib?  
Lanatlaymi  
Cho‘lpon, Usmonlarimni,  
Qodiriy kitobin o‘tlarga yoqib?!

Buzayinmi  
Xiva, Buxoro Arkin,  
Ming yillik minora havozalarin?  
Bir dag‘dag‘a qilsang,  
Ochib beraymi  
Toshkent yo Samarqand darvozalarin?!

Yerga ko‘mayinmi,  
Osmonni ochgan  
Nastalik, shikasta imlolarimni?

Buzilgan qasringga  
To‘laymi xiroj —  
Ipag-u paxtamni, tillolarimni?  
Omi deb kulaymi  
Daholarimdan,  
Berishsa — ko‘zining yog‘igacha yeb?  
Or qilaymi xalqim,  
Ona tilimdan,  
“Shuyam millatmi deb, shuyam xalqmi deb?!”  
Bo‘shatib beraymi  
Madrasalarni,  
Yov bostirib kelsa — otxonalarga?!  
Almashib beraymi  
Masjid, madrasa,  
Sajdagohlarimni butxonalarga?!

Yana nima deysan,  
Nima istaysan,  
Yolg‘on, fitnalardan bezmadingmi hech?!!  
...Pushkin Navoiyning qoshiga kelib,  
Uzr so‘rab turar!..  
Sezmadingmi hech?!!  
O‘ynashma  
Millatning g‘ururi bilan,  
Millatning Nomusi, Oridir — bu Erk!  
Ona degani bu— Ona tilidir!  
Va butun bir xalqning boridir — bu Erk!  
Jonini jahonga  
Jon deb ulashgan  
Ulug‘ bir Onamiz — shu Vatan haqqi,  
Kelsang,  
Odamday kel! —  
Bag‘rimiz ochiq,  
Non haqqi, tuz haqqi, jon-u tan haqqi!..  
Istibdod sirtmog‘in  
Bo‘ynimga solmoq —

Bo‘lsa agar qasding,  
Umidingni uz!  
Koinot qalbida  
Porlab turibdi  
Bugun O‘zbek degan munavvar bir So‘z!  
Qo‘rkitma!  
Qalbimdan qo‘llaringni tort!  
Katta Yo‘lga chiqib bo‘lgan Karvonmiz!  
Asli sen qo‘rqasan!  
Chunki Ishq bilan,  
Bir buyuk qalb bo‘lgan O‘zbekistonmiz!  
Bir buyuk xalq bo‘lgan O‘zbekistonmiz!

Kishanga qayt, deysan...  
Ey, sho‘rlik olchoq...

## MINHOJIDDIN MIRZO

(1965)

*Minhojiddin Mirzo (Hojimatov) 1965-yil 30-iyulda Andijon shahrida tug‘ilgan. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist (2002). “Nilufar” (1996), “Visol xabari” (2002), “Yulduzim” (2007), “Ko‘nglim kurtaklari” (2015), “Gullash payti keldi, bog‘larim” (2015), “Muhabbat qarshingda bu jonim nadir” (2021) she’riy to‘plamlari, “Saodatga eltuvchi qudratli kuch” (2008), “Ulug‘ xalq qudratining tajassumi” (2021) esselar to‘plamlari chop etilgan. Boborahim Mashrabga bag‘ishlangan “Qayg‘u guli”, Amir Temur tuzuklari asosida “Sohibqiron yog‘dusi”, Bobur haqidagi “Sog‘inch saltanati” dostonlari nashr etilgan.*

*Adib A. Pushkin, R. Hamzatov, J. Bayron, S. Yesenin, M. Lermontov, G. Geyne, shuningdek ,yapon, rus, belarus, arab shoirlari she’rlarini ona tilimizga o‘girgan.*

## SHE’R O‘ZI NIMADIR

She’r o‘zi nimadir, ishqiy kalima,  
Oydin buloq guli — shaffof bir tuyg‘u?  
Yo ko‘ngil yig‘isi, shuur gavhari,  
Yo hayrat, yo hasrat, eng shirin qayg‘u?!

She’r nima, paykonmi ruhga sanchilgan  
Yoki qalb daraxtin sirli yaprog‘i?!  
Balki nilufardir dilda ochilgan,  
Ko‘ngilda ulg‘aygan Majnun titrog‘i?

She’r nima, dardmi u yo zikr ajib,  
“Analhaq” degan ul ko‘ngilning ohi?  
Dildagi jannatmi bog‘lari najib,  
Qayda u ruhdagi darvesh dargohi?

She'r nima, tilsimli zulmat vujudning  
Qa'ridan oy kabi chiqqan ifoda?!  
Ko'ngil tog'lariga qo'ngan burgutning  
O'tli nighidan to'kilgan boda?

Anglamoq ko'yida dil so'ylar toshib,  
Chin she'rki, bir ushshoq dilga ravodir.  
U — mujda — yetti qat osmondan oshib,  
Haqdan kelayotgan munir navodir...

### SHIVIRLAMA SHABBODA

Shivirlama, xayolim bo'lib,  
Lablarimga tomizma boda.  
Jonim hozir ketar to'kilib,  
Shivirlama menga, shabboda.

Nafasingni o'xshatdim juda  
Menga aziz bo'lgan nafasga.  
Qo'y, jonimni uchirvorasan,  
Zo'rg'a soldim o'zi qafasga...

Shivirlama menga, shabboda,  
Qo'zg'atma dil yaproqlarini.  
Ko'tarolmas endi vujudim,  
Bu yurakning titroqlarini.

Sochlarmi silama, ketgil,  
Chidolmayman mehringga ortiq.  
Qo'ygil meni, butkul unutgil,  
Endi qalbim hijronga tortiq.

Shivirlama menga, shabboda,  
So'ngan cho'g'ni qo'zg'ab netasan.

Qo‘ygil, endi o‘z holimga qo‘y,  
Dardim aytsam, yonib ketasan...

Shivirlama menga, shabboda...

## VATAN NADUR

Vatan nadur, so‘nmagan  
Yorqin yulduz — qaroqdur.  
Bosh egishga ko‘nmagan  
Vatan — jasur Shiroqdur.

To‘marisning ko‘zida,  
Shayx Kubroning so‘zida,  
Amir Temur izida,  
Yonib qolgan chiroqdur.

Kim bor uni suymagan,  
Furqat emas, kuymagan,  
Shoh Boburni qiynagan,  
U — muborak titroqdur.

Bir ifor u guldagi,  
Bayotdur bulbuldagi,  
Ham sog‘inchdir dildagi  
Mangu “Cho‘li iroq”dur.

U bor yurak zARBIDA,  
Kim o‘tmadi dardida,  
Manguberdi qalbida —  
Zanglamagan yaroqdur.

Kim bilmas yurt-oshyonin,  
Bilmas qonin-imkonin,  
Topolmabdi oromin,  
Bor hayoti so‘roqdur...

## KO'NGIL SOG'INCHI

Ko'zlariningda quyoshni ko'rib,  
Erigandi muz qalbim birdan.  
Boshim uzra o'riklar gullab  
Nur olgandi dildagi sirdan.

Nastarinlar shivirlab mayin,  
Iforlarga ko'mgach olamni,  
Hayrat ila qo'lga olgandim,  
Qizg'aldoqlar ungan qalamni...

Qancha yillar o'tdi, fasllar,  
Qaytmadi hech u sirli onlar.  
Tushlarimda meni qurshar goh  
Hushbo'y sochlar-sadarayhonlar.

Qor bag'rida ochilmas lola,  
Muz qo'ynida gullamas daraxt.  
Endi qalbim senga havola,  
Bahorlarim olib ketgan baxt...

## MUNAVVARA USMONOVA

(1965)

*Munavvara Usmonova 1965-yilda tug‘ilgan. “Oila omonligi til bilan”, “Qizlarjon!” nomli publitsistik risolalari, “Diydor”, “Sizga o‘xshasin”, “Sog‘inch manzili” kabi she’riy to‘plamlari nashr etilgan.*

## QUYOSH

Nihol edim, undim,  
sening taftingdan,  
Ruxsoring chizgisi  
mening kaftimda.  
Suyaman, tashnaman,  
senga yetish yo‘q,  
Kuydi qanotlarim,  
endi ketish yo‘q.  
Tunning siyohidan  
yozaman ertak,  
Oydan kulcha tilab,  
tutaman etak,  
Butun koinotga  
bo‘lsam ham ermak,  
Yo‘q, tark etish yo‘q,  
sendan ketish yo‘q.  
Kamalak jilosi  
keltirar rashkim,  
Chaqindek yonadi  
ko‘kingda ishqim.  
Sen borsan, yashaysan,  
toki, qiyomat,

Mening bo‘g‘zimdagি  
jonim omonat.  
Intizor tongingni  
kutganlar qancha,  
Vaslingga yetolmay,  
o‘tganlar qancha?!  
Senga yetmoq, kuymoq,  
yiqilmoq, o‘lmoq,  
Bag‘ri otash, bag‘ri tosh —  
quyosh...  
Nega, otashlarda  
qovjirasa jon,  
Munavvar atading  
meni Xudojon?!.  
  
\* \* \*

Urimning yarmini vaqtga yedirdim,  
Yarmisin qismatga etganman tortiq.  
Hayot, mendan nima istaysan yana,  
Boshqa bisotim yo‘q, shulardan ortiq.

Men — ulkan chinordan uzilgan yaproq,  
Hayot sohilida kezgan darbadar.  
Nadomat yoyidan qochib, yugurgan,  
Nuh to‘fonidan, Havvoga qadar...

Ey, hayot hukmingga egdim boshimni,  
Mag‘firat etar deb mahshar tongida.  
Urim zahmat bilan yo‘g‘rildi, zora,  
Boshim tik tutolsam, Haqning oldida.

\* \* \*

Endi seni avaylashim kerak yuragim,  
Huzuringga ziyoratga boraman har kun.  
Senga atab gul o'stirar ko'zga avharim,  
Kiprigimni ayvонимга qilaman ustun.

Endi seni, sen deyishga bormaydi tilim,  
Men ne qilsam, seni asrar bu ruh qafasi.  
Hol so'raydi: tongda ko'ngil, oqshomda dilim,  
Senga orom berib turar olam nafasi.

Ko'kni shafaq to'lg'og'idan tutsa ham bezgak,  
Aslo, senga yo'latmayman qayg'u-motamni.  
Ne bo'lsa ham, sen qiblamda qolishing kerak,  
Yurakkinam, axir, senga ko'mdim otamni.

\* \* \*

Seni ko'rmay, sevish osonroq,  
Seni bilmoq naqadar og'ir.  
Sevish uchun ketayin yiroq,  
Faqat mening tushlarimga kir.

Olis bo'ldim, bilganim sayin,  
Tushunganda tun bo'ldi dilim.  
Dalli ishqning jazosi tayin,  
Endi yurak bo'ladi tilim.

Seni ko'rmay, sevish osonroq,  
Mayli, ishqisiz otashda yonsam.  
O'rtanasan, tushingda ko'rib,  
Yulduzlarga aylanib qolsam.

## KEKSA DARAXT

Bir daraxt quladi, ulkan edi u,  
Qancha avlodlarni ko‘rgan edi u.  
Shamol-u bo‘ronga ko‘ksini tutib,  
Fidoyi mardondek turgan edi u.  
Bag‘riga olardi, kelsa qari-yosh,  
Gardanin tutardi uchib kelsa tosh.  
Shoxiga arg‘imchoq solib uchganlar  
Bugun vujudini etdi nimtalosh.

Chug‘urlab qoldilar bein qushchalar,  
Tumshug‘ida xaslar tishlab qushchalar.  
Holi vayron, endi borarlar qayga,  
Qurgan inlarini tashlab qushchalar?

Ko‘rki — salobati kimgadir malol,  
Bo‘lmasa yashardi yuz yil, ehtimol.  
Go‘yo o‘zi qurgan uyiga sig‘may,  
Qabriston yonida yig‘layotgan chol.  
Daraxtni kesdilar, ingrab quladi...

## JAMOLIDDIN MUSLIM

(1965)

*Jamoliddin Muslim 1965-yili tug‘ilgan. “Ko‘kka o‘rlayotgan iztirob”, “Qalb istehkomi”, “Muhabbatli manzillar”, “Shaffof buлоqlar”, “To‘kilmas yaproqlar” kabi she’riy to‘plamlari nashr etilgan.*

### SONETLAR

Fusunkordir bugungi oqshom,  
Yulduzlar ham bo‘ldi payvasta.  
Sevgimizga ular havas-la  
Zavqlarini etdilar in’om.

Ular kabi olis edi baxt,  
Taqdirimiz qovushdi bu on.  
Ko‘ksimizda ishq urdi javlon,  
Aylagandik bir umrga ahd.

Murodiga yetdi muhabbat,  
Ajib, sirli ertaklar aytib,  
O‘shal onlar kelmaydi qaytib...

Ulg‘aytirar, albat, sadoqat,  
Qutlar bizni shivirlab go‘yo,  
Bitta dardi arigan dunyo...

\* \* \*

Atirgulday ochilgin sen ham,  
Azoblagan bol totli hijron.  
Ochilganing ko‘rib, mahbubam,  
Yuragimga bag‘ishlasin jon.

Yulduzlar ham tabrikka tushsin,  
Kelar yo‘ling yoritsin ular.  
O, xayolim, oh, shirin tushsan,  
Sen-la umrim baxtlarga to‘lar.

Hayajonga aylanib vujud,  
Men-la kutib yashaydi dunyo.  
Umiddan sep yoyar taraddud.

Sog‘inch esa oqguvchi daryo.  
Daryo toshib, ey guli ra’no,  
Visolingga qilur mubtalo.

\* \* \*

Menga rohat oy-la sirdoshlik,  
Sukut saqlab tinglaydi meni.  
Mening qalbim — oyning Vatani,  
Dog‘in chizgan kasbi naqqoshlik.

Tangri azal biz ikkimizni  
Hamdard etib yaratdi abad.  
Tug‘ilsin deb dardli muhabbat,  
Sochdi har yon quvonchimizni.

Quvonchni biz termadik har dam,  
Shundan bosdi ikkimizni g‘am.  
Berdi bizga osmonday bardosh...

Kim bo'lolsa bizlarga hamdam,  
Dard chekmoqni qilsin ixtiyor,  
Lek, to'kmasin ko'zlaridan yosh...

\* \* \*

Do'stim bo'lsa quyoshday yorqin,  
Tunda yo'lim oyday yoritsa.  
Baxshidadir borlig'im butun,  
G'amin aytib mayli qaritsa.

Do'stlik asli ilohiy ne'mat,  
Dildagi mehr — uning doyasi.  
Do'stlik qasrin qurmoq — saodat,  
Sadoqatdir uning g'oyasi.

Do'stlik qasrin yurakka qurdim,  
Olib qochdi kalitni ko'plar.  
G'animlarni pashshaday ko'rdim.

Suqishdi-ya ko'zimga cho'plar.  
Qani, endi, do'stim bo'lsaydi,  
Qasrim mening nurga to'lsaydi.

\* \* \*

Tabassum qil, ayriliq bir bor,  
Hayratlanib ochilsin g'uncha.  
Sabo kuylab, suykli dildor,  
Sochlardan olaqol muchchi.

Tabassum qil, ayriliq bir bor,  
Unsin endi xorsiz chechaklar.  
Qaldirg'ochlar keltirib bahor  
Ayvонимда айтсан ertaklar.

Ey, bulutlar, keltiring yomg‘ir,  
Shivir-shivir yog‘sin-yey, bu dam.  
Fosh bo‘lib yor ko‘nglidagi sir,

Chisir-chisir yonsin-yey, bu dam.  
Ayrilik‘im hasratga lim-lim,  
Ayrilik‘im mo‘jiza, tilsim...

\* \* \*

Tushlarimga kirsa sohibjamolim,  
Sayr etaman go‘yo arshi a’loda.  
Isloh qilmoq uchun ishqisiz a’molim,  
Qayta tug‘ilaman foniy dunyoda.

Mendan ortda qolar ming bitta Majnun,  
Ishq so‘rarman faqat ostonasida.  
Iltifotga zorman bo‘lib jigar xun,  
Rahm qil, Laylim, tush bahonasida.

Jonim senga tutgan Oshiq G‘aribman,  
Vasling umidida o‘tdim sargardon.  
Xayol bilan yashab, evoh, qaribman.

Uyg‘otib yuborma meni tushimdan,  
Jonim ilkidagi xushsurat jonon.  
Faqt o‘zingsan-ku meni tushungan...

## SHERMUROD SUBHON

(1966)

*Shermurod Subhon 1966-yilda Buxoro shahri Mohi-Xossa qo'rg'onida tug'ilgan. "Sokin so'z suvrati" (2012) she'riy to'plami, "O'zbek modern she'riyati" bayozi (hammualliflikda) (2003), "She'riyat iqlimi" ilmiy maqolalar va tarjimalar kitobi (2005) chop etilgan.*

*Turk adiblari Mehmed O'nderning Jaloliddin Rumiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan "Mavlono" biografik romani (2020), Xayrettin Ivginning "Manas" romani (2020), shuningdek, taniqli turk adabiyotshunos olimi Mehmed Fuad Ko'pruluning "Turk adabiyotida ilk mutasavvuflar" ilmiy-ommabop asarini (2022) o'zbek tiliga o'girgan.*

\* \* \*

darvoqe  
tartibga solishim kerak  
avvalo fikrlarimni  
so'ngra o'y-xayol  
qarashlarimni

mening ko'zim bilan ko'radi ruhim  
eshitar qulog'im-la  
tutsa qo'limdir u  
yursa oyog'im

soyadan yasalganmi deyman bu dunyo  
yo'qsa nega  
omonatdir bunda  
barcha-barchasi

\* \* \*

qanday yozilsa shunday o‘qilishi lozim bo‘lgan  
so‘zlar kabitidir  
har ikki yuzim

u yuzimdan urganga valloh  
tutib bermasman aslo bu yuzim  
ha buni bilsin do‘st-u g‘anim

ba’zi savollarning javobi qisqa bo‘lar  
ha yoki yo‘q  
uzun bo‘lar umri

nimadan darak  
tongning otishi  
anglatar neni  
va yo bu botish  
toliqdim-ku soya  
yetaklamoqdan

bu dunyo u dunyoning qoralamasi  
misoli ko‘zgu...

\* \* \*

tush bu shunday bir ma’vokim  
yo‘qdir aslo  
manzil-makoni

biroq unda  
yashamoq mumkin  
lomakondan farqli o‘laroq

\* \* \*

ne ajabkim  
uxlasam-da men  
uxlamas yurak  
to'xtamas aslo  
tinmay bedorlik  
bongin chalishdan

uyg'oq ekan toki bu qalb  
odim otaman men  
g'oya ortidan  
ergashar soya

\* \* \*

tong otgach ne tong  
otlanamiz ko'cha-ko'y  
yumush ortidan  
shom tushgach  
tushamiz  
hovur otidan

\* \* \*

diqqat  
kulib turing  
suvratga olaman  
chiq...

qoyilmisiz?!

jo ayladim sizni  
bir umr qalbga

## IQBOL MIRZO

(1967)

*Iqbol Mirzo (Iqboljon Mirzaaliyev) 1967-yil 1-mayda Farg‘ona viloyati Bag‘dod tumaniga qarashli Qo‘shtegirmon qishlog‘ida o‘qituvchi oilasida tug‘ilgan. O‘zbekiston xalq shoiri (2005). “Yurakning shakli”, “Ko‘ngil”, “Seni sog‘inaman”, “Meni eslaysanmi?”, “Tanlangan she’rlar”, “Qo‘shiqlarim”, “Sizni kuylayman”, “Agar jannat ko‘kda bo‘lsa...”, “Aytgil, do‘stim...”, “Ko‘rmasam bo‘lmas”, “Vatan haqida qo‘sinq” kabi she’riy to‘plamlari, “Zarb” qissasi, “Bonu” romani va uch tomli asarlar saylanmasi chop etilgan. Shuningdek, rus, tojik, turkman tillarida ham kitoblari nashrdan chiqqan.*

*Fransuz dramaturgi Edmon Rostan qalamiga mansub “Sirano de Berjerak” trago-komediyasini, Grigoriy Gorinining “Til haqida afsona” pyesasini tarjima qilgan.*

*“Samarkand sayqali”, “Alisherbek va Husayn”, “Usmon Nosir” kabi pyesalari sahnalashtirilgan.*

## YOLG‘IZ

Million yilda meni yaratdi hayot,  
Meni so‘rab, tog‘lar qator cho‘kdi tiz.  
Nahot anglamaysan, bilmaysan nahot,  
Axir men bittaman, yagona, yolg‘iz.

Bug‘lanib, qaytadan to‘kiladi suv,  
Quyoshdan ishorat — ko‘z yorar ildiz.  
Men, axir ularga o‘xshamayman-ku,  
Axir men bittaman, yagona, yolg‘iz.

Har elat o‘zicha atar shamolni,  
Mingta ism bilan yashaydi yulduz.

Sen qaydan topasan boshqa Iqbolni,  
Axir men bittaman, yagona, yolg'iz.

Nafasim — g'animat, so'zim — g'animat,  
Fojia — poyimdan uzilgan har iz.  
Mening nigohlarim eng ezgu ne'mat,  
Axir men bittaman, yagona, yolg'iz.

Yaratganga borib aytaman seni!  
O'zi hukm etsin odil va xolis.  
Men qaytib kelmayman, tushunyapsanmi?  
Axir men bittaman, yagona, yolg'iz...

### MARG'ILON

Marg'ilonga borgim kelmaydi,  
Borsam alam o'rayveradi.  
“Kumush yaxshi yuribdimi”, deb  
Hamma mendan so'rayveradi.

So'rayverar ko'cha, guzarlar,  
So'rayverib ko'nglim buzarlar,  
Kumushoydan, oygina qizdan  
Qandoq qilib umid ucharlar.

“Yaxshi”, deyman, “shukur,  
sog'-omon,  
Kelib qolar, deyman, Marg'ilon...”  
Qarolmayman Oftoboyimga,  
Ich-ichidan kuyar, bag'ri qon.

So'roq belgisidek yangi oy  
Ergashadi, tinmay so'roqlar.  
Kumushini so'raydi mendan  
Kumushi yo'q tilla ravoqlar.

Birdan jimib, to‘xtar o‘yindan —  
Qizchalarning savolchasi bor.  
Yuz ellik yil bo‘ldi — qo‘ynimda  
Kumushoyning ro‘molchasi bor.

Marg‘ilonga borgim kelmaydi,  
Borsam qayg‘u o‘rayveradi.  
“Kumush yaxshi yuribdimi”, deb  
Hamma mendan so‘rayveradi.

## SODIQ CHEGACHI

Sodiq chegachining ayoli xiyonat qildi...  
Chegachi cho‘loq edi,  
kambag‘al edi,  
befarzand edi u ustiga-ustak.

Oysuluv bo‘lsa-da ayolin ismi  
suluv emas edi oydayin.  
Ajab,  
vafo qilmadi Oysuluv  
go‘zal bo‘lmasa ham...

Uni shayton yo‘ldan urdi,  
Sodiqni urdi xudo.

Oysuluv  
yig‘ladi ikki bukilib...

O‘choqdagi o‘chayotgan o‘t  
qizil tillarini o‘ynatib  
masxara qilardi Sodiqni.  
Qumg‘on  
kulardi uning ustidan  
sharaqlab...  
— Yo‘qol... — dedi sekingina chegachi.

Ayol o‘rnidan jilmadi.  
Tunda yo‘qolib qoldi Sodiqning o‘zi.  
Kimdir  
uning gandiraklab Bachqirariq tomon ketayotganini  
ko‘rganmish...  
Bir yil o‘tdi, uch yil, besh...  
Sodiqning cho‘pdek ozgan,  
aqldan ozgan ayoli  
suvqizi kabi sochlari yozg‘in  
o‘tirarmish Bachqirariq qirg‘og‘ida.  
Qo‘llarida Sodiq chegachining  
Kamonchasi, parmabigizi, sirachi...  
“Chiqing, begin, ko‘nglingizni chegalab beray,  
Ko‘nglingizni bering, begin, chegalab beray...”

## FAQAT BIZ BIRGAMIZ

Bir kuni daraxtni tark etar yaproq,  
Yalang‘och novdalar titrar asabiy.  
Visol oqibati hijrondir, biroq  
Faqat biz birgamiz, jonim, abadiy!

Bir kuni o‘zanin tashlaydi daryo,  
Sahrolar gul bo‘lar, vodiylar sahro.  
Yelkamdan ketmaydi xush bo‘ying aslo,  
Faqat biz birgamiz, jonim, abadiy!

Bir kuni yulduzlar uchar poyma-poy,  
Sayyoralar topar o‘zga joydan joy.  
Bir kuni Zaminni tashlab ketar Oy,  
Faqat biz birgamiz, jonim, abadiy!

Bir kuni o‘zidan tonar Kun, ayon,  
Lahzada ruh bilan vidolashar jon.  
Faqat sen ketmaysan mendan hech qachon!  
Faqat biz birgamiz, jonim, abadiy!

## SIROJIDDIN RAUF

(1967)

*Sirojiddin Rauf 1967-yil 26-iyunda Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahrida tug'ilgan. "Yig'layotgan oy", "Ko'k gumbaz", "Siz menga keraksiz", "Cheksizlik", "Tashrif", "Muallaq", Niliy naqshlar" nomli she'riy hamda bolalarga bag'ishlangan "G'alati musobaqa" kabi kitoblari nashr etilgan.*

*Tarjimon sifatida taniqli rus shoirlaridan Ivan Bunin, Yevgeniy Yevtushenko, ukrain adabiyoti vakillaridan Ivan Franko, Lesya Ukrainka va boshqa qardosh xalqlar ijodkorlari she'rlaridan namunalarni o'zbek tiliga o'girgan.*

*2002-yilda "Shuhrat" medali bilan taqdirlangan.*

\* \* \*

Barglarida shabnamni tutib,  
Nafisgina chayqalgan gullar.  
Iforini o'g'irlab ketib  
Sahrolarda yitarkan yellar.  
Vaqt chaladi besas qo'ng'iroq.  
Bosh olib ketolmas, tun yaqin,  
Azob chekar quyosh hoynahoy.  
U-ku tongda qaytadi tag'in,  
Zaminda turgaymi shu chiroy?!

Vaqt qo'ng'irog'in chalaveradi...  
Go'zallik bo'lsa-da matlabi,  
Qoniqolmay lahza umridan  
O'tayotgan kapalak kabi  
Yoshlikka ham qo'nim  
yo'q ekan.  
Sen qaydasan?..

Kuyadi dilim,  
Vasling istab, bo‘zlayman zor-zor,  
Rayhondan-da muattar gulim,  
Shabnamdan-da pokiza nigor!..

## TAZARRU

Yugurib charchadim, yetar, endi xo‘p,  
Yurganim ko‘nglimning yetaklariga.  
Zor qaqshab topgandan yo‘qotganim ko‘p  
Yopishib dunyoning etaklariga.

Holbuki, birovdan kamim yo‘q edi,  
Ho-yu havaslarin ko‘rdim olamning.  
Ta’qib etaverdi armonning hidi —  
Sajdada o‘tmagan umri odamning.

Kimdan yuz o‘girib, kimga tikildim,  
G‘addor nafs pardasi to‘sib ko‘zimni.  
Ishvalar poyiga tutdek to‘kildim,  
O‘zimni unutdim o‘ylab o‘zimni.

Ne ko‘rsam lol bo‘ldim mahobatiga,  
Baridan tutmadim har dam ilmni.  
Endi zor turibman inoyatiga,  
Himmatning qo‘riga toblab dilimni.

Jonimga azoblar so‘rarman behad  
Va ishqisi ko‘yida xorlik adulik.  
Jamolin ko‘rsatsa bir kun haqiqat  
Anglarman: ne sharaf ushbu gadolik!..

## SONETLAR

Kiprikka ilinmas uyquning to‘ri,  
Uzun tun ko‘ksimda orziqish, hovur.  
Xayoling habibim to tongga dovur,  
Subhidam sezilar hasratning zo‘ri.

Oftob g‘amzasida mujda ko‘rinur —  
Ro‘yoni chilparchin qilgan haqiqat.  
Sen — ko‘nglim ko‘shkida ko‘hlik ko‘hinur,  
O‘ngimmi-tushimmi, tark etma faqat!

Zero, ishq so‘qmog‘in bor-yo‘g‘i jafo,  
Undan yuz o‘girmak xurofot, bid’at.  
Oshiqqa hamisha taxayyul ravo.

Umidvor ko‘ngilda boqiy muhabbat,  
Ishqsiz umr g‘arib, dillar benavo.  
Mudom o‘yimdasan, ilohiy tal’at!

\* \* \*

Mening toqatim toq, sening sabring tog‘,  
Hijron tamug‘ida vujud qiyalar.  
Chimrangan qoshlarling beshafqat yarog‘,  
Paykonlar zahmidan qondir siynalar.

Quyunday chirpirar bir o‘tlig‘ so‘rog‘:  
Ishqqa zor bo‘lganlar qachon siylanar?  
Oshiq iztirobi bo‘lgaymi adog‘,  
Bol istab, tamshanib lablar iylanar.

Taqdir qismatimni beomon chiylar,  
Ko‘zingdan rang olgan xayollar moviy,  
Sochingdek chuvalib boradi o‘ylar.

Visolsiz ishq haqda bir zamon roviy  
Qo'shiqmi, dostonmi — bir narsa kuylar,  
Betiyiq shavqimni atab samoviy!..

\* \* \*

Ta'qib etaverar tinmay xayoling,  
Jonimni o'tlarda kuydiradi, bas.  
Ushalmas orzudir endi visoling,  
Jonbaxsh tuyg'ularning barchasi abas.

Cho'g'lanar yodimda har dam, har nafas  
Kuygan yulduz kabi qop-qora xoling.  
Ishq, debman men gumroh, shunchaki havas,  
So'ngsiz azob ekan uning uvoli!..

Ko'zimga sanchilar o'tmish, xotira,  
Quvonch-u alamga og'ushta damlar  
Dilim oynasida aks etar xira.

Sho'rlik yurak, evoh, g'amlarni g'amlar,  
Tobora avjlanar armon gurkirab —  
Alanga tillari umrimni yamlar!..

\* \* \*

Maysani maysadek ko'rdim men,  
Xarsangni xarsangdek, gilni — gil.  
Yomg'irni bulutdan so'rdim men...  
Tangrim, ko'rligim-chun kechirgil!

Oftobga toblanib yayradim,  
Zilol suvdan simirdim qona.  
Tilimni sanoga qayradim,  
Dahri dunga boqdim hayrona.

Asriy tog‘lar haybatin tuyib,  
Aql-u hushim tamom adashdi.  
Kiyimlarin irg‘itib, kiyib,  
Tegramda yuz fasl almashdi.

Hayrat bo‘ldi daraxtda bitgan  
Rizq ham hatto yashirmam, evoh.  
Mo‘jizangdan mo‘jiza kutgan —  
Men g‘ofilni kechirgin, Alloh!

Voh, sajdaga boshimni egdim,  
Seni bilmas bandalar miskin.  
Ko‘p takabbur, ko‘p dahriy edim,  
Biroq rahming ko‘ngilga taskin.

Haq deb yashash — ulug‘ hidoyat,  
Ro‘y berajak birdamas-birda:  
Ishqing tug‘yon urgay nihoyat,  
Yo Rab, uch yuz oltmish tomirda.

Bu olamni etolsa g‘orat  
Majnunligim ovozalari.  
Ujmoh sari ochilgay shoyad  
Asl Vatan darvozalari!..

## XURSHIDA

(1967)

*Xurshida 1967-yilda tug'ilgan. "Aldamchi tonglar", "Sig'ma-gay jismim jahonga", "Izhor", "Tarjima", "Samoyi nur" (saylanna) kabi she'riy to'plamlari nashr etilgan.*

\* \* \*

Keldi dilga umid baxsh etib bahor,  
Ifor taratmoqda gulbog'lar ajib.  
Ismingni eng latif so'zlarga o'rav,  
Asta pichirlayman behol, muztarib.

Senga yetolmaydi tilaklarim xush,  
Sendan ketolmaydi mahzun xayolim.  
Qushlar berolmaydi yurakka taskin,  
Sensiz sayri bog'lar g'arib, malolli.

Bahor — bu dunyoga ulashguvchi nur,  
Ishq kuyin chalguvchi yurak tori-la.  
Eng mushkul savdo bu — izhori ko'ngil,  
Dil muqim beshafqat sukut bag'rida.

G'unchalayversa-yu ocholmasa gul,  
Visol ne bilmasa muhabbat bog'i?  
Borliqqa bor mehrin sochganda bahor,  
Yurakni tirnasa hajr firog'i.

Uyg'onish ayyomi uyg'otar umid,  
To'ldirar yurakka tuyg'u, ehtiros.  
Men aziz ismingni gullarga o'rav,  
Bag'rimga bosmoqqa haqliman, xolos.

\* \* \*

Goh unsiz, goh sekin pichirlab kun-tun,  
Ismingni ko‘p bora aylagum takbir.  
Ayt, boshqa nimadan kuch olmoq mumkin,  
Ayon-ku, bizlarni bog‘lamas taqdir.

Boumid, shukrona aytib, yurakda  
Ulug‘ ishqningni jim ko‘tarib yurmoq,  
Kun sayin dardimga ming dard qo‘shmoqda —  
Qarshingda behisdek jilmayib turmoq.

\* \* \*

Ashkdan boshqasiga yetmaydi kuchim,  
Arshdan boshqa dilning yo‘qdir panohi.  
Pitirlar ko‘ksimda benajot bir qush —  
Qoqolmas qanotin, chiqmaydi ohi.

Men yana bu qushga jafolar qildim —  
Arosat tog‘iga chiqdim yetaklab:  
Na ort, na oldinga tashlaymiz qadam,  
Na ishq, na hajrdan ocholgaymiz lab.

Asorat tog‘idan ingrar umidsiz,  
Ko‘z yoshdan so‘raydi tun-u kun imdod.  
Pitirlayveradi ojiz va unsiz,  
Orzu osmonida qoqolmay qanot.

\* \* \*

Siz tug‘ilgan kun edi kecha,  
Men olisda saqladim sukut.  
Fikringizcha, befarqlikdir bu,  
Shunday kunni dil etgan unut?

Pok niyatga burkab zaminni,  
Oy nuriga bog‘ladim tilak.

Yulduzlardan yo'lladim yog'du,  
Ruhim edi siz-la mushtarak,  
Ruhan sizni etdim muborak!

\* \* \*

Qoldim bunda behol, benajot,  
Yuragimni kemirdi alam.  
Dunyo g'arib, dunyo bedavo,  
Dil yaramga topolmas malham.

Ayt-chi, menda bormi nima ayb,  
Senmasmiding olgan dilimni,  
Etmabmiding o'zingga shaydo,  
Parvarishlab ko'ngil gulimni?

Ayt-chi, bormi menda bir ilinj,  
Yer hech mahal yetgaymi ko'kka?  
Zabt aylabon avval yurakni,  
Tashlading-u qo'yding so'ng yakka.

Dil — muztarib, qaysar va ojiz —  
Ishqsizlikda aylanar loshga,  
Ming sinov, ming ishtiboh bilan  
Ko'ngil qo'ysa, qo'yar quyoshga.

\* \* \*

Qalbimdan yog'ilgay ezgu tilaklar,  
Dilimda saf tortar samimiy so'zlar,  
Hislarim qog'ozga tutinar yoron,  
Ortingizdan boqar mastona ko'zlar.

Serviqor, orasta o'tasiz mag'rur,  
Boshlari egilgay ahli kiborning,  
Beminnat qalbingiz mehr ummoni  
Dunyomni daxlsiz etgay g'ubordan.

## HABIB ABDUNAZAR

(1968)

*Habib Abdunazar — 1968-yil 6-dekabrda Surxondaryo viloyati Muzrabot tumanida tug‘ilgan. ToshDU (hozirgi O‘zMU)ning journalistika fakultetini tamomlagan. “Manzara”, “Anjir guli”, “Gullarini qo‘msagan og‘och”, “Dil mehrobi” kabi she’riy va “Dashtdagi olov” nomli nasriy asarlar muallifi.*

\* \* \*

Bo‘limgandek hech narsa bugun,  
Qarayman oq zamin-u falak.  
Yog‘ar yurak shaklida oq qor,  
Yog‘ardi qor shaklida yurak.

Hammasini qoldirib qorda,  
Men bahorga ketaman o‘tib.  
Ammo sog‘inch — ust-u boshi qor,  
Turaverar qarshimdan chiqib.

\* \* \*

Samo nuri,  
Ruhi charog‘im...  
Tongni o‘rab qo‘yar tun bilan.  
Gulga burkar oshiq dilimni  
Gullagan suman.

Zamin nuri,  
Ruhi chirog‘im —

Ko‘mib qo‘yar kechani kunduz.  
Yoritadi devday dunyoni  
Shishachaga qamalgan yulduz.

\* \* \*

Yomg‘ir yog‘ar —  
Yashil, qizil, qora tomchilar.  
Tun afsungar,  
Tun sirli xilqat,  
Aylantirar yomg‘irni qorga.

Erta tongda qor bilan uyg‘on!..

Oyoqlari muzlagan quyosh  
o‘tib borar asta ufqdan  
qoldirgancha ignabarg izlar...  
Sarson kunduz,  
Sarson kecha —  
yashil tomchilarga ketar bo‘linib  
bahor o‘ylari...

Tun afsungar,  
Tun qora xilqat —  
O‘chiradi puflab xayolni.

\* \* \*

To‘lg‘onar gulbog‘da gulquduq,  
tubiga tushadir qiynalib  
qaro cho‘g‘ —  
qarolik aro gul kuymanib  
bir chiroq yoqadi —  
ul firoq...  
(ay, bandi safsarlar ketar sochilib).

Chambarak nur larzon —  
dil osmon,  
Shu'lai shavqingda chekib jon.  
Har bahor yig'laydi bu bahor...  
Sen hayron,  
Men hayron...  
(ikkimiz qolurmiz ruhi sargardon).

Suv ichdim,  
Suv ichdim oy to'la ko'zadan,  
Yurakka boqmadi qayrilib,  
Gulbadan.  
Ikkimiz jim chiqib ketamiz,  
Gar ketsak —  
shu moviy,  
shu nafis kulbadan.  
(ay, bandi safsarlar qolar ochilib).

\* \* \*

Tun ham, tong ham Senda yashirin,  
Zamin Senda, osmon ham Senda.  
Qismat — nishon aylana kunlar,  
O'q ham Senda, kamon ham Senda.

Senda charog'... Oftobga tutib  
Ulg'aytirdim murg'ak onlarni.  
Men bilmagan go'zal isming-la,  
Chorlayapti shamol tonglarni.

Senda manzil... Tushdim yo'lingga,  
Yomg'irlarga kirdim namchil kuz.  
Hech ortimdan yurmas xavotir,  
Hech izimdan kelmas biror so'z.  
Senda yillar... Sukutli bo'ron,

Senda tuproq, Senda olov suv.  
Goho dordan o‘tgandek qalqib,  
Xayolimdan o‘tar bir qo‘rquv.

Senda kecha... Umidli kundek,  
Yo‘llarimga dil chiqar peshvoz.  
Boshginamda sen emas, yig‘lar,  
Oy shaklida tun bergen ovoz.

\* \* \*

Seni xayol dedim, kechamda erding,  
Seni samo dedim, yonimda erding,  
Seni sahro dedim, gulimda erding,  
Me’roj ko‘kda dedim, ko‘nglimda deding.

Qaddim duto mening, yulduzdan qaytdim,  
Tunim qaro mening, kunduzdan qaytdim,  
Ko‘zyoshdek yugurdim, aylana yo‘llar,  
Garchi xato qildim, o‘zimga qaytdim.

O‘zim ma’vo dedim, o‘zimdan sachrab,  
Bu tig‘i parronga o‘zimni urdim.  
O‘zim gunoh dedim, o‘zim oh dedim,  
Evrilib o‘zimda o‘zingni ko‘rdim.

Dilimga dilingni qo‘yib yotay der,  
Jonimga joningni olib ketay der,  
Tunlarni o‘tkazib ko‘kdan ulug‘vor,  
Yomg‘irli sadolar berib o‘tay der.

Seni farah dedim, qayg‘umda erding,  
Seni vafo dedim, jabrimda erding,  
Seni rizo dedim, qazomda erding,  
Me’roj ko‘kda dedim, ko‘nglimda deding.

Iso at-Termiziy maqbarasidan chiqib kelar  
bir mo'ysafid chol.

Qo'lida hassa — tegsa tuproq kuyadi,  
Boshida kuloh — dard singari eski.

Egnidagi xirqapo'shdan rizvon  
hidlari anqiydi — mehrning ta'mi.  
Bolam, deydi...

(Yuragim zardobga aylanadi).

Yelkamga qo'yib ber, deydi osmonni,  
Senga ham berarman biror burda non!

Qorayib ketgan osmon sitilib ketaveradi  
qo'llarimda, tishlarimda.  
Yig'layveraman...

Iso at-Termiziy maqbarasidan chiqib kelar  
bir mo'ysafid chol.

Qaltiragan oyog'i, choriq — g'am po'sti,  
Yelkasini kuydirgan yashin — dur — fano,  
Yorilgan lablarida ivirsigan tun.

Yo'q sahro, bor sahro — intiho.  
Bolam, deydi...

(Kesakdek eziladi yuragim).

Olib qo'y, deydi, yelkamdan qabrnii,  
Senga ham berarman bir siqim tuproq!  
O, zilday qabr, belimni bukadi,  
Kukunday ezadi ustixonimni.  
Men... Men yig'layveraman...

## XOSIYAT RUSTAMOVA

(1971)

*Xosiyat Rustamova 1971-yil 19-martda Namangan viloyati Chust tumanidagi Olmos qishlog‘ida tug‘ilgan. “Osmondag‘uy”, “Najot”, “Rido”, “Devor”, “Yupanch”, “Avgust”, “40:0”, “Ishg‘ol”, “Unutilgan yillar”, “Bebosh bulutlar”, “Tunning boshi qorong‘u”, “Sargardon soyalar”, “Jigarrang daftар”, “44 kun” kabi she’riy to‘plamlar muallifi.*

*Shuningdek, shoiraning bir qancha kitoblari Turkiya, Ozarboyjon, Serbiya, Buyuk Britaniya, Rossiya va Ukraina kabi dunyoning o‘ttizdan ortiq mamlakatlarda tarjima qilinib, kitob holida chop etilgan.*

*Tarjimon sifatida Marina Svetayeva, Yevgeniy Yevtushenko, Anna Axmatova, Boris Pasternak, Ramiz Ravshan, Nigor Refibeyli, Rizo Xalil, Fozil Kisakurak, Xusnu Dog‘larja va boshqa ko‘plab jahon shoirlarining she’rlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan*

*“Shuhrat” medali bilan taqdirlangan (2004).*

\* \* \*

Har kungidan bog‘lar viqorli,  
Qarg‘alar ham boqar bepisand.  
Qara, jonim, ko‘cha chiroyli —  
Sen ham oyna oldidamisan?!

Osmon oppoq,  
yer juda mayin,  
Balki qorqiz yasarsan qordan.  
Senga qanday yetib borayin,  
Yo‘llarimni qor bosib qolgan.

Mashinaning orqa o‘rindig‘ida,  
Betartib xonaday xayolim uyqash.  
Oynaga qadalgan ko‘zim yig‘ida —  
Yurakni o‘rtaydi allaqanday rashk.

Xudoga borayapman o‘zimni ortib,  
Buncha ham go‘zalsan, yam-yashil chiroq!  
Mening diqqatimni o‘ziga tortib —  
Haydovchi ko‘zgudan tashlaydi nigoh.

O, shu payt...  
Kimilardir kuldi — kinoya!  
Qaradim...  
Yo‘llarni supurar farrosh.  
Qizil chiroqlarga qilmas rioya —  
Mening ko‘zlarimdan oqayotgan yosh.

### **SEN QADDINGNI KO‘TAR, TUPROQ**

Men onamni yerga ekdim,  
Vujudimdan oqar titroq.  
Men otamni yerga ekdim,  
Sen qaddingni ko‘tar, tuproq.

Yig‘lamadim yuzim tirnab,  
O, balandlab ketdi bu g‘am.  
Oyog‘imdan chirmab-chirmab,  
Meni tashlab ketdi og‘am.

Tentiradim aro yo‘lda,  
O, bu yo‘llar tentiradi.  
Meni bir kun Siznikiga —  
Buyuk g‘amlar keltiradi...

Men onamni yerga ekdim,  
Meni qo'yib yubor, titroq.  
Men otamni yerga ekdim,  
Sen qaddingni ko'tar, tuproq.

\* \* \*

Boray...

Tashqarida to'xtadi shamol,  
Ko'kda quyuqlashib bormoqda bulut.  
Nega indamaysan — turasan behol —  
Baqirging kelsa ham saqlaysan sukul.  
Azizim, ortimdan kuzatgani chiq,  
Qara, men ketishga bosyapman qadam!

Burilib yig'layman — ko'zim qup-quruq —  
Daraxtday egilib ketmoqda tanam. —  
Sarg'aygan yaproqlar to'kilar yursam,  
Bu holga dunyo ham ko'nikkan, ko'ngan.  
Salgina shamoldan qo'rqiadi jussam,  
Salgina shamol ham qo'rqiitib qo'ygan.

\* \* \*

Bir kuni sog', bir kun esa xastadirman,  
Bir kuni bog', bir kun cho'l-u dashtdadirman.  
Men Sizlarni bilmadim-u, ammo o'zim —  
Bir kuni tog', bir kun yerdan pastdadirman.

\* \* \*

Boshimdagi telpak yumshoq yung —  
O'ldirilgan o'rmon qiroli.  
Mening bitta po'stinim uchun  
Yo'q qilganlar qancha quyonni?

Hayot menga qilar qancha sarf,  
Bo'lardi-ku tezroq qarisam.  
Bo'ynimdag'i qimmatbaho sharf —  
Esdalikdir suv parisidan.  
Jilolanar burgutko 'z sumkam,  
Yuragimga dengiz sochar dur.  
Timsohteri etigim bilan  
Men atrofga boqaman mag'rur.  
To'ldiraman har kun kamini,  
O, naqadar o'chman hashamga.  
Hayot bori jonzotlarini  
Dafn etar mening jussamga.

### TUG'ILGAN KUNIMDA

Eshitilar yurak urishim,  
Demak hali aylanmoqda qon.  
Do'stlar, mening tirik turishim  
Qancha gulga keltirar ziyon.  
O, bu ne hol?  
Bu qanday jazo?  
Nega gullar ko'tarmas suron?  
Mening jonsiz vujudim, hatto —  
Ko'p gullarga keltirar qiron.

## IKROM ISKANDAR

(1972)

*Ikrom Iskandar 1972-yilda Jizzax viloyatining G'allaorol tumanida tug'ilgan. "Oyning ichidagi odam", "Bahorni izlayman", "Yashil xirgoyi", "Fasllar ohangi", "Visol qushlari", "Men sen bilan baxliman", "Noma'lum nomalarim" she'riy to'plamlari, "Bugungi naqllar" risolasi e'lon qilingan. "Sodiq xizmatlari uchun" medali bilan taqdirlangan.*

## BIR SAHAR

Bu gulshan ne yanglig‘ bog‘ edi,  
qaysiki, bir sahar chog‘ edi,  
xayolim bunda yo‘ qotmishman,  
nogah bir tosh kabi qotmishman.  
Bog‘ ichra bir pari-paykardir,  
unga sara gullar navkardir —  
bosh egib etmish bardor-bardor,  
ul husn mulkida tantanavor,  
yetti iqlim aro yaktodir,  
ne yakto, guli nur, dur nodir.  
Bu gulning kim ekan bog‘boni,  
qay tarz o‘stirmish charog‘boni.  
Bilmam, bu yo jonbaxsh musiqa  
yoki jon olg‘uchi vasiqa —  
ilkida cholg‘u, kuy taralgay,  
ne navo, bir olam yaralgay.  
Bo‘lsaydim qo‘lida cholg‘uday,  
oh urib, olamni olg‘uday  
va yo cholg‘uchining bir tori,  
bir tori demakim bor tori,

zorakim, ko‘nglim bo‘shatgaydim,  
ko‘nglidan bo‘lak ushatgaydim.  
Bag‘riga olsa ul shikasta,  
siymin bo‘yiga men havasda.  
Menga dil ochsa ul sozim deb,  
men dilim kuylasam rozim deb,  
bulbullar tinglab lol bu rozni,  
tanisa dard to‘la ovozni.  
Ham chalib-tinglab ul to‘ymasa,  
qo‘ymasa, bag‘ridan qo‘ymasa...  
Ammo bu barisi xayoldir,  
yoniga bormoq ham maholdir,  
behuda o‘y surib yotmishman,  
qotmishman, tosh kabi qotmishman.

### YUZINGNI KO‘RGALI

Yuzingni ko‘rgali oy uyolmishdir.  
So‘zlarin inju, lablaring bolmishdir.  
Agarki husn mulkida bahs etsalar,  
Layli-yu Shirin poyingda qolmishdir.

Bu ne holmishdir, vasling umidida  
ko‘zlarim yo‘llaring poylab tolmishdir.  
Orzum ro‘yobi ro‘yo, necha vaqtkim  
betin vaqt kabi tinchim yo‘qolmishdir.

Bu ne lashkar kabi oh emish, mudom  
ayriliq ko‘ksima lak-lak solmishdir,  
kim, hajringda gar bir oh ursa Ikrom  
Iskandar kabi dunyoni olmishdir.

\* \* \*

Sen tomon borar bo‘lsam,  
yo‘llar o‘zi yo‘l boshlar,  
girdida poyandoz gul  
shakliga kirgan toshlar.  
Semirgayman simirgan  
sarim — sarrin havolar.  
Daraxtlarning mavjida  
avjlanadi navolar —  
chamamda, daraxtlar ham  
sen haqda o‘ylagaydir.  
Shoxlarida jon qushi  
vasfingni kuylagaydir.  
Yaqinlashar olislar,  
bir g‘ubor yo‘q orada.  
Olam chiroyga, nurga,  
sirga to‘lib boradi.  
Shabadaning qatida  
chorloving ilg‘ayurman.  
Yuragimni shabnamning  
suvlariga chayurman.  
Ko‘kimni sog‘inchlar  
selday yuvar guldurab,  
oqib ketar g‘am-qayg‘u,  
yo‘qoladi kudurat.

Ko‘zida quyosh kulgan,  
sochi tun, qoshi qamar,  
sensan borar manzilim,  
oshiqman, oshiqlaman...

\* \* \*

Oyparcham, gulistaram,  
nafasi yalpiz islim.  
Sochlari taram-taram,  
o'ynoqi irmoq mislim.  
Tug'yon bordir tinida,  
boqishidan nur olay —  
kipriging epkinida  
soyalar juft quralay.  
Gullayotgan bog'larning  
quvnayotgan jarangi  
yuragimga bog'landi —  
oppoq kulgungning rangi.  
Tegramda namoyishsan,  
ko'ksimdag'i g'uluvim  
hayratimga boissan,  
tarchechak kunsuluvim.

\* \* \*

Yoz oqshomi osmonning  
oqarishib darasi,  
dalalarga quyilar  
yulduzlar sharsharasi.  
Yorishadi ko'nglim ham  
yo shunday tuyuladi,  
xayoling yulduzlarday  
shovullab quyiladi.  
Menga shuning o'zi bas,  
shuning o'zi baxt kabi,  
faqat oqimga qarshi  
sakragan baliq kabi  
o'ying bilan qonmagan  
sog'inch o'rtar gohida...

O‘yinqaroq bir yulduz  
sakrar terak shoxida.

\* \* \*

Sevmasingni aytdingmi,  
kelmasingni aytdingmi  
yoki ko‘zguga qarab  
aytayapsanmi hamon —  
boqib biror teshikdan  
ovozingni eshitgan,  
har qalay, bir nimani  
bilib olgan bu shamol.

O‘lay seni sevguncha,  
sevay seni o‘lguncha,  
odam degani shuncha  
qiynarmi oshig‘ini...  
Ko‘cha-ko‘yda uvullar,  
uvullar tom boshida.  
Dil huvullar eshitib  
shamolning qo‘shig‘ini.

## GULANDOM TOG‘AYEVA

(1972)

*Gulandom Tog‘ayeva 1972-yilning 1-yanvarida Surxon-daryo viloyati Denov (hozirgi Oltinsoy) tumanidagi Katta Vaxshivor qishlog‘ida tavallud topgan.*

*“Chaqmoq xo‘rsiniqlari”, “Muhabbat asri” kabi she’riy kitob-lari chop etilgan. 1999-yili “Shuhrat” medaliga sazovor bo‘lgan.*

\* \* \*

Shiddat-la kurtaklar bir o‘rik,  
Misli o‘q yaralar ko‘ksingni.  
Axir kechagina yo‘qotding,  
Bahorga munosib do‘stingni.

Kurtaklar sanchilar olovdek,  
G‘ururni qamchilar xotira.  
Nish urgan har shirin nigohdan  
Yuvilar har qancha kudurat.

Och tusli, qizg‘ish-u, nim sarg‘ish, —  
Hidlayman hikmatlar gulshanin.  
Jasorat qilmoqqa cho‘zilgan  
Qutlayman shu mitti qo‘lchani —  
G‘unchani!...

## ISHQ HANDASASI

Men kimning ushalgan so‘zi ekanman,  
Kim tanishi uchun taqilgan halqa.  
Bulbul panjasining izlari qolgan  
Bu devordan ortib Ne degum Xalqqa?!

Mening alamimni tushunmaysizlar,  
Meni yig‘latgan ul ishq handasasi.  
Bashar yo‘q:

Siz quroq-tush, un, maysizlar,  
Ilmim uzatadi ko‘shk — anda sasi.

Men kimning ushalgan so‘zi ekanman,  
Qonimda olmalar qonab gullasa.  
Men muzga bag‘rini bergen Vatanman,  
Tishlarim o‘rnida chiqar handasa...

Men kimning ushalgan so‘zi ekanman,  
O‘n sakkiz yoshimdan so‘rog‘im shuldir.  
— Asalari, bog‘da gul yo tikanman,  
Menga qo‘ngan payting meni ham o‘ldir....

\* \* \*

Bir yulduzman, oy yonida yurmagan,  
Oshiqdirman, ko‘ngil ishi unmagan,  
Asli gul-u boychechagin ko‘rmagan,  
Bahordirman, yo‘lin kuzga bermagan.

Tushlarimday uzun ekan bu yo‘llar,  
Bu yo‘llarni chigal qilgan shu, dillar,  
Muhabbat deb shovullagan, tinmagan,  
Daraxtdirman, singaniga ko‘nmagan.

O‘ylang, mayli meni: “Kibri havoli!”  
Men ishq ahlin siri, asriy savoli.  
Shahar berib Hofiz yorga yetmagan, —  
Qo‘shiqdirman, soz sinsa ham so‘nmagan.

Umid qushim otdi “do‘sti habiblar”,  
Unga malham topolmadi tabiblar,  
Shu malhamning armonida yig‘lagan,  
Bir shoirman, she’rlariga sig‘magan.

Bugun dalli, daryo bo‘ldi hikmatim,  
Balki bu she‘r mening so‘nggi suhbatim,  
Dunyo o‘zi bir ajib tor tomoshagoh ekan,  
Unda ko‘rinar ba’zan gullar misoli tikan,  
— Muhabbat deb shovullagan, tinmagan,  
Daraxtdirman singaniga ko‘nmagan!..

## SEVGANLAR YIG‘LASIN

“Endi u yig‘lasin, men yig‘lab  
bo‘ldim”...

*Mirtemir*

Qachonkim, men aning chashmini ko‘rdim,  
Ko‘zimning yoshini qo‘riqlab bo‘ldim,  
Chehrangning gardi deb Ka‘baga bordim,  
Sevganlar yig‘lasin, men yig‘lab bo‘ldim!

Qalbim o‘z rangiga rang topib bo‘ldi,  
Gulni firoq nishi oh, o‘pib bo‘ldi,  
Chehram oynasini dard yopib bo‘ldi,  
Sevganlar yig‘lasin, men yig‘lab bo‘ldim!

Sendan eshitganim zor bo‘lmasa bas,  
Gulning bo‘yinbog‘i tor bo‘lmasa bas,  
Labim qonatgan xor bo‘lmasa bas

Sevganlar yig'lasin, men yig'lab bo'ldim!  
Xudo menga oyday ko'ngilni berdi,  
Endi berkitmoqqa etak ham bersin!  
Xudo menga Mungday singilni berdi, —  
Poyiga sochmoqqa chechak ham bersin!

Muztarin holimga kulganlar emas,  
Nastarin isidan o'lganlar emas,  
Mening kuylarimga kuyganlar emas,  
Sevganlar yig'lasin, men yig'lab bo'ldim!

## SEVGI

Ko'nglimizning tubinda she'rlar yig'lar,  
Sog'inchimiz xor o'lib, orlar yig'lar.  
Yuzingni bir bor ko'rmoq armon bo'ldi,  
Quyoshini sog'inib ko'rlar yig'lar.

Qush inin bevaqt yoqqa qor buzadir,  
Ishq izin ko'mib asta qorlar yig'lar.  
Nigohingning qalami dor chizadir,  
Mashrabini sog'inib, dorlar yig'lar.

Na bo'lardi bog'changda bir o'sma bo'lsam,  
Azal xatin urdi qalam qosh ustina.  
Shul davrada visolingga yetar bo'lsam,  
Dushmanimning bayrami ham bosh ustina.

Ko'nglimizning tubinda she'rlar yig'lar...

## MUHAMMAD SIDDIQ RAHMATOV

(1972)

*Muhammad Siddiq Rahmatov 1972-yil Andijon viloyati Bo'ston tumanida tavallud topgan. "Ishq dardi", "Yurt sog 'inchi", "Mo'tadil lahzalar", "Pastlab uchgan turnalar" kabi she'riy kitoblari nashr qilingan.*

\* \* \*

Onam mohir edi,  
xo'p chevar edi,  
O'xshatishar edi  
qo'llarin gulga.  
Negadir non yopsa,  
termilib tursam,  
Bir-bir to'kilardi  
kulchalar kulga.

Bilmadim ne hikmat  
mujassam bunda,  
Onam hech etmagan  
bu hikmatni fosh,  
Shunchalar otashga  
chidagan nonlar,  
Nega nigohimga  
bermasdi bardosh.

Endi menga odat  
ko'zimni tiymoq,  
Balki bu holimdan  
kimlardir kular,

Rosti bo‘ylamayman  
tunlari ko‘kka,  
Qo‘rqaman, to‘kilari  
boqsam yulduzlar.

## ABDULLA QODIRIY BEKATI

Yerning ostida ham qaynaydi hayot,  
Har boshda har xayol, turfa xil yumush.  
Ajib bir olamda kezadi ruhim,  
Ko‘zlarimni yumsam, ko‘rinar Kumush.

Qirq yilki, ovozi o‘zgarmas ayol,  
Keyingi bekatni “Minor”, deb aytar.  
Asta chayqaladi moviy vagonlar  
Va asta hammasi moziyga qaytar.

Vagon derazasi — kino tasmasi,  
Tarix ko‘z oldimdan o‘tadi bir-bir.  
Qutidor, Otabek xon saroyida,  
Qo‘llariga kishan solgan shum taqdir.

Mana, Marg‘ilonning tor ko‘chaları,  
Birdan vujudimni qoplaydi titroq.  
Ana, muyulishda kutadi Homid,  
Ko‘zlarida hasad, qo‘ynida pichoq.

Yer betiga sizib chiqadi poyezd,  
Nihoyat, “Alvasti ko‘prik”ka yetdim.  
Soqchilar, mung‘ayib turar Qodiriylar,  
Miltiq ovozidan seskanib ketdim.

Nahotki, oxirgi bekat bo‘lsa bu?  
O‘ngdan ochiladi endi eshiklar.  
Bobo, nomangizni o‘ng qo‘ldan bersin,  
Endi boraringiz bo‘lsin behishtlar.

Yerning ostida ham qaynaydi hayot,  
Har boshda har xayol, turfa xil yumush.  
Ming afsus, bu gal ham uchratolmadim,  
Seni deb tushgandim metroga, Kumush.

\* \* \*

*Do'stim Shukurullo Murodovga*

Tulpor ko'rdim, yuki og'ir,  
Yerga boqib yo'rtib borar.  
Qismatga jim bo'yin egib,  
Aravani tortib borar.

Yonida bir toychasi bor,  
Durkun, biroz nimjon erur.  
O'zin har yon urar tinmay,  
Ko'zi to'la isyon erur.

Payt poylaydi, fursat topib,  
Aravani buzmoq bo'lar,  
Ostin-ustin qilib barin,  
Yangi olam tuzmoq bo'lar.

Chiqib bo'lmas, oxir anglar,  
Bu taqdirning chizig'idan,  
Iloj qancha qochib bo'lmas,  
Peshonaning yozig'idan.

Lovullagan yurakda cho'g',  
Bir kun kelib asta so'nar.  
Endi toychoq tulpor bo'ldi,  
Aravaga asta ko'nar.

Tiriklikning yuki og'ir,  
Endi barin sezib borar,

Yonida bir toychoq kishnar,  
Yuragini ezib borar.

Tulpor ko‘rdim yuki og‘ir...

## XULOSA

Otam do‘ppisidek  
puchaydi osmon,  
Onam ro‘molidek  
o‘ng‘idi dunyo.

## QISHLOQDA

Uzoq xayol surib qolibman chog‘i,  
Musicha boshimga keltirdi xaslar.

## URUSH ODAMLARI

Bobomning yengiga qarab bilar edik,  
Shamol qay tarafga esayotganin.

## BESHINCHI QAVATDAN KO‘RINGAN MANZARA

Ko‘p qavatli uy tagidagi  
bir tup oq o‘rik —  
Boshiga savat qo‘yib,  
bodroq sotuvchi kampir.

## KO‘P QAVATLI UY

Tepada tonggacha yo‘talar bir chol,  
Pastda tonggacha chirillar go‘dak,  
O‘rtada tonggacha men hayron-u lol.

## **VOHID LUQMON**

**(1974)**

*Vohid Luqmon 1974-yili Samarqand viloyatining Payariq tumanida tug‘ilgan. “Mujda” nomli to‘plami chop etilgan.*

### **HAR NAFASDA SAMARQANDNI SOG‘INAMAN!**

Yuragimga tushunmayman, nima istar,  
Ko‘kragimga botgan darddan og‘rinaman.  
Ko‘zlarimga qarolmayman — boqar muztar,  
Har nafasda Samarqandni sog‘inaman.

Kecha kelib, bugun yana ketgim kelar,  
Moshinlarda ildam-ildam yetgim kelar,  
Dadamga deb Siyobdan non eltgim kelar,  
Har nafasda Samarqandni sog‘inaman.

Onamdayin yo‘l qaraydi eski darcha,  
Zanglab ketgan zulpaklari go‘yo zarcha,  
Yangi shodlik bo‘lolmaskan eski dardcha,  
Har nafasda Samaraqandni sog‘inaman.

Qaldirg‘ochning bolasiday chirqirar dil,  
Og‘izlari kappa-kappa — zirqirar dil,  
Ariq bo‘yi, qalampir o‘t, uvatli yo‘l —  
Har nafasda Samarqandni sog‘inaman.

Ishkomlarda chug‘urchiqlar hakalaklar,  
Xandalari biram hushbo‘y handalaklar,  
Kamalakdek tovlanadi gulpalaklar —  
Har nafasda Samarqandni sog‘inaman.

Dimog‘imdan ketmaydi tandir tutuni,  
Tushlarimga kirar har xasi, o‘tini,  
Ko‘rgim kelar ba’zan buvim shotutini,  
Har nafasda Samarqandni sog‘inaman.

Ko‘ksaroyning ko‘ksin teshgan yantoqlarin,  
Qovjiragan Afrosiyob yaydoqlarin,  
Shohi Zinda bag‘ridagi qadoqlarin,  
Har nafasda Samarqandni sog‘inaman.

Aytay desam, ona, ko‘nglim to‘lib ketdi,  
Aytaversam — yomg‘ir bo‘lib yog‘inaman.  
Sizni juda ko‘rgilarim kelib ketdi —  
Har nafasda Samarqandni sog‘inaman.

\* \* \*

Ko‘ylaklari xazon edi, xazon edi,  
Bir qo‘lida aqrab, birda mezon edi,  
Kulgulari qimmat, ashki arzon edi,  
Unga qanday sevmayman, deb aytolardim.

Uzuklari barmog‘idan uzilgandi,  
Suman sochi tarog‘idan uzilgandi,  
Bu dunyodan uzuk ko‘ngli buzilgandi,  
Unga qanday sevmayman, deb aytolardim.

Ko‘zlarini ko‘zlarimga botirgandi,  
Qoshlariga yoshdan o‘sma torttirgandi,  
O‘ttiz yilda bitta dardkash orttirgandi,  
Unga qanday sevmayman, deb aytolardim.

Ko‘rib qolsa, ko‘zlariga qochar joy yo‘q,  
Boladayin berkinadi, ketar roy yo‘q,  
Bu dunyoda undan ko‘ra go‘zal oy yo‘q,  
Unga qanday sevmayman, deb aytolardim.

Ketar bo‘lsam xayr demay keting, derdi  
Bilmaydiki, ketsam boshqa qaytolmasdim.  
Sevmasangiz sevmayman deb aytинг, derdi,  
Lekin seni sevmayman, deb aytolmasdim.

\* \* \*

Yig‘la sochlari layli,  
Yig‘la zulfi chiltorim.  
O‘tkinchi dunyo sayli,  
O‘tguvchimiz, dildorim.

Yig‘la qoshlari qilich,  
Yig‘la qoshi kamonim.  
Ichsang faqat ko‘z yosh ich,  
Kechsang mendan kech, jonim.

Yig‘la kiprigi xanjar,  
Yig‘la ashki sho‘ri ob.  
Bugun yig‘lamasang gar,  
Ertaga holing xarob.

Yig‘la har tomchi yoshing,  
Nafs o‘tini so‘ndirsin.  
Tuproq to‘lmasdan burun,  
Ko‘zingni yosh to‘ldirsin.

Yig‘la lablari olu,  
Yig‘la dudog‘i anbar.  
Har kulgung zaqqum — og‘u,  
Har yoshing obi kavsar.

Yig‘la shaffof olamda  
Har ne abas, U mutlaq.  
Har jarangi jolangda  
Takrorlansin: Yo ALLOH!

\* \* \*

Chiroqlar — zulmatga sanchilgan kamon,  
Bu yerdan ko‘rinmas ko‘kning hiloli.  
Chinor yaprog‘ida kuz titrar, hamon —  
Meni tark etmaydi gulning xayoli.

Sukunat to‘rida shahar shovqini —  
Baliqdek sapchiydi ko‘nglim yuziga.  
Yurakka sig‘magan sog‘inch shavqini  
Darbon kuz o‘tkazmas — qaytar iziga.

Eslamaslik mahol, eslamoq malol,  
Hayrat bandidagi mitti yaproqni.  
Qanday unutayin, qiynar shu savol,  
Ko‘ksimga kamondek botgan chiroqni?!

\* \* \*

Deraza raxida turgan qushdek  
tomosha qilyapman dunyonи  
to‘rtinchi qavatda.  
Qaydadir takkillar nog‘ora  
shamoldek guvullab o‘tar moshinlar  
so‘ng tinchir — muvaqqat.  
Charchoq ko‘zlarimni ko‘kka tikyapman —  
Shomni kutyapman.

\* \* \*

Oshiqqa uyqu bormi — halovat visoldadir,  
Dard bormi, qayg‘u bormi — harorat visoldadir.  
Hijron halokatidan tug‘yonga tushmamish dil,  
Ey, Gul bilsang aslida halokat visoldadir.

## **GO ‘ZAL BEGIN**

**(1974)**

*Go ‘zal Begin 1974-yil 31-yanvarda Xorazm viloyati Qo‘shko ‘pir tumanida tug‘ilgan. “Sukunat jarangi”(1998), “Uchayotgan yaproq soyasi”(2002), “Majnunsoat”(2012), “Yoki”(2018) kitoblari nashr etilgan. She‘rlari “O‘zbek modern she‘riyati” (Toshkent, 2008), “O‘zbek yosh shoirlari”(Toshkent, 2008), “Anor-Granat” (Moskva, 2008), “Annotirovanniy katalog” (Erevan, 2009), “Xalqaro antologiya”(Vyetnam, 2012), “Happiness: The Delight—Tree (Schastye: Derevo Vostorga)”(New York, 2015), “Fairy-tale” (USA, Iowa, 2015) kabi xalqaro va O‘zbekiston miqyosidagi jamoa to‘plamlarida chop etilgan. Aleksandr Blok, Pol Elyuar, Sergey Leshakov, Marina Svetayeva, Doris Lessing zamonaviy arman, polyak va vyetnam shoirlari she‘rlarini, Andrey Platonov va Milorad Pavich hikoyalarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. “Ayiqcha Taptapvoy va uning do‘srtlari haqida ertak”, “Mullanafas” kabi tarjima kitoblari chop etilgan.*

## **ALLA**

*O‘g‘lim Ansorga*

Oyning to‘lqinlari oralab  
shitirlaydi dengizrang kunlar  
ranglarni tebratyapman  
alla bolam alla

Peshonam chizig ‘ida iymanib  
ostonamga keldi tunli orzular  
oqshomni tebratyapman  
alla bolam alla

Iztirob shaklida barmoq tovushi  
silaydi yuragin shabnamning  
tongni tebratyapman men  
alla bolam alla

Yuragim yo‘rgaklangan faslda  
ko‘zlarim tiz cho‘kdi oftobga  
quyoshni tebratyapman  
alla bolam alla

Zil-zambil umidlar og‘rig‘i  
kemtilgan qirg‘og‘i dilimning  
yurakni tebratdim men  
alla bolam alla

Daraxt soyasini silkitar sabo  
tushimda yig‘laydi to‘lqinlar  
dengizni tebratyapman  
alla bolam alla

Oyning o‘n beshida ko‘zim qorasi  
qo‘limda lovullagan hayajon  
yerni tebratyapman men  
alla bolam alla

## EY SUYDIRGUVCHE

Yuragimdan gul bargini olib o‘tgan  
tuyg‘ularimning billur shaklini  
ovoz xiyobonida erkalaguvchi  
saksovul iforida raqsga tushgan  
sabo sandig‘idan ozod bo‘lgancha  
qushlar qiroatin ko‘kka yo‘llagan  
nigoh kengligiga yo‘l olgan ey so‘z  
tiz cho‘kkani tovushlar sening qarshingda  
va yurak haqidagi ertaklar

Ey suydirguvchi  
ko'zimning tim qora muhabbatini  
shaffof sukunatga chog'ishtirgan zot  
yuragimning o'nqir-cho'nqirlarida  
shafaq ummonini barpo etguvchi  
olis manzaralar ichidan  
oltin jimlik ila olib o'tguvchim

Ey suydirguvchi  
tun va tongning oralig'iga  
qahqaha hikmatini ilib qo'yuvchi  
tuyg'ular qa'rige  
nodir buyumlarni jamlab qo'yuvchim  
qo'llarimni ochiq holida  
samo saroyiga yo'llayotganda  
ko'zyosh javharini yaratgan ey Zot  
tabassum shiviridan o'sgan so'zlarini  
muhabbat diyoriga muhrband etib  
yuragimning mingta tomoni bilan  
ey Suydirguvchi  
ey Suydirguvchi

\* \* \*

Men seni tanidim.  
Changda qolib ketgan o'n sakkiz yoshim  
Qo'llarim tanimagan o'z hovurini  
Lablarimning oynada aksin ko'rsatgan  
hayratni orqadan oldga sanagan  
Qarashimni qarshilamagan  
Kapalak yoshimsan sen mening

Men seni tanidim  
Yaproqlarning oralaridan  
Yuragimni tasvirga olgan

Tuyg‘ular tarixini bitgan ey kitob  
Tirnog‘imning tilla xati va  
Osmonga qalamin teggizgan  
O‘chirg‘ich topilmay tuyg‘ularimga  
Hislarim rastasiga evirilgansan

Men seni tanidim  
Hadya etayotib gulqo‘g‘irchoqni  
ko‘klamni qobirg‘asiga urib olganim  
oyning eng inja qaroshini taroshlaganim  
havoga puflangan momaqaymoqday  
ichimda uchayotgan qo‘nmayotgan pargulim  
yuragimga qopqoq yasagich Ustam

Men seni tanidim  
Billur dalalarni shudgorlayotgan  
Esnoq va yomg‘irni aralash tirgan  
Tomirimga emas, oyoqlarimga  
Simobli o‘lchagich band etgan  
Titrog‘imni tahrir qilguvchi  
Barmog‘im uchidan sachragan quyosh  
Men seni tanidim.

\* \* \*

Ko‘zlarimni bo‘shatayapman  
Ko‘zingni o‘chirdim ko‘zimdan  
Qaramayman bo‘m-bo‘sh bu shahar  
Uzuqlarin yamadim dilning  
Ninam tushib ketdi yo‘limga

Yuragimga bekingan gulni  
Dimog‘ingga bosgancha o‘tding  
Bu dunyoning lola shakliga  
Zardobini to‘kdum umidning  
Yonar, yonar lirik qiyofam

Shisha gullar unar qiblamda  
Iforlarga taralma deyman  
Dengizning ko'k jazavasini  
To'yxat qildim ayriliq, senga  
To'fon to'lma endi bu qalbga!

Eshigingni chertsam shabada  
"Kim" deb ovoz berib qo'ymading  
Qavat-qavat ko'rpacha to'shab  
Kutdim ey qaro tun kirmading  
Eshik qisib qoldi ko'ylagim

Ko'chib ketgan bu qalbdan hamma  
Ildizlari chirigan yo'lning  
Rasmga tushasan bujmayib  
Bo'm-bo'sh qo'lning uzatilgan aksi  
Va yurak ustiga yog'ayotgan yomg'ir...

Kelma...  
ko'chib ketgan bu qalbdan hamma

## BEKTEMIR PIRNAFASOV

(1975)

*Bektemir Pirnafasov 1975-yilda Navbahor tumanidagi Kavobi qishlog‘ida tug‘ilgan. “Tong yoqasi” (1996) nomli she’riy kitobi nashr etilgan.*

\* \* \*

Sen qarib qolayapsan...

Mening imkonsizligimni yuzimga solib,  
Mangulik haqidagi barcha she’rlarimni tahqirlab  
Sen qarib borayapsan tobora...  
Onajon...

\* \* \*

Birin-ketin,  
Hamma begonalashib boraveradi.  
Umr o‘taverdi barchasining  
Ustidan kulgancha  
Ko‘zda yosh bilan.  
Yo‘l chetida  
Bir toshni ustiga o‘tirib olib  
Yo‘ldan o‘tayotgan umrni kuzatar odam.  
Boshini chayqaydi, kuladi, yig‘lar  
Qarab begonalar bosib ketgan dunyoga.  
Ota-onas ketdi olis safarga.  
Aka, uka — bari qoddi mung‘ayib,  
Umr bosib o‘taverdi barini.  
Ko‘nglini o‘ynadi, olmaday, gulday

Havasini o‘g‘irladi barining  
Har birini o‘zga-o‘zga manzillarga  
Olib ketaverdi.  
Orziqsa, ko‘nglini chalg‘itdi kami,  
Sog‘insa tashvishlar bo‘ynini egdi.  
Bir chetda  
Bir to‘yib yig‘lashga hatto  
Bermadi bir lahza hech kim,  
Hech qachon!  
Bolalarni bosib o‘tdi umr.  
Ko‘ngillari turfa,  
Orzulari ayro  
Garchi tomir ham bir,  
Qon ham bir.  
Hamma begonalar  
Borgan sari  
Ko‘proq qarar o‘kinib  
Quyoshga, quyoshga, quyoshga...

\* \* \*

Devorda o‘sgan gullar  
Bolaligim hovlisining paxsalarida  
Yoriqlardan o‘sib o‘tar edi  
qo‘shni qizning xayoli bo‘lib...

Hech unutib bo‘lmas voqealar kabi  
Qayta-qayta kelaverar yodimga  
Devorda o‘sgan gullar...

Men ularni juda ko‘p holatlarga  
o‘xshatardim o‘sha damlarda  
Bir orzumning bo‘yi bo‘lib ko‘rinsa,  
Bir armonlarimning isyoniga  
o‘xshab ketardi ular...

O'sha damlarda men  
Hech qachon, hech narsaga yon bermayman deb o'ylardim,  
Taqdirim mening izmimda bo'ladi deb o'ylardim,  
Agar nimadir yo'limda to'siq bo'lib chiqsa  
Devorda o'sgan gullar kabi —  
Uni teshib o'taman deb o'ylardim o'sha damlarda...

Hech unutib bo'lmas voqealar kabi  
Qayta-qayta kelaverar yodimga  
Devorda o'sgan gullar...

\* \* \*

Ketayapman xiyobon bo'ylab  
Nigohimda parishon yellar.  
Tongga qadar visolni o'ylab  
Atrofimda qizargan gullar.

Nafasimdan titragan maysa  
Chehrasida toblanar gulob.  
Shivirlar to'kilar g'amgin: —  
Sog'inchlar — men ko'nikkan azob...

Olislarga chirmashar nigoh,  
Xayolimda dunyodan gina —  
Bu dunyodan maysalar kabi  
O'tib ketsam, indamaygina...

\* \* \*

Nigohimda ezilgan so'qmoq  
Olislarga tutashib ketgan.  
Kimsasizlik hokim xiyobon  
Barcha tovushlarni unutgan.

Qo‘zg‘aladi qadamdan cho‘chib  
Atrofimda za’faron sharpa.  
Besarishta kezinar ko‘ngil  
Go‘yo endi oxirgi marta...

Arg‘uvonlar chaqirar shamol,  
Teraklar yo‘l ko‘rsatar oyga.  
Ovozini yashirib jimlik  
Yuzlarini yuvadi soyda.

Mag‘rur xazonlarni telba yel  
Suvga cho‘kkan tunga botirar.  
Derazadan kuzatar meni  
Sochlari oqargan xotira...

\* \* \*

Sochlaringning qora rangi tugadi,  
Kaftimda qolmadi kelajak izi.  
Manglayimga qismat yoziqlari ustidan  
Umrim tortib chiqdi chuqur-chuqur chiziq.

So‘qir kabi boqib qo‘yaman atrofga,  
Hidlari unutilgan gullar so‘ladi.  
Ko‘ngilni yuvolmay aylanar fasllar,  
Umidlar to‘lgoqda bukilib o‘ladi.

Oliblargacha qochib ketgan xotira,  
Xayol boshini urar dunyoning to‘rt tomoniga,  
O‘z qoniga belanib yotar qafasda.

Hech qanday ayriliq izardirobga solmas meni,  
Faqat ko‘zlarining ochiqligi qiynaydi  
Aldanib ketishga kelgan hayotda...

## FAROG'AT XUDOYQULOVA

(1975)

1975-yilda tug'ilgan. "Kuy dilim, suygulim", "Aytolmagan so'zlarim", "Oydinlik", "Oq xatlar", "Qoyatoshim", "Muhabbatga ko'm dilni" nomli kitoblari chop etilgan.

## MIRZO ULUG'BEK

Tun qo'ynida tutdim quyoshni,  
Osmon oqib kirgach ko'zimga.  
Yulduzlarni gul kabi terib,  
Hadya etdim xalqim o'zingga.

Samarqandning yulduzlariga  
Mangu tegib turar qo'llarim.  
Xalqim sen bor, sen bilan birga,  
Kelajakka eltar yo'llarim.

## "BUG'DOY TO'LDI" TO'YINGIZGA

Erta tongdan non isiga  
Uyimni to'ladir shamol.  
Quyosh ko'zin gul yashnatib  
Dalangiz ham ochdi jamol.

Dunyo rizq-ro'z ulashmoqning,  
Halol yo'lin uqqan sizdan.  
Qishin-yozin ter to'kmoqlik,  
Chumoliga yuqqan sizdan.

Men ham tashna jo‘yaklarga,  
Tillo suvin to‘kdirganman.  
“Bug‘doy to‘ldi” to‘yingizga  
Atlas ko‘ylak tikdirganman.

El sizga, siz elga tayanch,  
Qalam tutsam, dil yonadir.  
Yulduz o‘pgan xirmoningiz,  
Yurt to‘yiga to‘yonadir.

## LOLA SAYLIGA

Shamol chiqdi lola sayliga,  
Qizardi yangi oy yuzlari.  
Chashmalarning iliq suvida  
Soch yuvardi qishloq qizlari.

Qonatarkan qirlar bag‘rini,  
Quyosh nurlarining sinig‘i.  
Kechib o‘tar tog‘ tomon oqshom,  
Loyqalanar suvning tinig‘i.

Bulutlarni panalab boqar  
Oy aksidan qamashgan ko‘zlar.  
Lolalarga qo‘shilib oqar,  
O‘n sakkizga kirmagan qizlar...

## MEHR

Oq qog‘oz — dasturxon,  
Qalamda sehr,  
Oq kosada sutda ivitilgan non.  
Dasturxon ko‘rkidir — g‘arq pishgan mehr,  
Mehr bor — yashashga demak, bor imkon.

Qay tunda o‘zimni qilgandim ta’qib,  
Yulduzlar barala berdilar ovoz.  
Navbahor sochini yomg‘irga tutib,  
Yo‘limga naysonni ayladi pardoz.

Ne ajab, ko‘nglimni so‘zlar yoritar,  
Ohanglar boshimni silaydi, telbam.  
Siz emas, qalamim — g‘amim aritar,  
Hilolning sayridan yorishar kulbam.

Bilaman, yo‘limdan xayolim uzun,  
Bilaman, mehrimni ayadim sizdan.  
Oshiq ko‘nglingizga tilayman to‘zim,  
Faqat gina qilmang, she’rparast qizdan.

## KETDING

Befarq o‘tib ketding necha bor,  
Senday befarq o‘tib ketdi oy.  
Sen va oy boqmagan ko‘zlarga,  
Hatto bahor berolmas chiroy.

Kapalakday yashil ko‘ylakda,  
Osmoningda uchardim sassiz.  
O‘n sakkizda chiqqandim yo‘lga,  
O‘ttizda ham turibman yolg‘iz.

Mayli, boqma ko‘zlarimga tik,  
Men tomonga topsang agar yo‘l.  
Kelganiningni aytmoqchi bo‘lsang,  
Ostonamga sochib ketgin gul.

## **SAVOL**

Ming shukur, til berib so‘zlatib qo‘yding,  
O‘zimni o‘zimdan izlatib qo‘yding.  
Men gumroh o‘zimni topdim deganda,  
Ko‘nglimni kimlarga yuzlatib qo‘yding?

## **KETSANGIZ...**

Ko‘nglima olovlar yoqib keldingiz,  
Poyima daryoday oqib keldingiz,  
Boshimda bulutday boqib keldingiz,  
Bahorda gullamas bog‘ bo‘lib qoldim.

Bulutni boshimdan ko‘chirib keting,  
Daryoni shamolga ichirib keting,  
Ketsangiz olovni o‘chirib keting,  
Kulning tagidagi cho‘g‘ bo‘lib qolmay.

## **ISHONCH**

Bir kuni bilasiz,  
Yog‘ayotgan yomg‘ir emasligini,  
To‘xtamaganini ko‘zimdagi yosh.

Bir kuni bilasiz,  
Botayotgan quyosh emasligini,  
Qattiq emasligin ko‘ksimdagi tosh.

## FARHOD ARZIYEV

(1975)

*Farhod Arziyev 1975-yilda Navoiy viloyati Nurota tumanida tug‘ilgan. “Yolg‘izlik ranglari” she’riy to‘plamning muallifi.*

\* \* \*

Bilsangiz, bo‘g‘zimgacha hayajon —  
Men yig‘lab aytmoqchi edim bu So‘zni:  
Bu men, qaytib kelgan safardan,  
O‘jar tiynati ranjitgan Sizni...  
Gunohkor emasman foniyligimdan.  
Men boshimni egdim, ochilar misan:  
Assalomu alaykum, Yashil darvoza!  
Bolalik esingdami, bolalik — Vatan...  
Bolalarin sevadi ona Tabiat.  
Bul sirni angladim, axir, angladim.  
Hurlik ulashgan-ku ruhimizga,  
Men ham hurlikda yashadim!  
...Tongotar. Uyg‘onadi odamlar  
Bu — men, qaytib kelgan safardan,  
Assalomu alaykum, Yashil darvoza!  
Assalomu alaykum... Vatan!

## TONGDA YOZILGAN SHE’R

Tongda dunyoni kuzatmoq go‘zal,  
Asliga tortmasdan nur bilan soya.  
Shoir bo‘larmidim, hech bo‘limganda,  
Cho‘zilsa bu tasvir biror soniya.

Bilmadim, bul nega eskirgan sahna,  
Go'zaldır, yoshgina jonimga qasddir.  
Bo'lsa haqiqat ham, yolg'on ham ko'hna,  
Bilmadim, osmon ham xato havasdir.

Ko'ngil ozorlanar — gul uza jilva,  
Ko'ngil ozorlanar — gul bargi xandon  
Sehr qodir agar, menga ham nima,  
Unutmoq istayman hammasin tamom!

Tarki anjumandir ko'ngil havasi,  
Sahro harorati gulgún yoshida...  
O'g'ri-yu kazzobning omadi asli,  
Sinoat aylanib ko'z-u qoshida...

Bilmadim, tomirda oqdi gunohim,  
O, yupanch istadim har zarrasidan!..  
Bilmadim, hammasi aylanar yaqin,  
Kechirgin, kechirgin, Hazrati Odam!

...Tongda dunyoni kuzatmoq go'zal,  
Asliga tortmasdan nur bilan soya.  
Shoir bo'larmidim, hech bo'lmaganda,  
Cho'zilsa bu tasvir biror soniya.

## KO'ZLAR VA DENGIZ XUSUSIDA

Ko'zlariningda adashgan  
Gunohkorning yuragi — bu nay.  
Lablaringga bosgin, ohanglar dodlab,  
Yolg'iz yillarimga yetsin, men esa  
Biron bir kunimni eslab o'kinay.

Men bo'm-bo'sh qayiq kabi chayqalib ketayatgan,  
Olislashib ko'zing qirg'oqlaridan.

Botayotgan quyoshning jilvalarida,  
Sirlariga singib qorong‘ulikning,  
Ovunib jodugar chiroqlariga.

Xush ko‘rdim seni, ey, moviy dengizim!  
Sen ham meni xush ko‘r,  
dengiz, sog‘masman  
Nega bunyodmanam, to‘lqinlar ingda  
Unut qirg‘oqlaring qadar oqmasam!

Tomchilaringga singgan osmonlarimni  
Sharpalari tegib sochim oqarar.  
Rangsiz maysalaring, chig‘anoqlaring  
Mening yuragimni aytib chaqirar.

...Ko‘zlarinda adashdim, sening ko‘zlarind  
To‘lg‘onchiq dengizdir, bunchalar cheksiz!  
Umrin qolib ketdi qaysi qirg‘oqda?  
(Yolg‘iz yillarimdan esdalik, yodgor.)  
Men esa chayqalib ketyapman, voh-voh,  
Olam-u odamdan juda yiroqqa.

\* \* \*

Hazrat XAYYOM,  
Sharobga to‘libdi ko‘zlarimiz,  
Maylimi to‘ldirsak piyolamizni?..

Hazrat XAYYOM,  
Mast bo‘ldik, aytинг-chi, bu nima olam?  
Mast bo‘ldik, aytинг-chi, biz qanday odam?

Hazrat XAYYOM,  
Ruhimiz bemehr, sovuq ochunda,  
Sharobdek chayqalur vujud ichinda,

Hazrat XAYYOM,  
Hamon hayronamiz begonadikdan,  
Qachon begonamiz hayronalikdan?

Hazrat XAYYOM,  
Tuproqqa to 'libdi ko 'zalarimiz,  
Maylimi sindirsak piyolamizni?..

\* \* \*

Sochlaring hidini keltirgan shamol  
Daraxtlarga suyandi holsiz  
quchoqladi mahkam  
xo'rsindi  
tindi  
bu tun hatto shamol ham  
uy ham, deraza ham  
deraza yonida o'sgan archa ham  
naqadar  
naqadar achchiq istehzo  
senga, muhabbatga, barchaga!..

## BOTIRJON ERGASHEV

(1975)

*Botirjon Ergashev 1975-yil 12-dekabrda Farg'ona viloyati Beshariq tumanidagi Qashqar qishlog'ida tug'ilgan. "Meni sevib qolsayding" (2009), "Olaver, hayotim seniki" (2010), "Yaxshiyam sen bor" (2011), "Qizim sizga o'xshasin" (2012), "Kundan kun yaxshi" (2014), "Allohimga aytib ber!" (2015), "Joning sog' bo'lsin!" (2017), "Mendirman o'shal" (2021) kabi she'riy kitoblari chop etilgan.*

*2016-yilda "Shuhrat" medali bilan mukofotlangan.*

## GAR NOLISAK...

Zulmat ichra o'tar mening tun-u kunim,  
Men ham sizday ko'rgim kelar oy-quyoshni.  
Lek Taqdirdan nolimasdan yashayman jim,  
Faryod solib, toshga urmam aziz boshni.

Shukur deyman, oyoq-qo'lim salomatdir,  
Gar nolisam, bu Xudoga malomatdir.

Ming bor shukur, ko'kka yetar bo'ylarimiz,  
Har kun to'yga ulanmoqda to'ylarimiz,  
Tirik jonning rizqin berar Qodir Xudo,  
Elga tinchlik so'rар duogo'ylarimiz.

Ne'matlarning eng yaxshisi halovatdir,  
Gar nolisak, bu Xudoga malomatdir.

To'rt yonimda topganim chin yor-u do'stlar,  
Bilinmaydi uncha-muncha kam-u ko'stlar.

Farzandlarim kulgusini eshitsam bas,  
Xotirjamman, ko'rmasa ham mayli ko'zlar.

Qalbing bilan ko'rish ham bir karomatdir,  
Gar nolisam, bu Xudoga malomatdir.

Kimga erta, kimgadir kech kelgay davron,  
Kimgadadir bu kunlar ham bo'lgan armon.  
Sinovlarga sabr qilmoq qanday go'zal,  
Shunda o'zi qo'lllar bizni Buyuk Rahmon.

Shukur qilmoq mo'minlikdan alomatdir,  
Gar nolisak, bu Xudoga malomatdir.

Taqdirim shu, ne qilsa bosh egadirman,  
Noshukurga balki toshday tegadirman.  
Ko'zim ojiz bo'lsa hamki, mehnat bilan,  
San'at ichra o'z o'rninga egadirman.

Ko'rmay turib, dunyo kezish tarovatdir,  
Gar nolisam, bu Xudoga malomatdir.

Rozi bo'ling, do'stlar go'zal hayot uchun,  
Bu dunyoga yechim bo'ling, bo'lmang tugun.  
Dunyo shunday, oqshom ko'rgan odamingni,  
Qaytib ko'rmay qolishlik ham mumkin bugun.

Tiriklikning o'zi ham zo'r mukofotdir,  
Gar nolisak, bu Xudoga malomatdir.

## UCHRAGAYDIR

Ko'kni ko'zlagan uchqur uchoqqa uchragaydir,  
Tubanlar baland o'tli o'choqqa uchragaydir.

Aqli butun zotlarning rizqi ham to‘liq bo‘lgay,  
Bo‘m-bo‘sh boshlar mag‘zi  
yo‘q po‘choqqa uchragaydir.

Tekin luqma birgina tuzoqda bo‘lgay, inon, Kimki tekinxo‘r, bir kun tuzoqqa uchragaydir

Yaratgan pok dillarga yo'latmas noplaklarni,  
Sher uchraq sherga, buzoq buzoqqa uchragaydir.

Qahri zo 'rga do 'st erur qahraton qahrlilar,  
Mehri bor qalb, mehribon quchoqqa uchragaydir.

Bahoringda ne eksang, o'rilgay kuzingda shu,  
Bunda yanglishgan o'zi o'roqqa uchragaydir.

Hisob-kitobli umr omonat har insonga,  
Bunda har jon — javobgar, so'roqqa uchragaydir.

Neki ish qilsang, Botir, bajar o‘z vaqtin bilib,  
Bevaqt qichqirgan xo‘roz pichoqqa uchragaydir!

## **YORIM, XABARING YO'Q...**

### **(Mustahzod usulida)**

Gulgung yuzingga maftun o'lib qolmadi toqat,  
ko'nglimda farog'at,  
Desamki, yorit, men kabi zulmat osmoning bor,  
afsus qamarling yo'q.

Soching torini bog‘lab olib bo‘ynima mahkam,  
men oshig‘i bekam,  
Yursam shodumon o‘q otdi qoshi kamoning bor,  
ammo zararing yo‘q.

Kunduz boqayin oy yuzingga desamki takror,  
bo‘lgancha umidvor,  
Mundoq qarasam, shoming ayon, ham xuftoning bor,  
nechun saharing yo‘q?

Nozing alami jondan o‘tib qonga ulandi,  
so‘ng ayladi bandi,  
G‘amzang mayida jonni o‘rtovchi nordoning bor,  
qand-u shakaring yo‘q.

Holimni ko‘rib, ketsin desang, chiqib jon kabi,  
chaqsang chayon kabi,  
Yorim, Botirni o‘ldirmoqqa ming imkoning bor,  
garchi zaharing yo‘q.

## SINOVDAMAN

Sinovdaman, Tangrim, xush damlaringda  
Yo yuborgan musibat, g‘amlaringda.

Har dam iymon aksi ko‘rinib turgay,  
Kiprigimga qo‘ndirgan namlaringda.

Qudratingga taslim bo‘larman takror,  
Quyoshning shiddati bor shamlaringda.

Hayotim rasmin chizib bormoqdaman,  
Sen qo‘limga tutgan qalamlaringda.

Poshsholik ham, gadolik ham O‘zingdan,  
Men ko‘p narsa ko‘raman kamlaringda.

Ko‘tar, g‘aflat pardasin qalb ko‘zimdan,  
Yo‘qsa qolgum qahr-u alamlaringda.

Sinovingdan lolman, har yonga yo‘l bor  
Manzili bir bo‘lgan odamlaringda.

Botirman-u haybatingdan qo‘rqaman,  
Sen yo‘q joy yo‘q barcha olamlaringda.

## NODIR JONUZOQ

(1976)

*Nodir Jonuzoq 1976-yil 14-martda Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanida tug'ildi. "Tomchilar", "Sizni sevar edim", "Mehribonim", "So 'z" nomli she'riy to'plamlar, "O'n yetti lahza", "Nilufar", "Siniq oy" kabi bir qator dostonlar muallifi.*

*Shuningdek, uning ssenariylari asosida ko'plab videofilmlar tasvirga olingan. "Bobbi", "Tafakkur o'yinlari", "Panda izidan" kabi xorij el filmlarini, M. Lermontov, A. Blok kabi jahon shoirlari she'rлarini o'zbek tilimizga o'girgan.*

## QISHLOQ

Baribir qaytaman...  
Olifta shahar —  
yaltiroq yo'llar-u sun'iy guzarlar  
ilon-u chayonday chirmashib chaqar...  
Dod solib qolsa-da dardsiz go'zallar —  
baribir qaytaman,  
qaytmamasam bo'lmas;  
qaytaman eng toza she'rлarim bilan.  
Qishloq peshvoz chiqar,  
chiqar basma-bas —  
men suygan qizlar ham...  
...erlari bilan!

\* \* \*

O'layapman — ranjimang tag'in,  
Qololmayman bu yerda sobit.  
Atirgulning shoxchalaridan  
Yasaganman o'zimga tobut.

Jar soladi mushfiqim — sabo,  
Chorlayverar do'st-u g'ananimni.  
Mehmon bo'lgan Azroil bobo  
Shabnam bilan yuvar tanimni.

Hayotimni muqaddas bilib,  
Urf-u rusum qilurlar ul-bul.  
She'rlarimni tilovat qilib,  
Janozamni o'qiydi bulbul.

Yaproqchalar soladi uvvos,  
O'ksimasin maysalar nega?!

Ko'milaman eng toza, eng soz,  
Eng chiroyli gulning tagiga.

Ko'm-ko'k rangga kiradi jonib,  
Chayqaladi zil-zambil hislar.  
Yuragimni alvonday yopib,  
Tobutimni ko'tarar qizlar!

\* \* \*

Birodarlar,  
Mahallangizda  
Bir ayol bor —  
Befarzand ayol.  
Ko'p ko'zikmas... iymanar sizdan,  
Og'riqlari o'ziga ayon.

Manglayiga singib ketgan tuz  
Kechalari milt-milt eriydi.  
Eri yaxshi ko'radi... afsus...  
U ham yaxshi ko'rар erini.

Bir-biridan yashirar tushin,  
Yashaydilar bir-birin asrab.

Tushunadi hatto govmishi,  
Berar ekkan oqqina hasrat.

Bir miskin u... hayotning barcha  
Da'vosiga jimgina ko'ngan.  
Bir miskin u... bevafolarcha  
Kelajagi o'tmishga do'ngan.

Birodarlar,  
Haq hukmi yetib,  
Qabog'lari yopilar kuni —  
Mozoriga beshikda eltid,  
Alla aytib ko'minglar uni!..

\* \* \*

May tugadi. Qishloqda  
Boshlandi g'alla o'rim.  
Ukamlar ishlamoqda,  
Men bormayman, men — po'rim.

Shahardaman. O'zimga  
O'zim xonman, o'zim bek.  
Go'yo hamma ko'zimga  
Boqar ta'na qilgandek.

"Arpangni xom o'rdimmi?!"  
Toshingni ter..." — kuyaman.  
Yumshoqqina o'rnimni  
Panaroqqa qo'yaman.

Yozish mumkin endi she'r,  
Dehqonga she'r bitish shart:  
"Uka, javlon uraver,  
Topilmaydi senday mard."

Ko‘zingga ter quyilsin,  
Nafasing — issiq bug‘day.  
Xirmon-xirmon uyilsin —  
Vatanga kerak bug‘doy.

Xalq och qolmas sen bo‘lsang,  
Soya topar o‘tda ham.  
Tamom bo‘lar sen so‘lsang,  
Menday qancha muttaham.

Demak, olov faslida  
Qo‘ldan tushmasin o‘roq.  
U o‘roqmas aslida —  
Menga yo‘nalgan so‘roq — ?

“Qaytmaysanmi?” —  
“Bilmayman,  
Shahar qildi dabdala.  
Tunda Oyga yig‘layman,  
Yuragim — yaydoq dala.

Nafrat mo‘l-u mehr oz,  
Qarashlar bir qolipda.  
Go‘zal hislarim — tannoz,  
Fikrlarim — olifta.

Suyanchiq yo‘q, ustun yo‘q —  
Har odimda bitta jar.  
Xudo bor-ku! Ko‘nglim to‘q...  
Ne deyapti odamlar?

Kim aytdi?! Yiqilyapman!?  
Yolg‘on. Orzu-o‘yim — oq.  
Faqat... shu... siqilyapman...  
Jonga tegdi bo‘yinbog!”

## G‘AYRAT MAJID

(1976)

*G‘ayrat Majid 1976-yil 14-yanvarda Qashqadaryo viloyati Kitob tumani Xo‘jalmkoni qishlog‘ida tug‘ilgan. “Gul sanam” (1997), “Hech kimga o‘xshamaysan” (2000), “Ko‘zlarining sog‘inaman” (2006), “Ko‘ksimdagisi yulduzlar” (2008), “Ishqqa borar yo‘l” (2009), “Bobolarim yurti” (2013), “Oqqushlarga aylanar yurak” (2015), “Ayiqchaning tushi” (2016), “Bunda bulbul kitob o‘qiydi” (2018), “Mumkin emas sening yig‘lashing” (2020), “Besh dars” (2021), “Yo‘ldaman, nurli yo‘lda” kabi she’riy va nasriy kitoblari nashr etilgan.*

### ONA TILIM

Manim oftoblarim, manim oylarim,  
Toshbitigim — O‘rxun-Enasoylarim.  
Faqat yuragimga ayon o‘ronim,  
Ona tilim — jonim O‘zbekistonim.  
Bu jahon ichinda bir jahon tilim,  
Otajon tilimdir, onajon tilim.  
Olis-olislardan kelgan dardlarim,  
Mahmud Koshg‘ariydan meros xatlarim.  
Olam aro mening shajaram, ko‘rkim,  
Ildizim — “Devon-u lug‘otit turk”im.

Ruhim eshigini kelgaydir ochib,  
O‘n asr naridan Yusuf Xos Hojib.  
So‘zlar ganji birlan to‘qdir iligim,  
“Qutadg‘u bilig”dir qutlug‘ biligim.  
Ne uchun toliblar bo‘lmasin zakiy,  
O‘zi til o‘rgatsa Ahmad Yugnakiy.

Haqning tuhfasiga tom loyiqdir ul,  
Anglasang, “Hibat-ul haqoyiq”dir ul.  
Payg‘ambar hadisi — ne’matlarga boq,  
Undan bahra olgan hikmatlarga boq.  
Kim Ahmad Yassaviy so‘zini bilmish,  
Haqni, Rasulini, o‘zini bilmish.

Bizlarga Tangrining atoyi — tilim,  
Mavlono Lutfiy-u Atoyi tilim.  
Bitgaydir ichimni to‘ldirgan hasrat,  
Tavajjuh qilsalar Navoiy hazrat.  
Bori tillar ichra rutbam tayindir,  
Bu “Muhokamat ul-lug‘otayin”dir.  
Qo‘limdan qo‘ymayman “Boburnoma”ni,  
Vatanga muhabbat — taqdir nomani.  
Yuragimga yuqqan dard-ohi bilan,  
Hayotim nurlidir Ogahiy bilan.  
Oshiq dil maqsud-u matlabi undan,  
Tarjima san’atin maktabi undan.  
Vatan, til mangudir, kishi bor — o‘tar,  
Qay dilda shu so‘z bor — u Avaz O‘tar.  
Vosita, robita, olamiyon — til.  
Bani odamga jon, foidayi kon — til.

Daraxtdan uzilgan yashil barglarim,  
Oh, juvonmardlarim — juvonmarglarim.  
Hayotim to‘lagan o‘lpionlarimdir —  
Fitrat-u Qodiriy, Cho‘lpionlarimdir.  
Millatning, Vatanning joni til bilan,  
Shuhrati, shavkati, shoni til bilan.  
Hayot yo‘li bizga oyina — ibrat,  
Behbudiy, Sidqi-yu Is’hoqxon Ibrat.  
Bildim, iyomon uchun zo‘r qo‘rg‘on — tilim,  
Yo‘lim ham, dilim ham charog‘on tilim.

Tilga xiyonatni kechirmaydi dil,  
Elga xiyonatni kechirmaydi el.

Tilga sadoqat bu — elga sadoqat.  
Elga sadoqat bu — tilga sadoqat.  
Manim mahshargacha ravon yo‘lim bu,  
Olam ayvonida mangu tilim bu.  
Yuragim tarannum etgan bayotman,  
Ona tilim bordir, men barhayotman.

### HAZRATI XOJAGIY IMKANAGIY ZIYORATIDA...

Hazrat Imkanagiy, hazrat bobojon,  
Mana, qoshingizda turibman yig‘lab.  
Oppoq tuyg‘ular-la poklab ruhimni,  
Topib olgim kelar o‘zimni yo‘qlab.

Hazrat Imkanagiy, hazrat bobojon,  
Ne bo‘lsa, taqdirdan havola boshga,  
Ehtimol, kimgadir kulgili, lekin  
Yonmojni o‘rgatgim kelar quyoshga.

Hazrat Imkanagiy, hazrat bobojon,  
Umrimni so‘rsangiz so‘ngsiz yo‘ldadir.  
Bugun nelarnidir anglagandayman,  
Imkon ham, imdod ham bari dildadir.

Hazrat Imkanagiy, hazrat bobojon,  
Yo‘q-yo‘q, men o‘zimga qilmayman shafqat.  
Tangrim, o‘tmoq uchun xorli yo‘llardan,  
Tilayman tog‘lardan mustahkam toqat.

Hazrat Imkanagiy, hazrat bobojon,  
Zaminda qolarmi bosgan izlarim.  
Kibor-la boqmadim osmonlarga men,  
Neki ma’no bo‘lsa, yerdan izladim.

Hazrat Imkanagiy, hazrat bobojon,  
Bo‘g‘zimni tirnaydi nurli bir nido.  
Tuproqda yotib ham yuksaksiz ko‘kdan,  
Sizga yetkazsaydi meni ham Xudo.

## ZANGORI BAYOT

Agar men ko‘ksimni, ko‘ksimni ochsam,  
Ko‘klarga dardlarim o‘t bo‘lib o‘rlar.  
Sevib bo‘lmaydi-ku, dilni yo‘qotib,  
Sevdirib bo‘lmaydi ko‘ngilni zo‘rlab.

Nedandir uyalib yuzi qizargan  
Munis bir ayolga o‘xshaydi qirlar.  
Yashashga chorlaydi anglaganlarim,  
Yashashga chorlaydi tumonat sirlar.

Ko‘nglim qalqib qo‘y-u, chashmimda balqi,  
Harir sog‘inchlarim haqqi-chun to‘lg‘on.  
Bu yoshlari ko‘zimning oq kaptarlari,  
Bu yoshlari ko‘zimdan sochilgan payg‘om.

Bu shunday payg‘omki, barqi hayajon,  
Bu shunday payg‘omki, yalpiziy hayot.  
Jonim, vujudim ham bayot aslida,  
Hatto ruhimgacha zangori bayot.

## QASIDA

Mehrlaring asrab turar dunyoni,  
Ishqim ko‘nglimdagи mustahkam qoya.  
O‘zimni o‘zimdan anglading ortiq,  
Sen kunsan,  
Kunlarga tushmaydi soya.

Mag'rursan,  
Qaramoq ixtiyor senda,  
O'ylaring ko'nglimga sog'inch to'shasin.  
Sen gulsan,  
Gullarga yalinma, jonim,  
Gullar kelib senda,  
Senda yashasin.

\* \* \*

Oy — sirg'a. Sirg'alib tushar ko'zimga,  
Telba yurak — uying, o'ylar uyumi.  
Men seni ko'rmayman, izlar nigohim,  
Men seni ko'raman ko'zlarim yumib.

Hatto yulduzlar ham yelka qisishar,  
Na boshi bor ochun,  
Na topgan yakun.  
Yo ko'nglim, tushunmas seni odamlar,  
Yo sen tushunmaysan ularni, ko'nglim.

## **GULJAMOL ASQAROVA**

**(1978)**

*Guljamol Asqarova 1978-yilda Kattaqo ‘rg‘on tumanida tavallud topgan. “Dil fasli”, “Uyg‘otuvchi alla”, “Oshiqlar tumor”, “Erkalik imtivozi” singari kitoblari nashr etilgan. Zulfiya nomida-gi Davlat mukofoti sovrindori.*

### **SOG‘INCH**

Judayam sog‘indim xushnud onlarni,  
Baxtli lahzalarni juda sog‘indim.  
G‘amgin hislarimdan toliqdim juda,  
Menga shodlik kerak, baxt kerak endi.

Borsam, bag‘ringizga bosarmikansiz,  
Ko‘zim yoshlarini artarmi hislar?  
Yomon sog‘intirdi, yomon zor etdi,  
Otashin tuyg‘ular, hayotbaxsh islar...

Tuyg‘ularning haddi, ishqning sarhadi,  
Manglayda yozilgan yoziq xatgacha.  
Tushuning, men Sizni yaxshi ko‘raman,  
Termilib turaman qiyomatgacha...

### **BIZNING SEVGI**

Azizim, ko‘zlarining ko‘zimda hamon,  
Sen olovga otib yondir xatimni.  
Men esa bag‘rimga bosib ketarman,  
Yer-ko‘kka sig‘magan muhabbatimni.

Taajjub, qayerdan bu begonalik,  
Nahot shu nolasiz yurak yurakdir.  
Har qanday sevgiga hayot kerak, lek,  
Bizning sevgimizga o'lim kerakdir.

## TASKIN

*“Qo'y, yig'lama, og'riydi boshing”.*  
**Shavkat Rahmon**

Qo'y, yig'lama, ruhimga qo'shil,  
Yuraklarining ursin men bilan.  
Bu dunyoda neki bor mushkul,  
Bog'layverma qaro tun bilan.

Ko'p yozg'irma, bu taqdir, nasib,  
Ayblama, tonma, ranjima.  
Qaro tunlar yaralgan asli,  
Oppoq tuyg'ularning mavjidan.

Kel, kela qol, Sen axir nursan,  
Borliq seni aylar to'tiyo.  
Men toabad senga intiqman,  
Nurga mangu zordek bu dunyo.

## MEHR KO'RGAZ

Sahrolardan keldim, cho'llardan keldim,  
Ko'p uzoq, ko'p qadim yo'llardan keldim,  
Haydashdi, dilingga dillardan keldim,  
Menga mehr ko'rgaz, mehribonlik qil.

Buncha ham berahm, zolim odamlar,  
Buncha ham zalvarli, og'ir qadamlar,  
Judayam keraksan, jonim, shu damlar,  
Menga mehr ko'rgaz, mehribonlik qil.

Bu issiq yozlardasovqotdim juda,  
Nahotki hammasi bekor, behuda,  
O'zingni uyg'otgin g'aflat, uyqudan,  
Menga mehr ko'rgaz, mehribonlik qil.

O'ttiz yilki yo'lim tugamadi hech,  
Ming o'lism, bu o'lim tugamadi hech,  
Bugun erta, erta bo'lmasidan kech,  
Menga mehr ko'rgaz, mehribonlik qil.

Ilohiy suralar o'qib kelganman,  
Tillodan zanjirlar to'qib kelganman,  
Seni deb jannatdan chiqib kelganman,  
Menga mehr ko'rgaz, mehribonlik qil!

## NOMA

Qog'ozlar ichida ko'milib qoldim,  
Og'ir kuy chalmoqda bo'g'zimdagi nay.  
Mana o'tiribman benavo, bedil,  
Xavotir olsam ham xabar ololmay.

Holing nechuk o'zi, do'st-u hamrohim,  
Ne uchun ko'ksingda kechmoqda janglar?  
Ketdimi ko'zingdan qayg'ular rasmi?  
Qoldimi ko'ksingda ilohiy ranglar?

Kel, meni qutqargil, jonim, azizim,  
Bu hijron dastidan charchadim, toldim.  
Men nega hislaring to'lqinidamas,  
Qog'ozlar ichida ko'milib qoldim?!

## ZAMONAVIY SHE'R

Senga xatlar yozdim, yetib bormadi,  
Yo'lda qolib ketdi SMSlarim.

Qo‘ng‘iroqlar qildim, bo‘g‘zimda qoldi  
Telefonda aytmoqchi bo‘lgan hislarim.

Senga she’rlar yozdim, tushunmading hech,  
Bekorga ovvora bo‘ldi so‘zlarim.  
Aslida yo‘q edi yuragingda ishq,  
Men bekor izladim, bekor izladim.

Vaqt o‘zi qo‘yarkan har nega nuqta,  
Bugun tuyg‘ularga o‘zim qo‘ydim chek.  
Qara, yuragimda yo‘qoldi hislar,  
Yo‘llarda yo‘qolgan SMSlardek.

## KAMALAK RANGLARI

Nursiz kunlarimga nur kabi kelib,  
Kamalak rangini ko‘rsatding menga.  
Seni topib olgan klinikdan boshlab,  
Kamalak ranglari ko‘zimga ingan.

Olcha gullarini yuzimga yopib,  
Ismingni shivirlar lablarim unsiz.  
Men seni yo‘qotib o‘zimni topdim  
Va o‘zimni topa olmadim sensiz.

Bu ma'yus, bu g‘amgin qismatim bilan,  
Taqdiringga keldim shodlik beray deb.  
Lekin ayt, azizim, qayg‘u gullari  
Baxning saroyiga bo‘lolarmi zeb?

Seni topgan baxtli klinikdan boshlab,  
Lolalar ergashib yurdi izimdan.  
Qachonki ismingni shivirlab aystsam,  
Kamalak ranglari... ketmas...  
ko‘zimdan...

## GULNOZ MO'MINOVA

(1978)

*Gulnoz Mo'minova 1978-yilda tug'ilgan. "Fasllar shiviri", "Dil siniqlari", "Sayyoh qushlar", "Kometa" kabi she'riy kitoblar muallifi.*

### TASHRIF

Keltiradi tonggi shamollar  
Chechak hidin uyg'oq saharga.  
Yuksaklikdan, qorli tog'lardan  
Bahor tushib kelar shaharga.

Uchiradi sho'x novdalarni  
Shamollardan arg'amchi yasab.  
Tund fasldan zerikkan bog'lar  
Asta-sekin boradi yashnab.

Qaro qoshlar tortib o'smadan  
Atlas ko'ylak kiygan chog' qizlar,  
Titroq bosgan qalblarga sig'may  
Chekinadi ajnabiy hislar.

Nastarinning nafis bo'yiga  
G'arq bo'ladi uylar, ko'chalar.  
Yashil bog'lar aro jo'r bo'lib  
Sayrab yotar oshiq qushchalar.

Asfalt yetmay qolgan yo'lakka  
Zumrad gilam yoyilgandir naqd.  
Seni ming yil ko'rmagan do'stday  
Derazangdan tikilar daraxt.

Ichkariga intilgan kabi  
Shamollar-da enar oldinga.  
Novdalarin — o'nlab qo'llarin  
Iljin bilan cho'zadi senga.

Derazani ochgin, dadil bo'l,  
Qarayverma o'ng-u so'lingga.  
So'ng, barmog'ing tekkiz avaylab  
Shabbalarga — ko'klam qo'liga.

## SENLI TUSHLARIMNI

Senli tushlarimni suvga aytmadim,  
Sokin mavjlarini qiymadi ko'zim.  
Xavotirim sezib turganday go'yo  
O'ynoq baliqchalar to'xtadi bir zum.

Tuproqqa aytmadim senli tushlarni,  
Qo'rqedimki, shul onda qo'pardi to'zon.  
Biroq, amin edim, hech bir zamonda  
Ishq sirin saqlamoq bo'lmagan oson.

Havoga aytmadim senli tushlarni,  
Istadim, shu holda — ravon qolmog'in,  
Yana tushda qo'rqb uyg'onsa kimdir  
Ko'krugin to'ldirib nafas olmog'in.

Oxir chorasini izlab topdim, men,  
Senli tushlarimni aytdim olovga.  
Samo qadar o'rlab, uzoq yondi, lek,  
Tushuna olmadi sirli qalovga.  
Senli tushlarimni aytdim olovga...

## O‘Q

G‘alatidir sevgi mezoni:  
Gohi oshiq o‘xshar sayyodga,  
Yoyin tarang tortgan ovchining  
Harakatin soladi yodga.

Sevging sayyod qildi meni ham,  
Qo‘lda kamon, ko‘p yurdim daydib.  
Biroq, senga otgan o‘qlarim  
Kelaverdi o‘zimga qaytib.

Bu hammasi taqdir ishlari,  
Endi senga e’tirozim yo‘q —  
Sen qalbingni tutib bergan chog‘  
Topolmadim butunroq bir o‘q.

## MEN DARAXTGA O‘XSHAYMAN

Men daraxtga o‘xshayman bugun,  
Atrofimda to‘rtta yosh nihol.  
Shabbalarim bilan to‘sgayman  
Nogah kelsa bir daydi shamol.

Bo‘ronlarning achchiq sovug‘i  
Botib borar ekan bag‘irga,  
Bir vaqt meni shunday asragan  
Ikki daraxt tushar xotirga.

Endi ular keksaygan, yupun  
Tanlaridan sovuq o‘tgandir?  
Borolmayman, axir, ildizim  
Yer bag‘irlab uzoq ketgandir.

Ona tuproq va suv mazasi  
Tomirimdan ketmagay, alhol.  
Yaproqlari quvnoq shitirlab  
Xayolimni buzar to'rt nihol.

Shoxlarida mitti qushchalar  
Chug' urlashib, tuyishar huzur.  
Ay, olisda meni sog'ingan  
Daraxtlarim, ming bora uzr.

## TO'RTLIK

Shafaq — cho'g'zor.  
Manam bitta cho'g' oldim,  
Kuydirmog'i ishqqa taalluq — oldim.  
Yuragimga olov tutashib undan  
Muzaffar umrimga bo'lar tug', oldim.

## **SHODI OTAMUROD**

**(1978)**

*Shodi Otamurod 1978-yilda tug‘ilgan. “Sog‘inch ranglari”, “Umr o‘tib boradur, gulim”, “Muloyim mushuk” she’riy to‘plamlari chop etilgan.*

### **SEVGI**

Zohirda uchragan alomatlarim,  
Botinda qayg‘umdir, ham omadlarim.  
Tabassum aylasa sarvqomatlарим,  
Ishqqa ishoradir, sevgidan belgi.

Bolalik paytларим erkin qush edim,  
Bolalik ham o‘tdi, bu bir tush, dedim.  
Seni o‘qisin deb yozgan bu she’rim,  
Ishqqa ishoradir, sevgidan belgi.

Diqqatim tortadi maysada shabnam,  
Bedorlik qo‘limga tutqazgan qalam.  
Havaslarim, bedorligim ham  
Ishqqa ishoradir, sevgidan belgi.

Sutga chayilgandek ikki kabutar,  
Shivirlar, o‘rtada qanday gap o‘tar.  
Makтubларин yozib ko‘kka o‘qitar...  
Ishqqa ishora bu, sevgidan belgi.

Ishq qilich sermasa tong bilan shomda,  
Quyoshning holin ko‘r qontalash jomda.  
Yulduzlar, ko‘z yoshlар — cheksiz marjonlar,  
Ishqqa ishoradir, sevgidan belgi...

## YAXSHI QIZ

U yaxshi qiz edi chinakam,  
Unutmasman erka chog‘larni.  
“Sevaman”ni aytgan bo‘lsam ham,  
Yana aytishimni xohlardi.

Kulgan bo‘lsa kulgandir mendan,  
Balki unga shu bo‘lgan huzur.  
Xafa qilib qo‘ymadimmi, deb  
So‘ramagan hech qachon uzr.

Erkalanib ketardi biram,  
Qo‘llarimga qo‘lin bog‘lardi.  
Men yoniga qaytgan bo‘lsam ham,  
Yana qaytishimni xohlardi.

Ovozi yo‘q zanjirmi sevgi,  
Bog‘langanim rostmidi unga.  
Kiyik kabi ziyrak va sezgir,  
Bor go‘zallik xosmidi unga.

Muhabbatim bo‘lgan emas kam,  
Baxsh etgandim bog‘-u tog‘larni.  
Men-ku unga yetgan bo‘lsam ham,  
Yana yetishimni xohlardi.

Eslatarmi sevgi bayrog‘in,  
Xayr demoq-chun ko‘tarilgan qo‘l.  
Xush yoqarmi qushlar sayrog‘i,  
Hijron tomon burlganda yo‘l.

Eslaganda ko‘zlarimda nam,  
Bilmam nechun — O‘zin oqlardi.  
Men yonidan ketgan bo‘lsam ham,  
Kelib-ketishimni xohlardi...

\* \* \*

Men oshiqman, bu dunyo nadir,  
Ishqparastman, holimdir xarob,  
Sinib qolgan yuragimdadir  
Ishq atalmish qip-qizil sharob.

Sevsang, sening ishqingman tayin,  
Sevmasang gar, senga atalmaganman.  
Men ojizman, balki guldayin  
Peshoningga bitilmaganman.

Men tanhoman, oy-u kun, yillar,  
Balki sen ham mendayin tanho.  
Meni sevar faqat shu yo'llar,  
Hali mendan to'ymagan dunyo.  
Suydirding-ku, bilmasdan turib,  
Sevilmakni, suyib-kuyishni.  
Ketolmassan, endi o'chirib  
Peshonamga yozilgan ishqni.

## ONA

Bir qo'lda beshikni, bir qo'lda esa  
Dunyoni tebratar ona degan zot.  
Qaysidir bir ayol befarzand bo'lsa,  
Befarzand deb uni atamang, hayhot!

Garchi, u ayolning ko'zlarida nam,  
Tebratmoq ishi-la banddir bu qo'llar.  
Axir, u ham ona, u ham bunday dam  
Dunyoni tebratib aytmoqda alla.

## OVOZIM

Ovozim — eng og‘ir bayroq,  
Go‘yo yerga to‘shalgan gilam.  
Mabodo, men ko‘tarsam baland,  
Simtorlarday titraydi olam.

Ovozim — bu eng og‘ir kuydir,  
Kuydirki, hech yo‘qdir poyoni.  
Mabodo, men qo‘sish quylasam,  
Qo‘sish bosib qolar dunyoni.

## GLOBUS

Bul zotning yuzidan o‘tib bo‘lmaydi,  
Bul zotning yuzidan o‘tmoq ne kerak?  
Har bitta ajini —  
Tortilgan chiziq,  
Har bitta ajini —  
Bitta chegara!

\* \* \*

Sen gapirganda yonimda turib,  
Olis-olislarga ketar xayolim.  
Olis-olislardan kelayotganday  
Bo‘laverar sening ovozing.  
Sen gapirganda.

## OYDINNISO

(1980)

*Oydinniso — 1980-yil 30-aprelda Samarqand viloyati Paxtachi tumanida tug‘ilgan. “Mensizlik” (2003), “Nomsiz” (2006), “Qaytish” (2009), “Hovur” (2011), “Qoralama” (2016), “Serenada” (2017), “Arafa” (2022) nomli she’riy to‘plamlari, “Afv” (2019), “Boshpana” (2022) nomli dostonlari, “Hayot daraxti” nomli lirik qissasi nashr etilgan. Ryunoske Akutagavaning “Yolg‘izlik jahannami” novellalar to‘plamini, Chingiz Aytmatov va Ikeda Daysakuning “Buyuk ruh qasidasi” suhbatlar to‘plamini, O‘ljas Sulaymonovning she’riy to‘plami va o‘nlab rus shoirlarining she’rlarini rus tilidan, Jeyms Joysning she’riy turkumini inglez tilidan tarjima qilgan.*

## BOLALIKDAN LAVHA

(Turkum)

1

Es-hushidan ayrilganmi bu ko‘zyosh —  
bilmas qayda to‘xtamoq lozim.  
Axir, kaltak yegan onam,  
tun yarmida mast kelgan otam-ku —  
Nega yig‘lagan men?  
“Katta bo‘lsam, kelin bo‘lmayman!” deya  
dunyoni yig‘latgan nega men?

Es-hushidan ayrilganmi bu bolalik —  
Tanimas kulguni, sho‘xlikni.  
To‘qiydi, tikadi, she’rlar yozadi,

a'loga o'qiydi maktabda,  
odamlarni yaxshi ko'radi.  
Faqat... yomon ko'radi yakshanbani,  
ta'tilni,  
o'z uyini yomon ko'radi.  
Onasining ko'zyoshini artishni,  
qo'rquvini aritishni ukalarining,  
yana...  
jajji ko'ksin qalqon qilishni —  
uni dunyodan himoya qilguvchi otadan  
dunyoni himoya qilishni  
yomon ko'radi!

Es-hushidan ayrilganmi bu taqdir?  
Mehribon onasi bor,  
toparmon otasi bor yetimlar ham bo'ladimi?  
Ular kimga suyanadilar?  
Onasiga, otasiga suyanadi-ku  
barcha bolalar,  
davlatga suyanadi-ku yetimlar.  
Otasi bor,  
onasi bor sag'irlar  
kimga suyanadilar?!

Nimjongina jussasi bilan  
yashayveradimi dunyoda  
dunyoning g'amini ko'tarib?

Yoshlari ulg'aygan otam, onam-ku,  
qaddi buzik nega bolalik?

Es-hushidan ayrilganmi bu osmon —  
atrofimda shuncha yaxshilar turib,  
hammadan ham  
yaqin tutar menga o'zini.  
Burchak-burchaklarga biqinib olib

yolg‘iz qolgin kelaverar  
oymomo bilan.  
Es-hushidan ayrilganmi bu ko‘ngil —  
O‘zga ayol bilan baxtiyor otam,  
Nega kulgan men?

Es-hushidan ayrilganmi bu ko‘ngil —  
To‘qlanar yo‘qchilikdan.  
Ikkita onasi borligidan emas,  
tin olgani boshpanasi,  
yegani issiq ovqati,  
birga yashagani otasi yo‘qligidan  
to‘qlanar.  
Ijobatgo‘y ko‘rinar oymomo,  
bahor kabi yashnaydi kuzlar,  
kulguday ko‘rinar yig‘ilar —  
otamsiz joni og‘rimayotganday,  
qalbi og‘rimayotganday,  
otamsiz baxtiyorday tuyilar onam...

Es-hushidan ayrilganmi bu ko‘ngil —  
Otam yashayotgan ko‘chaga  
tortib ketaverar onamning oyoqlarini,  
u yurar yo‘llarga  
qadab qo‘yaverar nigohlarini.

Es-hushidan ayrilganmi bu ko‘ngil —  
Axir, bevafodan voz kechib ketib,  
o‘zini tuproqqa bergen onam-ku!  
Dunyoni lol-u lol qoldirib,  
eng so‘nggi so‘zini,  
eng butun so‘zini,  
eng ustun so‘zini tilga chiqarib:  
“Sizni yaxshi ko‘raman, dadasi”, deya  
tildan qolgan onam-ku,

ko‘z yumgan onam-ku!  
Nega o‘lgan men?  
Nega o‘lgan men?!

2019

\* \* \*

Men seni sog‘indim!  
Sen kimsan o‘zi —  
Ko‘ngilni muttasil zoriqtirganim?  
Men seni sevaman!  
Sen kimsan o‘zi —  
Ey, meni o‘zimga yo‘liqtirganim?  
  
Sen kimsan?  
Har lahza kutaman seni,  
Qamishman — nay bo‘lmoq menga qanoat.  
Sen esa  
kiftimga ortib dunyoni,  
Dunyolar ustida qoqtirding qanot.  
  
Yursam, senga yurdim shaxdam odimlab,  
Dilimda xirgoyi,  
ko‘zda hayqiriq.  
Har lahza bir orzu chorladi imlab,  
Har lahza o‘rtadi  
mumtoz ayriliq.  
  
Chorlasam,  
yonimga dovonlar keldi,  
Nafasim dunyoni tebratdi, essam.  
Yana seni eslab  
borligim bildim,  
Yana seni qo‘msab yig‘ladim —  
Kimsan?!

Yoriq peshonamda  
eng yorug‘ bitik,  
Chadiqqa bitilgan isming  
yortimi?  
Nega qismatimga  
boqolmaysan tik,  
Shu eski chandiqlar  
ising yordimi?  
Seni  
yuragimga bitganman, axir,  
Har lahza  
uchmoqqa shaylangan Jonqush,  
To‘xta,  
ko‘zlarimdan o‘qib ko‘rgin sir:  
(Sensiz)  
Bitiklari g‘ij-g‘ij  
hayotim bo‘m-bo‘sh!

Sendan ketsam,  
senga oshiqdin tinmay,  
Oyoqlarim sinsa,  
qanotim o‘sdi.  
Inon shubha qilmay,  
inon o‘kinmay,  
Oy sira yitmadi,  
bulutlar to‘sdi.  
Ko‘zim yoshlarida  
ko‘rinar aksing,  
Labim xandalari —  
o‘tmishdan bir tush.  
Vayrona qalbimga  
ko‘milgan ganjim,  
(Nahot)

Ko‘nglingga qo‘l solsam,  
hovuchim bo‘m-bo‘sh!

2021

## YANA

Yana ko‘rdim seni, yana men o‘sha,  
Yana oyog‘imda tebranadi jon.  
Yana dunyolarga bo‘ldi tomosha  
Mening qiyofamni kiygan hayajon.

Yana ko‘rdim seni, yana men sensiz,  
Yana dunyo bilan oramiz ochiq.  
Yana men hammadan qildim tanaffus,  
Yana faqat sendan bunyod qorachiq.

Yana ko‘rdim seni, men tirik odam —  
O‘limdan keyin ham o‘lmas yuragi.  
Butkul g‘arib bo‘lib tuyilgan olam  
Yana boy, ushalgan barcha tilagi.

Yana ko‘rdim seni, o‘zgasi soxta,  
Yana baxt yurakda bir aziz mehmon.  
Yana haykal qo‘yib lahzalik baxtga  
Men uning poyida sargardon.

Yana ko‘rdim seni, yana men — menmi?  
Yana tirildi-yu taraldi bir zum  
Kurashlarda qo‘lga kiritganim-u  
Yana qo‘llarimda jon bergen orzum.

Yana ko‘rdim seni, yana men yomon,  
Yana tartibbuzar, tiyiqsiz yurak.

Yana angladimki, dunyoda hamon  
Sen keraksan menga, yana sen kerak!

Yana ko'rdim seni, yana chalkash yo'l,  
Yana kulgan men-u, tabassum senda,  
Yig'lagan menman-u, sening diling ho'l,  
Yana biz birlasha olmas ochunda.

Yana ko'rdim seni, yana men o'sha —  
Har yurishi ortga chekingan qadam,  
Yana hayotingning ichkarisida,  
Yana hayotingdan tashqari odam.

2018

## **SHODMONQUL SALOM**

**(1980)**

*Shodmonqul Salom 1980-yilda tug'ilgan. "Yurak iqlimi", "Ko'ngil kitobi", "Borligini bilganlar", "She'r sayyorasi" kabi she'riy kitoblari chop etilgan.*

### **ONAMGA**

Tong-u shomning orasinda  
Sening umring bigiz-so'zon.  
"Jonim beray soyasinda,  
Kuyuk dildan ketsin armon".  
Tong-u shomning orasinda  
Oqqarchig'ay shovullaydi.  
Supalarda sahar-sahar  
Sariq itlar uvullaydi.  
"Itlar yesin mening ko'nglim  
Tushlarimni suvlar olsin.  
Tongday bolam, daryo bolam,  
Shoir bo'lsin, shoir bo'lsin!"

Ena, ena, jonim enam,  
Sochlarimdan tovonimga.  
Bedil davra dardli bo'lar,  
Olib kirsam jahonimga.  
Vujudingdan zamingacha  
Ming yil kezganga o'xshayman.  
Ko'zlariningdan yonog'ingga  
Yoshday inganga o'xshayman.

Jonim onam, ko'nglim onam,  
Beva Barchin yig'lab bersin.

Chehrangdagi so‘qmoqlardan  
Balaligim qaytib kelsin.

O‘zi ketsa soyasi ham  
Birga ketgan onajonim.  
She’r aytishni o‘rganganda,  
Kuyib ketdi bor jahonim.

Tong-u shomning orasinda  
Simyog‘ochlar “gukillaydi”.  
— Jonim sening ichingdadir,  
Birov shomga un gardlaydi.

Mening ko‘nglim — kuygan dara,  
Sening ko‘ngling — yolg‘iz o‘tov.  
Daralarni tuman quchdi,  
Bahor yurtga tushdi qirov.

Qaysi shonni aytayapsan,  
Menga quvonch ergasharmi?  
Sening armoningdan keyin  
Olamga baxt yarasharmi?

Mangu bog‘cha bolasidir,  
Bu dunyoning shoirlari.  
So‘rilarda urchuq kabi  
Eshilgandir zo‘r she’rlari.

Tong-u shomning orasinda  
Kuning ko‘klam, yiling xazon.  
Bu olamda uch chin so‘z bor:  
Sog‘inch, Hijron, keyin Armon.

Tong-u shomning orasinda  
Yashnaganman, og‘iganman.  
Go‘daklarni afv etinglar,  
Men onamni sog‘inganman.

Yo‘q, o‘ttizga kirganim yo‘q, bo‘lsam yigirmadaman,  
Yasholmagan kunlarim-u, botmay turgan oylar bor.  
Borlig‘imcha sarf bo‘lmadim, qaytim, chegirmadaman,  
Ulovimda tik turganlar va bo‘s sh turgan joylar bor.

Yo‘q, o‘ttizga kirolmadim, yillarning eshiklari,  
Zanglab, muzlab qolganmidi yoki qo‘lim yetmadi.  
Yurilmasa, yo‘l unarmi — oylarning siniqlari,  
Oyog‘imni tilgan edi, jarohatim bitmadi.

Yo‘q, o‘ttizga kirganim yo‘q, o‘gay edim vaqtga,  
Birovlarning kunlarini yashab yurdim, adashdim.  
Bir lahzada cho‘g‘ bor edi, qolib ketdim yil bo‘yi,  
Shu lahzani bir yil yashab, o‘zim bilan dardlashdim.

Vaqtga teng yurolmadim — davomatim ko‘p yomon,  
Hozir kuz-u, lek ayvonda qaldirg‘ochli havolar.  
Meni yanib o‘ltiribdi oyga ignasin qadab,  
Men tug‘ilmay, marhum bo‘lib, o‘tib ketgan momolar.

Bir kunlarim mayparastdir, birovlari go‘dakdir,  
Ikkisi ham talpanglaydi: oldga-ortga yuradi.  
Mangu tole oftobiga o‘xshab ketadi otam,  
Ham achinib, ham og‘rinib, botmay qarab turadi.

Bir kunlarim Kenja botir, biri esa ajdaho,  
Bir kunlarim Alpomishdir, ikkinchisi Ultondir.  
Darvesh bo‘lib bir yillarim olam kezib ketdilar,  
Bir lahzam bor, ko‘ngli royish yurt so‘ragan sultondir.

...Ammo hali yashamadim: hozirlandim, chog‘landim,  
Balki bir visol onda ming bor balqqa quyoshim.  
Hech ishonmang, sochlarni tunga bo‘yab olganman,  
Lek o‘ttizga kirganim yo‘q, balki mingdadir yoshim.

## VATAN HAQIDA SHE'R

Sendan boshqa uy yo‘qdir, mendan boshqa devona,  
Bir hovuch ko‘ngil bergil, ostonangda yuribman.  
Shamol o‘chirgan shamga to‘sheets uradi parvona:  
“Mening ajdodim — olov! Olov so‘rab turibman!”

Sendan boshqa manzil yo‘q, mendan boshqa devona,  
Sendan boshqa qo‘sish yo‘q, mendan boshqa so‘zona,  
Sendan achchiq alam yo‘q, mendan g‘arib vayrona,  
Sendan keyin matlab yo‘q, men ham sendan nishona,  
Ey, sen, qutb yulduzim, men ham nurning o‘g‘liman,  
Karvoning bo‘ynidagi qo‘ng‘iroqning tiliman.  
Asrlarning ortida oydek botmay turibman,  
Har tun shamolday kezib bo‘yingdan mast yuribman.

Sahroda Budda kabi qum sanaydi asrlar,  
Qumlar to‘lib ko‘ziga, sarob eltgan basirlar,  
Adashganlar, topganlar, boyonlar-u yesirlar,  
Kimligimni eslasam, har bir bandim qisirlar,  
Sahifalar qatida vayronalar gusirlar,  
Lek bir g‘ishti ko‘chmasdan turar qutlug‘ qasrlar,  
Tarthini imon chizib, tug‘ qadamish botirlar,  
Libosi oy nuridan o‘tib bormoqda pirlar,  
Yelkalari oqarib, har yelkasi shaharlar,  
Men shu shahar bag‘ridan tole so‘rab turibman.

Dubulg‘a-yu dovullar sadosi el kezganda,  
Qiblasidan adashgan davron bazm tuzganda,  
Aziz kitoblarimni noshud kotib buzganda,  
So‘ng shahodat barmog‘in lablariga bosganda,  
Bobolar manglayidan sharaf qoni izganda,  
Va shu el yuragi ham bir g‘ururni sezganda,  
Tarix to‘zonlarini Temur tog‘i to‘sganda,  
Ey, yurt! Shundan bag‘ringda o‘zlik yeli esganda,  
Ko‘kargan chinoringda bir barg bo‘lib turibman.

Ko‘hinurday yarqirar yulduz to‘la osmonlar,  
Shu yulduzlar ostida uyur otdek zamonlar,  
Tuproq yutgan oltinlar, oltindan qimmat shonlar,  
Qo‘llari past kelganlar, yuragi pahlavonlar,  
Bobom qilgan armonlar, armon uzilgan onlar,  
Ey, chopari ezgulik, ey, ezgulik tomonlar,  
Tandirlardan non emas, quyosh uzayotgan jonlar,  
Boburning tushlarida har tun o‘sigan dovonlar,  
Shul dovondan termilib, bir quvonib turibman.

Sendan boshqa manzil yo‘q, yo‘q meningdek devona,  
Bir hovuch tuprog‘ingga Jonni elab yuribman.

## DIL KECHASI

Oydan keldi yuragimga tovushlar,  
Bo‘y qizlardek titrab ketdi qamishlar.  
Bir kechada kul qoldirmay yondim men,  
Ko‘nolmadim, hech bo‘lmadi qonishlar.  
Qabog‘imdan sizgani yo‘q yoshlар-yey,  
Boysuntog‘dan yumaladi toshlar-yey.

Mag‘rur tog‘lar bu dam nedan xomushlar,  
Zerikkanday, toriqqanday turishlar.  
Balalikni qay gazaga ko‘mgandik,  
Eslasangiz, bir ko‘rsating tanishlar.  
Bir gardini surtay ko‘z-u qoshlar-yey,  
Boysuntog‘dan yumaladi toshlar-yey.

Shom qavarib, tong oqargan pallalar,  
Ko‘kibiya chayqalardi dalalar.  
To‘g‘donaning shoxida bir belanchak,  
Sog‘inch meni uyqu bermay allalar.  
Qaytmaydimi shoxdan uchgan qushlar-yey,  
Boysuntog‘dan yumaladi toshlar-yey.

Daralarda ozod qulun kunlarim,  
Oyni otga taqa qilgan tunlarim.  
Qani? Ayting, tushuntiring, yupating,  
Og‘alarim, jo‘ra-yu inilarim.  
Taqalangan otman — egik boshlar-yey,  
Ko‘kragimda gursullaydi toshlar-yey.

Alpning hidin olib bo‘zlar Boychibor,  
Bir otchalik ko‘ngling yo‘qmi ey, shunqor?  
Dunyosini bir kissanga joylayman,  
Yuragimda mening shunday shavqim bor.  
Qo‘msab turing dilni dunyodoshlar-yey,  
Boysuntog‘dan yumaladi toshlar-yey.

### ZARBIBI AMMA MATALLARI

Oy — qo‘zisin yo‘qotgan cho‘pon,  
Ma’rab ko‘rar nurlari bilan.  
Qo‘zichog‘i mening gul ko‘nglim  
Achomlashar tushlari bilan.

Oy — ot minib kelayotgan cho‘pon,  
Qor oralab yo‘rttar yo‘rg‘asi.  
Ayoz — bo‘ri, uvullar, ammo  
Ma’ramaydi tog‘lar jilg‘asi.

Qo‘ra olis — ufq ortida,  
Cho‘pon dilgir, oti horigan.  
Mening esa boshimni silar,  
Duduq otam, kafti terlagan.

Sandalgami ko‘ksini berib,  
Matal so‘ylar otam qo‘llari.  
Bosh barmog‘i — to‘ng‘ich bahodir,  
Kazinaga eltar yo‘llari...

Qorachiroq — qushuyqu onam,  
Qora tunni qorday kuraydi.  
Tushlarimning tashqarisida  
Bir qo‘zichoq ojiz ma’raydi.

Samovotda yolg‘iz, salt otliq  
Va minglarcha jondor ko‘zлari.  
Goh ba’zisi o’tadi uchib,  
Ko‘kni bir zum tilar izlari.

Ot dupuri... Sergakdir otam,  
Uydan chiqib tunga kiradi.  
Do‘qillatib etiklarini  
Uy sirtiga tomon yuradi.

Yelkasidan qorni tushirib,  
So‘ng kirishar otam va cho‘pon.  
Qo‘llarida mitti qo‘zichoq,  
Voy, ko‘zлari qop-qora marjon!

Tushlarimda bahor boshlanar,  
Dikir-dikir... O‘tlar qo‘zichoq.  
Ayoz, jondor, boychechak haqda  
Otam, cho‘pon va qorachiroq,  
Suhbatlari bahorday uzoq.

## FAXRIDDIN HAYIT

(1980)

*1980-yil 21-iyunda Qashqadaryo viloyati Yakkabog‘ tumanida tug‘ilgan. “Ilinj”, “Har yurakda bir Vatan”, “Shokoladli tush”, “Ishqim senga havola”, “Tong tushlari” nomli she’riy to‘plamlari chop etilgan.*

### VATAN DEGANI

Osmon, oy-u yulduz, quyosh ham kerak,  
Zarurati bordir tog‘-u toshgacha.  
Biroq men bilganim — qalbda bir bezak —  
Tuproq yo‘lda qolgan izlar boshqacha.

Vatan degani shu bir hovuch tuproq,  
Vatan degani bu — yurakda titroq.  
Zax o‘tib nuragan devor pinjida  
Qordan omon qolib mung‘ayar tandir.

Uni uloqtirgan olov zahmiga  
Bizni odam qilib yaratgan taqdir.  
Vatan degani shu bir hovuch tuproq,  
Vatan degani bu — yurakda titroq.

Bolaligim mening asov tulporcha,  
Oyog‘im shilingan toshga urilib.  
Onam chang ko‘chadan hovuchlagancha  
Tuproqni malham deb bosar egilib.

Vatan degani shu bir hovuch tuproq,  
Vatan degani bu — yurakda titroq.

Ota ulug‘ zotdir, suyanchdir padar,  
El doim ishonar oqillariga.

Tayanib yashayman imkoni qadar  
Otamning purhikmat naqlilariga.  
Vatan degani shu bir hovuch tuproq,  
Vatan degani bu — yurakda titroq.

Kim qanday anglaydi, qanday tushunar,  
Tuproq iforiga to‘la tonglarim.  
Shundan haloldirsan, shunday xokisor,  
Mening ona xalqim bug‘doyranglarim:

Vatan degani shu bir hovuch tuproq,  
Vatan degani bu — yurakda titroq.

## SARATONDA

Qorachiqlariga cho‘g‘ bosar oftob,  
Ayyonda behadik mudraydi qumri.  
Qafasda bedana qiladi xitob:  
Nahotki shu taxlit o‘tadi umrim.

Daraxtda chug‘urchiq qilar xarxasha,  
O‘choqning boshida chumchuq galasi.  
Sokin uy ichida dil qulfin yechar —  
Yangraydi onamning hazin allasi.

Tomning biqinida ovvora momom,  
Tonggi ibodatga ko‘rar taraddud.  
Namsiz lablarida aylanar kalom:  
Tangrim bandalaring gunohidan o‘t.

Qulqoqqa chalinar devor ortidan  
Tunlari ham bedor qizlar kulgusi.

Tomirlarni chertib yurak qatida  
Ulg‘ayar sheryurak yigit g‘ulusi.

Salqin go‘sha izlar olovli fursat,  
Kimdir chekkan bo‘lsa yoz ozoridan.  
Saharlab otlangan bir otam faqat  
Hali qaytgani yo‘q paxtazoridan.

## AYOL

Nozik ta’b, bir shirin jilvangda — dunyo,  
Sen eksang toshda ham gul bitar, Ayol.  
Ba’zan mamlakatni, bir butun xalqni  
Zaminda eng buyuk el etar Ayol.

Tilga shu so‘z kelsa, aytsa bo‘ladi,  
Uning jasorati yov yo‘liga band.  
Vatanga eng sodiq inson bo‘ladi  
Ona mehri bilan ulg‘aygan farzand.

Suyukli yurtdoshim, dildoshim mening,  
Kel, ta’zim aylaylik boshimiz egib.  
Avval onamizga... Balki ming bora...  
Ayvonda o‘tirgan yo‘lga ko‘z tikib.

Hayot yo‘llarida yo‘ldoshi latif,  
Rafiqam, azizam, bunyodkorim.  
Qaddim ta’zimdadir, qalbim ta’zimda  
Unga baxshidadir har yo‘g‘-u borim.

U — shahdi shiddati, iffati aziz,  
U — qaddi kamoli xushro‘y gul misol.  
Shubhasiz dunyoni suyab turibdi,  
Qalbi muhabbatga yo‘g‘rilgan Ayol.

## MUROJAAT

1

Ko‘pchib boraverar yurakda hadik,  
Qalb bir xavotirni tuyayotganday.  
Tasalli izlayman o‘zimga ha deb,  
Men seni yo‘qotib qo‘yayotganday.  
Yomg‘ir yog‘averar tonggacha betin...  
Og‘ir tin oladi ko‘ksimda yurak,  
Dil yorar na bahor nasimlariga.  
Nahotki termilib yashashim kerak  
Kaftimda armonning rasmlariga.  
Yomg‘ir yog‘averar tonggacha betin...  
Qo‘y-a, ishonganim sen deb yuraman,  
Menga hadya etgan hayot totini.  
Men seni shunchalar yaxshi ko‘raman,  
Hatto qarolmayman senga botinib.  
Yomg‘ir yog‘averar tonggacha betin...

2

Osmon, abrlarni parchala osmon,  
G‘ujg‘on yulduzlarni boshim uzra soch.  
Hatto ko‘klam bu yil uyg‘atolmagan  
Daraxt novdasidek sevgim yalang‘och.  
Tumanlar ichida bir mavhum sharpa,  
Zeriktirib qo‘ydi tomchilar sasi.  
Uyg‘otib yubordi meni bu da’fa,  
Nogah ilk sevgining harir nafasi.

## MUHIDDIN ABDUSAMAD

(1982)

*Muhiddin Abdusamad 1982-yilda tug“ilgan. “Onajon”, “U”, “Parvozga shay daraxt”, “Uchayotgan kipriklar” she’riy to ‘plamlari nashr etilgan.*

\* \* \*

...faqat daraxtlarga oshino ko‘nglim,  
faqat daraxtlarga oshiqadirman...

...Mirtemir talpingan mahzun majnuntol —  
Mashrabning patila sochlarimikan?..

...faqat daraxtlardan izladim kalom,  
bir haqning kalomin, hur erk kalomin...

...zaminga sanchilgan patsimon terak —  
Navoiy ushlagan o‘tlig‘ qalammi?..

...yig‘lasa yoshini yutadi daraxt,  
na yerga, na ko‘kka bo‘zlar dodini...

...manov kallaklangan ozurda shotut —  
birorta bechora shoir zotimi?..

...elga ham, yerga ham erkalik qilar,  
samimiyl tushunar aldoqlarini...

...daraxtlar tushunmas modernizmni,  
ko‘z-ko‘z qilaverar barmoqlarini...

...daraxtday tobora ko‘karayapman,  
jonimga ozuqa baxsh etar tuproq...

...qo‘llarimni ko‘kka ko‘tarayapman,  
havoda silkinar sap-sariq yaproq...

## KUTISH

Yo‘llar uzilmadi qadaming tegib,  
Ko‘zim derazaga qorishib ketdi.  
Soxta yo‘lovchilar kirib ko‘zimga,  
Zulmat cho‘mgan dilim yorishib ketdi.

Sendan visolingni qilmayman talab,  
Sendan diydoringni qilmayman tama.  
Ammo shuni faqat tushuntirib ket,  
Sening qiyofangga kirganmi hamma?

\* \* \*

Ota,  
mehnat degani  
bemavrid abr ekan,  
qora sochlaringizga  
hijjalab qor elabdi.

Ona,  
zahmat degani  
qip-qizil shoir ekan,  
qarang, peshonangizga  
satrlar qoralabdi.

\* \* \*

Bu qanday sukunat,  
bu qanday bo‘shliq,  
nechun shams kundan-u oy tundan ayro?!

Tanimni titratib to‘kilar qo‘shiq,  
Vovaylo, vovaylo, vovaylo...

Qancha bo'ldi senga bo'ylamagandim,  
mening tashrifimga intiq g'o r-  
yuragim...  
Istig'for, istig'for, istig'for...

Bu qandayin fasl —  
bahorda kuzak —  
borlig'im,  
vujudim yam-yashil xazon.  
Bir nasim yelmoqda ko'ngilga bezak,  
Ruhafzo, ruhafzo,  
ruhafzo...

\* \* \*

chumolilar nazdida  
sen ham bitta daraxtsan  
yantoq

mening qo'lim ko'kka yetmaydi  
biroq  
mening qo'lim yetgan joy  
chumoli nazdida osmondir  
bilsang

mening qo'lim ko'kka yetmaydi  
yantoq

\* \* \*

Toshlar yog'ayapti,  
yoshlar oqayapti...  
...yuragimga g'ilof tikib ber...

Kiprigimga qo‘nib turgan qor —  
qayiradi dilimni,  
ayiradi dilimni...  
...yuragimga g‘ilof tikib ber...

Cho‘ntagim yirtig‘iday  
so‘kiladi umr,  
to‘kiladi umr  
cho‘ntagim yirtig‘idan....  
...yuragimga g‘ilof tikib ber...

Ko‘zimda o‘t olar o‘tinchim —  
sen ham,  
men ham o‘tkinchi...  
...yuragimga g‘ilof tikib ber...

## NOSIRJON JO‘RAYEV

(1984)

*Nosirjon Jo‘rayev 1984-yili Namangan viloyatining Namangan tumaniga qarashli Sho‘rqa ‘rg‘on qishlog‘ida tug‘ilgan. “Ulg‘ayish kunlari”, “Muhabbatdan so‘ng...”, “Eng qudratli zarra”, “Aksincha” kabi she’riy kitoblari, “Noyabr kuyi”, “Kibor” nomli qissasi e’lon qilingan.*

## BAHOR ESHIK QOQOLMAYDI JIM...

Bahor eshik qoqolmaydi jim  
Ostonamda turar boladay.  
Uyda esa bir issiq kiyim,  
Atay chiqib ketmas xonadan.  
Qo‘llarimga chirmashar sharf,  
Qunduz yoqa suykalar yuzga.  
Va der — Meni sevishingiz shart,  
Tupurdim shu bahoringizga.  
Oh, ayozning ovozi o‘ktam,  
Ul ayozki, mening zo‘r xatom.  
To‘rt devorning naryog‘i ko‘klam,  
Faqat uyim to‘la qahraton.  
Bahor kirar, mo‘ltiraydi jim,  
Aldangandek xuddi boladay.  
Axir. Axir... bir issiq kiyim  
Menga joy solyapti xonada.

## NAMANGAN

Har gal qaytganimda bu qora yerga,  
Shahar oq yaktakda qoshimga chiqar.  
Chuqur tin oladi menga bildirmay,  
Boshimdan o'tganin ko'zimdan uqar.

Men esa zil ketib boraman, ya'ni  
Ko'ksimga qo'rg'oshin quyulyotganday.  
Sog'indim deganim, keldim deganim  
Unga minnat bo'lib tuyilyotganday.

Namangan onamga o'xshagan shahar,  
Onamdek yashirib o'tding dardingni.  
O'g'ling kelyapti deb eshitgan mahal,  
Ro'moling uchiga yoshing artdingmi?

Boqsam, yuzingdagi quyuq ajindan,  
Bo'lak-bo'lak bo'lib ilg'anar tarix.  
Jangda arqon uchun kesgan sochingday,  
Qoradaryo bo'lib to'lg'onar tarix.

Patqalamda qo'yib gajakdor imzo,  
Fitnalar tuzganda Ahmad Tanballar  
Axis qirlaridan Umarshayx Mirzo  
Har kun qulab tushar yurak changallab.

Mulla Bozor Ohund — ko'hna pirhona,  
Qancha avliyoga mudarris, ustoz.  
Shikoyatxonamas, shoir, she'rxona  
Bo'lgan kunlaringda yayraganing rost.

Qaysi bir muazzam, qutlug' saharda  
Xudo ixlos bilan qorgan zuvala.  
Shundanmi, har kuni Eski shahardan —  
Bomdoddan qaytadi Mashrab buvalar.

Bugun ikki qadam biz bilan Sibir,  
Borib qaytish mumkin bir kun ichida.  
Ammo hanuz Usmon yo'l qarar dilgir,  
Tuynukdan termilib oyoq uchida.

Hayot qayta-qayta yasharar ekan,  
Takror-takror orzu to'larkan dilga.  
Bugun oliyogohga qatnagan ukam  
Ibrat domla bo'lib ko'rinar menga.

Namangan — men uchun bir umrlik yo'l,  
Namangan, men uchun barhayot gulshan.  
Onajon, men endi ulg'aygan o'g'il,  
Ko'z yoshing yashirma yoningga kelsam.

### BIR SAHAR UYG'ONDIK...

Bir sahar uyg'ondik ulkan qalb bilan,  
Xuddi avliyolar kirgandek tushga.  
Buyuk bir iqrorni aytdik zarb bilan,  
Sabrimiz yetmadi kuzni kutishga.

Bizning quvonchlarga yo'q edi tashbih,  
Boshimizga baxtlar yog'di ustma-ust.  
Hammani unutdik!  
Bermasdan tanbeh,  
Jimgina uyiga jo'nadi avgust.

Kuz keldi. Etigin loyini qoqdi.  
Xazonrez kunlarga ochdim quchog'im.  
Sening ko'zlaringga bu rang ham yoqdi,  
Sarg'aydi dunyoning milliyonta bog'i.

So'ng uch oy aldadi bizni bu fasl,  
Uch oy boshimizda aylandi to'zon.

Senga za'faron rang qilmadi ta'sir,  
Menga ma'qul keldi bir dunyo xazon...

Bir sahar uyg'ondik.  
Hamma yoq oppoq.  
Lol qoldik — bu olam shuncha bo'm-bo'shmi!  
Va birdan tushundik, qilmadik oh-voh,  
Eslab o'tirmadik hech qaysi tushni.

Bo'yningni o'rading oppoq sharf bilan,  
Etigimni kiydim.  
(Qayga shoshamiz!)  
Tongni kutayapmiz bitta shart bilan:  
Ertaga abadiy xayrlashamiz.

\* \* \*

Bodom gullaridek hilviroq va oq  
Yurak bilan shamollarga yuzlandim.  
Musht tugsam — kurtakdir,  
Kaft yozsam — yaproq,  
Bahor bo'lib chamanlarga yuzlandim.

Har bir hujayramga nur qadab quyosh,  
Keyin o'zimni ham nur atab quyosh,  
Qoshimda o'lтирар boадаб quyosh,  
Men shu yorug' томонларга yuzlandim.

Bodom gullaridek bisyor va bir xil  
Kunlarga rang bermoq bo'lmaydi yengil.  
Ey Xudo, tilimni dilimga bir qil,  
Najot so'rab osmonlarga yuzlandim.

Hayot — Odam Ato nom qo'ygan maydon,  
Balki bu maydonda qadamim mayda.

Lek o‘tmishim dilda, ertam manglayda,  
Bugun hamma zamonlarga yuzlandim.

## HIJRONNING HAR KUNI...

Taqvim — hijron uchun tuzilgan jadval,  
Qatma-qat uyilib borar sensiz kun,  
Bilmadim, kim edim sevmasdan avval,  
Odamga aylandim muhabbatdan so‘ng.

Hijronni har kuni qonga yuqarkan,  
Alvon rangga kirdi o‘n ikki oyim.  
Mening o‘tmishimni yo‘qqa chiqargan  
Taqvimga la’natlar bo‘lsin iloyim!

Kuzning xazonini ko‘rmadim birga,  
Elkamni qor bossa, o‘zim qoqindim.  
Xudo azob qilib har kuni bergen  
Har gulning hidida seni sog‘indim.

Nihoyat, ko‘z yumdi eng so‘nggi uchqun,  
Umidlar tirilmas xato haqqiga.  
Vaqtidan kechikkan to‘g‘ri so‘z uchun  
Qasam ichmay qo‘ydim xudo haqqiga.

Yolg‘iz bormoqdamon oppoq tumanda,  
Kaftim orqasiga ko‘z yoshim artib.  
Eslash, sog‘inishdan bezgan zamonda  
Mening o‘tmishimni kim tushunardi...

## MUNDARIJA

O'zbek zamonaviy she'riyatiga chizgilar. ( <i>Ulug'bek Hamdam</i> ).....	3
Abdurauf Fitrat .....	12
Elbek .....	17
Botu .....	21
Sharof Rashidov .....	24
Shuhrat .....	29
Shukrullo .....	34
Ramz Bobojon .....	38
Mirmuhsin .....	41
Jumaniyoz Jabborov .....	44
Olimjon Xoldor .....	49
E'tibor Oxunova .....	53
To'ra Sulaymon .....	57
OXUNJON Hakim .....	63
Yo'Idosh Sulaymon .....	67
Erkin Samandar .....	72
Miraziz A'zam .....	76
Yusuf Shomansur .....	80
Ma'ruf Jalil .....	84
Oshiq Erkin .....	88
Barot Boyqobilov .....	92
Gulchehra Jo'rayeva .....	95
Cho'lpon Ergash .....	100
Jamol Kamol .....	106
Tursunboy Adashboev .....	110
Ergash Muhammad .....	115
Mashrab Boboyev .....	119
Qambar Ota .....	124
Habib Sa'dulla .....	128
Muhammad Ali .....	132
Toshpo'lat Ahmad .....	136
Oydin Hojiyeva .....	141
Shafoat Rahmatullayev .....	145
Abdulla Sher .....	149
Tursunoy Sodiqova .....	154
Nosir Muhammad .....	158
Sulaymon Rahmon .....	162
Anvar Obidjon .....	166

Sadriddin Salim Buxoriy .....	170
Ismoil Mahmud Marg'iloniy .....	174
Matnazar Abdulhakim .....	177
Azim Suyun .....	181
O'tkir Rahmat .....	185
Mirpo'lat Mirzo .....	189
Muhammad Rahmon .....	193
Usmon Azim .....	197
Yo'ldosh Eshbek .....	201
Xosiyat Bobomurodova .....	205
Ismoil To'xtamish .....	208
Sa'dulla Hakim .....	213
Ikrom Otamurod .....	218
Maqsuda Ergasheva .....	222
Sharifa Salimova .....	225
Shukur Qurbon .....	230
Xurshid Davron .....	234
Tursun Ali .....	238
Qutlibeka Rahimboyeva .....	243
Mahmud Toirov .....	247
Muhtarama Ulug'ova .....	252
Tohir Qahhor .....	256
Usmon Qo'chqor .....	260
Muhammad Yusuf .....	264
Enaxon Siddiqova .....	269
Mirzo Kenjabek .....	274
Farida Afro'z .....	278
Bahodir Iso .....	282
Ibodat Rajabova .....	284
Abdumajid Azim .....	288
Chori Avaz .....	291
Yahyo Tog'a .....	295
Sirojiddin Sayyid .....	299
Asqar Mahkam .....	305
Zulfiya Mo'minova .....	310
Farog'at Kamolova .....	315
Ravshan Fayz .....	320
Odil Ikrom .....	324
Abduvali Qutbiddin .....	329
A'zam O'ktam .....	334
Halima Ahmedova .....	338
Amirqul Karim .....	344

Abdulla Qo'shboq .....	347
Gavhar Ibodullayeva .....	351
Bahrom Ro'zimuhammad .....	355
Aziz Said .....	359
Eshqobil Shukur .....	364
Abdurahmon Akbar .....	368
Faxriyor .....	371
Vafo Fayzulloh .....	375
Muhiddin Omon .....	379
Rustam Musurmon .....	384
G'ulom Mirzo .....	389
Humoyun .....	393
Salim Ashur .....	397
Zebo Mirzayeva .....	402
Minhajiddin Mirzo .....	410
Munavvara Usmonova .....	414
Jamoliddin Muslim .....	418
Shermurod Subhon .....	422
Iqbol Mirzo .....	425
Sirojiddin Rauf .....	429
Xurshida .....	434
Habib Abdunazar .....	437
Kosiyat Rustamova .....	442
Ikrom Iskandar .....	446
Gulandom Tog'ayeva .....	451
Muhammad Siddiq Rahmatov .....	455
Vohid Luqmon .....	459
Go'zal Begim .....	463
Bektemir Pirnafasov .....	468
Farog'at Xudoyqulova .....	472
Farhod Arziyev .....	476
Botirjon Ergashev .....	480
Nodir Jonuzoq .....	485
G'ayrat Majid .....	489
Guljamol Asqarova .....	494
Gulnoz Mo'minova .....	498
Shodi Otamurod .....	502
Oydinniso .....	506
Shodmonqul Salom .....	513
Faxriddin Hayit .....	520
Muhiddin Abdusamad .....	524
Nosirjon Jo'rayev .....	528

O' 16 O'zbek zamonaviy she'riyati antologiyasi [Matn]: nazm/to'plovchi va nashrga tayyorlovchi Muhammad Siddiq Rahmatov. – Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2022. – 536 b.  
ISBN 978-9943-8569-9-8

UO'K 821.512.133.09-1  
KBK 83.3(5O')



# O'ZBEK ZAMONAVIY SHE'RIYATI ANTOLOGIYASI

32-jild

*Adabiy-badiiy nashr*

Muharrirlar: *Sunnat Xo'jaahmedov,*  
*Dildora Abduraimova*

Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*

Dizayner *Bobur Tuxtarov*

Texnik muharrir *Yelena Tolochko*

Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*

Musahhih *Malohat Ibragimova*

Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva,*  
*Islom Azamatov*

Tasdiqnomalar raqami № 4642. 22.07.2020-y.

Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90  $\frac{1}{16}$ .  
Offset qog'oz'i. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 33,5. Nashriyot-hisob tabog'i 24,78.

Adadi 1 185 nusxa. Shartnomalar № 100-1/22. Buyurtma raqami № 22-315.

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi  
huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining  
"O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.  
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.  
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.



TURKIY ADABIYOT  
DURDONALARI

O'ZBEK  
ZAMONAVIY  
SHE'RIYATI  
ANTOLOGIYASI